O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA KAFEDRASI

KASBIY PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA

fanidan o‘quv - uslubiy majmua

Bilim sohasi: **100 000-Gumanitar soha**

Ta'lim sohasi: **150 000-San'at**

Ta'lim yo’nalishi: **5150600-Vokal san’ati**

5150700-Cholg‘u ijrochiligi

Guliston – 2022

Kasbiy pedagogika va psixologiya fanidan tayyorlangan o`quv–uslubiy majmua. Guliston. 2022. – 284 b.

Ushbu o’quv-uslubiy majmua 5150600-Vokal san`ati va 5150700-Cholg`u ijrochiligi bakalavryat ta’lim yo’nalishida ta’lim olayotgan talabalarga mo’ljallangan. O’quv-uslubiy majmua Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan 2020-yil 14-avgustda tasdiqlangan Kasbiy pedagogika va psixologiya fani dasturi asosida tayyorlanib, unda kasbiy pedagogika va psixologiya fanining mohiyati, rivojlanishi, bilish jarayonlari, ta`lim-tarbiya jarayonini to`g`ri tashkil qilishning yoshga bog`liq mexanizmlarini o`z ichiga qamrab oladi.

Tuzuvchi: Pedagogika kafedrasi o`qituvchisi Ibragimova SH.K.

Taqrizchilar: ped.f.n., professor Abdukarimov X.
ped.f.n., dotsent Toshtemirov D. E.

Mazkur o’quv-uslubiy majmua OO`MTVning 2017-yil 1-mart 107-sonli buyrug`i bilan tasdiqlangan «Oliy ta`lim o`quv rejalari fanlarning yangi o`quv majmualarini tayyorlash bo`yicha uslubiy ko`rsatma» asosida yaratildi.

O`quv-uslubiy majmua Guliston davlat universiteti O`quv metodik Kengashi tomonidan ko`rib chiqilgan va o`quv jarayonida qo`llashga tavsiya etilgan.

(2022-yil 29-avgust, № 1 bayyonoma)

MUNDARIJA

KIRISH.....4-5

O'QUV MATERIALLARI (ma'ruza mavzulari va mazmuni, amaliy, seminar va laboratoriya ishlarini bajarish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar).....6-244

MUSTAQIL TA'LIM MASHG'ULOTLARI 245-246

GLOSSARIY 247-254

ILOVALAR

Fan dasturi.....255-256

Ishchi fan dasturi.....257-265

Tarqatma materiallar……266-274

Test savollari..... 275-282

Baholash mezonlari bo`yicha uslubiy ko`rsatmalar…….283-284

KIRISH

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan davrdan boshlab jamiyatimizning barcha sohalaridan bo‘lgani kabi ma’naviy-ma’rifiy sohada ham ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonunda pedagoglar oldiga qo‘yilgan vazifalarning eng muhimlaridan biri har tomonlama kamol topgan, xalqimizning milliy an’analarini o‘zida mujassam etgan, erkin fikrlovchi, go‘zal axloqli shaxsni tarbiyalash belgilangan.

Fanning maqsadi va vazifasi:	Fanning maqsadi - tayyorlayotgan mutaxassislarimizga pedagogik bilimlar, uslubiy ko‘rsatmalar berish bilan birgalikda jamiyatda mavjud bo‘lgan turli kasblar haqida ham keng qarovli bilimlar berish. Fanning vazifasi - kasbiy pedagogika orqali shakllanayotgan mutaxassislarda kasbga oid nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikma va malakalar shakllantirilib borilishi nazarda tutilgan. Kasbiy pedagogika fanida talabalarga kasb-hunar egallashning ijtimoiy-tarixiy va metodologik muammolari, buyuk ajdodlarimizning kasb haqidagi fikrlari, uning tadqiqot metodlari, kasb tanlashga yo‘llashning psixologik mohiyati, professiografiya, kasb va shaxs masalalari, reorientatsiya – psixologik muammo sifatida va boshqa ma’lumotlar beriladi.
Talabalar uchun talablar	- o‘qituvchiga va guruhdoshlarga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo‘lish; - institut ichki tartib - intizom qoidalariga rioya qilish; - uyali telefonni dars davomida o‘chirish; - berilgan uy vazifasi va mustaqil ish topshiriqlarini o‘z vaqtida va sifatli bajarish; - ko‘chirmachilik (plagiat) qat’iyan man etiladi; - darslarga qatnashish majburiy hisoblanadi, dars qoldirilgan

	holatda qoldirilgan darslar qayta o‘zlashtirilishi shart; - darslarga oldindan tayyorlanib kelish va faol ishtirok etish; - talaba o‘qituvchidan so‘ng, dars xonasiga - mashg‘ulotga kiritilmaydi; - talaba olgan bahosidan norozi bo‘lsa e’lon qilingan vaqtdan boshlab 1 kun mobaynida apellyatsiya komissiyasiga murojat qilishi mumkin
Elektron pochta orqali munosabatlar tartibi	Professor-o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi aloqa elektron pochta orqali ham amalga oshirilishi mumkin, **telefon orqali baho masalasi muhokama qilinmaydi, baholash faqatgina institut hududida, ajratilgan xonalarda** va dars davomida amalga oshiriladi. Elektron pochtani ochish vaqti soat 15.00 dan 18.00 gacha

1

MA'RUZA MATNLARI

"KASBIY PEDAGOGIKA" FAN SIFATIDA, KASBIY TA'LIM PEDAGOGIKASINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

Reja:	1.1. O'zbekiston Respublikasi umumiy va kasbiy ta'lim tizimi islohotlari, kasbiy tayyorgarlikning mazmun mohiyati. 1.2. Kasbiy pedagogikaning tarixiy taraqqiyoti va falsafiy metodologik asoslari. 1.3. Fanining maqsad va vazifalari.

Tayanch iboralar: *kasbiy, pedagogika, rivojlanish, shaxs kasbiy va shaxsiy talablar, ta`lim tizimi, taraqqiyot maqsad, vazifa. Kasbiy ta`lim pedagogikasi ijtimoiy, taraqqiyot, iqtisodiy, tarixiy ma`naviy, madaniy, falsafiy.*

1.1.O'zbekiston Respublikasi umumiy va kasbiy ta'lim tizimi islohotlari

«Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunlari milliy tajribaning tahlili va ta'lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan bo'lib, yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri ola bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir mutaxassis kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgandir. Dastur kadrlar tayyorlash milliy modelini ro'yobga chiqarishni, har tomonlama kamol topgan, jamiyatda, turmushga moslashgan, ta'lim va kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda tanlash va keyinchalik puxta o'zlashtirish uchun ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, psixologik-pedagogik va boshqa tarzdagi sharoitlarni yaratishni, jamiyat, davlat va oila oldida o'z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalashni nazarda tutadi.[1]

[1] Каримов И.А. Баркамол авлод - Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори.-Т.: «Ўзбекистон», 1997.

«Ayniqsa o‘sib kelayotgan avlod taqdiriga hech kim befarq qaray olmaydi (I.Karimov). Bunda oliy o‘quv yurtlarining ahamiyati kattadir. Yoshlarni qay usulda o‘qitish, ularni tarbiyalash, mustaqil mamlakatning yetuk mutaxassislari bo‘lishiga qayg‘urish har birimizning muqaddas burchimizdir. Bunda oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimi saviyasini jahon andozalari darajasiga yetkazish, xalq xo‘jaligida mutaxassisliklarga bo‘lgan talab va ehtiyojlarni ilmiy tahlil asosida aniqlash, xorijiy mamlakatlar tajribasidan oqilona foydalanish shu kunning dolzarb vazifalaridandir».[1]

Kishilar tomonidan amalga oshiriladigan barcha jarayonlar kabi ta’lim-tarbiya ishi ham ushbu qonuniyatga to‘liq bo‘ysunadi. Demak, ta’lim-tarbiya ishi ma’lum me’yorlar doirasida amal qiladi. Bu me’yorlarsiz ta’lim-tarbiya ishi mazmun, shakl, zamon, makon hamda natijalar nuqtai nazaridan samarasiz bo‘ladi. Maxsus ta’lim muassasalarida amalga oshiriladigan ta’lim-tarbiyaviy ishlar aniq maqsadni ko‘zlab reja asosida amalga oshiriladi.

Kasb ta’limi o‘qituvchisiga mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘lish talabi ularning kasbiy tayyorgarlik darajasining yuqori bo‘lishiga ishoradir. Shu o‘rinda ijtimoiy-pedagogik shart-sharoit, muhit bir vaqtning o‘zida kasbiy pedagogik rivojlanishni talab etuvchi motiv va rag‘bat bo‘lib xizmat qilishini yodda tutish zarur.

Barcha turdagi ta’lim muassasalarida, ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etuvchi, amalga oshiruvchi va uning natijalarini nazorat etib, baholovchi asosiy shaxs o‘qituvchi hisoblanadi. Kasb-hunar ta’limi o‘qituvchisining ishi juda murakkab ko‘rinishdagi inson-inson, inson-texnika va texnologiya munosabatlariga tegishli. Chunki kasbiy pedagogik jarayon ishtirokchilari hamkorlik nuqtai nazaridan chegaralangan.

Pedagogik vazifa – kasbiy bilim va ish-harakat usullarini qo‘llash borasidagi faoliyatni amalga oshirishdir. Buning natijasi o‘laroq o‘quvchi ta’lim oladi, tarbiyalanadi va ma’lum ma’noda rivojlanadi.

“Bugungi kunda o‘qituvchining bosh vazifasi ta’lim-tarbiya, shaxsni shakllantirish va rivojlantirish, jarayonlarni rejalashtirish, amalga oshirish, natijalarni nazorat etish hamda baholash hisoblanadi. Shu ma’noda zamonaviy o‘qituvchi faoliyati faqat o‘qitish emas, balki, o‘qib-o‘rganishga yo‘naltirish, tarbiyalash emas, balki tarbiyalash jarayonlarini boshqarishga qaratilgan. Shuning uchun ham pedagog murabbiyni Suqrot – “fikrlar doyasi” deb atagan edi”[1]. Demak o‘qituvchi tayyor ma’lumotni yetkazishi emas, balki o‘quvchilar ongida tushuncha, tasavvur, xulosa hosil qilishi zarur.

---

[2] Каримов И.А. «Илм – зиё салоҳияти – юрт бойлиги» маърузасидан // Маърифат газетаси. 1993 йил 21 июл.

[1] Абдуқудусов О, Рашидов Ҳ. Касб-ҳунар педагогикаси. Ўқув-услубий қўлланма. Тошкент-2009. 57 б.

Ma'lumki jamiyatimizdagi tarkibiy o'zgarishlar o'z navbatida mutaxassislar malakasi va mahoratini yuqori bo'lishini, mutaxassislarga bo'lgan talabning o'zgarishiga moslashuvchan, o'z malakasini oshirishga intiluvchan bo'lishni talab edi. Buning uchun bo'lajak mutaxassislarni mustaqil izlanish, fikrlash, turli qarashlarni taqqoslash, tahlil qilish, xulosa chiqarishga o'rgatish lozim. Respublikamizning iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy jihatdan ravnaq topishida, bu sohalardagi muammolarni hal qilishimizda ham milliy kadrlar bosh omillardan biri bo'ladi»[2].

Bugungi kunda Respublikamizda ta'limni rivojlantirishning yangi bosqichida kasbiy ta'limning asosiy vazifasi sifatida jahon talablari darajasida yangilanib borayotgan ishlab chiqarish sharoitlariga moslasha oladigan, iqtisodiyotimizni buyuk davlat darajasiga ko'taradigan mutaxassislarni tayyorlash va bu jarayonda asosiy omil sifatida beriladigan axborotlar hajmini emas, balki ijodiy yondoshuvni shakllantirish, mustaqil fikrlash va tatbiq qilish sifatlarini tarbiyalashga e'tibor qaratish lozim.[2]

Kasbiy ta'lim fani bizga, ya'ni O'zbekiston mustaqilligining birinchi yillaridan kirib keldi. Chunki, qo'llanayotgan tajribalar kasbiy ta'limning asosi bo'lib xizmat qiladi. Talabalarimizga kasbiy ta'lim, kasbiy tarbiya berish muammolari ko'zga tashlanib qoldi. Har bir insonning hayoti asosini kasbiy faoliyat tashkil etar ekan, u albatta har bir odamdan kasbiy layoqatlilik talab qiladi. Ayniqsa, bozor iqtisodiyoti sharoitida bu talab yanada kuchayib bormoqda. Shuning uchun ham bo'lajak mutaxassislarga yoshlikdan boshlab ya'ni umumiy o'rta ta'lim maktabidan boshlab, kasbiy bilim asoslarini o'rgatishga kirishildi[2].

Oliy o'quv yurtining talabalari, ayniqsa kasbiy ta'lim yo'nalishidagi talabalar esa kasbiy malaka, iqtisodiy fikrlashni o'rganibgina qolmay, keng doiradagi muammolarni aniqlash, tahlil qilish, iqtisodiy rivojlanish tendensiyalariga baho berish, bu o'zgarishlar kelajakda qanday natijalarga olib kelishini ko'z o'ngida keltira bilishni o'rganishi zarur.

Shunday qilib, bugungi kunda siyosatning asosiy muammolaridan biri bu kasbiy tayyorgarlik bo'lib, ularni tushunmay turib, bu muammolarni yechish uchun zarur chora-tadbirlar belgilab yoki berilgan maslahatlarning qaysi biri diqqatga sazovor ekanligini ajratib bo'lmaydi. Buning uchun esa bo'lg'usi kasb ta'limi o'qituvchilari mutaxassislik fanlarini chuqur bilishlari va amaliyotda qo'llashlari davr talabidir.

---

[2] Каримов И.А. «Замонавий кадрлар тайёрлаш – ислоҳотлар муваффақиятининг асоси» нутқидан. «Маърифат» газетаси. 1998 йил 28 январ

[2] Gulomov S.S. Tadbirkorlik va kichik biznes.-T.: «Sharq», 2002.

[2] Inomov I. Iqtisodiy tarbiya nazariyasi. – T.: TDIU, 2005.

1.2. Kasbiy pedagogikaning tarixiy taraqqiyoti

Mehnat va kasbiy tayyorgarlik tizimi bevosita yoshlarning mehnat va kasb tarbiyasini kasbiy axborotlar, kasb tanlash, kasbga yo‘naltirish ishlarini amalga oshiradigan ulkan ishlardan biri bo‘lib, o‘z o‘tmish taraqqiyotiga egadir. Xalqimizning millat, elat bo‘lib shakllanishini mehnatsiz, kasblarsiz, hunarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Odamzod paydo bo‘lishidan boshlab mehnat bilan shug‘ullangan. Turmush buyumlari yasagan yumushlar bajargan. Dastlab faqat kun kechirish uchun qilingan mehnat keyinchalik, kattoroq maqsadni, moddiy manfaat ko‘rish uchun amalga oshirilgan.

XII-XV asrlarda Movarounnaxr va Xurosonda hunar ilmi, ko‘lami rivojlanishi eng yuqori pog‘onaga ko‘tarildi. Xar bir xalq ota-bobosidan meros bo‘lib, avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan o‘zining tarixiy-madaniy birligi bilan ajralib, o‘ziga xos-xususiyatlarni saqlab kelgan. O‘zbeklar ham shular jumlasidandir. Respublikamiz xududida o‘tkazilgan arxeologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, hunarmandchilik bu yerlarda ikki ming yillar oldin rivojlangan. Bu davrda sinfiy jamiyat paydo bo‘lib, yirik mehnat taqsimoti negizida hunarmandchilik mustaqil soha bo‘lib ajralib chiqqan.

IX-XII asrlarda hunarmandchilik keng rivojlanib, xalqimizning xorijiy davlatlar bilan iqtisodiy-madaniy aloqalari avj olgan. Ayrim manbalarda qayd etilishicha, 32 xil hunar turi mavjud bo‘lgan aholi yashaydigan joyni shahar deb atashgan. 1897 yili birinchi aholi ro‘yxati vaqtida katta shaharlarda aholining ko‘pchilik qismi hunarmandlar hisoblangan. Masalan, Namangan aholisining 64 foizi, Qo‘qonning 52 foizi, Chustning 54 foizi, Marg‘ilonning 50 foizi, mustaqil kasb-hunar egasi hisoblangan[3].

Hunarmandchilikning qadimiy davrlarda eng ko‘p tarqalgan turi temirchilik, zargarlik, misgarlik va tunukasozlik bo‘lgan. Hozirgacha keng tarqalgan qadimiy kasblardan biri yog‘och buyumlari yasash hunarmandchiligidir. XX asr boshlarida tikuv mashinalarini paydo bo‘lishi bilan yangi hunarmandchilik kasbi - mashinachilik yuzaga keladi. O‘zbeklarning eng keng tarqalgan uy kasblaridan biri do‘ppido‘zlikdir.

Bulardan tashqari, hunarmandlar teridan har xil buyumlar yasaganlar, poyafzalchilar o‘z mahsulotlarini shahar va qishloqlarda yurib aholiga sotganlar. Nonvoylik, qandolatchilik va qassoblik ham kasblardan bo‘lib ularning do‘konlari har qadamda uchragan. Katta to‘y-ma’rakalar o‘tkazish
odati maxsus oshpazlik kasbini yuzaga keltirgan.

Sharqning buyuk mutafakkirlari, allomalari deyarli barcha davrlarda o‘z asarlarida, she’r va g‘azallarida, adabiy meroslarida halol mehnatni, kasb-hunar egallashni muqaddasligini va zarurligini ta’kidlab, ulug‘lab o‘tganlar.

---

[3] И.Жабборов. Ўзбек халки этнографияси. Т.,1995.

Ulug‘ bobokalonimiz A.Navoiy o‘z g‘azallarida yoshlarni ilm-hunar egallashga chaqiradi.

Ilm kasbini qildi to joni bor,
Hunar o‘rgandi onga ki imkoni bor.

X asrda yashab ijod etgan ulug‘ bobokalonimiz Abunasr Al - Forobiy ham kishilarni halol mehnat qilishga va kasb-hunar egallashga chaqiradi. Forobiyning fikricha, inson - "Ojiz banda", "Hech narsaga qodir bo‘lmagan mavjudot" emas, balki u eng oliy kamolot bo‘lib "Aql-idrok ziyosiga ega, o‘zi uchun zarur bo‘lgan hamma narsani yaratishga qodir borliqdir"[4]. Forobiy mehnat va kasb - hunar qo‘nikmalarini axloqiy fazilatlarni hosil qilish lozimligini ta’kidlab: "Agar kasb-hunar fazilati tug‘ma bo‘lganda, podshohlar ham o‘zlari istab va harakat qilib emas, balki podshohlik ularga faqat tabiiy ravishda muyassar bo‘lgan, tabiat talab qilgan tabiiy bir majburiyat bo‘lib qolar edi. Kasb-hunar fazilati tug‘ma bo‘lmas ekan, xalqlar va shahar ahllarida, odob-axloq, rasm-rusm, kasb-hunar, odat va irodani hosil qilishi uch insondagi zo‘r kuch va qudrat talab qilinadi. Bu ikki yo‘l bilan: ya’ni ta’lim va tarbiya yo‘li bilan hosil qilinadi. Ta’lim degan so‘z xalqlar shaharlar o‘rtasida nazariy fazilat va amaliy kasb-hunar fazilatlari birlashtirish degan so‘zdir" degan edi[5].

Kasb-hunar egallashni ahamiyati to‘g‘risida qomusiy olim Abu Ali Ibn Sino (980-1037)ning asarlarida ham ko‘ramiz. Uning fikricha bolaga yoshligidan biror kasb-hunarni o‘rgatish lozim. Bola kasb-hunarni ma’lum darajada o‘zlashtirib bo‘lgandan so‘ng o‘z kasb-hunaridan hayotda foydalanish, yani halol mehnat bilan mustaqil hayot kechirishga o‘rgatish kerak.

"Yoshlarga ilm bera borib, ularga hunar o‘rgatmoq muhim ma’suliyatli ishdir. Hunar o‘rganish birla yoshlar har qanday nojo‘ya hatti-harakatlardan holi bo‘ladilar"[6], deb takidladi. Hunarli bo‘lishga chorlangan nasihatlari hozirgi kunda ham muhim qimmatga ega:

Oltin olmaginu o‘rgangin hunar
Hunarni oldida xasdir oltin zar[7].

Sharq, Markaziy Osiyolik mutafakkirlar hamda o‘zbek marifatparvar shoirlari ham kasb-hunar egallashni ahamiyati to‘g‘risida o‘z asarlarida qimmatli maslahatlarini qoldirganlar, bu meros hozirgi kunda ham yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirishda muhim ahamiyatga ega.

---

[4] М.Хайруллаев. Фаробий. Т., 85 бет.

[5] Хикматлар гулдастаси. Т., 1982. 53 бет.

[6] Абу Али Ибн Сино Таьлим ва тарбия пакида Т. 1967. 9-бет .

[7] Ўша ерда 9 бетда

Insoniyat tarixiy taraqqiyotida Sharqu - G‘arbda ham yoshlarni kasb-hunar egallashlariga alohida e’tibor bilan qaralgan. Ularni kasb-hunar egallashlariga otalik, ustozlik maslahatlarini, yo‘l-yo‘riqlarini muntazam berib kelganlar. Rasman kasbga oid maslahat idoralari asrimiz boshlarida paydo bo‘la boshlagan.

Tarixiy ma’lumotlarga asoslanib aytishimiz mumkinki, kasbga yo‘naltirish ishlari qadimdan shakllanib kelgan.

O‘qituvchilar talabalarning qaysi rivojlanish davrida qanday anglashlari haqida qisman bilimga ega bo‘lishlari kerak. Muhimi shuki, o‘qituvchi bolaning har bir rivojlanish davrida eng yaxshi o‘rganish qobiliyatini bilishi kerak.

O‘quvchilarning ilk bolalik davridagi jismoniy, hissiy va ijtimoiy rivojlanish bosqichlarini o‘rganish orqali kasbga yo‘naltirish ishlari o‘rganiladi. Har bir rivojlanish me’yori boshqa me’yorlar ta’siri ostida bo‘ladi. Shunga qaramay, hozirgi kunda ta’lim beruvchi kutilayotgan bilimlarni va bu bilimlar bolaning rivojlanishiga qanday ta’sir qilishini bilishlari kerak. O‘quvchilarning yosh davrlariga mos ravishda ularning rivojlanishi to‘g‘risida o‘qituvchilarda keng va to‘liq bilimlar bo‘lishi shart. O‘qituvchi qaysi rivojlanish davrida o‘quvchilarning o‘zlashtirishi yuqori bo‘lishini bilishi kerak. Bola rivojlanishida asosiy urg‘u bu bola rivojlanishining barcha sohalarining (jismoniy, ijtimoiy va akademik) birlashganligidadir. Har xil omillar ta’siri natijasida bola rivojlanishi o‘zgaradi. Hozirgi zamon pedagogi bolaning barcha sohadagi rivojlanishiga ta’sir ko‘rsata olishi kerak[8].

Respublikamiz ta’lim tizimidagi islohotlar natijasida kasbiy ta’lim ishchi kasblariga maxsus tayyorlash masalasiga, ta’lim oluvchi shaxsida kasbiy mahorat va layoqat sifatlarini shakllantirishga alohida e’tibor berilmoqda. O‘quv standartlariga javob berish juda muhim masalalardan hisoblanadi. Ta’lim muasssasasi bolalarni vaqtni boshqarishi, maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatini amalga oshirishi lozim. Lekin o‘qituvchilar bu ko‘nikmalarni o‘rgatish haqida aytishlari lozim. Eng yaxshi ta’lim olish uchun asosiy faoliyat bu talabalarning amaliyoti hisoblanadi[9].

XXI asr bo‘sag‘asida ijtimoiy iqtisodiy munosabatlar rivojida inson aql-zakovati va ma’naviyati asosiy muvofiqlashtiruvchi, rivojlantiruvchi omil va vosita ekanligi tobora namoyon bo‘lmoqda. Shuning uchun insonparvarlik bozor iqtisodiyoti asosidagi huqquiy, demokratik davlat erkin fuqarolik jamiyati qurilishining bosh tamoyili sifatida qabul qilinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonunida (2020 y.23-sentyabr) ta’lim davlatimiz ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor deb e’lon qilinishi

---

[8] Sharon A. Wynne. Pedagogy professional responsibilities. EC-12 Teacher Certification. 2013. 1-бет.

[9] Sharon A. Wynne. Pedagogy professional responsibilities. EC-12 Teacher Certification. 2013. 16-бет.

pedagogika fani zimmasiga juda katta mas'uliyatli ulug'vor vazifalarni yukladi. Juda boy ilmiy, ma'naviy, madaniy, diniy merosimizni qayta tiklanishi ularni zamon ruhi talabi bilan uyg'unlashtirib faqat shaxsiy, milliy manfaat kasb etilib qolmasdan umumjahon ma'naviy, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ulkan hissa bo'lib qo'shilmoqda.

Har bir mustaqil fan o'zining predmeti (mavzusi) va metodologik asoslariga egadir. Jumladan, Kasb pedagogikasi ham fan sifatida shakllanib o'zining predmetiga ega bo'ldi. Boshqa fanlar kabi kasb pedagogikasi ham fan sifatida paydo bo'lar ekan, u avvalo jamiyatning talab va ehtiyojlari asosida paydo bo'ldi. Shu sababli tarbiya jarayonini ijtimoiy hayotning ajralmas qismi deb qarash lozim, chunki tarbiyaviy ishlarni olib bormasdan turib jamiyatni, uning rivojlanishini tasavvur qilish qiyin.

Pedagogika fan sifatida boshqa fanlarga o'z ta'sirini ko'rsatib, bilim tizimining bir butunligini tashkil etadi. Shu bilan birga bir necha bo'limlarga bo'linishi mumkin. Ularga: maktabgacha tarbiya, umumiy o'rta, o'rta maxsus, oliy ta'lim pedagogikasi va boshqalar.

So'nggi yillarda falsafiy bilim berishga alohida e'tibor berilmoqda. Malakaviy o'qitish tizimida falsafiy bilim berish birinchi qadam bo'lib, bu sohada erishilgan yutuqlar va tajribalar qo'llanishi mumkin. Kasb pedagogikasining ilmiy jihatdan mohiyatini aniqlash uchun uning obekti va predmetini ajratib olish kerak.

Ilmning predmeti – bu obektning shunday ta'rifi borki, unda izlanishlar aniq yo'nalish bo'yicha olib boriladi.

Insonning madaniy va ma'naviy shakllanishi quyidagilar asosida amalga oshadi.

- Ma'lumot
- Madaniyat
- Mentalitet

Pedagogik faoliyatda 2 asosiy yo'nalish mavjud.

Bir tomondan bu faoliyat o'qituvchining kundalik, o'quv va tarbiyaviy ishlariga, o'qituvchi va o'quvchi orasidagi o'zaro munosabatga, ta'lim-tarbiya ishlarida o'quvchining bilim, malaka va ko'nikmalariga bog'liqdir.

Pedagogika fanining asosiy masalasi esa bu jarayonni samarali va sifatli ta'minlashdir. Buning uchun esa aniq metod va tashkiliy shakllardan samarali foydalanish zarur. Shuningdek, ma'lum miqdorda erkinlik, pedagogik san'at, pedagogik mahorat o'z o'rnini topgan bo'lishi kerak.

1.3. Fanning maqsadi va vazifalari

Kasb mahorati deyilganda bo'lajak mutaxassisning yuqori darajadagi kasbiy ko'nikma va malakalarni egallaganligi tushuniladi, u shaxsning mehnat bozorida egallayotgan kasbi bo'yicha raqobatbardoshlik darajasida o'z aksini topadi. Kasbiy mahorat ishchi kuchlarining yuqori darajada moslashuvchanligini va yangiliklarni tez

o‘zlashtirishi, yangi ishlab chiqarish sharoitlariga oz vaqt ichida o‘ta olishi, faoliyat sohasini mustaqil tanlay olishi kabi sifatlar bilan belgilanadi.

Bugungi kunda Respublikamizda ta’limni rivojlantirishning yangi bosqichida kasbiy pedagogika fanining asosiy vazifasi sifatida jahon talablari darajasida yangilanib borayotgan ishlab chiqarish sharoitlariga moslasha oladigan, iqtisodiyotimizni buyuk davlat darajasiga ko‘taradigan mutaxassislarni tayyorlash va bu jarayonda asosiy omil sifatida beriladigan axborotlar hajmini emas, balki ijodiy yondoshuvni shakllantirish, mustaqil fikrlash va tadbiq qilish sifatlarini tarbiyalashga e’tibor qaratish lozim. Kasb ta’limiga bo‘lgan e’tiborning ortib borayotganligini quyidagilar bilan izohlash mumkin:

1. Ta’lim islohotlari natijasida gimnaziya, litsey, kollej va boshqa turdagi yangi o‘quv muassasalarining shakllantirilishi va rivojlantirilishi;

2. Oliy o‘quv yurtlarida kasb ta’limini tashkil qilish, alohida bo‘lim va fakultetlarning tashkil etilishi;

3. Kasbiy pedagogikaning boshqa fanlar bilan yanada jipsroq bog‘lanib borishi, istiqbolda amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan, bilim sohalari tutashuvida yangi konsepsiya va nazariyalarning yuzaga kelishi;

4. Kasb ta’limi muassasalarining aholiga ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish turlarining ortib borishi, o‘z bazasida tayyor mahsulot ishlab chiqarish va unga xizmat ko‘rsatishni yo‘lga qo‘yishi, mehnatni tashkil qilishning ilg‘or shakllarini joriy etishi va boshqalar.

Kasb pedagogikasi talabalarni ta’limi, tarbiyasi, o‘qishi hamda rivojlanish qonuniyatlarini o‘rganadi, ta’lim-tarbiya, pedagogik va axborot texnologiyalarini qo‘llash mezonlarini ishlab chiqadi, kasb ta’limi muassasalari turlarini va ularni boshqarish tizimini asoslaydi. Ushbu fan insonni kasbiy faoliyatga tayyorlash, o‘sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash, malakali ishchi kuchini yangi talablar darajasiga moslab borishni ko‘zda tutadi.

Fanni o‘qitishdan maqsad – talabalarda o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limini tashkil etish va boshqarish, ushbu jarayonlarda ta’lim sifatini ta’minlash borasidagi bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish orqali ularning bo‘lajak kasbiy-pedagogik faoliyati samaradorligini ta’minlashdan iborat.

Fanning vazifasi – talabalarga O‘zbekiston Respublikasida kasbiy ta’limni rivojlanish tarixi, ta’limning uzluksizligi va davomiyligi, uzluksiz ta’limning maqsadi, mazmuni, tuzilishi, uzluksiz kasbiy ta’lim tushunchalarini, o‘rta maxsus kasbiy ta’limni tashkil etish va boshqarish to‘g‘risidagi asosiy normativ hujjatlar, o‘rta maxsus, kasb ta’limi mazmuniga qo‘yiladigan talablar, kasb-hunar kollejlarini boshqarish tizimi, talabalarga pedagogik-psixologik bilimlarni umumkasbiy va maxsus fanlarni o‘qitish jarayonida tadbiq etishni o‘rgatishdan iborat.

Shu bilan birga, kasb-hunar ta’limi pedagogikasi alohida fan va o‘quv predmeti sifatida nazariy va texnologik vazifalarni bajaradi:

1. Nazariy vazifalar – ilg‘or kasbiy pedagogik tajribalarni o‘rganish, kasb-hunar ta’limining holatini aniqlash, tajriba-sinov ishlarini o‘tkazish;
2. Texnologik vazifalar – metodik materiallar, o‘quv reja, dastur, qo‘llanmalar ishlab chiqish, pedagogika yutuqlarini amaliyotga joriy etish;
3. Kasb-hunar ta’limi qonuniyatlari shart-sharoitlarini tadqiq etib amaliy ko‘rsatmalar ishlab chiqish.

“Kasbiy pedagogika” bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini rivojlantirish to‘g‘risidagi fan bo‘lib, o‘qituvchi-tarbiyachiga pedagog odobi, madaniyati, o‘quvchilar bilan muomala madaniyatini, o‘z xulq-atvorini tartibga solish xususiyatlari va ularni rivojlantirish ishlari haqida ma’lumot beradi. Shuningdek, kasbga doir topshiriq va vazifalarni yechish, o‘quv-tarbiya jarayonini boshqarishda pedagogik-psixologik yondashish ta’lim-tarbiyani modellashtirish to‘g‘risidagi ma’lumotlar ham “Kasbiy pedagogika” fanining mazmunidan keng o‘rin olgan.

“Kasbiy pedagogika” fanining maqsadi – bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy ijod, kasbiy mahorat, pedagogik texnikani egallash malakalarini shakllantirishdan iborat.

Bu maqsad quyidagi vazifalarni yechish orqali hal etiladi:

- kasbiy pedagogikaning nazariy-metodologik asoslari bilan qurollantirish;
- kasbiy pedagogikaning pedagogik texnika, pedagogik muloqot, pedagogik nazokat, pedagogik qobiliyat kabi tarkibiy qismlari haqidagi masalalarni echish;
- kasbiy pedagogikani mustaqil shakllantirish ko‘nikmalarini hosil qilish;
- egallangan pedagogik-psixologik bilimlar asosida shaxsiy kasbiy mahoratni namoyon qilish uslubiyoti;
- talabalar kasbiy mahoratini rivojlantirishning shakl, metod va vositalarini ishlab chiqish.

Xo‘sh, “Kasbiy pedagogika” nima? Unga qanday erishish mumkin? “Kasbiy pedagogika” – bu o‘qituvchi-tarbiyachining shunday shaxsiy (bolajonligi, hayrihohligi, insonparvarligi, mehribonligi va h.k.) va kasbiy, (bilimdonligi, zukkoligi, fidoiyligi, ijodkorligi, eridutsiyasi va h.k) fazilatlarini belgilaydigan xususiyatki, u o‘z fanini chuqur va atroflicha bilishida, pedagogik-psixologik va metodik tayyorgarligida, o‘quvchi-yoshlarni o‘qitish, tarbiyalash va rivojlantirishning optimal yo‘llarini izlab topib amaliy faoliyatida qo‘llashida namoyon bo‘ladi. Shunday qilib, xaqiqiy pedagog bo‘lish uchun o‘qituvchi o‘z o‘quv predmetini davr talablari asosida bilishi, pedagogika, psixologiya, metodika fanlarini o‘zlashtirishi hamda insoniylik va fidoiylikni o‘zida tarkib toptirishga intilishi lozim. Ushbu kasbning qiyin va murakkabligi shu bilan belgilanadiki, u doimo tirik. Ongli jonzot bilan muloqotda bo‘ladi. Ongli va tirik jonzot esa ham aqliy, ham ruhiy, ham jismoniy jihatdan doimo rivojlanishda bo‘ladi. Shuning uchun o‘quvchi bilan doimo muloqotda bo‘lish, unga ta’sir ko‘rsatish, shuningdek, psixologiya, tarbiya nazariyasini mukammal bilishni taqozo qiladi. Bu o‘qituvchidan pedagogik-psixologik tayyorgarlikka ega bo‘lish lozimligini ta’kidlaydi.

Kasbiy tayyorgarlik iqtisodiyotning muayyan sohasida muvaffaqiyatli kasbiy faoliyat ko‘rsatishga imkon beradigan maxsus bilim, ko‘nikma, malaka va mehnat tajribalari kabilar majmuasidir.

«Kasb pedagogikasi» fanining asosiy tushunchalari, mazmuni kasbiy ta’limning turli tizimlarida quyidagi vazifalarni bajarishi mumkin:

- o‘qituvchilarning yangi va yanada murakkab tadbirlarni amalga oshirish maqsadida o‘z kasbiy mahoratini oshirishi;
- kasbiy-texnik ta’limning yangi konsepsiyalarini amalga oshirish vosita va yo‘llarini yaratishga e’tiborni qaratish, faol-ijodkor shaxsni tarbiyalash;
- pedagogik bilimlarni egallashga yangicha yondoshuvlarni ishlab chiqish;
- ta’lim-tarbiyaning samarali shakl va metodlarini ishlab chiqish;
- rivojlanib boruvchi yangi pedagogik jarayonlarni loyihalash, ta’lim oluvchilarning barcha imkoniyatlari va qobiliyatlarini ishga solishi uchun sharoit yaratish, kasbiy mahoratni egallashi uchun sarflanadigan vaqtni qisqartirishga erishishdan iborat.

Zamonaviy o‘qituvchi o‘ziga xos ta’lim maqsadlariga asoslangan o‘quv faoliyatini tanlaydi. O‘qituvchlar muayyan dars maqsadlarini o‘zgartirmaydigan harakatlarni rejalashtirmasligi lozim. Bundan tashqari, tanlangan o‘quv maqsadlari milliy ta’lim maqsadlariga muvofiq bo‘lishi kerak. Zamonaviy o‘qituvchi samarali ta’limni optimallashtirishga qaratilgan tegishli faoliyat va sinfdagi vaziyatlarni tanlashga g‘amxo‘rlik qiladi. Sinf rahbari sinfdagi alohida imkoniyatlarni kengaytirish maqsadida o‘quv harakatlarini boshqarishi kerak. Misol uchun, sinf rahbari shunday bir guruhni tashkil etadiki, bunda talabalar bir vaziyatga biriktirilgan bo‘lib, bunda hamkorlikda fikr almashishadi, munozaraga kirishishadi. Hamkorlikdagi o‘quv faoliyati sinf o‘quv muhitida hamkorlikda shaxsiy va madaniy g‘oya va qadriyatlar haqida fikr almashishlariga yordam beradi. Agar ta’lim dasturi bola maqsadlariga qaratilgan bo‘lsa, bu albatta talabalarning qiziqishlari va ehtiyojlariga qaratilgan bo‘lishi darkor,chunki u talabalarning qiziqishlari, muammolari va savollariga murojaat qiladi.

Bolalar maqsadlariga qaratilgan ta’lim dasturi bolaning tabiiy qiziqishlari va nimalarni o‘rganishni xohlashlarini e’tiborga olgan holda amalga oshiriladi. O‘qituvchi talabalarga shaxsiy savollari, topishmoqlari va maqsadlari va ularning tizimini kengaytirishga, tajribasini orttirishga,izlashishiga va aniqlashga yordam beradi.O‘qituvchi o‘quvchilarga o‘quv rejada ko‘rsatilgan barcha bilim, ko‘nikma va tushunchalarni singdiradi. Talabalarning savollariga yaqqol javob bera olmasligi o‘qituvchilarning passivligidan emas. O‘qituvchilar bolalarning o‘ziga xos

ehtiyojlarini rivojlantirish va qiziqishlarini loyihalashtirishga mas'uliyat bilan yondashishi lozim. Shu bilan birgalikda o'qituvchi bolalarda motivatsion vosita sifatida tegishli qiziqishlarni rivojlantirishga rahbarlik qiladi[10].

Nazorat savollari:

1. Mustaqillik yillarida Respublikamizdagi ta`lim islohatlarning mazmunini tushuntirib bering.
2. Respublikamizda kasb ta`limining rivojlanish mazmunini ayting.
3. Fanning o`rganishdan asosiy maqsad nima?
4. Kasbiy pedagogikaning falsafiy metodologik asoslari deganda nimani tushunamiz?
5. Kasb pedagogikasi va psixologiyasining tarixiy sahifalarini eslab ko`ring.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azizxo'jaev A. O'qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi. –T.: 2000 y.
2. Azizxo'jaeva N.N Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat – T., 2003 va 2006.
3. Ashurov A. Mehnat va kasbiy kamolotda xalq hunarmandchiligi. T.: 1998y.
4. Sharon A. Wynne. Pedagogy professional responsibilities. EC-12 Teacher Certification. 2013.
5. Azizxo'jaev A. O'qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi. –T.: 2000 y.

[10] Sharon A. Wynne. Pedagogy professional responsibilities. EC-12 Teacher Certification. 2013. 4-бет.

2 O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA’LIM TIZIMI ISLOHOTLARI, KASBIY TA’LIMNING DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMOLARI

Reja:	2.1.Uzluksiz ta’limni tashkil etish va rivojlantirish prinsiplari. 2.2.Uzluksiz ta’limni islox qilish yo‘nalishlari. Uzluksiz ta’lim tizimi va turlari 2.3. Kasb-hunar pegogikasining dolzarb muammolari 2.4. Ilmiy-pedagogik tadqiqot ishlarini yo‘lga qo‘yish masalalari

Tayanch iboralar: *uzluksiz ta`lim, ta`lim tizimi, islohat, ijtimoiy, tashkiliy, shakl, metod, vosita, prinsip, ijtimoiylashuv. Kasbiy pedagogika, ilmiy, tadqiqot, tarbiya, takomillashtirish, ilmiy salohiyat.*

2.1.Uzluksiz ta’limni tashkil etish va rivojlantirish prinsiplari

Uzluksiz ta’lim kadrlar tayyorlash tizimining asosi, O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor sohadir.

Uzluksiz ta’lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma’naviy boy shaxs shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar ildam tayyorlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi.

Uzluksiz ta’limning faoliyat ko‘rsatish prinsiplari quyidagilardan iborat:

- ta’limning ustuvorligi uning rivojlanishining birinchi darajali ahamiyatga ega ekanligi, bilim, ta’lim va yuksak intellektning nufuzi;
- ta’limning demokratlashuvi ta’lim va tarbiya uslublarini tanlashda o‘quv yurtlari mustaqilligining kengayishi, ta’limni boshqarishning davlat-jamiyat tizimiga o‘tilishi;
- ta’limning insonparvarlashuvi inson qobiliyatlarining ochilishi va uning ta’limga nisbatan bo‘lgan turli-tuman ehtiyojlarining qondirilishi, milliy va umumbashariy qadriyatlar ustuvorligining ta’minlanishi, inson, jamiyat va atrof-muhit o‘zaro munosabatlarining uyg‘unlashuvi;

- ta’limning ijtimoiylashuvi ta’lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, ularda yuksak ma’naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlashni shakllantirish;

- ta’limning milliy yo‘naltirilganligi ta’limning milliy tarix, xalqan’analari va urf-odatlari bilan uzviy uyg‘unligi, O‘zbekiston xalqlarining madaniyatini saqlab qolish va boyitish, ta’limni milliy taraqqiyotning o‘ta muhim omili sifatida e’tirof etish, boshqa xalqlarning tarixi va madaniyatini hurmatlash;

- ta’lim va tarbiyaning uzviy bog‘liqligi, bu jarayonning har tomonlama kamol topgan insonni shakllantirishga yo‘naltirilganligi;

- iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularga ta’limning eng yuqori darajasida, izchil ravishda fundamental va maxsus bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish.

2.2.Uzluksiz ta’limni isloh qilish yo‘nalishlari, uzluksiz ta’lim tizimi va turlari

Uzluksiz ta’lim sohasidagi islohotlar quyidagilarni nazarda tutadi:

– ta’lim tizimining kadrlar salohiyatini tubdan yaxshilash, tarbiyachi, o‘qituvchi, muallim va ilmiy xodimning kasbiy nufuzini oshirish;

– davlat va nodavlat ta’lim muassasalarining har xil turlarini rivojlantirish;

– ta’lim tizimini tarkibiy jihatdan qayta qurish, ta’lim, fan, texnika va texnologiyaning, iqtisodiyot va madaniyatning jahon miqyosidagi zamonaviy yutuqlarini hisobga olgan holda ta’lim va kasb-hunar ta’limi dasturlarini tubdan o‘zgartirish;

– majburiy umumiy o‘rta ta’limdan o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limiga o‘tilishini ta’minlash;

– maxsus, kasb-hunar ta’limining markazlari sifatida fan va ishlab chiqarish integratsiyalashgan yangi tipdagi o‘quv muassasalarini vujudga keltirish;

– ilg‘or texnologiyalarni keng o‘zlashtirish, iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlar, chet el investitsiyalari ko‘lamlarining kengayishi, tadbirkorlik, kichik va xususiy biznesni rivojlantirish bilan bog‘liqyangi kasb-hunar va mutaxassisliklar bo‘yicha kadrlar, shu jumladan boshqaruv tizimi kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

– milliy mustaqillik prinsiplari va xalqning boy intellektual merosi hamda umumbashariy qadriyatlarning ustuvorligi asosida ta’limning barcha darajalari va bo‘g‘inlarida ta’lim oluvchilarning ma’naviy va ahloqiy fazilatlarini rivojlantirish;

– ta’limni boshqarish tizimini takomillashtirish, ta’lim muassasalarini mintaqalashtirish;

– ta’lim olishda, shuningdek bolalar va yoshlarni ma’naviy-ahloqiy, intellektual va jismoniy jihatdan tarbiyalashda oila, ota-onalar, jamoat tashkilotlari, mahallalar, xayriya va xalqaro fondlarning rolini kuchaytirish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqish hamda ularni amalga oshirish;

– ta’lim jarayoni va kadrlar tayyorlash sifatiga xolis baho berish tizimini yaratish va joriy etish;

– ta’lim tizimini moliyaviy, moddiy-texnika va boshqa tarzdagi resurslar bilan ta’minlash mexanizmlarini shakllantirish;

– uzluksiz ta’limni fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyalashtirishning puxta mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish ;

– ta’lim va ilm-fan bilan bog‘liq chet el hamda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish va rivojlantirish;

– tub yerli millatga mansub bo‘lmagan shaxslar zich yashaydigan joylarda ular o‘z ona tillarida ta’lim olishlari uchun tashkiliy va pedagogik shart-sharoitlar yaratish;

– ta’limning barcha darajalarida ta’lim oluvchilarning huquqiy, iqtisodiy, ekologik va sanitariya-gigiena ta’limi hamda tarbiyasini takomillashtirish.

Ta’limning asosiy maqsadi - zamonaviy ilmiy bilimlarni egallagan, mustaqil fikrlash va muammolarni yechish imkoniyatiga ega bo‘lgan ma’naviy jihatdan boy shaxslarni shakllantirishdir. Jamiyat rivojlanar ekan, hayotiy talablarning darajasi ham ortib boradi. Demak, ilmiy bilimlarning hajmi kengayib, ilmiylik darajasi chuqurlashib borar ekan, mantiqiy fikrlash va muammolarni tezda hal etishga bo‘lgan talab yanada kuchayib boradi. Bu fikrdan kelib chiqqan holda ta’lim tizimi bugungi kun talabinigina hisobga olgan holda emas, balki kelajak talablarini aniqlagan va hisobga olgan holda ish olib borishi kerak degan xulosaga kelamiz. Chunki, bugungi kun talablari kelajakda jamiyatning asosiy o‘zagiga aylanadi. Demak, ta’lim tizimi talabalarni bugungi kundagi hayotga emas, balki kelajakdagi hayotga tayyorlashi lozim. Bu ham ta’limning o‘ziga xos xususiyatlaridan biridir. Texas shahridagi oliy o‘quv yurtlarida talabalarni zaruriy bilim va malakalar bilan qurollantirish o‘quv maqsadlariga erishishning eng muhim omillaridan biridir.[11]

Didaktik tizim negizini tarbiyaviy o‘quv jarayoni tashkil etib, u o‘z vaqtida 2- bosqichga bo‘linadi.

a) doimiy

b) dinamik

Buning asosida o‘quv dasturlar ishlab chiqishni asosiy va maxsus jarayoni, kerakli kasb olingan kasb ta’limiga muvofiq aniq va puxta shu bilan bir qatorda o‘zaro bog‘liqlikda dastur asosida olib boriladi.

Asosiy o‘quv jarayoni – bu bosqichda ta’lim oluvchilar umumiy talablarga javob beruvchi bilim, malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘lib, ular shunday bilim

oladilarki, u ilmiy-texnik o‘zgarishlar ta’siriga mos keladi. Umumiy mehnat egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarga kasbiy bilimlarga asos bo‘lib, uning mustahkamligi ishlab o‘qitishni samaradorligiga olib keladi. Asosiy o‘quv jarayonida ta’lim oluvchilar egallashi lozim bo‘lgan bilimlar kelajakdagi uning faoliyati, mehnat turi va ishlab chiqarishdagi egallaydigan o‘rniga bog‘liq bo‘ladi.

Asosiy bilim berish jarayoni maxsus bilim berishni negizi bo‘lib xizmat qiladi, shuning uchun ta’lim oluvchi ko‘rsatilgan fanlar bo‘yicha nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni mustahkam egallab bormog‘i lozim.

Maxsus o‘quv jarayoni – asosiy o‘quv bosqichdan maxsusga o‘tish sekin-asta ro‘y berib, butun o‘quv jarayoni shu maqsadlarga qaratilgan vaqt ichida olib boriladi. Maxsus bosqichda o‘qitish tanlangan kasbga yo‘naltirish bo‘yicha olib borilib, o‘qitish jarayoni shu sohadagi texnik va texnologik rivojlanish talablariga javob bermog‘i lozim, ammo markazlashtirilgan tartibda ishlab chiqilgan o‘quv dasturi xo‘jalik sohasidagi yoki korxona talablariga javob Bera olmaydi, chunki bir sohada texnologik jihozlarning bir turi o‘rganilsa, ikkinchi turida mutaxassislarni tayyorlashda turli sohalar bo‘yicha o‘qitish afzaldir.

Maxsus o‘qitish jarayonida ta’lim oluvchilarni korxonaning xususiyatlari bilan aniq va mukammal tanishtirish jarayonida uning korxonadagi hamma ish turlarida egallagan bilim va malakasini amalda qo‘llay olishni ta’minlash lozimdir. Ta’lim oluvchilar ishlab chiqarishdaga texnik va texnologik jarayonlar, qurilma va moslamalar haqida bilim olib amalda qo‘llay bilishlari kerak. Maxsus o‘qitish jarayonida o‘qituvchi ustaning ishlab chiqarish jarayoniga o‘qitishda quyidagilarga erishmog‘i lozim:

*Ta’lim oluvchini hozirgi zamon texnika jarayoni metodlari va zamonaviy metodlarga, qurilmalarda ishlashni o‘rgatish;

*Mehnatni tashkil etish metodi ham ta’lim oluvchini zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalariga, kasbiy malakasiga qarab turli ish operatsiyalarini bajarishni zamonaviy texnologiya talabiga javob beruvchi ishlab chiqarishni tashkil etish;

*Ta’lim oluvchini ish me’yorini bajarishga yondoshishga o‘rgatish;

*Korxonadagi ish chizmalarini to‘g‘ri o‘qishga, texnologik hujjatlardan to‘g‘ri foydalanishga o‘rgatish;

*Korxona jamoasida ta’lim oluvchi ishidan muhim tarbiya sifatida foydalanish;

*Ta’lim oluvchini mehnat xavfsizligi, ishlab chiqarishdagi va yong‘in xavfsizligi talablariga amal qilishga o‘rgatish;

*Ta’lim oluvchini ish o‘rni va ish qurollariga nisbatan javobgarlik va qadrlash hissini singdirish;

*Ta’lim oluvchida ish madaniyati haqida taassurot berish, ish joyini to‘g‘ri tashkil qilishni o‘rgatish;

Umuman olganda, bugungi kunda shunday mutaxassis kadrlarni tarbiyalashga erishish kerakki, u anglagan holda ish unumdorligini oshirishga o‘z hissasini qo‘shsin. Ularni ishlayotgan korxonaning obro‘si, ish sifatini oshirish ruhida, mehnat intizomiga qat’iyan rioya qilish ruhida tarbiyalash lozim. O‘qituvchi barcha talabalar uchun ta’limda mukammallikni tarkib toptirishga alohida ahamiyat berishi kerak. Talabalar ilmiy tadqiqot ishlarini muntazam ravishda olib borishlari lozim. O‘qituvchining dars o‘tish jarayonida talabchan bo‘lishi, talabalar uchun muvaffaqiyatga erishishning garovi hisoblanadi. Talabalar o‘z qobiliyatlarini yanada rivojlantirishlari uchun o‘z-o‘ziga bo‘lgan ishonchni tarbiyalab borishlari lozim.[12]

Maktabgacha ta’lim

Umumiy o‘rta ta’lim

O‘rta-maxsus, kasb-hunar ta’limi

Oliy ta’lim

Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash

Maktabdan tashqari ta’lim

Uzluksiz ta’lim tizimining faoliyat olib borishi davlat ta’lim standartlari asosida, turli darajalardagi ta’lim dasturlarining izchilligi asosida ta’minlanadi va quyidagi ta’lim turlarini o‘z ichiga oladi:

– maktabgacha ta’lim;
– umumiy o‘rta ta’lim;
– o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi;
– oliy ta’lim;
– oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim;
– kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;
– maktabdan tashqari ta’lim.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining o‘ziga xos xususiyati mustaqil ravishdagi to‘qqiz yillik umumiy o‘rta hamda uch yillik o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limini joriy etishdan iboratdir. Bu esa, umumiy ta’lim dasturlaridan o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi dasturlariga izchil o‘tilishini ta’minlaydi.

Umumiy ta’lim dasturlari: maktabgacha ta’lim, boshlang‘ich ta’lim (I-IV sinflar), umumiy o‘rta ta’lim (I-IX sinflar), o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limini qamrab oladi.

---

[12] Sharon A. Wynne. Pedagogy professional responsibilities. EC-12 Teacher Certification. 2013. 35-бет.

Maktabgacha ta’lim. Maktabgacha ta’lim bola sog‘lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta’minlaydi, unda o‘qishga intilish hissini uyg‘otadi, uni muntazam ta’lim olishga tayyorlaydi. Maktabgacha ta’lim bola olti-yetti yoshga yetgunicha davlat va nodavlat maktabgacha tarbiya bolalar muassasalarida hamda oilalarda amalga oshiriladi. Maktabgacha ta’lim maqsadi va vazifalarini ro‘yobga chiqarishda mahallalar, jamoat va xayriya tashkilotlari, xalqaro fondlar faol ishtirok etadi.

Maktabgacha tarbiyani rivojlantirish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim bo‘ladi:

– malakali tarbiyachi va pedagog kadrlarni ustuvor ravishda tayyorlash;

– maktabgacha ta’limning samarali psixologik-pedagogik uslublarini izlash va joriy etish;

– bolalarni oilada tarbiyalashni tashkiliy, psixologik, pedagogik va uslubiy jihatdan ta’minlash;

– zamonaviy o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar, texnik vositalar, o‘yinchoqlar va o‘yinlar yaratish hamda ularni ishlab chiqarish;

– maktabgacha yoshdagi bolalarni xalqning boy madaniy-tarixiy merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida ma’naviy-ahloqiy jihatdan tarbiyalash uchun shart-sharoitlar yaratish;

– maktabgacha muassasalarning har xil turlari uchun turli variantlardagi dasturlarni tanlab olish, maktabgacha tarbiyaning barcha massalalari bo‘yicha malakali konsultatsiya xizmati ko‘rsatish imkoniyatini yaratish;

– maktabgacha tarbiya va sog‘lomlashtirish muassasalari tarmog‘ini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish mexanizmini ishlab chiqish.

Umumiy o‘rta ta’lim. To‘qqiz yillik (I-IX sinflar) o‘qishdan iborat umumiy o‘rta ta’lim majburiydir. Ta’limning bu turi boshlang‘ich ta’limni (I-IV sinflar) qamrab oladi hamda o‘quvchilarning fanlar asoslari bo‘yicha muntazam bilim olishlarini, ularda bilim o‘zlashtirish ehtiyojini, asosiy o‘quv-ilmiy va umummadaniy bilimlarni, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma’naviy-ahloqiy fazilatlarni, mehnat ko‘nikmalarini, ijodiy fikrlash va atrof-muhitga ongli munosabatda bo‘lishni va kasb tanlashni shakllantiradi. Umumiy o‘rta ta’lim tugallanganidan keyin ta’lim fanlari va ular bo‘yicha olingan baholar ko‘rsatilgan holda davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi attestat beriladi.

Umumiy o‘rta ta’limning yangicha tizimi va mazmunini shakllantirish uchun quyidagilar zarur:

– maktabning I-IX sinflari doirasida sifatli umumiy o‘rta ta’lim olishni ta’minlovchi davlat ta’lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish, bunda akademik litseylar va kasb-hunar kollejlaridan keyin olinadigan ta’lim dasturlari bilan mantiqiy bog‘liqlik hisobga olinishi lozim;

– yuqori malakali pedagog kadrlar tayyorlash;

– hududlarning jo‘g‘rofiy va demografik xususiyatlariga, shaxs, jamiyat va davlatning ehtiyojlariga muvofiqravishda ta’lim muassasalari tarmoqlarini rivojlantirish;

– o‘quvchilarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga muvofiqravishda ta’limga tabaqalashtirilgan yondashuvini joriy etish;

– ta’lim berishning ilg‘or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o‘quv-uslubiy majmualarni yaratish va o‘quv-tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta’minlash;

– o‘quvchilar kasb-hunar tanlaydigan va psixologik-pedagogik jihatdan maslahatlar oladigan markazlar tarmoqlarini tashkil etish.

Oliy ta’lim. Oliy ta’lim o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi negiziga asoslanadi hamda ikki (bakalavriat va magistratura) bosqichga ega.

Oliy ta’lim muassasalariga talabalar qabul qilish davlat grantlari negizida va pullik-shartnomaviy asosda amalga oshiriladi.

Bakalavriat mutaxassisliklar yo‘nalishi bo‘yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, ta’lim muddati kamida to‘rt yil davom etadigan tayanch oliy ta’limdir.

Bakalavrlik dasturi tugallanganidan so‘ng bitiruvchilarga davlat attestatsiyasi yakunlariga binoan kasb bo‘yicha “bakalavr” darajasi beriladi va davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi, kasb-hunar faoliyati bilan shug‘ullanish huquqini beradigan diplom topshiriladi.

Magistratura aniq mutaxassislik bo‘yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriat negizida ta’lim muddati kamida ikki yil davom etadigan oliy ta’limdir.

Ikki bosqichli oliy ta’lim tizimini tashkil etish va rivojlantirish uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur:

– bakalavriat va magistratura uchun davlat ta’lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish;

– oliy ta’lim muassasalari uchun professor-o‘qituvchi kadrlar tayyorlash, shu jumladan chet ellardagi yetakchi o‘quv va ilmiy markazlarda tayyorlash;

– oliy ta’lim muassasalarida tarkibiy o‘zgartishlar o‘tkazish;

– oliy ta’lim muassasalari boshqaruvini takomillashtirish, bu muassasalarning mustaqilligini kuchaytirish, muassislar, vasiylar kengashlari, jamoat nazorat kengashlari shaklidagi jamoat boshqaruvini joriy etish;

– ta’limning fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasi ta’sirchan mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

– o‘qishni, mustaqil bilim olishni individuallashtirish hamda distansion ta’lim tizimi texnologiyasi va vositalarini ishlab chiqish va o‘zlashtirish;

– yangi pedagogik va axborot texnologiyalari, tayyorgarlikning modul tizimidan foydalangan holda talabalarni o‘qitishni jadallashtirish;

– xalqning boy ma’naviy va intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida ta’limning insonparvarlik yo‘nalishini ta’minlash.

Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim. Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim jamiyatning oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishga, shaxsning ijodiy ta’lim-kasb-hunar manfaatlarini qanoatlantirishga qaratilgan.

Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limni oliy o‘quv yurtlarida va ilmiy-tadqiqot muassasalarida (aspirantura, adyunktura, doktorantura, mustaqil tadqiqotchilik) olish mumkin. Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim bosqichi (doktorantura) dissertatsiya himoyasi bilan yakunlanadi.

Yakuniy davlat attestasyasi natijalariga ko‘ra tegishli ravishda fan doktori ilmiy darajassi berilib, davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplomlar topshiriladi.

Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish tadbirlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

– “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunga hamda mamlakatni ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirish istiqbollariga muvofiqoliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash va attestatsiyadan o‘tkazish tizimini takomillashtirish;

– kasb ta’limi tizimi uchun oliy malakali ilmiy-pedagog kadrlarni hamda ilg‘or pedagogik texnologiyalar sohasida ilmiy kadrlarni ustuvor ravishda tayyorlash;

– rivojlangan mamlakatlarning ilg‘or ta’lim muassasalari va ilmiy markazlarida ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlanishi uchun sharoitlar yaratib berish;

– fan, texnologiya va ta’lim sohasida rivojlangan mamlakatlar bilan xalqaro hamkorlikni chuqurlashtirish.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash mutaxassislarning kasb bilimlari va ko‘nikmalarini yangilash hamda chuqurlashtirishga qaratilgan. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ta’lim muassasalaridagi o‘qish natijalariga ko‘ra davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi guvohnoma yoki sertifikat topshiriladi.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimini tashkil etish va rivojlantirish uchun quyidagilar zarur:

– kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimi faoliyatida yangicha tarkib, mazmun hamda bu tizimni boshqarishni shakllantirish;

– yuqori malakali o‘qituvchi-mutaxassis kadrlar tayyorlash va sohani ular bilan to‘ldirib borishni ta’minlash;

– kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimining bu sohada raqobatga asoslangan muhitni shakllantirishni va samarali faoliyat olib borishni ta’minlovchi normativ bazasini yaratish;

– kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ta’lim muassasalarini davlat attestatsiyasi va akkreditatsiyasidan o‘tkazish tizimini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

– iqtisodiyotning davlat va nodavlat sektorlari, mulkchilikning turli shaklidagi tashkilot va muassasalarning talab-yehtiyojlariga muvofiqkadrlar va mutaxassislarni ildam qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni ta’minlovchi davlat va nodavlat ta’lim muassasalarini tashkil etish va rivojlantirishga ko‘maklashish;

– professional treningning ilg‘or texnologiya va uskunalarini, shuningdek murakkab, fan yutuqlarini talab qiluvchi texnologiya jarayonlari imitatorlarini ishlab chiqish, yaratish va amaliy o‘zlashtirib olish.

Maktabdan tashqari ta’lim. Bolalar va o‘smirlarning ta’limga bo‘lgan, yakka tartibdagi, ortib boruvchi talab-yehtiyojlarini qondirish, ularning bo‘sh vaqtini va dam olishini tashkil etish uchun davlat organlari, jamoat tashkilotlari, shuningdek boshqa yuridik va jismoniy shaxslar madaniy estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo‘nalishlarda maktabdan tashqari davlat va nodavlat ta’lim muassasalarini tashkil etadilar.

Maktabdan tashqari ta’limni rivojlantirish, uning tuzilmasi va mazmun-mundarijasini takomillashtirish vazifalarini hal etish uchun quyidagilarni amalga oshirish kerak:

– ta’lim berish va kamol toptirishga yo‘naltirilgan xizmatlar ko‘rsatuvchi muassasalar tarmog‘ini kengaytirish va bunday xizmatlar turlarini ko‘paytirish;

– milliy pedagogik qadriyatlarga asoslangan va jahondagi ilg‘or tajribani

inobatga oluvchi dasturlar va uslubiy materiallar ishlab chiqish;

– o‘quvchilarning bo‘sh vaqtini tashkil etishning, shu jumladan ommaviy sport va jismoniy tarbiya-sog‘lomlashtirish tadbirlarining, bolalar turizmining, xalqhunarmandchiligining mavjud turlari va shakllarini takomillashtirish, milliy turlari va shakllarini tiklash hamda amaliyotga joriy etish.

2.3. Kasb-hunar pegogikasining dolzarb muammolari

Ta’lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish muammosi shu paytgacha pedagogik jarayonning alohida elementarini takomillashtirish, o‘qish muddatini oshirish, o‘quv guruhida o‘quvchilar sonini kamaytirish, tor ixtisosliklarni kiritish, yangi shakl va vositalardan foydalanishyo‘lidagi izlanishlar kabi yo‘llar bilan amalga oshirilgan.

Kasb-hunar kollejlarida ta’lim-tarbiyaviy ishlarni ilmiy tashkil etish quyidagilarni nazarda tutadi:

- o‘quvchilar, o‘qituvchilar va muxandis-pedagoglar ishlashi uchun imkon qadar shart-sharoit ratish;

- o‘quv kabinatlari, laboratoriyalar va ustaxonalarni tashkil etish, ularni davr, istiqlol talablari darajasida jixozlash;
- zamonaviy fiziologik, sanitariya-gigiena va estetik talablar asosida o‘quv xonalari, laboratoriyalar, ustaxonalar uchun mebellar tayyorlash;
- o‘quv ustaxonalari, laboratoriya, mashq maydonlari va kabinatlarni zamon fani, texnikasiga mushtarak jixozlar, priborlar, mexanizmlar, moslamalar, asbob-uskunalar, ko‘rgazmali qurollar, texnik vositalar bilan jixozlash;
- har bir o‘quv kabineti, ustaxona va laboratoriyalarda o‘qituvchi, muxandis pedagoglar va o‘quvchilar uchun barcha zaruriy asbob-uskunalarga ega ishchi o‘rinlarini tashkil etish;
- oqilona mehnat va dam olish, shuningdek, sanitariya-gigiena shart-sharoitlarini yaratish;
- ta’lim-tarbiya jarayonini o‘z vaqtida sifatli materiallar, asbob-uskunalar, o‘quv-me’yoriy, texnik-texnologik xujjatlar va o‘quv ma’lumotnoma adabiyotlari bilan ta’minlanishini yo‘lga qo‘yish, laboratoriya va amaliy mashg‘ulot ishlarini oldindan tayyorlab qo‘yish.

Ta’lim muhitida butun maktab tizimi bo‘ylab guruhda tenglikka erishish uchun hech qanday to‘siqlar bo‘lmasligi lozim. O‘qituvchining asosiy mas’uliyati o‘quv jarayonining barcha jihatlarini va barcha ma’lumotlarni talabalarga osonlikcha ta’minlashdan iborat. O‘quv maqsadlarini qo‘llab-quvvatlash va tenglikni ta’minlash eng muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Talaba ta’lim jarayonining har bir sohasida faollik ko‘rsatishi lozim.

Xalq ta’limi o‘quv standartlari ko‘proq o‘quvchilarning har tomonlama barkamol inson bo‘lib shakllanishlari uchun xizmat qilishi kerak.

Mehnat bozori xalq xo‘jaligining turli sohalari uchun malakali kadrlarni talab qiladi.Unda oddiy mutaxassisdan to yirik tashkilotchi rahbarlargacha barchasi uchun talab o‘zi egallab turgan lavozimiga mos malakaga ega bo‘lishi hisoblanadi. Kasbiy malakaga ega bo‘lish esa, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi, oliy ta’lim,oliy ta’limdan keyingi ta’lim va malaka oshirish orqali amalga oshiriladi.

Kasb-hunar kollejlarida o‘qish davomida kasbiy malakalarga ega bo‘lish, ta’lim muaassasalarining kichik korxonalar, hissador jamiyatlari, zavod va fabrikalar, fermer xo‘jaliklari bilan hamkorlikda bo‘lishi ta’lim islohotlarimizda ham xalqaro tajribalar natijalari chuqur o‘rganilganligini ko‘rsatadi[13].

2.4. Ilmiy-pedagogik tadqiqot ishlarini yo‘lga qo‘yish masalalari

[13] Sharon A. Wynne. Pedagogy professional responsibilities. EC-12 Teacher Certification. 2013. 35-б.

Kasb-hunar ta’limining o‘ziga xosligi, uning ta’lim va ishlab chiqarish tutashgan joyda vujudga kelishida o‘z ifodasini topadi. Hayot mutaxassisning mehnat unumini oshirish faqat yangi texnika va ilgor texnologilarni kiritish yo‘li bilan bogliq degan fikrlarning har doim ham to‘g‘ri emasligini tasdiqlaydi. Chunki bunday texnika va texnologiyalarni ishlatish, ularga xizmat ko‘rsatish uchun ma’lum bilim va malakalar talab etiladi.

Kasb-hunar ta’limi muassasalarining ijtimoiy institut sifatida bosh vazifasi sirasiga qo‘yidagilarni kiritish mumkin:

- respublika iqtisodiyotining barcha sohalariga har tomonlama kamol topgan, yuqori malakali, keng itisosli, mehnat bozorida raqobatbardosh kichik mutaxassis kadrlar tayyorlab berish;
- yoshlarning umumiy va kasb-hunar ta’limini amalga oshirish;
- o‘quvchilarda milliy istiqlol g‘oyasini shakllantirish, ularda yuqori axloq, odob, vatan va mehnatga muhabbat kabi shaxsiy fazilatlarni tarkib toptirish;
- o‘quvchilarni estetik va jismoniy tarbiyalash kabilar.

Shuningdek, o‘qituvchining dars o‘tish jarayonida talabchan bo‘lishi, talabalar uchun muvaffaqiyatga erishishning garovi hisoblanadi. Talabalar o‘z qobiliyatlarini yanada rivojlantirishlari uchun o‘z-o‘ziga bo‘lgan ishonchni tarbiyalab borishlari lozim.

O‘qituvchi talabalarga yuksak umidlarni turli yo‘llar orqali shakllantirib borishga harakat qilib boradi. Ko‘p talabalar aniq taxminlar asosida har bir imkoniyatdan to‘liq foydalanishga harakat qiladilar.

• ilmiy muvaffaqiyat uchun talabaning o‘quv faoliyatiga bo‘lgan mas’uliyatini o‘stirib borish lozim.

• ularning muvaffaqiyati uchun qo‘llab-quvvatlashlashlari lozim. Sinf ishini bajarishda muvaffaqiyatga erishish qobiliyati yuqori bo‘lishi lozim.

• Talabaning o‘qishga bo‘lgan mas’uliyatini oshirib borish o‘qituvchining mas’uliyati hisoblanadi.

• Jismoniy shaxslar sifatida talabalar bilan o‘qituvchi o‘rtasida aloqaning barcha shakllarini mustahkamlab borish lozim.

* Maktab tizimi rahbarlari, fakultet dekanlari talabalarning, intellektual jismoniy, hissiy, ijtimoiy va axloqiy salohiyatlarini oshirib borishlari uchun muntazam ravishda harakat qilishlari lozim. Fakultet rahbarlari, murabbiylar va xodimlar talabalarning turli ehtiyojlarini qondirib borishlari lozim.

Jismoniy rivojlantirishning o‘ziga xos masalalariga amal qilish lozim bo‘ladi. Jismoniy, intellektual, madaniy, iqtisodiy, yoki boshqa mezonlar talaba faoliyatida alohida ahamiyatga ega. O‘qituvchilar va ta’lim tizimi rahbarlari talabalar faoliyatini muntazam ravishda nazorat etib borishlari lozim. Barcha jismoniy shaxslarning jismoniy, intellektual, madaniy, iqtisodiy imkoniyatlardan

teng foydalanishlari uchun davlat rahbarlari har bir masalani muhokama qilinadi. Shuningdek, qonunga doirasida amalga oshiriladi[14].

Ma'lumki, amaliyotchi pedagoglar tomonidan shu paytgacha kasbiy ta'lim jarayoni nodemakratik tashkil etilganligi bois o'quvchilarda ijtimoiy faollik, ijodkorlik, tashabbuskorlik va jaqobgarlik xis-tuygularini shakllantirishga imkon berilmaganligi e'tirof etilmoqda. Kasb-hunar kollejlari ishlab chiqarish bilan ko'plab ko'zga tashlanmaydigan va ko'rinadigan aloqaga ega. Kasb-hunar kollejlari o'ziga xos ta'lim-tarbiya muassasasi hisoblanib, ularda faoliyat ko'rsatish uchun pedagogikani ishlab chiqarishdan ajralgan holda yoki ishlab chiqarishni pedagogikasiz bilish kamlik qiladi.

Bu sohada muayyan tizimli va yaxlit tadqiqotlarni olib borish payti keldi.

Ma'lumki, ishlab chiqarishni rivojlantirish qonunlari mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmasi va sohaning rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. Respublikamizda ularning har ikkisi ham murakkb tarkibga ega bo'lib, bir xil darajani qayd etmaydi.

Shunday qilib ishlab chiqarish qonunlari va ularni tashkil etish kasbiy ta'lim munosabatlariga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shuningdek, jamiyat ishlab chiqarish kuchlari darajasining kasb-hunar ta'limi mazmuni, shakl va metodlariga mos kelishi; ta'lim-tarbiya rivojlanishining birligi; shaxsning shaklanishida uning faol o'quv-bilish faoliyati va muloqotining zarurligi; barkamol shaxs rivojlanishida o'quvchilarning yoshi va imkoniyatlarining hisobga olinishi ham muhim hisoblanadi.

[14] Sharon A. Wynne. Pedagogy professional responsibilities. EC-12 Teacher Certification. 2013. 35-б.

Nazorat savollari:

1. Uzluksiz ta`limni tashkil etish va rivojlantirish prinsiplari.
2. Uzluksiz ta`limni isloh qilish yo`nalishlari.
3. Uzluksiz ta`lim tizimi va turlari.
4. Ilmiy-pedagogik tadqiqot ishlarini yo`lga qo`yish masalalari.

Adabiyotlar:

1. Abdiquddusov O., Rashidov H. Kasb-hunar ta’limi pedagogikasi.O‘quv qo‘llanma. – T: O‘MKHTTKMOvaUQT instituti, 2009. - 120 b.
2. Muslimov N.A., Mullaxmetov R.G. Kasb tanlashga yo‘llash. O‘quv qo‘llanma. –T.: 2007. - 165 b.
3. Olimov Q.T. Kasb ta’limi uslubiyati. O‘quv qo‘llanma. –T.: 2006. - 164 b.
4. Xakimova M.Kasbiy pedagogika. O‘quv qo‘llanma. –T.: 2007. - 193 b.
5. Xasanboev J., Sariboev H., Niyozov G., Hasanboeva O., Usmonboeva M. Pedagogika. O‘quv qo‘llanma. –T.: 2006. - 158 b.
6. Sharon A. Wynne. Pedagogy professional responsibilities. EC-12 Teacher Certification. 2013.

3 O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KADRLAR TAYYORLASH MILLIY MODELINING O‘ZIGA XOSLIGI. TA`LIMNI STANDARTLASHTIRISH, O`RTA MAXSUS TA`LIMI MAZMUNI MAQSAD VA VAZIFALARI.

Reja:	3.1.O‘zbekiston Respublikasi yangi, davlat ta’lim siyosatining tamoyillari. O`zbekistonda ta`lim tizimida isloxotlar va innovatsiyalar. 3.2. Milliy dasturni amalga oshirish bosqichlari. Davlat ta`lim standartida o`zgarishlar. 3.3.Shaxs – Milliy modelning asosiy komponenti.

Tayanch iboralar: *milliy, model, kadr, tizim, bosqich, siyosat, tamoyil, dastur, shaxs, jamiyat, davlat,ishlab chiqarish, uzluksizlik, izchillik, mahorat, standart, me`yoriy talablar, bilim, ko'nikma, malaka.*

3.1.O‘zbekiston Respublikasi yangi davlat ta’lim siyosatining tamoyillari.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning 4-modda. Ta’lim sohasidagi asosiy prinsiplar

-ta’lim ustuvorligining tan olinishi;

-ta’lim olish shaklini tanlash erkinligi;

-ta’lim sohasida kamsitishlarga yo‘l qo‘yilmasligi;

-ta’lim olishga doir teng imkoniyatlarning ta’minlanishi;

-ta’lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi;

-ta’lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyati;

-ta’limning uzluksizligi va izchilligi;

-o‘n bir yillik ta’limning hamda olti yoshdan yetti yoshgacha bo‘lgan bolalarni bir yil davomida umumiy o‘rta ta’limga tayyorlashning majburiyligi;

-davlat ta’lim standartlari va davlat ta’lim talablari doirasida ta’lim olishning hamma uchun ochiqligi;

-o‘quv dasturlarini tanlashga doir yondashuvning yagonaligi va tabaqalashtirilganligi;

-insonning butun hayoti davomida ta’lim olishi;

-jamiyatda pedagoglarni ijtimoiy himoya qilishning kafolatlanganligi;

-ta’lim tizimining dunyoviy xususiyatga egaligi;

-bilimlilik, qobiliyatlilik va iste’dodning rag‘batlantirilishi;

-ta’lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvining uyg‘unligi;

-ta’lim faoliyati sohasidagi ochiqlik va shaffoflik.

Ta`lim tizimidagi islohotlar va ularning maqsad va yo`nalishlari O`zbekistonning buyuk davlatga aylanishida ta`lim-tarbiya ishlarini oqilona yo`lga qo`yish, fuqarolarni zamonaviy ilm-fan, madaniyat, texnika va texnologiya yutuqlari bilan muntazam ravishda tanishtirib borish benihoya katta ahamiyatga ega. texnikaviy bilimlar va murakkab texnologiyani egallagan, irodasi baquvvat, iymoni butun, zamonaviy fikrlaydigan, yuksak salohiyatli odamlar hal etadi. Kelajak taqdirimizga hal qiluvchi ta`sir ko`rsatadigan asosiy omil – fan-texnika, madaniyat, ma`rifat, ta`lim-tarbiya, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar borasidagi yangiliklar va yutuqlarni, jahon mamlakatlari tajribalarini keng ko`lamda o`rganish, rivojlantirish va hayotga joriy etishdir.

Xorijiy manbalarga tayangan holda ta’lim oluvchilarning o‘quv faoliyatini tashkil etishda - yoshlarni bilim, ko‘nikma, malakalar bilan qurollantirish, ularning qobiliyati va iste’dodlarini rivojlantirish jarayonida baholash va bilimlarni tekshirib turish muhim ahamiyat kasb etadi. Baholash ta’lim tizimida foydalanilayotgan metodlar qanchalik samarali ekanligini, talabalarning o‘zlashtirish darajasini aniqlashga yordam beradi. Albatta ta’lim tizimini samarali bo‘lishi pedagog kadrlarning tayyorgarlik darajasiga ham bog‘liq. Pedagog birinchi galda o‘z kasbini sevishi, hurmat qilishi, talabaga katta qiziqish va mehr bilan qarashi, jamiyat oldidagi o‘zining katta mas’uliyatini his qila olishi shart. Pedagog har bir talabaning bilimi va tarbiyalanganlik darajasini aniqlay olishi va hisobga olishi, o‘quv materiallarini to‘g‘ri tanlay bilishi, tahlil qila olishi va umumlashtira bilishi pedagogik mahorat uchun zarur bo‘lgan ta’lim usullari, vositalari va shakllarini mukammal bilishi, talabaga nisbatan talabchan bo‘lishi pedagogik vaziyatga qarab ulardan o‘rinli foydalana olishi, o‘z faoliyatini tahlil qila olishi va xulosalar chiqara olishi kerak[15].

Kadrlar tayyorlash tizimi rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari

1. Ta’limning uzluksizligini ta’minlash

[15] Sharon A. Wynne. Pedagogy professional responsibilities. EC-12 Teacher Certification. 2013. 41-б.

2. Pedagog va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish
3. Ta’lim jarayonini mazmunan islox qilish
4. Ma’naviy-axloqiy tarbiya va ma’rifiy ishlar
5. Iqtidorli bolalar va iste’dodli yoshlar
6. Ta’lim tizimini boshqarish
7. Kasb-hunar ta’limi sifatini nazorat qilish tizimini shakllantirish
8. Ta’lim tizimini moliyalash
9. Moddiy-texnika ta’minoti
10. Ta’lim tizimining yaxlit axborot makonini vujudga keltirish
11. Ta’lim xizmati ko‘rsatish bozorini rivojlantirish
12. Ta’lim sohasida ijtimoiy kafolatlarni ta’minlash hamda bu sohani davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash
13. Fan bilan ta’lim jarayoni aloqalarini rivojlantirish
14. Ishlab chiqarish va ta’lim tizimi integratsiyalashuvini rivojlantirish
15. Ta’lim va kadrlar tayyorlash sohasidagi xalqaro hamkorlik

Kadrlar tayyorlash tizimini shakllantirish va rivojlantirish quyidagi ustuvor yo‘nalishlarni qamrab oladi:

1. Ta’limning uzluksizligini ta’minlash. Ta’limning o‘z ichiga maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limini qamrab oluvchi yangi uzluksiz va izchil tizimi barpo etiladi. Oliy kasb-hunar ta’limining bakalavrlar va magistrlar tayyorlashni nazarda tutuvchi ikki bosqichli tizimi joriy etiladi. Aspirantura va doktorantura faoliyati rivojlanib boradi. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash bo‘yicha raqobatbardosh ta’lim muassasalari vujudga keltiriladi.

Ta’lim muassasalarini hududiy yo‘nalishga o‘tkazish va tarkibiy tuzilmasini o‘zgartirish ishi amalga oshiriladi. Uzluksiz ta’lim tizimini rivojlantirish va uning samaradorligini baholash monitoringi amalga oshiriladi.

Uzluksiz ta’lim tizimi uchun pedagog kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash ustuvorligi ta’minlanadi.

2. Pedagog va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish. Pedagog kadrlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlashning zamon talablariga moslashuvchan, ta’limning yuqori sifatli va barqaror rivojlanishini ko‘zlovchi tizimi vujudga keltiriladi. Pedagog kadrlarni ildam qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, raqobatbardosh darajada ularning kasb sifatini qo‘llab-quvvatlash ta’minlanadi.

Oliy ta’lim muassasalarida davlat ta’lim standartlariga mos yuqori malakali o‘qituvchilar tayyorlash bo‘yicha maxsus fakultetlar, shuningdek respublika viloyatlarida umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi uchun o‘qituvchilar va mutaxassislar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash yuzasidan maxsus markazlar tashkil etiladi.

3. Ta’lim jarayonini mazmunan islox qilish. Kadrlarni o‘qitish va tarbiyalash milliy tiklanish prinsiplari va mustaqillik yutuqlari, xalqning boy milliy, ma’naviy va intellektual salohiyati hamda umumbashariy qadriyatlarga tayangan, insonparvarlikka yo‘naltirilgan ta’limning mazmuni davlat ta’lim standartlari asosida isloh qilinadi. Ta’lim oluvchining shaxsiga, unda ta’lim va bilimlarga bo‘lgan ishtiyoqni kuchaytirishga, mustaqil ish tutishni, iftixor va insoniy qadr-qimmat tuyg‘usini shakllantirishga alohida e’tibor beriladi.

Pedagog kadrlarning obro‘-ye’tibori, mas’uliyati va kasb ko‘nikmasini oshirish yuzasidan sobitqadam davlat siyosati olib boriladi. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar, ta’limning yangi shakl va uslublari, o‘quv, shu jumladan differensiyalashgan dasturlar amaliyotga joriy etiladi.

4. Ma’naviy-axloqiy tarbiya va ma’rifiy ishlar. Yosh avlodni ma’naviy-ahloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy madaniy-tarixiy an’analariga, urf-odatlari hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etiladi. Shaxsni tarbiyalash va uni har tomonlama kamol toptirishning ustuvorligi ta’minlanadi. Umumiy hamda pedagogik madaniyatni oshirish maqsadida, mamlakat aholisi orasidagi ma’rifiy ishlar takomillashtirib boriladi.

O‘zbekiston mustaqilligi prinsiplariga sadoqatli hamda jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shishga qodir shaxsni shakllantirish maqsadida ta’lim muassasalari ota-onalar, oila, mahalla qo‘mitalari, Respublika Ma’naviyat targ‘ibot markazi, Milliy g‘oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi, jamoat tashkilotlari, fondlar bilan o‘zaro puxta hamkorlik qiladilar. (O‘zR 09.04.2007 y. O‘RQ-87-son Qonuni taxriridagi xat boshi)

5. Iqtidorli bolalar va iste’dodli yoshlar. Iqtidorli bolalar va iste’dodli yoshlarni aniqlash va o‘qitish uslubiyati, psixologik-pedagogik va tashkiliy sharoitlari yaratiladi, bunday bolalar va yoshlarga oid ma’lumotlarning respublika banki va monitoringi shakllanadi. Maxsus o‘quv dasturlari va progressiv pedagogik texnologiyalar ishlab chiqish uchun eng yaxshi pedagog va olimlar jalb qilinadi, o‘quv-tarbiya jarayonida ularning faol ishtiroki ta’minlanadi. Fan va texnikani, siyosat va iqtisodiyotni, madaniyat va san’atni o‘rgatish markazlari qabilidagi hamda milliy (yelita) ta’lim muassasalari tashkil etiladi.

Iqtidorli bolalar va iste’dodli yoshlarni chet ellarda umumiy va kasbiy jihatdan tayyorgarlikdan o‘tkazishga qaratilgan sobitqadam faoliyat amalga oshiriladi. Akademik litseylarning o‘quvchilariga, birinchi navbatda iqtidorli, yuksak iste’dod sohiblariga, bilimning tegishli sohalari va fanning aniqyo‘nalishlari bo‘yicha o‘z tabiiy qobiliyatlarini namoyon etish va rivojlantirish, o‘zlaridagi noyob iste’dodni ro‘yobga chiqarish uchun keng imkoniyatlar yaratiladi.

6. Ta’lim tizimini boshqarish. Uzluksiz ta’lim tizimi va kadrlar tayyorlashning davlat va nodavlat ta’lim muassasalarini tarkibiy jihatdan

o‘zgartirish va ularni izchil rivojlantirish davlat yo‘li bilan boshqarib boriladi. Barcha darajadagi ta’lim boshqaruv organlarining vakolat doiralari "Ta’lim to‘g‘risida"gi Qonunga muvofiq belgilanadi. Ta’limning normativ-huquqbazasi rivojlantiriladi. Moliya-xo‘jalik faoliyati olib borish hamda ta’lim jarayonini tashkil etishda o‘quv yurtlarining huquqlari kengayadi va mustaqilligi ta’minlanadi. Ta’lim muassasalari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda attestatsiyadan o‘tkaziladi hamda akkreditatsiyalanadi. Akkreditatsiya yakunlariga ko‘ra ta’lim sohasida faoliyat ko‘rsatish huquqi beriladi.

Muassis tashkilotlarning, mahalliy hokimiyat organlarining, savdo-sanoat doiralarining, jamoat tashkilotlarining, fondlarning va homiylarning vakillarini o‘z ichiga oluvchi vasiylik va kuzatuv kengashlari tuzish orqali ta’lim muassasalarining samarali jamoat boshqaruvi tizimi joriy etiladi.

9. Moddiy-texnika ta’minoti. Har bir mintaqaning demografik va jo‘g‘rofiy xususiyatlaridan kelib chiqib, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari tarmog‘i barpo etiladi. Ta’lim oluvchilarni oiladan ajralmagan holda o‘qishga imkon qadar ko‘proqqamrab olinadi.

Mavjud ta’lim muassasalarini kapital ta’mirlash va yangi ta’lim muassasalari qurish, ularni normativ talablarga muvofiq, zamonaviy texnika va texnologiyalarning darajasini hisobga olgan holda jihozlanishini ta’minlash choralari ko‘riladi.

o‘quv-tarbiya muassasalarini zarur uskunalar, inventarlar, ashyolar, ta’limning texnikaviy, dasturiy va didaktik vositalari bilan jihozlash yuzasidan ixtisoslashtirilgan ishlab chiqarishlarni vujudga keltirish qo‘llab-quvvatlanadi. Barcha bosqichdagi ta’lim jarayonlarini kompyuterlashtirish va axborotlashtirish amalga oshiriladi.

10. Ta’lim tizimining yaxlit axborot makonini vujudga keltirish. Zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuterlashtirish va kompyuterlar tarmoqlari negizida ta’lim jarayonini axborot bilan ta’minlash rivojlanib boradi. Ta’lim jarayonida ommaviy axborot vositalarining mavqei oshib boradi, televidenie va radioning ta’lim dasturlari intellektuallashuvi ta’minlanadi. Fan va ta’limning nashriyot bazasi rivojlantiriladi, o‘quv, o‘quv-uslubiy, ilmiy, qomusiy adabiyotlar va ma’lumotnomalar bilan ta’minlashning barqaror tizimi shakllantiriladi.

11. Ta’lim xizmati ko‘rsatish bozorini rivojlantirish. Ta’lim va kadrlar tayyorlash sohasida marketingni rivojlantirish yo‘li bilan ta’lim xizmati ko‘rsatishning raqobatga asoslangan bozori shakllantiriladi. Davlat va nodavlat ta’lim muassasalari rivojlantiriladi, ta’lim va kadrlar tayyorlash sohasida raqobatga asoslangan muhit vujudga keltiriladi, ta’lim xizmati ko‘rsatish bozori davlat yo‘li bilan boshqarib boriladi. Asosiy ta’lim dasturlarida nazarda tutilmagan konsultativ

va qo‘shimcha ta’lim xizmatlaridan iborat pullik ta’lim xizmati ko‘rsatish tizimi rivojlantiriladi.

12. Ta’lim sohasida ijtimoiy kafolatlarni ta’minlash hamda bu sohani davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash. Pedagogik faoliyatning obro‘-ye’tiborini va ijtimoiy maqomini oshirish yuzasidan davlat siyosati ro‘yobga chiqariladi. Ta’lim oluvchilarning va pedagoglarning o‘qishi, sog‘ligi va dam olishi uchun zarur sharoitlar yaratiladi.

Ta’lim muassasalari va sog‘liqni saqlash organlari bolalar hamda o‘quvchi yoshlarning sog‘ligini saqlash va mustahkamlash uchun zarur choralarni ko‘radilar. o‘quv-tarbiya jarayonining sog‘lomlashtirishga qaratilgan yo‘nalishini ro‘yobga chiqarish, sog‘lom turmush tarzi normalarini joriy etish uchun sharoitlar ta’minlanadi. Ta’lim oluvchilarning tibbiy-gigiena madaniyatini oshirish, ularning jismoniy tarbiya va sport bobidagi ffaolligini kuchaytirish hamda jismoniy kamolot darajasini oshirish uchun tashkiliy-uslubiy yondashuvlar takomillashtiriladi. Sog‘liq va rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun munosib muhit yaratiladi.

13. Fan bilan ta’lim jarayoni aloqalarini rivojlantirish. Ta’lim va kadrlar tayyorlash sohasida ilg‘or amaliy ilmiy tadqiqotlar o‘tkaziladi, ta’lim sifati davlat ta’lim standartlariga muvofiqkelishini tashkil etish va ta’minlash maqsadida pedagogika va ta’lim sohasida ilmiy tadqiqotlar va ilmiy-uslubiy qo‘llanmalar ishlab chiqish faollashtiriladi. Fundamental va amaliy fan sohasidagi ilmiy kadrlarning ta’lim jarayonidagi ishtiroki rag‘batlantiriladi, pedagogik va ilmiy-tadqiqot jarayonlarining aloqasi ta’minlanadi. Yoshlarning fan-texnika sohasidagi ijodkorligi har tomonlama qo‘llab-quvvatlanadi.

14. Ishlab chiqarish va ta’lim tizimi integratsiyalashuvini rivojlantirish. o‘quv-ishlab chiqarish majmualarini (markazlarini) tashkil etish va ularni rivojlantirish, zamonaviy uskunalar, apparatlar va asboblar bilan jihozlash rag‘batlantiriladi. Kadrlar tayyorlash va birgalikdagi ilmiy-texnologik yechimlar yaratishda korxonalarning ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalaniladi. Ishlab chiqarishda kadrlar tayyorlash qo‘llab-quvvatlanadi. Ilg‘or texnologiya sohasida pedagog kadrlarning malakasi bevosita ishlab chiqarishda muntazam ravishda oshirib boriladi.

15. Ta’lim va kadrlar tayyorlash sohasidagi xalqaro hamkorlik. Kadrlar tayyorlash sohasidagi hamkorlikning xalqaro-huquqiy bazasi yaratiladi, xalqaro hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlari ro‘yobga chiqariladi, xalqaro ta’lim tizimlari rivojlantiriladi, ilmiy-pedagog kadrlar, talabalar va o‘quvchilar almashish kengayadi. Ta’lim to‘g‘risidagi milliy hujjatlar xalqaro miqyosda e’tirof etilishi uchun asos yaratiladi. Manfaatdor vazirliklar va idoralarning, O‘zbekiston Respublikasining chet ellardagi elchixonalarining kadrlar tayyorlash sohasiga chet el investitsiyalarini bevosita va bilvosita keng jalb qilish borasidagi faoliyat kuchaytiriladi.

3.2. Milliy dasturni amalga oshirish bosqichlari. DTS o`zgarishlar.

Milliy dasturning maqsad va vazifalari bosqichma-bosqich ro‘yobga chiqariladi.

Birinchi bosqich (1997-2001 yillar) mavjud kadrlar tayyorlash tizimining ijobiy salohiyatini saqlab qolish asosida ushbu tizimni isloh qilish va rivojlantirish uchun huquqiy, kadrlar jihatidan, ilmiy-uslubiy, moliyaviy-moddiy shart-sharoitlar yaratish.

Ushbu bosqichda quyidagilarni amalga oshirish zarur:

– "Ta’lim to‘g‘risida"gi Qonunga muvofiqta’lim tizimi mazmunini tarkibiy qayta qurish va tubdan yangilash;

– pedagog va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash hamda ularning malakasini oshirishni zamon talablariga javob beradigan darajada tashkil etish;

– ta’lim oluvchilarning yuksak tayyorgarlilik darajasi, malakasi, madaniy va ma’naviy-ahloqiy saviyasining sifatiga nisbatan qo‘yiladigan zarur talablarni belgilab beruvchi davlat ta’lim standartlarini yaratish va joriy etish;

– o‘quv-uslubiy majmualarning hamda ta’lim jarayoni didaktik va axborot ta’minotining yangi avlodini ishlab chiqish va joriy etish;

– o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi uchun zarur moddiy-texnika, o‘quv-uslubiy va kadrlar bazasini tayyorlash;

– ta’lim va kadrlar tayyorlashga budjetdan tashqari mablag‘lar jalb etishning mexanizmlarini takomillashtirish, davlat ta’lim muassasalari bilan bir qatorda nodavlat ta’lim muassasalarini rivojlantirishni ham nazarda tutgan holda ta’lim xizmati ko‘rsatish sohasida raqobatga asoslangan muhitni vujudga keltirish;

– ta’lim muassasalari faoliyatiga baho berishning reyting tizimini, kadrlar tayyorlash sifati va ularga bo‘lgan ehtiyojning monitoringini olib borish tizimini ishlab chiqish va joriy etish;

– xalqaro aloqalarni kengaytirish va kuchaytirish, kadrlar tayyorlashda xalqaro donorlik tashkilotlari va fondlari faoliyatiga tegishli sharoitlar yaratish, shuningdek respublika ta’lim sohasiga chet el investitsiyalarini jalb etish bo‘yicha real chora-tadbirlar ishlab chiqish va ularni amalga oshirish;

– Kadrlar tayyorlash milliy dasturini ro‘yobga chiqarishning monitoringini olib borish.

Ushbu bosqichda bolalarni olti-yetti yoshdan maktabga qabul qilish, ularning jismoniy va aqliy jihatdan rivojlanganligini e’tiborga olgan holda amalga oshiriladi. Taqozo etilayotgan o‘quvchi o‘rinlari zarur moddiy-texnika shart-sharoitlari va pedagog kadrlar bilan ta’minlangan holda izchil tayyorlanadi.

Birinchi bosqich bajarilishining monitoringi asosida Milliy dasturni ro‘yobga chiqarish yo‘nalishlariga aniqliklar kiritiladi.

Ikkinchi bosqich (2001-2005 yillar) Milliy dasturni to‘liq ro‘yobga chiqarish, mehnat bozorining rivojlanishi va real ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda unga aniqliklar kiritish.

Majburiy umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limiga, shuningdek o‘quvchilarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga qarab, tabaqalashtirilgan ta’limga o‘tish to‘liq amalga oshiriladi.

Ta’lim muassasalarini maxsus tayyorlangan malakali pedagog kadrlar bilan to‘ldirish ta’minlanadi, ularning faoliyatida raqobatga asoslangan muhit vujudga keltiriladi.

Ta’lim muassasalarining moddiy-texnika va axborot bazasini mustahkamlash davom ettiriladi, o‘quv-tarbiya jarayoni yuqori sifatli o‘quv adabiyotlari va ilg‘or pedagogik texnologiyalar bilan ta’minlanadi. Uzluksiz ta’lim tizimini axborotlashtirish amalga oshiriladi.

Ta’lim xizmat ko‘rsatish bozorini shakllantirish mexanizmlari to‘liqishga solinadi.

Uchinchi bosqich (2020 yil)Ta’lim — ta’lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko‘nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta’lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko‘nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon;

ta’lim kampusi — yagona hududda birlashtirilgan o‘quv binolarini, ilmiy-tadqiqot institutlarini (markazlarini), ishlab chiqarish majmualari va texnoparklarni, ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining vaqtincha yashash joylarini, laboratoriyalarni, axborot-resurs markazlarini (kutubxonalarni), sport inshootlarini, umumiy ovqatlanish obyektlarini o‘z ichiga olgan binolar hamda inshootlar majmuidan iborat bo‘lgan, o‘quv jarayoni, ma’naviy-axloqiy tarbiyaning yuqori samaradorligini ta’minlaydigan ta’lim-tarbiya muhiti;

ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari — ta’lim oluvchilar, voyaga yetmagan ta’lim oluvchilarning ota-onalari yoki boshqa qonuniy vakillari, pedagog xodimlar va ularning vakillari;

ta’lim tashkilotlari attestatsiyasi — ta’lim tashkilotlarining faoliyatini baholash, davlat ta’lim standartlari, davlat ta’lim talablari hamda o‘quv dasturlariga muvofiq kadrlar tayyorlash mazmuni, darajasi va sifatini aniqlash bo‘yicha davlat nazoratining asosiy shakli.

Ma'lumki, davlatimiz rahbari ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yoshlar va xotin-qizlar manfaatlariga xizmat qiluvchi 5 ta muhim tashabbusni ilgari surgan edi.



3.3. Shaxs – Milliy modelning asosiy komponenti

1. Shaxs
2. Davlat va jamiyat
3. Uzluksiz ta’lim
4. Kadrlar tayyorlash tizimida fan
5. Kadrlar tayyorlash tizimida ishlab chiqarish

Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iboratdir:

– shaxs - kadrlar tayyorlash tizimining bosh subekti va obekti, ta’lim sohasidagi xizmatlarning iste’molchisi va ularni amalga oshiruvchi;

– davlat va jamiyat - ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlar tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillari;

– uzluksiz ta’lim malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo‘lib, ta’limning barcha turlarini, davlat ta’lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko‘rsatish muhitini o‘z ichiga oladi;

– fan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiquvchi;

– ishlab chiqarish kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni, shuningdek ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo‘yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliya va moddiy-texnika jihatidan ta’minlash jarayonining qatnashchisi.

Davlat va jamiyat uzluksiz ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimi barcha uchun ochiqbo‘lishini va hayot o‘zgarishlariga moslashuvchanligini ta’minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi tomonidan inson huquqlari, ta’lim, bola huquqi sohasidagi shartnomalar va konvensiyalarning bajarilishi, kadrlar tayyorlash sohasida jahon ilg‘or tajribasini hisobga olish uzluksiz ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimining barcha jihatlariga daxldor bo‘lib, uning rivojlanishi omillaridan biridir.

Shaxs. Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma’naviy-ahloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog‘liqbo‘lgan uzluksiz ta’lim tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxs fuqaroni shakllantirishni nazarda tutadi. Shu tarzda fuqaroning eng asosiy konstitutsiyaviy huquqlaridan biri bilim olish, ijodiy qobiliyatni namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanish, kasbi bo‘yicha mehnat qilish huquqi ro‘yobga chiqariladi.

"Ta’lim to‘g‘risida"gi Qonun umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi standartlari orqali sifatli ta’lim olish, shuningdek ta’lim va kasb-hunar jihatdan tayyorgarlikning shakllari va turlarini tanlashni, uzluksiz malaka oshirib borish, zarurat taqozo esa, tegishli qayta tayyorgarlikdan o‘tish huquqini va keng imkoniyatlarini nazarda tutadi.

Ta’lim xizmatlarining iste’molchisi sifatida shaxsga davlat ta’lim olish va kasb-hunar tayyorgarligi ko‘rish kafolatlanadi. Ta’lim olish jarayonida shaxs davlat ta’lim standartlarida ifoda etilgan talablarni bajarishi shart.

Shaxs ta’lim xizmatlarining yaratuvchisi sifatida tegishli malaka darajasini olgach, ta’lim, moddiy ishlab chiqarish, fan, madaniyat va xizmat ko‘rsatish sohasida faoliyat ko‘rsatadi va o‘z bilimi va tajribasini o‘rgatishda ishtirok etadi.

Davlat va jamiyat. Davlat va jamiyat kadrlar tayyorlash tizimi amal qilishi va rivojlanishining kafillari, yuqori malakali raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash bo‘yicha ta’lim muassasalarining faoliyatini uyg‘unlashtiruvchi sifatida faoliyat ko‘rsatadi.

Davlat va jamiyat quyidagilarga, chunonchi:

Fuqarolarning bilim olish, kasb tanlash va o‘z malakasini oshirish huquqlari ro‘yobga chiqarilishiga;

Majburiy umumiy o‘rta ta’lim hamda akademik litsey yoki kasb-hunar kollejida ta’lim olish yo‘nalishini tanlash huquqi asosida majburiy o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi olishga;

Davlat grantlari yoki pullik-shartnomaviy asosda oliy ta’lim va oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim olish huquqiga;

Davlat ta’lim muassasalarini mablag‘ bilan ta’minlashga;

Ta’lim oluvchilarning o‘qishi, turmushi va dam olishi uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi vazifalar hal etilishida jamoatchilik boshqaruvini rivojlantirishga;

Ta’lim jarayoni qatnashchilarini ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashga;

Sog‘liq va rivojlanishda nuqsoni bo‘lgan shaxslar ta’lim olishiga kafolat beradilar.

Uzluksiz ta’lim. Uzluksiz ta’lim kadrlar tayyorlash tizimining asosi, O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor sohadir.

Uzluksiz ta’lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma’naviy boy shaxs shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar ildam tayyorlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi.

Kadrlar tayyorlash tizimida fan. Kadrlar tayyorlash milliy modeli salmoqli element sifatida fanni o‘z ichiga oladi, bu sohada:

– tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlari to‘g‘risidagi yangi fundamental va amaliy bilimlar shakllanadi, kadrlar tayyorlash tizimida ommalashtirish, o‘rganish va foydalanish uchun kerakli ilmiy natijalar jamlanadi:

– oliy malakali ilmiy va pedagog kadrlar tayyorlash amalga oshiriladi;

– kadrlar tayyorlash jarayonini ilmiy-tadqiqot jihatidan ta’minlash infrastrukturasi vujudga keltiriladi, ta’limning axborot tarmoqlarida foydalanish maqsadida bilimning turli sohalari bo‘yicha axborot bazasi shakllantiriladi;

– mamlakatimiz ilm-fanining jahon ilm-faniga integratsiyasi sodir bo‘ladi, zamonaviy ilm-fan va texnologiyalarning eng muhim muammolarini hal etish uchun ilmiy yutuqlar va kadrlarni xalqaro miqyosda almashinuv amalga oshiriladi.

Kadrlar tayyorlash tizimiga ilm-fanning uzviy ravishda kirib borishi uchun quyidagilar zarur:

– ilg‘or pedagogik texnologiyalarni yaratish va o‘zlashtirish yuzasidan maqsadli innovatsiya loyihalarini shakllantirish va amalga oshirish yo‘li bilan ilm-fanning ta’lim amaliyoti bilan aloqasini ta’minlash chora-tadbilarini ishlab chiqish;

– ilg‘or axborot va pedagogik texnologiyalarni joriy etish uchun eksperimental maydonchalar barpo etish orqali ilmiy tadqiqotlar natijalarini o‘quv-tarbiya jarayoniga o‘z vaqtida joriy etish mexanizmini ro‘yobga chiqarish;

– Kadrlar tayyorlash milliy dasturini samarali tarzda bajarishni ta’minlash yuzasidan ilmiy-tadqiqiot ishlarini olib borish;

– yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, yoshlarning ilmiy ijodiyotini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash;

– ta’lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik ishlar darajasini baholashga zamonaviy yondashuvni ro‘yobga chiqarish, ilmiy tadqiqotlar va texnologik ishlanmalar natijalari tijoratlashuvi asosida olimlarning obro‘ e’tibori va ijtimoiy maqomini oshirish;

– mamlakat ilm-fanining xalqaro ilmiy hamjamiyatga integratsiyasini faollashtirish, ta’lim sohasi va kadrlar tayyorlashni takomillashtirish maqsadida ilmiy yutuqlar va olimlar bilan o‘zaro almashinuv jarayonini kuchaytirish;

– fan va texnologiyalar sohasidagi faoliyatni ma’naviy va moddiy rag‘batlantirish tizimini ishlab chiqish, talabalar va yosh olimlarning ilmiy

yutuqlari uchun maxsus mukofotlar va sovrinlar ta’sis etish, maxsus stipendiyalar sonini ko‘paytirish, yoshlar ilmiy-texnika ijodiyotining doimiy ishlaydigan ko‘rgazma va ekspozitsiyalarini tashkil etish.

Kadrlar tayyorlash tizimida ishlab chiqarish. Ishlab chiqarishning talab-ehtiyojlari kadrlar tayyorlash tizimining yo‘nalishi, darajasi va miqyoslarini shakllantiradi, kasb tayyorgarligining maqsadi, vazifalari va mazmunini belgilaydi, malaka talablarini ilgari suradi, ta’limning muvoziy texnologiyalari va shakllarini tanlashni taqozo etadi. Ishlab chiqarish pirovard natijada kadrlarning sifati va raqobatbardoshligiga baho beradi.

Ishlab chiqarishning kadrlar tayyorlash tizimidagi vazifalari quyidagilar bilan belgilanadi, chunonchi u:

– turli saviya va malakadagi mutaxassislarga bo‘lgan talab-yehtiyojni shakllantiradi;

– o‘z ixtiyoridagi moddiy-texnika, moliya, kadr resurslari hamda kadrlarni o‘qitish, malakasini oshirish va qayta tayyorlash uchun zarur boshqa resurslarni berish bilan uzluksiz ta’lim tizimiga ko‘maklashadi;

– muassis, vasiy, donor, homiy tariqasida ayrim mutaxassislarni va guruhlarni maqsadli tayyorlashni, shuningdek turli tip va darajadagi o‘quv yurtlarini moliyalashda qatnashadi;

– ta’lim va ilm-fanning turli shakllardagi integratsiyasini (muvaqqat ijodiy jamoalar, o‘quv-ilmiy-ishlab chiqarish majmualari, markazlari, texnoparklar, texnopolislar) rivojlantiradi.

Ishlab chiqarishning kadrlar tayyorlash tizimidagi mavqeini kuchaytirish quyidagi yo‘llar bilan ta’minlanadi:

– ta’limni karxonadagi unumli mehnat bilan, shu jumladan ishlab chiqarish amaliyoti jarayonidagi mehnat bilan qo‘shib olib borish asosida yuqori malakali kadrlar tayyorlash;

– kadrlar tayyorlash hamda birgalikda ilmiy-texnologiya ishlanmalarini olib borishda korxonalarning ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish;

– ta’lim oluvchilarni mehnat jamoalarida tarbiyalash (mehnat, ma’naviy va jismoniy tarbiyalash);

– ishlab-chiqarishning talab-yehtiyojlarini inobatga olib, texnika va texnologiyalarni rivojlantirishning yangi yo‘nalishlari bo‘yicha kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

– ishlab chiqarishning iqtisodiy va texnologiya muammolarini hal etish uchun oliy ta’lim muassasalari va ilmiy tashkilotlarning ilmiy salohiyatini jalb etish;

– pedagog kadrlarning ilg‘or texnologiyalar sohasidagi malakasini bevosita ishlab chiqarishda muntazam oshirib borish;

– ishlab chiqarishning yuqori malakali kadrlarini ta’lim jarayoniga va pedagogik faoliyatga jalb etish;

– ishlab chiqarish amaliyotini o‘tish uchun ta’lim oluvchilarni ish joylari bilan ta’minlash;

– o‘zaro integratsiyalangan ta’lim muassasalarini zamonaviy uskunalar, apparatlar va asboblar bilan jihozlash.

O‘quvchilar ishlab chiqarish ta’limini korxonalarda guruh ustasining rahbarligida o‘tadilar.

O‘qitishni tashkil qilishning eng ko‘p tarqalgan shakllari quyidagilardir;

-guruhlarni korxona yoki tashkilot ajratgan mustaqil o‘quv maydonlarida o‘qitish;

-o‘quvchilarni alohida-alohida jamoalarga bo‘lib, ishlab chiqarish guruhlarida o‘qitish;

-o‘quvchilarni murakkab mashina va mexanizmlarga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha individual ish o‘rinlarida o‘qitish;

-korxonaning sifatli ishchi o‘rinlarida ishlab chiqarish amaliyotini o‘tish;

Guruh o‘quv ishini tashkil qilishning u yoki bu shakli qator shartlarda;

-o‘quvchilar o‘rganayotgan kasb va mutaxassisliklardagi ishchilarning mehnatlarini tashkil qilish shakllari;

-texnologik jarayonning tashkil qilinishi.

Guruhni mustaqil o‘quv maydonlarida o‘qitish, o‘quvchilar bajarayotgan topshiriqlar bir xil bo‘lganda o‘quv mashg‘ulotlarini tizimli tarzda o‘tish uchun eng qulay sharoitlar yaratadi va o‘quv ustasiga darsdan ishlab chiqarish ta’limini tashkil qilishning eng mahsuldor shakli sifatida foydalanish imkonini beradi. Shuning uchun o‘qitishning bunday turi va kasb xarakteri yoki korxonalardagi mehnatni tashkil qilish sharoitlari imkon bergan vaqtda qo‘llanadi[16].

[16] Sharon A. Wynne. Pedagogy professional responsibilities. EC-12 Teacher Certification. 2013. 35-б.

Nazorat savollari:

1. O'zbekiston Respublikasi davlat ta`lim siyosatining tamoyillarini sanab bering.
2. Kadrlar tayyorlar tizimi rivojlanishining asosiy yo'nalishlarini sanab bering.
3. Milliy dasturni amalga oshirish 3 ta bosqichlari tahlil qiling.
4. Shaxs – Milliy modelning asosiy komponenti haqida ma`lumot bering.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdiquddusov O., Rashidov H. Kasb-hunar ta’limi pedagogikasi. O‘quv qo‘llanma. – T: O‘MKHTTKMOvaUQT instituti, 2009. - 120 b.
2. Muslimov N.A., Mullaxmetov R.G. Kasb tanlashga yo‘llash. O‘quv qo‘llanma. –T.: 2007. - 165 b.
3. Olimov Q.T. Kasb ta’limi uslubiyati. O‘quv qo‘llanma. –T.: 2006. - 164 b.
4. Xakimova M. Kasbiy pedagogika. O‘quv qo‘llanma. –T.: 2007. - 193 b.
1. Sharon A. Wynne. Pedagogy professional responsibilities. EC-12 Teacher Certification. 2013. 251 b.

4 KASBIY TA'LIM TIZIMLARINING QIYoSIY TAHLILI (ChET EL TAJRIBASI SIFATIDA)

Reja:	4.1.AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, mamlakatlarida kasbiy ta'lim. 4.2.Fransiya va Germaniyada ta'lim tizimi va mazmuni.

***Tayanch iboralar**: ta`lim tizimi, kasbiy ta`lim, tajriba, qiyosiy, tahlil, maktab tizimi, ma`lumot, oliy ma`lumot, reja, o'rta maxsus.*

4.1. AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya va Yaponiya mamlakatlarida kasbiy ta'lim

Amerika Qo'shma Shtatlarida ta'lim tizimi. AQShda bolalar 6 yoshdan 17 yoshgacha 12 yil o'qiydilar. Ta'lim tizimi quyidagicha tashkil etilgan:

1. Maktabgacha tarbiya muassasalari (3 - 5 yosh).
2. Boshlang'ich maktab (1-5 sinflarni o'z ichiga oladi).
3. To'liq bo'lmagan o'rta maktab (6-8 sinflarni o'z ichiga oladi).
4. Yuqori maktab (9-11 sinflarni o'z ichiga oladi). Mazkur yuqori maktab bilan Oliy ta'limni aralashtirmaslik kerak.

AQSh maktablarida 9-sinfgacha asosiy e'tibor matematika faniga emas, balki tabiiy fanlarga qaratiladi. Ta'lim oluvchilar uchun yagona, majburiy darsliklar, qo'llanmalar yo'q. Maktablarida texnikaviy jihatdan yaxshi jihozlangan, sinflar kompyuterlashtirilgan. Har bir maktabda boshlang'ich sinf o'quvchilarini tashiydigan maxsus avtobuslar, stadionlar, turli labaratoriyalar bor. Maktablarning aksariyati davlat ixtiyorida bo'lib, davlat mablag'i bilan ta'minlanadi. Shaxsiy maktablar ham anchagina. Katta shaharlarda yashovchi o'ziga to'q ota – onalar farzandlarini shaxsiy maktablarga berishga harakat qilishadi. Shaxsiy maktablarda o'qitish pullik. Vashington shahridagi shaxsiy maktabda bolani o'qitish uchun bir yilga taxminan o'ng ming dollar to'lash kerak. Bunday maktablarda boy oila farzandlari ta'lim oladilar. Shaxsiy maktablarning har biri o'ziga xos xususiyatlarga, maxsus dasturlarga, maxsus ta'lim beruvchilarga ega. Bunday maktablarda sinfda o'qiydigan o'quvchilar soni kam bo'ladi. Shaxsiy maktablarda boshlang'ich sinflardan boshlab estetik tarbiyaga, san'atga alohida e'tibor beriladi.

AQSh davlat maktablarning yuqori sinflaridagi o'qish – o'qitish tizimi biznikidan tubdan farq qiladi. Yuqori sinflardagi har bir o'quvchiga alohida ta'lim beruvchi – murabbiy biriktiriladi. U shu o'quvchining qobiliyati, qiziqishlarini sinchiklab o'rganib, faqat shu o'quvchi uchun alohida reja tuzib, uning o'qishiga

rahbarlik qiladi. Masalan, 9-sinf o‘quvchisi bir fandan, deylik, kimyodan kuchli bo‘lsayu, chet tilidan oqimasa, bu o‘quvchiga 9-sinfda o‘ninchi sinf rejasi bo‘yicha kimyoni o‘rganishga ruxsat etiladi. U chet tilini 9-sinf hajmida yoki yengillashtirilgan reja bo‘yicha o‘rganishi mumkin. Kimyodan yoki matematika, biologiya, fizika va boshqa tabiiy fanlardan maktab rejasini muddatdan oldin tugatgan, barcha kontrol ishlarini topshirgan o‘quvchiga maktabda o‘qib turgan vaqtidayoq shu fanlar bo‘yicha o‘zi kirmoqchi bo‘lgan kollejning birinchi kursi imtihonlarini ham topshirishiga imkoniyat yaratiladi.

AQShda Oliy o‘quv yurtlariga kirish test – sinovlari bor. Bulardan tashqari Murakkablashtirilgan sinov ham bor. Bu sinovlarni oliy maktablarga kirayotgan barcha talabalar topshirishi shart emas. Mabodo biror talaba shu murakablashtirilgan sinovlarni topshirib universitetiga kursa, u talabaga maxsus stipendiya beriladi. Amerikaning eng katta boyligi bu – intellektual mulk. U mamlakatda qadrlanadi. Alochi ta’lim oluvchilar o‘quv yurtlarining faxri sanalgani sababli ham, ularga turli yo‘llar bilan yordam berish, stipendiyalar tayinlash orqali ularni o‘quv yurtlarida saqlashga harakat qiladilar. O‘zi tanlagan sohada yutuqlarga erishayotgan talabalar ro‘yxati har yili alohida kitob bobida nashr etib turiladi. Bundan maqsad mazkur soha bilan qiziquvchi kompaniyalarning e’tiborini bo‘lajak olimlarga qaratishdir.

Yuqorida sanab o‘tilgan sinovlarning natijalari va yuqori sinflarda barcha fanlardan olgan baholarining o‘rtacha miqdori talabani universitetga qabul qilish yoki qilmaslik uchun asos hisoblanadi. AQSh kollejlari ikki va to‘rt yillik bo‘lib, ikki yillik kollejlarni bitirgan talaba oliy ta’lim pog‘onasidagi birlamchi darajaga ega bo‘ladi. To‘rt yillik kollejlarni tugatgan talabalar bakalavr darajasini olib, oliy ma’lumotning birinchi pog‘onasiga erishadilar. To‘rt yillik kollejlar bizning to‘rt yillik institut va ayrim universitetlarga mos keladi. AQSh universitetlari tarkibiga ikki va to‘rt yillik kollejlar, ilmiy – tadqiqot markazlari hamda ikkinchi bosqich oliy ma’lumot beruvchi o‘quv yurtlari kiradi.

Ikkinchi bosqich oliy ma’lumot beruvchi o‘quv yurtlari bizning aspiranturaga to‘g‘ri keladi. Bu o‘quv yurtiga kirish uchun ikki fandan imtihon topshirilishi shart. O‘qishni muvaffaqiyatli bitirgan talaba magistrlik darajasini oladi. Magistrlik ilmiy darajasini olgan talaba doktoranturaga kirishi mumkin. Amerikada doktoranturaga kirish uchun faqat mutaxassislikdan jiddiy imtihon topshiriladi. Imtihon komissiyasi tarkibida talabaning bo‘lajak ilmiy rahbari ham ishtirok etadi. O‘qishni muvaffaqiyatli bitirib, dissertatsion yoqlagan talaba doktorlik ilmiy darajasini oladi. Ijtimoiy fanlardan doktorlik dissertatsiyasi yoqlagan talabalarning hammasiga “falsafa doktori” ilmiy unvoni beriladi. AQSh maktablari – oliy maktabgacha mana shunday bosqichlarga ega.

TEXASDAGI ZARURIY BILIMLAR VA MALAKALAR.

Ta’limning asosiy maqsadi - zamonaviy ilmiy bilimlarni egallagan, mustaqil fikrlash va muammolarni yechish imkoniyatiga ega bo‘lgan ma’naviy jihatdan boy shaxslarni shakllantirishdir. Texas shahridagi oliy o‘quv yurtlarida talabalarni zaruriy bilim va malakalar bilan qurollantirish o‘quv maqsadlariga erishishning eng muhim omillaridan biridir.

Didaktik tizim negizini tarbiyaviy o‘quv jarayoni tashkil etib, u o‘z vaqtida 2-bosqichga bo‘linadi.

a) doimiy

b) dinamik

Buning asosida o‘quv dasturlar ishlab chiqishni asosiy va maxsus jarayoni, kerakli kasb olingan kasb ta’limiga muvofiq aniq va puxta shu bilan bir qatorda o‘zaro bog‘liqlikda dastur asosida olib boriladi.

Asosiy o‘quv jarayoni – bu bosqichda ta’lim oluvchilar umumiy talablarga javob beruvchi bilim, malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘lib, ular shunday bilim oladilarki, u ilmiy-texnik o‘zgarishlar ta’siriga mos keladi. Umumiy mehnat egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarga kasbiy bilimlarga asos bo‘lib, uning mustahkamligi ishlab o‘qitishni samaradorligiga olib keladi. Asosiy o‘quv jarayonida ta’lim oluvchilar egallashi lozim bo‘lgan bilimlar kelajakdagi uning faoliyati, mehnat turi va ishlab chiqarishdagi egallaydigan o‘rniga bog‘liq bo‘ladi.

Maxsus o‘quv jarayoni – asosiy o‘quv bosqichdan maxsusga o‘tish sekin-asta ro‘y berib, butun o‘quv jarayoni shu maqsadlarga qaratilgan vaqt ichida olib boriladi. Maxsus bosqichda o‘qitish tanlangan kasbga yo‘naltirish bo‘yicha olib borilib, o‘qitish jarayoni shu sohadagi texnik va texnologik rivojlanish talablariga javob bermog‘i lozim, ammo markazlashtirilgan tartibda ishlab chiqilgan o‘quv dasturi xo‘jalik sohasidagi yoki korxona talablariga javob Bera olmaydi, chunki bir sohada texnologik jihozlarning bir turi o‘rganilsa, ikkinchi turida mutaxassislarni tayyorlashda turli sohalar bo‘yicha o‘qitish afzaldir.

Maxsus o‘qitish jarayonida ta’lim oluvchilarni korxonaning xususiyatlari bilan aniq va mukammal tanishtirish jarayonida uning korxonadagi hamma ish turlarida egallagan bilim va malakasini amalda qo‘llay olishni ta’minlash lozimdir. Ta’lim oluvchilar ishlab chiqarishdaga texnik va texnologik jarayonlar, qurilma va moslamalar haqida bilim olib amalda qo‘llay bilishlari kerak. Maxsus o‘qitish jarayonida o‘qituvchi ustaning ishlab chiqarish jarayoniga o‘qitishda quyidagilarga erishmog‘i lozim:

*Ta’lim oluvchini hozirgi zamon texnika jarayoni metodlari va zamonaviy metodlarga, qurilmalarda ishlashni o‘rgatish;

*Mehnatni tashkil etish metodi ham ta’lim oluvchini zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalariga, kasbiy malakasiga qarab turli ish operatsiyalarini bajarishni zamonaviy texnologiya talabiga javob beruvchi ishlab chiqarishni tashkil etish;

*Ta’lim oluvchini ish me’yorini bajarishga yondoshishga o‘rgatish;

*Korxonadagi ish chizmalarini to‘g‘ri o‘qishga, texnologik hujjatlardan to‘g‘ri foydalanishga o‘rgatish;

*Korxona jamoasida ta’lim oluvchi ishidan muhim tarbiya sifatida foydalanish;

*Ta’lim oluvchini mehnat xavfsizligi, ishlab chiqarishdagi va yong‘in xavfsizligi talablariga amal qilishga o‘rgatish;

*Ta’lim oluvchini ish o‘rni va ish qurollariga nisbatan javobgarlik va qadrlash hissini singdirish;

*Ta’lim oluvchida ish madaniyati haqida taassurot berish, ish joyini to‘g‘ri tashkil qilishni o‘rgatish;

Umuman olganda, bugungi kunda shunday mutaxassis kadrlarni tarbiyalashga erishish kerakki, u anglagan holda ish unumdorligini oshirishga o‘z hissasini qo‘shsin. Ularni ishlayotgan korxonaning obro‘si, ish sifatini oshirish ruhida, mehnat intizomiga qat’iyan rioya qilish ruhida tarbiyalash lozim. O‘qituvchi barcha talabalar uchun ta’limda mukammallikni tarkib toptirishga alohida ahamiyat berishi kerak. Talabalar ilmiy tadqiqot ishlarini muntazam ravishda olib borishlari lozim. O‘qituvchining dars o‘tish jarayonida talabchan bo‘lishi, talabalar uchun

muvaffaqiyatga erishishning garovi hisoblanadi. Talabalar o‘z qobiliyatlarini yanada rivojlantirishlari uchun o‘z-o‘ziga bo‘lgan ishonchni tarbiyalab borishlari lozim[17].

Yaponiyada ta’lim tizimi. Yaponiya ta’limining shakllanishi 1867 – 1868 – yillari boshlangan. Yaponiya o‘z oldiga ikki vazifani: boyish va G‘arb texnologiyasini Yaponiya ishlab chiqarishiga kiritish masalasini qo‘yadi va bu ishni amalga oshirish uchun birinchi galda ta’lim tizimini tubdan o‘zgartirish harakatiga tushadi.

1872 –yili “Ta’lim haqida Qonun” qabul qilinib yapon ta’limi G‘arb ta’limi bilan uyg‘unlashtiriladi. 1908 – yili Yaoniyada boshlang‘ich ta’lim majburiy 6-yillikka aylantiriladi. 1893-yili kasb yo‘nalishidagi dastlabki kollej paydo bo‘ladi.

1946 – yili qabul qilingan Konstitutsiya fuqarolarining ta’lim sohasidagi huquq va burjlarini belgilab berdi. Unda barcha bolalar bepul umumiy ta’lim olishlari shart ekanligi belgilab qo‘yilgan. Hozirgi zamon yapon ta’lim tizimlarining tarkibi quyidagicha: bog‘chalar, boshlang‘ich maktab, kichik o‘rta maktab, yuqori o‘rta maktab, oliy ta’lim tizimlariga kiruvchi o‘quv yurtlari. Bolalar yosh xususiyatlariga qarash 3,2,1 yillik ta’lim kurslariga jalb qilinadi. Yaponiyada maktabgacha ta’lim muassasalarining 59,9% xususiy, 40,8% munisipal, 0,3% davlatnikidir.

Yaponiya o‘quv yili 240 kun.

Dorilfununlarga katta o‘rta maktabni yoki 12 – yillik oddiy maktabni tugutgan o‘quvchilar qabul qilinadi. U yerda 460 ta universitet bo‘lib, 95 tasi davlat tasarrufida, 34 tasi munitsipal, 331 tasi xususiy, 1-toifadagi universitetlarda har bir ta’lim beruvchiga 8,2-toifali universitetlarda esa 20 tadan talaba to‘g‘ri keladi. Universitetlarga qabul qilish ikki bosqichga bo‘linadi: 1-bosqichi turur joyda o‘tkaziladi: buning uchun abiturentlar yapon, eski yapon tili, matematika, fizika, ximiya, jamiyatshunoslik, tarix bo‘yicha test sinovlaridan o‘tadilar.

Bu sinovlarda o‘tgan o‘quvchilar universitetga yo‘llanma olib qayta sinovdan o‘tadilar. Xususiya universitetlarga esa to‘g‘ridan – to‘g‘ri test topshiriladi. Bir qator xususiy universitetlar o‘zining uzluksiz shaxobchasiga ega (bog‘chadan boshlab hamma bosqichlarni qamrab oladi). Universitetdan talabalarni haydab yuborish mumkin emas. lekin o‘qish muddatini cho‘zish mumkin (4-yillik o‘qish 5-6 – yilgacha cho‘zilib ketishi mumkin).

Janubiy Koreyada ta’lim tizimi. Janubiy Koreyada ta’lim haqidagi Qonun 1948 – yili qabul qilingan. Ta’lim tizimiga asos qilib an’anaviy g‘arb modeli olingan: 6 yil – quyi maktab, 3 yil – o‘rta, yana 3 yil – oliy maktab; yao‘ngra to‘rtyillikkollej va bakalavr unvoni beriladi; tanlangan fan yana 2 yil chuqur o‘rganilgandan so‘ng magistr unvonini olish mumkin. Fan doktori bo‘lish uchun yana 3 yil vaqt sarflash lozim.

---

[17] Sharon A. Wynne. Pedagogy professional responsibilities. EC-12 Teacher Certification. 2013. 251 б.

Mamlakatda oliy o‘quv yurtlarining ishlari yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Koreyada 104 ta oliy o‘quv yurti bo‘lib, ularning 80 foizi xususiydir. Har yili bitiruvchilarning 40 foizi o‘qishga kiradi. Talabalar soni bo‘yicha Koreya dunyoda birinchi o‘rinda turadi. Lekin maktabgacha ta’lim muassasalari ehtiyojni qondira olmayapti. Shuning uchun 1982 – yili maktabgacha tarbiya haqida qonun qabul qilindi. Bu yerda tarbiyaga bolalar bog‘chasida asos solinishini yaxshi tushunishadi. Shu tufayli bu tarmoq keyingi yillarda 60 foizda kengaydi. Bunda diniy tashkilotlarning hissasi katta.

Boshlang‘ich maktab masalasiga kelganda (bu maktabga olti yoshlilar kelishadi) sinflarning tig‘izligini kuzatish mumkin. Har sinfda 50 nafargacha bola o‘qiydi. Dars nagruzkalari ham ko‘proq. O‘yinlar dam olish o‘quv dasturiga kiritilgan. Shuning uchun dam olishga imkoniyat bor.

Boshlang‘ich maktabda dars 40 minut o‘rta maktabda esa 45 minut. Oliy maktabda darsning davomiyligi 50 minutga teng. Bu yerda ikki muhim jihatga to‘xtalib o‘tish zarur. Oliy maktabga, albatta, kirish imtihonlari topshiriladi va o‘qish pullik.

4.2.Fransiya va Germaniyada ta’lim tizimi va mazmuni

Fransiya ta’lim tizimi ham qadimiy va boy tarixga ega. Bu mamlakatda “Ta’lim haqida”gi Qonun dastlab 1955-yili qabul qilinib, 1975-yilda unga qator o‘zgarishlar kiritilgan.

Fransiya davlatining hozirgi kunda amal qilinayotgan “Ta’lim haqida”gi Qonuni 1989-yil 10 iyulda qabul qilingan bo‘lib, uning o‘zgartirilishiga ta’lim strategiyasida ro‘y bergan o‘zgarishlar, mamlakatning ichki, tashqi siyosatdagi islohatlar, yuzaga kelgan iqtisodiy sharoitlar, chet el pedagogikasidagi tlg‘or tajribalarning mamlakat ta’lim tizimlariga kirib kelishi, o‘quv predmetlarining integrasiyalari va boshqalar sabab bo‘ladi.

Fransiya ta’limning asosiy maqsadi shaxsning har tomonlama kamol topishini ta’minlash, uni mustaqil faoliyatga tayyorlash, bozor munosabatlari sharoitida o‘quvchilarni tadbirkorlikka, ishbilarmonlik va omilkorlikka o‘rgatish, shunga yarasha kasb – korga ega qilishdan iboratdir. Bu yerda:

1. Davlat maktablari;
2. Xususiy maktablar;
3. Oraliq maktablari mavjud.

O‘qitiladigan predmetlar ichida fransuz tili va adabiyoti, o‘qish va yozuv alohida ahamiyatga molik. Ular uchun dars vaqtining 30% ajratiladi. O‘rtacha haftalik soatlar 26 soatdan iborat, darsning davomiyligi 60 minut. O‘quv yili 5 chorakka bo‘linadi. Fransuz maktablari boshlang‘ich sinflarida o‘qish ertalab va tushdan keyingi qismlarga bo‘linadi. Ertalab o‘quvchilar ona tilidan, tushdan keyin esa matematika va boshqa predmetlardani saboq oladilar. Matematika, ona tili va adabiyoti tarix, geografiya, mehnat, jismoniy tarbiya predmetlari esa rivojlantiruvchi predmetlar hisoblanadi.

Fransuz ta’limida bolalarni go‘daklik chog‘idayoq maktabda o‘qitish uchun tayyor holda olib kelish g‘oyat muhim masala hisoblanadi. Bu bosqichda tarbiyalanuvchilar quyidagicha tabaqalashtirilgan: kichik guruh (2-4 yosh), o‘rta guruh (4-5 yosh), katta guruh (5-6 yosh). Maktabga tayyolov guruhi (5-6 yosh) bo‘lib, ularga Fransiyada 100 % shu yoshdagi bolalar qamrab olingan. Bolalarni maktabga tayyorlash uchun alohida dastur va darsliklar mavjud.

Oliy ta’lim universitetlarda uch turkumda amalga oshiriladi.

Birinchi turkum: umumiy bo‘lib, o‘qish muddati ikki yil davom etadi.

Ikkinchi turkum: o‘qish bir yil davom etadi. Talabalar uni magistr darajasi bilan yakunlaydi.

Uchinchi bosqich: o‘qish 1-2 yil davom etadi. Bu siklda:

- biron bir predmetni chuqurlashtirib o‘rganilganligi haqida diplom 1 yil;
- ixtisoslashtirilgan oliy ma’lumot to‘g‘risida diplom 1 yil;
- uchinchi turkum doktorlik dissertatsiyasi 1-2 yil;
- davlat doktorlik dissertatsiyasi biron – bir sohani mukammal o‘rganib dissertatsiya yozish kabi hujjatlar olish mumkin.

Fransiyada oliy ma’lumot va ixtisos beruvchi oliy texnologik institutlar mindan ortiq. Ular odatda sanoat, maishiy xizmat ko‘rsatish, informatika mutaxassisliklariga ixtisoslashgan. O‘qish muddati 2 yil bo‘lib, sakkiz haftalik ishlab chiqarish amaliyotini ham ko‘zda tutadi.

Germaniyada ta’lim tizimi. Maktabgacha tarbiya tizimi Germaniya ta’lim tizimida ham muhim bosqich hisoblanadi. Uning 100 yildan ortiq tarixi bor. Bolalar bog‘chalari ta’limning quyi bosqichi hisoblansada, lekin u davlat tizimi tarkibiga kirmaydi. Bog‘chalarni maktab bilan ta’minlash turli jamoat tashkilotlari, hayoriya birlashmalari, korxonalar, xususiy shaxslar, diniy muassasalar zimmasidadir. Ota – onalar bolalar bog‘chalariga o‘z farzandlarini tarbiyalayotganliklari uchun ancha miqdorda pul to‘laydilar. 3 yoshdan 6 yoshgacha bolalarning 80% bog‘chalarga qatnaydi. Germaniyada odatda bolalar bog‘chada tushgacha tarbiyalanadilar. Kunning yarimda esa uyda,oilada bo‘ladilar. Bu mamlakatda kuni uzaytirilgan bog‘chalar ham bor.

Majburiy ta’lim 6 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan bolalarga tegishli, ya’ni bu jarayon 12 yil davom etadi. Bundan 9 yillik (ba’zi joylarda 10 yil) maktabda to‘la haftalik o‘qishda o‘qiydi. O‘qish davlat maktablarida tekin. Xususiy maktablar kam. O‘qish 6 yoshdan boshlanib 4 yil davom etadi (faqat Berlinda 6 yil). Boshlang‘ich maktabdan so‘ng o‘quvchilar yo‘nalish bosqichidagi maktabga o‘tadilar. Bu yerda 5-6 sinf bosqichidagi yo‘nalish maktablarda maxsus dastur asosida o‘qiydilar. Keyin navbatdagi maktab tipiga ko‘chadilar: bular – asosiy, maxsus maktab, real bilim yurtlari. Deyarli 30 % bola asosiy maktabga o‘tadi. 9 yoki 10 yillik o‘qish tugatilgandan keyin kasbiy tayyorgarlikka o‘tiladi. Maxsus maktablarda nuqsonga ega bo‘lgan bolalar o‘qiydi. Real bilim yurtlari asosiy maktab va yuqori bosqich maktabi o‘rtasida turadi. Qoidaga ko‘ra bu yerda o‘qish 6 yil davom etadi (5-16 sinfgacha) va

to‘la o‘rta ma’lumot berish bilan tugallanadi. Bilim yurtini tugatganlar o‘rta maxsus o‘quv yurtiga yoki yuqori bosqichdagi hunar – texnika maktabiga kirib o‘qish huquqiga ega bo‘ladi. Germaniyada gimnaziyalar ham mavjud. Ular 5-13 sinflarni o‘z ichiga oladi. 11-13 sinflar oliy o‘quv yurtlariga tayyorlash vazifasini ham bajaradi. Gimnaziyani bitirganlik haqidagi yetuklik attestati oliy o‘quv yurtida o‘qish imkonini beradi. Germaniya ta’lim tizimida hunar ta’limi muhim ahamiyatga ega, chunki yuqori malakali ishchilarga bo‘lgan talab kuchli. To‘liqsiz o‘rta maktablarni bitiruvchilarning 20 % hunar ta’limi tizimida bilim olishni davom ettiradilar. Aksariyat hollarda o‘qish muddati 3-3,5 yilni tashkil etadi. O‘qish uch bosqichdan iborat bo‘lib, birinchi yili asosiy hunar ta’limi beriladi. Bunga o‘qitilayotgan kasbga taalluqli maxsus fanlardan nazariy asoslar berilib, yirik korxonalarda amaliyo mashg‘ulotlar o‘tkaziladi. Ikkinchi yil davomida maxsus hunar ta’limi beriladi. O‘quvchining birinchi yilda ikkinchi yilga o‘tishi sinov imtihonlari o‘tkazilib o‘qishni davom ettiruvchi yoshlar tanlab olinadi. Uchinchi yil davomida maxsus hunar ta’limi yanada chuqurlashtirilib boriladi. Bitiruv imtihonlari maxsus komissiya tomonidan qabul qilinadi. Komissiya a’zolari korxonalarning yetakchi mutaxassislari, federal yerlardagi sanoat palatasi, hunarmandchilik palatasi vakillaridan tashkil topadi. Hunar maktablarining diplomlari oliy o‘quv yurtlariga kirish uchun huquq bermaydi. Buning uchun 1 yillik tayyorlov kurslarini tugatish talab etiladi. O‘qishga qabul qilish imtihonsiz maktab ta’limi to‘g‘risidagi hujjatga asosan oshiriladi.

Nazorat savollari:

1. Ta`lim tizimining iste`moldagi variantini uzviylik va uzluksizlik jihatidan asoslashga harakat qiling.
2. Ta`lim turlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni muayyan fanni o'rganish misolida yoritib bering.
3. Yaponiyada ta`lim tizimi mohiyati.
4. Turli mamlakatlardagi ta`lim tizimlari bilan mamlakatimizdagi ta`lim tizimining umumiyligi va xususiyligi haqida gapirib bering.
5. Ta`lim muassasalaridagi boshqaruv haqida referat tayyorlang.
6. Ta`lim muassasalaridagi jamoat boshqaruvida ichki nazorat va mezonlarning roli hamda o'rni bo'yicha referat tayyorlang.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Olimov Q.T. Kasb ta'limi uslubiyati. O'quv qo'llanma. –T.: 2006. - 164 b.
2. Xakimova M.Kasbiy pedagogika. O'quv qo'llanma. –T.: 2007. - 193 b.
3. Xasanboev J., Sariboev H., Niyozov G., Hasanboeva O., Usmonboeva M. Pedagogika. O'quv qo'llanma. –T.: 2006. - 158 b.
4. Sharon A. Wynne. Pedagogy professional responsibilities. EC-12 Teacher Certification. 2013. 251 b.

5 O‘RTA MAXSUS TA’LIMI BITIRUVCHILARINING ISHLAB CHIQARISHGA MOSLASHUVI. KASBIY PEDAGOGIKANING DIDAKTIK PRINSIPLARI

Reja:	5.1. Kichik mutaxassislar va yuqori malakali xodimlarni tayyorlashning nazariy asoslarining mohiyati. Fan-texnika taraqqiyoti va ilg‘or ishlab chiqarish texnologiyalarining ta’limi 5.2. Buyuk allomalarning mehnat ta’lim, tarbiyasi haqida bildirgan fikrlari 5.3. Kasb ta’limi jarayonida ishlab chiqarishning quyidagi qonuniyatlarini hisobga olinishi. Ta’lim tamoyillari haqida tushuncha.

Tayanch iboralar: *kasb, ishlab chiqarish, moslashuv, qobiliyat, iste`dod, mahorat, mutaxassislik, tashkiliy, pedagogik texnologiya, faoliyat, o'quvchi, o'qituvchi, hamkorlik, qoida, tamoyil, printsip, ta`lim, tarbiya, faoliyat, jarayon, sifat, mazmun, pedagogik talab.*

5.1. Kichik mutaxassislar va yuqori malakali xodimlarni tayyorlashning nazariy asoslarining mohiyati. Fan-texnika taraqqiyoti va ilg‘or ishlab chiqarish texnologiyalarining kasb-hunar ta’limi va tarbiyasiga ta’siri.

Kasbiy ta’lim berish, kasb-hunar sirlarini o‘rgatish juda qadim zamonlarda paydo bo‘lgan. Kasbiy malaka bevosita mehnat faoliyati jarayonida berilgan. Ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi, hunarmandchilikning ixtisoslashib borishi, mehnat malakasi va ko‘nikmalarining murakkablashuvi to‘plangan mehnat tajribasi, jumladan tizimlashgan bilim, malakalarini ma’lum bir tarzda avloddan avlodga o‘tkazish zaruriyatini tug‘dirdi. Bu ehtiyoj dastlab ustoz- shogird yo‘li bilan tartibsiz, ya’ni xaotik tarzda amalga oshirildi. Sanoat ishlab chiqarishining rivojlanishi bilan turli darajadagi va sohadagi kasb-hunar o‘quv yurtlari paydo bo‘ldi. Kasb-hunar ta’lim tizimi mustaqil tarmoq sifatida dastlab Yevropada, so‘ng Amerikada shakllandi.

XI asrda Gugo Sen Viktorskiy (1096-1141) mexanikani san’at deb bilib, buyumlar tayyorlashda yetti san’at turi mavjudligini ko‘rsatdi ular: qurol va asboblar ishlab chiqish, tikuvchilik, navigatsiya, agromadaniyat, meditsina, badiiy san’at.

Gumanistik utopiya tarafdorlari T. Mor (1478 - 1535) va T.Kompanellalar (1568 - 1639) asarlarida yoshlar ta'limini ishlab chiqarish mehnati bilan bog'lash (qo'shib olib borish) g'oyalari ilgari surildi. Ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanishi, fan-texnika taraqqiyoti kasbiy ta'limga bo'lgan qiziqishni kuchaytira bordi. Eng avvalo bolalarni mehnatga jalb etishning ijtimoiy va iqtisodiy jihatlariga katta ahamiyat berildi.

Ingliz iqtisodchisi va pedagogi DJ.Bellers (1634 - 1725)ning "Ishlab chiqarish muassasalarida hamkorlik haqida tavsiyalar" asari dastlabki kasbiy ta'limga oid loyihalardan biri sanaladi. Unda ijtimoiy pedagogik masala sifatida kambag'alchilikdan qutilish yo'llaridan biri yoshlarni kasb-hunar sir-sinoatlarini o'zlashtirishga o'rgatish, ta'limni ishlab chiqarish mehnati bilan bog'lash g'oyasi ilgari surilgan edi.

Ingliz faylasufi va pedagogi Dj. Bellers (1632 - 1704) "Jentelmen" tarbiyalash tizimini ishlab chiqib, unda kasb-hunarga o'rgatishga alohida e'tibor berdi. D. Lokk "Ishchilar maktabi haqida bitiklar"ida davlat ishchilar maktabi tashkil etish g'oyasi ilgari surilgan.

Fransiyalik ijtimoiy arbob K.A. Korbonning (1808 - 1881) "Kasb ta'limi haqida" asarida ilk bor ustoz-shogird tizimi holati tahlil etilib, erkin kasb tanlashning shaxs va jamiyat uchun muhimligi ko'rsatildi, shuningdek, umumiy va kasbiy tayyorgarlik, kasbiy maktab tuzish, umumiy kasbiy ta'limni uyg'unlashtirish, aqliy va jismoniy mehnatni o'zaro aloqadorligi kabilarga ham alohida to'xtalib o'tilgan.

K. Marks (1818 - 1883) politexnik ta'lim zarurligini asosladi va ta'limni ishlab chiqarish mehnati bilan qo'shib olib borish masalasini ilgari surdi.

Tizimli tahlil prinsipi respublikamiz kasb-hunar ta'limining butun rivojlanish yo'liga yangicha nazar tashlashni talab etadi. Bu holat o'z navbatida ushbu ta'limning rivojlanish yo'li va turli bosqichlarini tarixiylik nuqtai nazaridan tahlil etib, qonuniyatlari va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.

Ko'p asrlik kishilik jamiyatining amaliy tajribalari, falsafa, jamiyatshunoslik, pedagogika va psixologiyaga oid g'oyalar, dunyo miqyosida kechayotgan ta'lim-tarbiyaga oid bilimlar, maxsus pedagogik tadqiqotlar natijalari, izlanuvchi pedagog novatorlar tajribalari va shu kabilar Kasb-hunar ta'limi pedagogikasini rivojlantiruvchi manbalardir.

Shunday qilib, kasb-hunar pedagogikasi nisbatan yangi va rivojlanuvchi fandir. U kasb-hunar ta'limi tizimining takomillashuvi jarayonida umumiy pedagogikadan maxsus soha sifatida ajralib chiqdi. Kasb-hunar ta'limi pedagogikasining o'z ob'ekti, predmeti, prinsiplari, maqsadi, mazmuni, tashkiliy shakllari, metod va vositalari, o'ziga xos kategoriyalari mavjud bo'lib, ular fanning asosini tashkil etadi.

Zamonaviy kasb-hunar ta'limining asosiy xususiyati - uning integratsiya yo'nalishi (tendensiyasi) hisoblanib, bu holat ichki va tashqi bo'lishi mumkin.

Agar tashqi integratsiya umumjahon ta'lim makonini qurish bilan bog'liq, ya'ni turli mamlakatlarda to'plangan tajribalardan foydalanishni ko'zda tutgan bo'lsa, ichki integratsiya predmetlararo yondashuv asosida integrativ kurslar tuzishni ko'zda tutadi. Ana shunday integrativ o'quv predmetlaridan biri kasb-hunar ta'limi pedagogikasining o'zi hisoblanadi. Chunki u kichik mutaxassislar tayyorlashning zaruriy mazmuni va darajasini belgilovchi Davlat ta'lim standartlariga binoan yaratilmoqda.

Kasbiy ta'limning shakllanishi: yosh avlodni mehnat faoliyatiga tayyorlash muhim ijtimoiy pedagogik vazifa bo'lib, insoniyat jamiyati o'z tarixida bu masalani turlicha yechimini topishga harakat qilgan. Dastlabki paytlarda bolalarni mehnatga tayyorlash bevosita mehnat faoliyati jarayonida amalga oshirilgan. Dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilikning paydo bo'lishi yoshlarni hayot faoliyatiga maxsus tayyorlash zarurligini muhim masala sifatida kun tartibiga qo'ydi. Shunday qilib, aqliy va jismoniy mehnat ajraldi. Uzoq o'tmish tarixda ustoz- shogird tizimi paydo bo'ladi.

Yuqoridagilarga xulosa qilib, takidlash joizki, hozirgi jadal sur'atli fan-texnika taraqqiyoti natijasida kasbiy mehnat mazmuni va xarakteri jadal ravishda o'zgarmoqda, texnika sohasidagi yangiliklar ishlab chiqarish jarayoniga tezkorlik bilan joriy etilib, insoniyat jamiyatining tinchligi, farovonligi ta'minlanmoqda. Bunga ko'plab rivojlangan mamlakatlarni misol sifatida ko'rsatish mumkin. Ana shunday yetakchi mamlakatlar orasidan o'ziga munosib o'rin egallayotgan respublikamiz uchun yuqori malakali, keng ixtisosli, mehnat bozorida raqobatlasha oladigan mutaxassis kadrlarga quydagicha talablar qo'yilgan (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Kichik mutaxassis kadrlarga qo'yilgan talablar

Asoslar	Kadrlar tayyorlashga qo'yilgan talablar
Sanoatlashgan jamiyatga o'tish, xalqaro O'zaro ta'sirlar masshtabini kengayishi	Kommunikabellik, tolerantlik, ijtimoiy moslashuvchanlik, axborot texnologik madaniyat, moslashuvchan tafakkur.
Xalqaro hamkorlikda yechimini topish mumkin bo'lgan global muammolarning paydo bo'lishi va rivojlanishi	Dunyoqarash va tafakkurni global, tizimli, axborot texnologik loyihalash.
Iqtisodni dinamik rivojlanishi, raqobatning kuchayishi, malakasiz mehnatning qisqarishi, bandlik sohasidagi chuqur tuzilmaviy o'zgarishlar	Kasbiy kompetentlik va mobillik, muntazam ravishda malaka oshirish va qayta tayyorlashga talab, raqobatbardoshlik

Ishbilarmonlikning rivojlanishi, individual-xususiy faoliyat, mehnat bozorini tuzish. Kadrlar tayyorlashga talab va taklif	Ishbilarmonlik, raqobatbardoshlik, o‘z kasbiy mahoratini oshira borish, mustaqillik, ijodkorlik
Tez, to‘g‘ri, mustaqil ravishda yechim qabul qilish, dinamik ravishda ishlab chiqarish texnologik jarayonlarining o‘zgarishi. O‘zi va kasbiy faoliyat natijalarini tahlil eta bilish.	Kasbiy mustaqil, javobgarlik, kraetivlik, adekvat o‘z-o‘zini baholash kabilar.

Dunyo miqyosidagi ijtimoiy, iqtisodiy va ishlab chiqarishdagi texnik va texnologik o‘zgarishlar kadrlar tayyorlashga yangi talablar qo‘ymoqda. Rossiyalik olim E.F. Zeer tomonidan K.K. Platonov g‘oyalariga asoslangan holda, to‘rt komponentli mutaxassis tuzilmasi ishlab chiqilgan bo‘lib, unda kasbiy fazilatlar shaxsning ijtimoiy-psixologik va psixofiziologik komponentlari, talab etiladigan ixtisosliklar kabilarni o‘ziga qamrab oladi (2 -jadvalga qarang).

2-jadval

Kichik mutaxassis tuzilmasi

T/r	Kasbiy fazilatlar	Shaxsning ijtimoiy psixologik va psixo-fiziologik kompo-nentlari	Talab etilgan kasbiy Muhim ixtisosliklar
1.	Kasbiy yo‘nalgan-lik	Moyillik, qiziqishlar, munosabatlar, kutayotgan natijalar	Ijtimoiy kasbiy qobiliyat-lar: hamkorlik qilishga tay-yorligi, yutuqlarga intilish, kasbiy jihatdan o‘sishga tayyorlik, ijtimoiy javobgarlik, ishonchlilik
2.	Kasbiy kompetentlik	Kasbiy bilim, malaka va ko‘nikma, ixtisoslik	Ijtimoiy- huquqiy va iqtisodiy kompetentlik, maxsus kompetentlik, shaxsiy kompetentlik, (bir kasb) doirasidan tashqari bilim, ko‘nikma va malakaga ega bo‘lish kabilar
3.	Muhim kasbiy fazilat	Diqqat-e’tiborlilik, kuzatuvchanlik, qat’iyatlilik, kirishuvchanlik,	Kasbiy mustaqillik, ijtimoiy kasbiy intellekt, texnologik jarayonlarni rejalashtira olish qobiliyati, tashhislash

		mustaqillik, o‘zini nazorat qila olishlik	qobiliyati, kasbiy moslashuvchanlik va shu kabilar.
4.	Muhim kasbiy psixologik-fiziologik fazilatlar	Ekstravertivlik, chamalash, reaktivlik	Umumlashgan kasbiy qobiliyatlar: ish-harakatlaridagi muvofiqlik, tezkor reaksiya, chamalay olish, chidamlilik, sabr-toqatlilik, qat’iyatlilik kabilar.

Respublikamiz kasb-hunar ta’limida miqdor ko‘rsatkichlari va tashkiliy shakllaridagi o‘zgarishlar dinamikasining tahlili bizga shartli ravishda tabiatiga ko‘ra kasb-hunar ta’limi tizimining farqlanuvchi quyidagi rivojlanish bosqichlarini ajratib ko‘rsatish imkonini berdi.

1924-1940 –yillarda ta’lim tizimi sifatida vatanimiz kasb-hunar ta’limining tarkib topishi va rivojlanishi barqaror bo‘lmagan davri;

1941-1959 yillarda safarbarlik davri.

1960-1980 yillar evolyusion rivojlanish davri;

1981-1986-yillar – sakrashsimon o‘zgarishlar inqirozoldi davri;

1987-1990-yillar – rivojlanishdagi sifat o‘zgarishlar (inqiroz) davri;

1991-1996-yillar inqirozdan asta-sekin chiqish va barqarorlik (moslashish) davri;

1997-2002-yillar – kadrlar tayyorlash milliy modelini amalga joriy etishning birinchi bosqichi (yangitdan rivojlanish) davri;

2003 yildan hozirgi davrgacha bo‘lgan davri.

Zikr etilgan bosqichlarga ajratish mezoni sifatida kasb-hunar ta’limi tizimining quyidagi ko‘rsatkichlariga asoslandik: o‘quv muassasalari miqdori va har yilgi bitiruvchilarining soni; shuningdek, yangi o‘quv yurtlariga aylanishi va ularning turli darajalarga bo‘linishi. Tarixiy manbalarni o‘rganish bizga o‘tgan asrning 20-yillaridan boshlab respublikada kasb-hunarga o‘qitish bo‘yicha maxsus kurs va maktablar tashkil etila boshlanganligidan darak berib, ular tugallangan bilimlar berishni emas, balki ma’lum ish o‘rinlarida ishlash uchungina zarur bo‘lgan tor doiradagi bilim, kunikma va malakalarni berishni maqsad qilib qo‘ygan edi.

Dastlab barcha yirik korxonalar qoshida fabrika-zavod o‘quvchilari (FZU) kurslari va sanoat-texnika o‘quv yurtlari tashkil etila boshladi, ularda maxsus o‘quv predmetlari bilan bir qatorda umumta’lim o‘quv predmetlari o‘qitilgan. O‘sha davrda korxonalarning texnik jihozlanishi past darajada bo‘lganligi bois o‘quv yurtlarining ham jihozlari ularga mos ma’lum ma’noda chegaralangan darajada edi. Respublikamizda katta sanoat korxonalari mavjud bo‘lmaganligi sababli XX asrning 30- yillarigacha texnikumlar, zavod fabrika o‘quv kurslari, hunar texnika maktablari, o‘quv ishlab chiqarish ustaxonalari va turlicha hunar-

texnika bilim yurtlari muntazam ko‘paya bordi. Lekin kasb -hunar ta’limiga ajratilgan davlat budjetining miqdori yaxlit holda yetarli darajada bo‘lmaganligi sababli o‘quvchilarni ovqatlantirish va kiyim-kechak bilan ta’minlash darajasi past edi. Shuningdek, yotoqxona masalasi ham asosiy muammolardan biri bo‘lib, kasb-hunar ta’limi xodimlariga juda kam ish haqi to‘lanar edi. Shu bois 1930-yillardan boshlab bunday o‘quv yurtlari tarmog‘i kamaya boshladi. 1938 yilga kelib 1932-1933 - o‘quv yiliga nisbatan o‘quv yurtlari va ularda o‘qiydigan o‘quvchilar soni 3 barobar kamaygan.

1930-yillarning oxiri 40-yillarning boshlarida respublikada sanoat korxonalari tashkil etila boshladi. Tarixiy manbalar tahlili 1940- yilda O‘zbekistonda, 1445 ta yirik sanoat korxonalari mavjud bo‘lganligi haqida guvohlik beradi. Bu sanoat korxonalarida zamonaviy texnika va ilg‘or texnologiyalarning amalga joriy etilishi ommaviy ravishda texnik jihatdan savodxon ishchi kadrlar tayyorlash zaruratini kun tartibiga qo‘ydi. Ana shunday malakali kadrlar tayyorlash vazifasi 1940-yilda tashkil etilgan davlat mehnat zahiralari tizimiga yuklatildi. Davlat mehnat zahiralari tizimida asosan quyidagi uch turdagi: hunarmandchilik o‘quv yurtlari, temir yo‘l o‘quv yurtlari va fabrika-zavod o‘quvchilar maktablarini o‘ziga qamrab oldi. Shunday qilib, yana ishchi mutaxassis kadrlar tayyorlashga diqqat e’tibor kuchaytirildi. Lekin 1941-yilda boshlangan ikkinchi jahon urushi kasb-hunar ta’limi tizimiga ham bevosita o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qo‘ymadi. Mamlakatdagi urush holati barcha ishchilarni frontga safarbar etish bilan bir vaqtda sanoatni to‘liq harbiy qurol - aslaha ishlab chiqarishga o‘tkazishni talab etdi. Shu bois nisbatan qisqa vaqtda yoshlardan ishchi mutaxassislar tayyorlashga talab ortdi. Shuning uchun yangi o‘quv yurtlari tashkil etish bilan bir qatorda, vaqtinchali fabrika- zavod o‘quvchilar maktablari tashkil etildi. Mamlakatning g‘arbidan evakuatsiya qilingan o‘quv yurtlari qisqa muddatlarda qayta tiklanib ishga tushirildi. Natijada faqat urush yillarining o‘zida respublikamiz mehnat zahiralari tizimida 70 mingga yaqin malakali ishchilar tayyorlanib, ulardan 30 mingi shu yerlarda qoldirilib, qolganlari mamlakatning boshqa rayonlariga jo‘natildi. Urushdan so‘nggi yillarda xalq xo‘jaligini tiklash uchun zarur mahsulotlar ishlab chiqishga kirishildi. Demak, bu davrda mexanizatsiyalashgan ishlab chiqarish sharoitida mehnat qiluvchi murakkab kasblar sohibi bo‘lgan malakali mutaxassislar tayyorlash zarurati kelib chiqdi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi amaldagi Qonunining 13-moddasida “O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi olish maqsadida har kim umumiy o‘rta ta’lim asosida akademik litsey yoki kasb-hunar kollejlarida o‘qishning yo‘nalishini ixtiyoriy ravishda tanlash huquqiga ega.

Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari egallagan kasb-hunar bo‘yicha ishlash huquqini beradigan hamda bunday ish yoki ta’limning navbatdagi bosqichida davom ettirish uchun asos bo‘ladigan o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi beradi.

Akademik litsey o‘quvchilarning intellektual qobiliyatlarini jadal o‘stirishni, ularni tabaqalashtirilgan va kasb-hunarga yo‘naltirilgan bilim olishlarini ta’minlaydigan uch yillik o‘rta maxsus o‘quv yurtidir.

Kasb-hunar kolleji o‘quvchilarining kasb-hunarga moyilligi, mahorat va malakasini chuqur rivojlantirishni, tanlangan kasblar bo‘yicha bir yoki bir necha ixtisos olishni ta’minlaydigan uch yillik o‘rta maxsus kasb-hunar o‘quv yurtidir” – deb ko‘rsatilgan.

Kasb-hunar kolleji tegishli davlat ta’lim standartlari doirasida o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi beradi.

Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining bitiruvchilariga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplomlar beriladi. Bu diplomlar, yuqorida zikr etilganidek, ta’limning keyingi bosqichlarida o‘qishni davom ettirish yoki egallagan ixtisoslik va kasb-hunar bo‘yicha mehnat faoliyati bilan shug‘ullanish huquqini beradi.

Kasb-hunar ta’limi tizimining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri – kasb-hunar kollejlarining ishlab chiqarish korxonalari bilan uzviy aloqada bo‘lishidadir. Kasb-hunar kollejlari uchun baza bo‘lgan korxonalar o‘quvchilar uchun kerakli jihozlar, asbob- uskunalar ajratadi, korxona sexlarida ishlab chiqarish amaliyotini o‘tish uchun imkoniyat yaratadi.

Talabalarda ta’lim jarayoniga jalb etishning turli xil yo‘l va usullaridan foydalanish lozim. Ta’lim jarayoniga yondashish faoliyat turlarining qiziqarliligi muhim ahamiyatga ega. Auditoriyada talabalar ovoz chiqarib o‘qishni yaxshi ko‘radilar. Talabalarga musiqa, ona-tili, og‘zaki ma’ruzalar o‘qishni ko‘proq xohlaydilar. Ko‘rsatmali o‘qish talabalarda o‘qishga bo‘lgan ko‘nikma va malakalarni shakllantiribgina qolmay, balki ular diagramma, karta, video, grafika va fotosuratlarga bilan ishlash ko‘nikma va malakalarini oshirib boradi. Masalan o‘quvchilar imtihonlar jarayonida auditoriyada esse topshirig‘ini muhokama etadilar, test materiallarini yechadilar, munozarada ishtirok etadilar, audiokassetani tinglaydilar,og‘zaki imtihon topshiradilar va materiallarni yozib ham boradilar. Bunday talabalar o‘z ustida ishlashni, ilmiy-tadqiqot loyihalarini bajarishni, rolli o‘yinlarni, musiqa, sport va raqsni jon dildan yaxshi ko‘rib o‘ynaydilar. Bu faoliyat turlarini to‘g‘ri tashkil etish talabalar uchun muhim ahamiyatga ega.[18]

Shunday qilib, yuqorida zikr etilgan fikr- mulohazalarga asoslanib, kasb-hunar pedagogikasining vazifasi yoshlar tomonidan kasb-hunar sir-sinoatlarini egallash qonuniyatlarini o‘rganish hamda pedagogik amaliyotga qo‘yilgan

[18]Sharon A. Wynne. Pedagogy professional responsibilities. EC-12 Teacher Certification. 2013. 165-б.

maqsadlarga maqbul erishish omillarini ko‘rsatishdan iboratdir, deb xulosa chiqarish mumkin.

5.2.Buyuk allomalarning mehnat ta’lim, tarbiyasi haqida bildirgan fikrlari



Hozirgi zamon kasb-hunar ta’limi tizimi faqatgina XX asr oxiri ilmiy-pedagogik tafakkurining natijasigina bo‘lmay, balki uning poydevori insoniyat jamiyatining uzoq tarixi davomida to‘plangan tajribasiga hamda olimlar, mutafakkirlar, pedagoglar ishlab chiqarishning turli sohalaridagi mutaxassislarning mehnatlariga asoslangan. Markaziy Osiyoda, shuningdek hozirgi O‘zbekiston hududida kasb-hunar ta’limining tub asoslari bundan uch ming yil avval Avestoda bayon etilgan desak xato qilmaymiz. Lekin bu boradagi tajribalar bizda yetarli darajada o‘rganilmagan. Shu bois, bugun butun dunyo, xususan Sharq xalqlarining

tarixiy merosini zamonaviy kasb-hunar ta'limi mazmuni va tuzilmasiga singdirilishini davr o'zi taqozo etmoqda.

Sharq mutafakkirlari o'z asarlarida yoshlarning kasb-hunar ta'limi va tarbiyasiga katta ahamiyat berib, kasb-hunar o'rganishni jismoniy, aqliy va ma'naviy kamolotga erishishning asosiy vositasi deb bilganlar.

Buyuk ajdodlarimiz aqliy, jismoniy va ma'naviy tarbiya kasb-hunar sir-sinoatlarini egallashning asosiy omili deb talqin etganlar. Ular uchun inson timsoli kamolotga yetgan, ilmli yoki kasb-hunarga ega ijobiy fazilatlar sohibi bo'lgan. Misol uchun Kaykovus o'z farzandiga qarata:

"Ey farzand, ogoh bo'lki, hunarsiz kishi hamisha foydasiz bo'lur va hech kishiga naf yetkurmas. Bilursanki, xori mug'ilonning tani bordur, ammo soyasi yo'qdur. Hunarsiz kishi ham xori mug'ilon yanglig' na o'ziga va na o'zgaga foyda berur.

Agar kishi har qanchaki oliy nasab va asl bo'lsa, ammo hunari bo'lmasa, xaloyiqning izzat va hurmatidin noumid bo'lur. Agar kishida ham nasab gavhari va ham hunar zevari bo'lmasa, undan batarroqdur. Jahd qilg'il, agar gavharing har nechakim asl bo'lsa, unga g'arra bo'lmag'il, nedinkim tan gavhari hunar zevari bila muayyan bo'lmasa, u hech narsaga arzimagusidur.

Andoqkim debdurlar: "Ulug'lik aql va donishlik birladur, gavhar va nasab birla bo'lmas".

Otni ota va onang qo'ymishlar, sen unga g'arra bo'lmag'il, nedinkim, ul otmazhi bir nishondin o'zga narsa emasdur. Ammo sen hunar bila bir nomga ega bo'lg'il. O'zingni "Ja'far", "Muhammad", "ustod", "xo'ja", "fozil" oti bila atab, ammo unga loyiq bo'lmasang, u ot ermasdur. Agar kishida nasab gavhari bo'lsa,ammo hunar zevari bo'lmasa,u hech kishining suhbatiga loyiq bo'lmag'usidur. Garchi bu ikki gavhar hosil qilg'on kishi topsang, etagini mahkam tutg'il va undin ilkingni chekmag'il, bilki u barcha kishilarning mushkulin oson qilg'ay.

Barcha hunardin so'z hunari yaxshiroqdur, nedinkim,... hamma maxluqotdin odam yaxshiroq yaraldi va o'zga jonivorlardin odam o'n daraja ziyodadur va bu o'n daraja odamning badanida hamisha bordur. Beshi tashida zohirdur, beshi ichida pinhondur. Ul pinhon narsalar: biri, bir narsani yod olmoq; biri, hamisha esda saqlamoq, biri taxayyul (xayolga keltirmoq); biri tahavvur(g'azab va shiddat bilan hujum etish);biri takallum (so'zlash). Ammo ul beshtakim tashida zohirdur: bu zavq, yani eshitmoq. ko'rmoq, hid bilmoq, totmoq, siypalamoq "yani sezuv".

Ajdodlarimizning barkamol shaxs haqidagi g'oyalari mohiyatini anglash uchun Abu Nasr Forobiy tomonidan hozirgi paytda komil inson deb yuritilayotgan fozil odamning o'n ikki muhim fazilati yoki Alisher Navoiyning Farhod obrazi orqali talqin etgan:

"Hunarni asrabon netkumdir oxir,
Olib tuproqqamu ketgumdir oxir".

Fikrlarini tahlil etishning o‘zi kifoya. Ular ma’naviy barkamollikka inson o‘z mehnati bilangina erishishi mumkinligini baralla kuylaganlar, mehnat va kasb-hunarni inson hayoti va baxtining moddiy va ma’naviy asosi, deb bilganlar.

Burxoniddin az Zarnujiy ilm, kasb-hunar o‘rganish uchun eng avvalo o‘quvchida jiddiy xohish, qat’iyat bo‘lishi lozimligini, shundan keyin yaxshi ustoz hamda yetarlicha vaqt zarurligini ko‘rsatgan. Ibn Sino ilmu amalning birligi, ya’ni nazariya bilan amaliyotni uzviy bog‘lash, dual ta’lim g‘oyasini ilgari surgan.

Suqrotona savol-javob usuli (zig-zag, arra usulining asosi) bo‘lib mantiqiy fikrlashga, ziyraklikka, aniq va to‘g‘ri so‘zlashga, nutqning mantiqiyligi va ravonligiga hamda tanqidiy, ijodiy fikrlashga o‘rgatgan.

Tibetdagi lamaizm ta’limoti asosida alohida sohalarga ixtisoslashgan ibodatxonalarda ta’lim-tarbiya ishlari amalga oshirilgan. Bunda o‘quvchi tomonidan uzluksiz, qayta takrorlash vositasida material to‘liq yod olingan va uning natijasi o‘ziga xos sinov ishlari, ya’ni o‘quvchini bir necha vaqt davomida alohida ajratib qo‘yib, o‘zlashtirgan axborotlarini xotirasiga asoslanib yozib berish talab etilgan. Demak, ularning ruhiy, jismoniy irodalari qattiq sinovdan o‘tkazilib, muvaffaqiyatga erishgan shogirdlargagina mustaqil faoliyat ko‘rsatishlari uchun ruxsat berilgan.

Kasbiy ta’lim berish, kasb-hunar sir-sinoatlarini o‘rgatish juda qadim zamonlarda paydo bo‘lgan. Kasbiy malaka bevosita mehnat faoliyati jarayonida berilgan. Ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi, hunarmandchilikning ixtisoslashib borishi, mehnat ko‘nikma va malakalarining murakkablashuvi to‘plangan mehnat tajribasi, jumladan tizimlashgan bilim, malakalarini ma’lum bir tarzda avloddan avlodga o‘tkazish zaruriyatini tug‘dirdi. Bu ehtiyoj dastlab ustoz-shogird yo‘li bilan tartibsiz, ya’ni xaotik tarzda amalga oshirildi. Sanoat ishlab chiqarishining rivojlanishi bilan turli darajadagi va sohadagi kasb-hunar o‘quv yurtlari paydo bo‘ldi. Kasb-hunar ta’lim tizimi mustaqil tarmoq sifatida dastlab Yevropada, so‘ng Amerikada shakllandi.

Kasbiy ta’lim maqsadlarini belgilab olish ta’lim metodlarini aniqlash, to‘g‘ri shakllantirish, turlash va tizimlashtirish, ya’ni ketma-ket masalalar va savollar tarzida ifodalash o‘qituvchi kasbiy faoliyatining eng murakkab va mas’uliyatli bosqichi hisoblanadi.

Chunki u o‘qituvchi faoliyatining keyingi bosqichlariga yo‘naltiruvchi omil, mo‘ljal sifatida xizmat qiladi. O‘quvchilar ongiga yetkazilgan ta’lim maqsadlari ularni o‘quv-bilish faoliyati uchun mo‘ljal bo‘ladi va ta’lim-tarbiya jarayonida ularning ongliligi va faolligini ta’minlaydi.

Xorijiy tajribalardan shu narsa ma’lum bo‘ladiki, talabalarda jismoniy va ruhiy bilimlarni rivojlantirish ularning kasbiy bilimlarini shakllantirishga olib keladi. Ular yangi va notanish bilimlarni o‘z vaqtida o‘zlashtirib borishlari lozim. O‘quvchilar yosh bolalik davridan boshlab, maktabga birinchi borgan kunidan boshlab o‘z kelajagini tasavvur qila bilishi kerak. Shuningdek, ta’lim muassasasida

har bir mashg‘ulotlarga to‘liq ishtirok etishi va kerakli bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘z vaqtida o‘zlashtirib borishlari lozim. O‘qituvchilar bolalarni yoshligidan boshlab o‘z muammolarini o‘zlari yecha olishlariga barcha imkoniyatni yaratib qo‘yishlari lozim. Kasb-hunar kolleji o‘quvchilarining ishlab chiqarishga moslashuvi davrida o‘qituvchi ularning bir-birlarini to‘g‘ri qo‘llab quvvatlashlariga sharoit yaratib berishlari lozim. Talabalar faoliyatini qiziqarli etib tashkil etish ularning bir-birlariga bo‘lgan munosabatlarini to‘g‘ri shakllanishiga yordam beradi.

Talabalarning faoliyat turlari rang-barang va qiziqarli bo‘lishi lozim.Talabalar o‘quv faoliyatidan tashqari turli ko‘ngil ochar tadbirlarni ham tashkil etishlari lozim. Darsdan tashqari ko‘ngil ochar tadbirlarni tashkil etish o‘qituvchilardan talabchanlikni talab etadi. Katta kurs talabalari kichik kurs talabalari bilan hamkorlikda o‘z faoliyatlarini olib borishlari lozim. Bu hamkorlik munosabatlari albatta o‘qituvchining rahbarligi ostida bo‘ladi. Bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashda ko‘proq amaliy kasbiy faoliyatga tegishli ko‘nikma va malakalar muhim o‘rin tutganligi sababli nazariy materiallarni bayon qilishda turli xil asbob-uskunalardan foydalanish yaxshi samara beradi. Bu esa nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni o‘quvchilar ongiga singdirishda muhim ahamiyatga ega.[19]

Demak, kasb-hunar ta’limida amaliy bilimlar, ko‘nikmalar va malakalar nazariy bilimlardan kam emas va albatta ulardan ko‘zlangan maqsad bo‘lajak mutaxassislarni kasb faoliyatiga tayyorlashning samarali yo‘llarni yaratish va joriy etishdan iboratdir.

5.3. Kasb-hunar ta’limi jarayonida ishlab chiqarishning quyidagi qonuniyatlarini hisobga olinishi. Ta’lim tamoyillari haqida tushuncha

Kasb-hunar ta’limi jarayonida ishlab chiqarishning quyidagi qonuniyatlarini hisobga olinishi zarur:

- ishlab chiqarish munosabatlarining ishlab chiqarish kuchlari tavsifiga mosligi;
- mulkchilik munosabatlari;
- mehnat xarakteridagi o‘zgarishlar;
- talab va ehtiyojning ishlab chiqarish darajasidan yuqoriligi;
- mehnatga yarasha taqsimot;
- ishlab chiqarish vositalarining ishlab chiqarishga nisbatan o‘sishi;
- rejali, proporsional rivojlanish;
- moddiy ne’matlar yaratuvchi odamlar o‘zlarining ongi, xulq-atvori va his-tuyg‘ularini qayta ishlab chiqishi;
- yirik mashinasozlik sanoatining uzluksiz ortib borishi;

[19] Sharon A. Wynne. Pedagogy professional responsibilities. EC-12 Teacher Certification. 2013. 165-б.

- ishlab chiqarish jarayonlarini tabaqalashtirish va integratsiyalashtirish;
- ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish va kooperatsiyalashtirish;
- ishlab chiqarishni majmuaviy mexanizatsiyalash, avtomatlashtirish va robotlashtirish;
- ishlab chiqarishning intellektuallashuvi;
- mehnat resurslarining o‘zaro taqsimlanish sur’atini ortishi;
- xo‘jalik hisobi, o‘zini-o‘zi mablag‘ bilan ta’minlash;
- sanoat sohasi bilan mashg‘ul mutaxassislar sonini qisqarishi;
- mehnatni jamoaviy tashkil etishning ortishi, demokratiyalash, o‘zi-o‘zini boshqarish va shu kabilar.

Uzluksiz ta’lim, shu jumladan kasb-hunar ta’limi quyidagi pedagogik qonuniyatlarga asoslanadi:

- kasbiy ta’lim-tarbiya jarayonida o‘qituvchi (muhandis-pedagog) va o‘quvchilar hamda o‘rganilayotgan ob’ektlarning o‘zaro ta’siri;
- kasbiy ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarning ongliligi, mustaqilligi va faolligi;
- kasbiy ta’lim-tarbiya jarayonida uning ishtirokchilari (o‘qituvchi va o‘quvchilari) maqsadlarining bir-biriga mushtarakligi;
- kasbiy ta’lim-tarbiya ishi natijalarining o‘quvchilar ongi, faol o‘quv-bilish faoliyatiga bog‘liqligi;
- kasbiy ta’lim-tarbiya, ya’ni pedagogik jarayonni tashkil etuvchi maqsad, mazmun, metod, vosita, shakl, natija va ishtirokchilar orasida o‘zaro bog‘liqlik hamda munosabatlarning mavjudligi;
- kasbiy ta’lim maqsadi, uning mazmuni va metodlari, metod va mazmuni maqsadga erishilganlik darajasini belgilashi;
- kasbiy ta’lim mazmuni (o‘quv materiali)ning vaqt, o‘quvchilar yoshi, tayyorgarlik darajasi va boshqa individual xususiyatlariga mos holda tashkil etilganda maqbul o‘zlashtirilishi;
- kasbiy xatti-harakat usullari (ko‘nikma va malakalar) ning asosi hisoblangan bilimlar mohiyatini anglagan holda ish-harakat operatsiyalarini takror bajarish orqali shakllanishi;
- o‘quv materialini puxta o‘zlashtirilishi avval o‘zlashtirganlariga tayanganligi va muntazam ravishda takrorlanganligiga bog‘liqligi;
- o‘quv materialining maqsadga muvofiq holda shakllantirilganligi va o‘quvchilarga yetkazilishi;
- o‘zlashtirish sifat va darajasining o‘quvchilar imkoniyatlari, qiziqishi, idroki, tafakkuri, xotirasi, qobiliyati, o‘qituvchi tomonidan uning ahamiyatli jihatlarini yoritilishi kabilarga bog‘liqligi;
- o‘zlashtirish maromi va puxtaligini o‘qituvchi tomonidan o‘quv materialini aniq, lo‘nda hamda qiziqarli yetkazilishiga bog‘liqligi;

- o‘quvchining aqliy rivojlanganligi, o‘zlashtirgan bilim, xatti-harakat usullari, hayotiy tajribalariga to‘g‘ri proporsional bog‘liqligi;

- kasb–hunar ta’limining muvaffaqiyati, tezligi va natijalarining o‘quvchilar individual xususiyatlariga bog‘liqligi.

- o‘quvchilarda mustaqil ijodiy faoliyat tajribalarini shakllantirish va rivojlantirishning ular oldiga muhim ahamiyatga ega hayotiy dolzarb muammolar yechimini topish vazifasining qo‘yilganligiga bog‘liqligi kabilar. O‘qituvchining **ta’limiy**, **tarbiyaviy**, **rivojlantiruvchi** vazifalarini amalga oshirishida o‘z aksini topmog‘i lozim. Ana shu asosdan kelib chiqib aytish mumkinki, ta’lim jarayonida o‘qituvchi o‘z ta’lim oluvchilariga qo‘lga kiritilgan bilimlarni o‘rgatadi. O‘quv faoliyatida ularni ko‘nikma va malakalar bilan qurollantiradi. Shu bilan bir paytda u ta’lim oluvchilarda dunyoqarash va axloq meyorlarini hosil qiladi, qiziqish va qobiliyatlarni shakllantiradi, ularning bilish faolligini oshiradi. O‘qituvchining faoliyati ta’lim oluvchi shaxsining maqsadga muvofiq shakllanishiga katta imkoniyatlar ochib beradi. Yanada aniq qilib aytsak, butun o‘quv jarayonini rejalashtiradi, ushbu jarayonda ta’lim oluvchilar bilan birgalikdagi faoliyatni tashkil etadi. Ta’lim oluvchilarga qiyinchiliklarni yengib o‘tishda yordam beradi hamda ularning bilimlarini va butun ta’lim jarayonini tashxis qiladi. O‘z navbatida ta’lim oluvchilarning faoliyati o‘quv jarayonida o‘rganishga, bilim, ko‘nikma hamda malakalarni egallashga, o‘zini jamiyatga foydali faoliyatga tayyorlashga yo‘naltiradi. Ta’lim jarayonida ta’lim oluvchilarning faoliyati ko‘p qirrali yo‘nalgan harakatni ifodalaydi va bu harakat bilishga doir vazifalarni hal qilishda ularga katta yordam beradi.

Ta’lim tamoyillari pedagogning faoliyatini va talabalar tomonidan ilmiy bilimlarning o‘zlashtirilishi tegishli ko‘nikma va malakalar xosil qilishning asosiy qonun va yo‘l yo‘riqlarini o‘z ichiga oladi. Shu bilan bir vaqtda ta’lim tamoyillari har ikkala faoliyatning ya’ni pedagog va talaba tomonidan o‘z oldiga qo‘yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish imkoniyatini beradigan bir qancha talablarni ham umumlashtirib beradi. Shunga ko‘ra ta’lim qoidalari o‘qitishning eng muhim masalalarini nazariy va amaliy jihatdan to‘g‘ri hal qilishning asosiy negizi hisoblanadi.

Ta’lim tamoyillari deb, umuminsoniy tarbiyaning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan o‘qish va o‘qitish jarayonlarining yo‘nalishi talabalar tomonidan ilmiy bilimlarning o‘zlashtirilishi, bilim va malaka xosil qilishning asosiy qonun va qoidalarining yig‘indisiga aytiladi. **umumdidaktik tamoyillar**

- **Ta’lim mazmunini unifikatsiyalash va tabaqalashtirish tamoyili** – ta’lim mazmunini unifikatsiyalash va tabaqalashtirish, **birinchidan**, ma’lum bir yo‘nalish bo‘yicha mutaxassis tayyorlanayotganda uni bir necha tur modifikatsiyani (xillarini) tayyorlash imkonini beruvchi unifikatsiyalashgan o‘quv rejalarini tizimni ko‘zda tusa, **ikkinchidan**, umumtexnik va umum pedagogik hamda maxsus predmetlar mazmunini tabaqalashtirish, ijtimoiy ishlab chiqarish rivojlanishi an’analarini hisobga oladi.

- **Ta’lim – tarbiya tizimi va uzviylik tamoyili** – bu ta’lim – tarbiyada qat’iy mantiqiy izchillikka rioya qilish kerak bo‘lgan jarayondan iborat bo‘lib, bunda o‘rganilgan bilimlar va shakllangan tasavvurlar oldingi o‘rganilganlardan kelib chiqadi, ularni mustahkamlaydi, chuqurlashtiradi va keyingi ta’lim – tarbiyaviy jarayonga zamin hozirlanadi. Mazkur tamoyil o‘qish jarayonida didaktikaning umumiylikdan xususiylikka (deduksiya) va aksincha xususiylikdan umumiylikka (induksiya) qoidasini va o‘quv fanlarining bir – biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lishini ta’minlaydi.
- **Ta’lim – tarbiyaning amaliyot bilan bog‘liqligi tamoyili** – bu ta’lim mazmunining amalda o‘z ifodasini topish jarayoni bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, unda tarbiyani hayot bilan uzviylikda olib borishlik jarayoni qaraladi. Ushbu tamoyil didaktikaning asosiy qoidalaridan biri bo‘lib, ruhiy hodisalar bilan yaxlit ta’lim – tarbiya jarayonini tashkil etadi.
- **Ta’lim va tarbiyaning birligi tamoyili** – bu kishilarga bilim va tarbiya berish jarayonidan iborat bo‘lib, unda egallangan bilim va ko‘nikmalarni hayotga qo‘llay olishga o‘rgatiladi hayotda ta’lim oluvchilarning ham intellektual, ham ma’naviy jihatdan uyg‘unlikda rivojlanishi ta’minlanadi. Yaxlit ta’lim – tarbiya jarayonida ikki o‘zaro bog‘liq juftlik, ya’ni, bilim berish va tarbiyaviy ko‘nikmalarni shakllantirish hamda shakllangan ta’limiy – tarbiyaviy bilimlar va ko‘nikmalar bo‘yicha faoliyat ko‘rsatishga o‘rgatish, obektiv borliqdagi qonuniyatlarni o‘rganish va uning amaliy munosabatlarini tarkib toptirishda namoyon bo‘ladi. Shu sababli ta’lim oluvchilarga bilim berishda egallagan bilimni amalda ishlatishga o‘rgatish, ya’ni, tarbiyalash jarayoni ham uyg‘unlikda olib borilmog‘i lozim bo‘ladi.
- **Ta’lim – tarbiyaning muntazamiylik va davomiylik tamoyili** – bu ta’lim – tarbiyadagi zarur fiziologik – psixologik qonuniyat hisoblanib, u bilimni mantiqiy bog‘liqlikda o‘rganishni ta’minlab beradi. Bu tamoyil har bir fan bo‘yicha tuzilgan o‘quv reja va dasturlarda dasturiy va uslubiy tavsiyanomalarni yaratishda tadbiq etiladi. Amaliyotchi o‘qituvchi o‘quv reja va dasturlaridan chetga chiqmasligi lozim. Bu qonuniyat tushunchalar, dalillar va boshqa fikrlar orasidagi, ularning **tadrijidan** kelib chiqqan aloqadorliklar qonun va qoidalar bilan amaliy ishlarni bajarish o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlarni o‘rganish orqali amalga oshiriladi. Bu qonuniyat o‘qish faoliyatini tashkil etishning asosi hisoblanadi. Unga amal qilmaslik ta’lim oluvchilar tafakkurida o‘zaro bog‘liq bo‘lmagan uzuq – yuluq bilimlarning paydo bo‘lishiga olib keladi. Bunday bilimlardan kishining ijtimoiy mohiyatiga naf bo‘lmaydi, ular tafakkurni charchatadi xolos.
- **Ta’lim – tarbiyada onglilik va faollik tamoyili** – ta’lim oluvchilar olayotgan bilimini hayotda qo‘llay bilishlari uchun ta’lim berish jarayonini faol fikrlashga aylantirish kerak. Bunda o‘qitishni shunday tashkil etish kerakki, ta’lim oluvchilar bilimlarini mashg‘ulotlarda ongli va faol qatnashib egallab olishsin.

Shunda talabalarda ong o‘sib, ijtimoiy tashabbuskorlik va o‘quv faoliyatida mustaqillik tarkib topadi.

Ta’lim – tarbiyaning onglilik tamoyili ta’lim oluvchilarda ta’rif, tushuncha va qoidalarni yodlash va esda saqlash bilan ularni egallash emas, balki bu bilimlarni, hayotiy hodisalar, jarayonlar bilan bog‘liq bo‘lgan mazmunini tushuntirishlarini talab etadi. Bilimlarni ongli ravishda o‘zlashtirish ta’lim oluvchilarda bilimlarga nisbatan ma’lum munosabat hosil qilishni, hissiy kechinmalar uyg‘otishini o‘z ichiga oladi. Bu tamoyil tafakkurini shakllantiruvchi qoida bo‘lganligi uchun muammoni mustaqil hal qilish maqsadida darsda ta’lim oluvchilarga muammoli vaziyatlar tavsiya etiladi.

- **Ta’limda o‘quv faoliyatini yaxlit shakllantirish tamoyili** – ta’lim oluvchilarning diqqatini boshqarish, ularga bajariladigan ishlarni tushuntirish, zaruriy ehtiyoj – motivatsion holatlarni faollashtarish, faoliyatga yordam berish, tuzatish kiritish jarayoni va ta’lim oluvchilar o‘quv faoliyatining natijasini baholash jarayoni.
- **Ta’limni ilmiy asosda tashkil etish tamoyili** – ta’lim oluvchilardagi o‘qitish ishlarini faollashtiradigan, ongini o‘stiradigan, ularni mustaqil bilim olishga yo‘naltiradigan usullarga o‘rgatadi hamda pedagogik, texnik atamalardan to‘g‘ri foydalanishga odatlantiradi,
- **Ta’limning ko‘rgazmalilik tamoyili** – bu o‘rganilayotgan hodisa va voqealarni jonli idrok etish asosida o‘zlashtirishni ko‘zda tutadi. Bu tamoyil o‘quv materialini aniq obrazlar orqali bevosita idrok qilishni ta’minlaydi. Ta’lim jarayonida ko‘rgazmali vositalardan to‘g‘ri foydalanish talabalarning pedagogika, psixologiya, tarbiyaviy ishlar metodikasi, o‘qitish uslubiyati va texnikaga oid fanlarni puxta o‘zlashtirib olishga, ularda malaka hosil bo‘lishiga yordam beradi. Agar ko‘rgazmali qurol biror fikrni bildirish uchun yordamchi vosita bo‘lsa, nutq asosiy qurol hisoblanadi.

Ko‘rgazmali qurol kuzatishni rivojlantirish uchun qo‘llanilsa, nutq qisqa bo‘lib kuzatishning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan bo‘ladi.

Demak, ta’limning ko‘rgazmalilik tamoyili – bu ta’lim jarayonidagi sifatni ta’lim oshirishga, talabalarning bilim olishlarini osonlashtirishga (oydinlashtirishga) qaratilgan faoliyat bo‘lib, unda talabalardagi o‘rganilayotgan jarayonlarni (narsa va hodisalarni) bevosita hissiy – amaliy jihatdan idrok qilish asosida bilimlarni ongli ravishda o‘zlashtirish jarayoniga asosiy e’tibor qaratiladi.

Politexnik tamoyil – bu tamoyil zamonaviy ishlab chiqarishning ilmiy asoslari tizimini egallashni nazarda tutib, shu bilimlar asosida umumkasbiy politexnik va maxsus bilimlarni shakllantiradi.

Politexnik tamoyillarni o‘qitishda quyidagi shartlarga amal qilish lozim:

- asosiy yo‘nalishdagi rivojlangan texnika va ilmiy o‘qitish;
- o‘zaro bir-birlari bilan bog‘langan o‘quv materiali tizimini tashkil qilish;
- o‘qitilayotgan fanni kelajakda amaliyotda qo‘llash;

- ta’lim oluvchilarning yoshlariga mo‘ljallab o‘qitish;
- umumta’lim bilimlariga tayanish;
- ta’lim oluvchilarning qiziqishlarini qoniqtirish;
- o‘quv materialining ketma-ketligi va turg‘unligiga rioya qilish.

Ta’lim oluvchilarda amaliyot va nazariyani o‘zaro bog‘lash tamoyili

O‘quv jarayonida nazariy va amaliy bilim berish o‘zaro aloqadorlik va o‘quv predmetini asosiy maqsadi amaliyotda qo‘llashga qaratilgan bo‘lib, quyidagi shartlarga amal qilishga bog‘liq:

- nazariy bilimlarni amaliyotda sinalishi;
- ish jarayonida sohaviy bilimlar va ularni fanda qo‘llanilishi;
- mutaxassis-xodimlarni samarali o‘qitish uchun kasbiy ishlab chiqarishga qarab kasbiy bilim berish.

Mutaxassis faoliyatini o‘quv jarayonida modellashtirish tamoyili

Modellashtirish orqali mazmun va maqsadlarni isbotlash uchun engilliklarini oldin o‘zlashtirish, o‘qitish metodlarini o‘quv rejasi va o‘quv dasturini olish mumkin.

Mobillik tamoyili

Bu tamoyil shaxsning texnik bilimlarini tez o‘zlashtirish qobiliyatiga qaratilgan. Ishchining ijodiy ish xarakteri, dunyoqarashining kengligi muammolarni anglab olish, ishlab chiqarishdagi rivojlanishini ko‘ra bilishdir.

Tartibli ketma-ketlik tamoyili

Bu tamoyil quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- o‘quv rejasini planlashtirish;
- o‘quv jarayonida ketma-ketlikka rioya qilish;
- deduktiv o‘qitish metodlarini qo‘llash;
- umumta’lim bilimlarini tayanch qilib olish;
- o‘quv materiallarini o‘zaro bog‘liq holda tartibli berib borish.

Atrof-muhitni tashkil etish tamoyili

Atrof-muhit deganda avvalom bor ta’lim muassasasida o‘quv qurollari bazasini ishlab chiqarish va didaktik vositalarni, texnik, texnologik, ekologik talablar, shu bilan birga mehnat muhofazasini ta’minlash va ta’lim oluvchilarning sog‘lig‘ini saqlash sharoitlarini yaratish lozim.

Kompyuterlashtirilgan pedagogik jarayon tamoyili

Bu tamoyil bugungi kunda o‘ta dolzarb bo‘lib, kompyuterlar hayotimizning turli sohalariga kirib kelmoqda. Pedagogik sohaga ham kirib kelib ta’lim oluvchilarga kompyuterlar yordamida mavzuni kengroq, qiziqarliroq va tushuntirilayotgan mavzuni amaliyotini ham ekranda ko‘rsatib berish imkonini yaratadi.

Texasdagi o‘qituvchilar uchun bilim olish tamoyillari ta’limning eng muhim masalalari nazariy va amaliy jihatdan to‘g‘ri hal qilishning asosiy negizi hisoblanadi.

Quyidagilar eng muhim didaktik tamoyillar qatoriga kiradi:

*.Ta'limning ilmiy,muntazam va izchil bo'lish tamoyili

*.Ta'lim va tarbiyaning birligi tamoyili.

*.Ta'limda nazariya va amaliyotning birligi tamoyili.

Shuningdek, quyidagi tamoyillar ham mavjud:

Pedagogik jarayonning tizimlilik tamoyili-ta'lim-tarbiya va shaxs rivojlanishi ,muayyan tizimga ega ekanligini anglatadi.

Asoslanganlik tamoyili-turkum o'quv predmetlarini o'rganish ob'ektining mohiyati,muhim xususiyatlari,aloqalari,ob'ektiv olam bilan muayyan munosabatlarini o'zida ifodalaydi.U har bir o'quv predmetiga tegishli fan asoslari sifatida talqin etib,o'zi uchun yadro,o'zak hisoblangan tizimlashtiruvchi ma'lumotlarga ega bo'ladi va shu ma'lumotlarning shaxs tomonidan o'zlashtirilishi, uning aniq soha bo'yicha

bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy fazilatlarga ega bo'lishda tayanch bo'lib xizmat qiladi.

Insonparvarlik tamoyili - pedagogik amaliyotda insoniylashtirish bilan birgalikda qo'llaniladi.Bu har ikki tushuncha ham lug'aviy jihatdan yunoncha "humanus" insoniylik va "humanitas" insoniyat so'zidan olinib,bir o'zakka ega bo'lsada, ularning boshqa-boshqa ma'nolar anglatishi olimlar tomonidan e'tirof etilgan.

Uzluksizlik tamoyili fan-texnika taraqqiyoti, ilg'or ishlab chiqarish texnologiyalarini amaliyotga keng ko'lamda qo'llash hozirga zamon va istiqbolda mustaqil ravishda ijodiy faoliyat ko'rsatish uchun shaxsga butun umr yetarli bo'lgan.

Nazariyaning amaliyot bilan bog'liqlik tamoyili-o'quvchilar o'zlashtirgan bilimlari ularning bevosita hayot faoliyatida qo'llangan yoki dasturiamal bo'lib xizmat qilgandagina ahamiyatli ekanligiga ishora qiladi. Amaliyotda qo'llanmagan bilimlar asossiz bo'lib, qisqa vaqt davomida unutiladi.

Tarbiyaning ma'lum bir maqsadga qaratilganligi qoidasi bolalar jamoasining rivojlanish istiqbollarini ko'ra bilishga yordam beradi. Har bir tarbiyaviy tadbir oldindan puxta o'ylangan, muayyan maqsadni amalga oshirishga bo'ysundirilgan bo'lsa, uning g'oyaviy-siyosiy darajasini ko'taradi, tanlangan usul va vositalar maqsadga muvofiq keladi, ularning tarbiyaviy ta'siri yuqori bo'ladi.

Tarbiya maqsadini belgilashda jamiyat talablari, davr nafasi, milliy xususiyatlar asos qilib olinadi. Tarbiyaning maqsadi - har tomonlama kamol topgan mukammal inson shaxsini tarbiyalashdir.

O'qituvchilar jamoasi va har bir o'qituvchi ana shu maqsadlardan kelib chiqib, tarbiyaviy ishlarning vazifalarini belgilaydi, uning mazmunini aniqlaydi hamda maktab ish sharoitlarini hisobga olgan holda yosh yigit-qizlarni tarbiyalashning shakl va uslublarini tanlaydi.

Tarbiyaning insonparvarlik va demokratik qoidasi; Umumiy ta'lim maktabi yangi pedagogik tafakkur egasi, munosib shaxs, o‘z ishining ustasi bo‘lgan o‘qituvchiga muhtoj. O‘qituvchining bilim saviyasi, ma'naviyati jamiyatni xarakatga keltiruvchi, taraqqiyotga eltuvchi yetakchi omillardan biridir. O‘qituvchi yurish-turishi, xatti-harakati, kiyinishi, muomalasi bilan o‘quvchi qalbiga kirishi, uni ezgulik sari yo‘naltirishi kerak.

Bir butun pedagogik jarayonda ta'lim doimo tarbiyaviy vazifalarni, tarbiya esa hayotni bilish, unga tayyorlanishdek mas'uliyatli vazifani bajaradi. Tarbiyaning vazifalari ko‘p qirralidir. Ta'limning asosiy vazifasi o‘quvchi-talabalarni bilimlar bilan qurollantirish bo‘lsa, tarbiyada o‘quvchi-talabaning jamiyatimizda qabul qilingan axloq-odob qoidalariga mos keladigan e'tiqodini, axloqiy malaka va ko‘nikmalarini, ehtiyoj va intilishlarini tarkib toptirish muhimdir.

Agar bola yaxshi tarbiya topib, buzuq xulqlardan saqlanib, go‘zal xulqlarga odatlanib katta bo‘lsa, har kim qoshida maqbul, baxtiyor bir inson bo‘lib chiqadi. Agar tarbiyasiz, axloqi buzilib o‘ssa, nasihatni qulog‘iga olmaydigan, har xil buzuq ishlarni qiladigan, nodon, johil bir rasvoyi olam bo‘lib qoladi. Tarbiya qiluvchilar Tabib kabidurki, Tabib xastaning badanidagi kasaliga davo qilgani kabi tarbiyani bolaning vujudidagi jahl maraziga «yaxshi xulq» degan davoni ichidan, «poklik» degan davoni ustidan berib, katta qilmog‘i lozimdir. Zeroki, amri sharifi uzra xulqimizni tuzatmoqqa amr qilinganmiz. Lekin xulqimizning yaxshi bo‘lishining asosiy panjasi tarbiyadir[20].

Nazorat savollari:

1. Tizimli tahlil printsipi deganda nimani tushunasiz?
2. Kasb-hunar ta`limi pedagogikasini rivojlantiruvchi manbalarini aytib bering?
3. Kasbiy ta`limning shakllanishidagi muhim omillarni aniqlang?
4. Kichik mutaxassis kadrlarga qo'yilgan talablar.
5. Kasb-hunar ta`limi jarayonida ishlab chiqarishning qanday qonuniyatlari mavjud?
6. Ta`lim qonuniyatlarining muayyan fanlarni o'qitishdagi ahamiyatini izohlab bering.
7. Ta`lim tamoyillari o'qitish jarayonida qanday vazifalarni bajaradi. Aniq bir mavzuni o'rganish jarayonida izohlab bering.

[20] Sharon A. Wynne. Pedagogy professional responsibilities. EC-12 Teacher Certification. 2013. 164-б.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdiquddusov O., Rashidov H. Kasb-hunar ta'limi pedagogikasi. O'quv qo'llanma. – T: O'MKHTTKMOvaUQT instituti, 2009. - 120 b.
2. Muslimov N.A., Mullaxmetov R.G. Kasb tanlashga yo'llash. O'quv qo'llanma. –T.: 2007. - 165 b.
3. Olimov Q.T. Kasb ta'limi uslubiyati. O'quv qo'llanma. –T.: 2006. - 164 b.
4. Xakimova M.Kasbiy pedagogika. O'quv qo'llanma. –T.: 2007. - 193 b.
5. Sharon A. Wynne. Pedagogy professional responsibilities. EC-12 Teacher Certification. 2013. 251 b.
6. Ziyomuhammadov B. Pedagogika. O'quv qo'llanma. – Toshkent: 2012. – 296 b.
7. Ziyomuhammadov B. Komillikka eltuvchi kitob. – Toshkent: Turon – Iqbol,2006–299 b.
8. Zunnunov A., Mahkamov U. Didaktika. – Toshkent: "Sharq" nashriyot – matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh taxririyati, 2006. – 128 b.
9. Rapasevich Ye.S. Pedagogika: Bolshaya sovremennaya ensiklopediy. – MINSK: Sovrem. Slova, 2005. – 720 s.
10.Sharon A. Wynne. Pedagogy professional responsibilities. EC-12 Teacher Certification. 2013. 251 b.

6 KASBIY PEDAGOGIKADA QO‘LLANILADIGAN ILMIY TADQIQOT METODLARI, SHAKLLARI VA VOSITALARI.

Reja:	6.1. Kasbiy pedagogikada qo‘llaniladigan ilmiy tadqiqot metodlari 6.2. Kasb-hunar ta’limini tashkil qilish shakllari va vositalari.

Tayanch iboralar: *metod, vosita, shakl, metodologiya, tadqiqot, ta`lim, didaktik, reproduktiv, muammoli, umumkasbiy, o'quv-biluv, maqsad, vazifa.*

6.1.Kasbiy pedagogikada qo‘llaniladigan ilmiy tadqiqot metodlari

Kasb ta’limi metodlari deganda - o‘qituvchi va ta’lim oluvchilarning birgalikda bajaradigan faoliyat usullari tushuniladi va bu usullar ta’lim oluvchilarning texnik-texnologik bilimlarni, ko‘nikma va malakalarni egallashlariga, mustaqil ravishda bilim olish va bu bilimlardan amalda foydalanish qobiliyatini oshirishga qaratilgan bo‘ladi.

Pedagogik amaliyotda quyidagi metodlar – og‘zaki metod (og‘zaki bayon, tushuntirish, suhbat), kitob bilan ishlash (instruktiv materiallar), ko‘rgazmali metod (ko‘rgazmalar, kino, videofilm, kuzatuv), amaliy metod (mashqlar, laboratoriya, amaliy ishlar) lardan keng foydalaniladi.

Didaktik vazifalarga bog‘liq holda quyidagi metodlar qo‘llaniladi – bilimlarni hosil qilish, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, bilimlarni qo‘llash, mustahkamlash, bilim, ko‘nikma va malakalarni tekshirish.

Ta’lim oluvchilarning o‘quv faoliyatiga mos ravishda ikki metod ajratiladi va ular 2 guruhga birlashtiriladi: reproduktiv va muammoli izlanish metodlari.

O‘qitishning *reproduktiv va muammoli-izlanish metodlari e*ng avvalo, o‘quvchilarning yangi tushuncha, hodisa va qonunlarni bilishdagi ijodiy faolliklari darajasini baholash asosida qismlarga ajratiladi.

Reproduktiv metodlar birinchi navbatda, o‘quvchilarning o‘quv materiallarini mustahkamroq eslab qolishlarini ta’minlash, bilishga doir faoliyatni bevosita boshqarish, kamchiliklarni tez aniqlash uchun amaliy ko‘nikma va malakalarni tarkib toptirish maqsadida qo‘llaniladi.

Hikoya qilish usuli reproduktiv tuzilganda o‘qituvchi qoidalarni, dalillarni, tushunchalarning ta’rifini tayyor holda beradi, u asosiy e’tiborini mustahkam o‘zlashtirib olinishi zarur bo‘lgan asosiy tomonlarga qaratadi.

Ma’ruza ham xuddi shunday tarzda tuziladi: o‘qituvchi muayyan ilmiy ma’lumotlarni bayon qiladi, doskaga tegishli yozuvlarni bitadi, tinglovchilar esa ularni qisqacha yozib oladilar.

Muammoli ta’lim deyilganda, o‘quv materialini o‘quvchilar ongida ilmiy izlanishga o‘xshash bilish vazifalari va muammolari paydo bo‘ladigan qilib o‘rganish tushuniladi. O‘quvchining fikrlash faoliyatida mantiqiy to‘g‘ri, ilmiy xulosalarni izlash va o‘zlashtirishga rag‘batlantiradigan muammoli vaziyatlar yuzaga keladi. Paydo bo‘layotgan muammoni hal qilish uchun, u o‘rganilayotgan qoidalarni to‘g‘ri tushunib olishga intiladi.

Ta’lim metodini 3 ta asosiy guruhga bo‘lishimiz mumkin:

O‘quv bilish va o‘quv ishlab chiqarish faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish metodi.

O‘quv faoliyatiga qiziqtirish va rag‘batlantirish metodi.

Ta’lim oluvchilar o‘quv faoliyati samaradorligini nazorat qilish va o‘z-o‘zini nazorat qilish metodi.

Metodlarning har bir turi guruhlarga bo‘linadi va ularning alohida metodlari bor, bular esa ta’lim jarayonining quroli hisoblanadi.

O‘quv bilish va o‘quv ishlab chiqarish faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish metodiga quyidagilar – suhbat, ko‘rgazmali va amaliy metod, o‘qituvchi boshchiligida induktiv yoki deduktiv, reproduktiv yoki produktiv yo‘nalishlardagi metodlar kiradi.

O‘quv faoliyatiga qiziqtirish va rag‘batlantirish metodiga – o‘quv bilish va o‘quv ishlab chiqarish faoliyatini tashkil qilish hamda o‘qish faoliyatiga qiziqtirish metodlari kiritilgan.

Har bir metod boshqa bir metod yordami bilan qo‘llaniladi. Masalan, reproduktiv va muammoli izlanish metodi suhbat, ko‘rgazmalar, amaliy faoliyat yordamida qo‘llaniladi. Shu navbatda suhbat, ko‘rgazmali va amaliy faoliyat metodlari ham reproduktiv yoki izlanish metodlari orqali qo‘llanilishi mumkin.

Hayotiy o‘quv jarayonida esa eng muhimi bu metodlarni turlarga bo‘lish emas, balki o‘qituvchining chuqur bilimga ega bo‘lishi, metodlardan unumli foydalana olishi, ta’lim oluvchilarga o‘quv ishlab chiqarish, o‘quv faoliyatida metodlarni to‘g‘ri qo‘llay olishga o‘rgatishdir.

Ta’lim oluvchilarni o‘quv bilish faoliyatini tashkil qilish metodi.

Suhbat metodi. Og‘zaki bayon. Umumtexnika va kasbiy fanlarni o‘rganish jarayonida o‘quv materialini og‘zaki bayonini gapirib berish va tushuntirish orqali amalga oshiriladi, bunda mavzu to‘liq taqqoslanadi, isbotlanib, misollar bilan tushuntiriladi.

Bayon qilinayotgan material ta’lim oluvchilarning tushunishi uchun qiyin bo‘lgan, yangi ma’lumotlar xabar qilingan, mehnat usullarini bajarish yo‘llarini tushuntirib berish talab qilingan hollarda og‘zaki bayon qilish metodidan foydalaniladi.

Umumiy talablardan quyidagilarni ajratib olamiz:

ilmiy-texnik aniq mazmun;

mantiqiy tuzilishi va ketma-ketligi;

ta’lim oluvchilarga tushunarli va oson yetib boradigan;

har bir bosqichda fikrni aniq va ravshanligi;

ta’lim oluvchilarning e’tiborligini, faolligini oshirish.

Suhbat – bu kasb ta’limining shunday usulidirki, unda o‘qituvchi to‘g‘ri qo‘yilgan savollar yordamida ta’lim oluvchilarda ilgari o‘zlashtirilgan bilimlar hosil qilib esga tushiradi va shu asosda mustaqil ravishda yangi bilimlar hosil qilishga undaydi.

Ta’lim oluvchilarni o‘quv-bilish faoliyatini tashkil qilishi va boshqarish savol-javob metodi orqali amalga oshiriladi. Bunday suhbat e*vristik suhbat* deyiladi.

Umumiy o‘tkazilgan suhbatlar ta’lim oluvchilarni qiziqishini, diqqatini oshirishga, bilimlarni yaxshi egallashga olib keladi. Lekin suhbat metodi og‘zaki bayon metodidan ko‘ra murakkabroqdir, ya’ni o‘qituvchidan darsga puxta tayyorlanishni talab qiladi.

Umumtexnik va kasb fanlarini o‘rganishda evristik suhbatning quyidagi shartlarini ko‘rsatish mumkin:

o‘quv materialining mazmuni mantiqiy to‘g‘ri tuzilgan bo‘lishi shart;

yangi o‘quv materialini o‘rganishda ko‘proq texnik va texnologik hujjatlarni muhokama qilishga qaratish kerak;

suhbatni boshqa metodlar va o‘quv ishlari turlari bilan birga o‘tkazish kerak (tushuntirish, kitob bilan ishlash, kuzatuv).

Yevristik suhbatda savollar keng qamrovli tuzilgan bo‘lishi lozim. Quyidagi savollarni ko‘rsatish mumkin:

Fanlarni qarama-qarshi qo‘yish, uning ko‘rinishini, jarayonini, dalillarini va boshqalarni;

Har xil holatga tushib qolganda ham bilimlaridan foydalana olishni aniqlash;

Sababini tashxisli tushuntirish;

Isbotlash «ha» yoki «qarshi» ga dalil keltirish;

Fanlararo bog‘liqlikni o‘rnatish.

Suhbat o‘tkazishda uning mantiqiy rejasiga qat’iy rioya qilish kerak, savol-javoblarning ketma-ketligi shunday tuzilgan bo‘lishi kerakki, unda mavzu murakkablashib, rivojlanib borishini ta’lim oluvchi sezishi lozim. O‘qituvchi suhbatni xulosa qilib tugatishi kerak.

Kitob bilan ishlash: tez o‘qitish, konspekt olish, reja tuzish, misollar muhokamasi, nazorat savollariga javob berish va hokazolar.

2. Ko‘rgazmali metod.

Insonning tashqi olamni sezishining eng muhim organi – ko‘zdir. Olimlarning fikricha, 80% informatsiya ko‘z orqali tushadi, 80% ish operatsiyalari ko‘z orqali qilinadi. Mana shulardan ko‘rishimiz mumkinki, ta’lim jarayonida ko‘rgazmali metod katta ahamiyatga ega.

Umumtexnik va kasb ta’limi fanlari bo‘yicha ko‘rgazmali metodlar, tabiiy (asbob, dastgoh, detall, jihoz, material namunalari) va tasviriy (plakatlar, model, maket, sxema, kino-videofilm, kino proeksiya, kompyuter, multimedia). O‘qituvchi mavzuni tushuntirishda ko‘rgazma sifatida, yoki bir xil hollarda o‘rganilayotgan fan bo‘yicha aniq ko‘rgazma sifatida, yangi axborotlarni berishda ko‘rgazmali metodlar juda qulaydir.

3. Amaliy metod.

Mashq amaliy metodning asosi hisoblanadi. Mashq o‘tkazishning asosiy maqsadi o‘qitish jarayonida ta’lim oluvchilar texnika va kasbiy fanlar bo‘yicha egallagan bilimlarini amaliyotda qo‘llay bilishni o‘rgatishdir. Ta’lim oluvchilarning bilimlarni mustahkamlashda ham mashqlarning o‘rni kattadir. Hamma mashqlarni 3 ta asosiy tipga keltirish mumkin: reproduktiv, badiiy, izlanuvchanlik.

Reproduktiv mashq - bu tipdagi mashqlarni bajarishda ta’lim oluvchilar qurilmaning tuzilishi, materiali, asbob-uskunalar, yozma vazifalarni o‘rganishadi. Reproduktiv mashqda chizmalar, sxemalar, grafiklar, diagrammalar muhokama qilinadi va ta’lim oluvchilar ularni bajarishadi. Kasbiy fanlar bo‘yicha esa texnik hujjatlar, stanok pasportlarining texnologik kartalari o‘rganilishi mumkin.

Badiiy mashq - bu turdagi mashqlarni bajarishda ta’lim oluvchilar egallagan bilim va malakalaridan turli xil kombinatsiyalarda foydalanishadi, ya’ni oldiga qo‘yilgan vazifalarning mustaqil original javoblarini topishadi. Badiiy mashq turlaridan biri produktiv masalalarni hal qilish: tanlash (asbob, ishlov berish turi, sozlovchi mexanizm), taqqoslash va baholash (ishni bajarish yo‘li, asboblarning qo‘llanilishi) aniqlashga bog‘liq bo‘lgan (texnik talab, aloqadorlik), turli xil texnik jarayonlarni tushuntirishdan iborat. Bu turdagi mashqlar orqali o‘rganilayotgan mashina, mexanizm, qurilmalarning sxemalari tuziladi.

Izlanish mashqi – bu ham egallangan bilimlarni mashqlarda badiiy qo‘llash bo‘lib, ta’lim oluvchilarning fikrlash qobiliyatini o‘stirishga yordam beradi.

Ta’limda faollik metodi.

Hozirgi kunda ilmiy va amaliy pedagogikada ta’lim metodlari katta ahamiyat kasb etmoqda. Ta’lim oluvchilarning ichki va tashqi faolligini oshirish uchun turli xil o‘yinlardan foydalaniladi. Bulardan eng ko‘p qo‘llaniladigani – didaktik o‘yinlardir.

Kasb ta'limidagi didaktik o'yinlar: «texnik diktant», kichik konkurslar, «kim epchil-u, kim chaqqon», «texnik kurashlar», «savollar», «texnik loto», «texnik domino» va hokazolar.

Ta'limning faollik metodiga seminar darslari ham kiradi. U uch bosqichdan iborat: seminar bo'yicha o'qituvchining ma'ruzasi, ta'lim oluvchilar seminar bo'yicha mustaqil uy vazifalarini tayyorlab kelishi va seminarlarni o'tkazishi, bunda ta'lim oluvchi tayyorlab kelgan matnlari va ko'rgazmali qurollardan, asboblardan, jihozlardan foydalanib tushuntirib beradi.

Kasbiy ta'lim muassasalarida amaliy ishlarda interaktiv darslar ham keng qo'llanilmoqda. Bu darslarda ikki yoki bir necha fanlarning mavzulari o'rtasidagi aloqadorlik o'rganiladi. M: matematika va informatika, fizika va ximiya, kasbiy texnologiya va ishlab chiqarish ta'limi va boshqalar.

Ta'lim oluvchilarning o'quv bilish faoliyati faolligi darsdan tashqari ishlarda texnik kashfiyotchiligini rivojlantirish orqali amalga oshiriladi. Darsdan tashqari ishlar – kasbiy ta'lim ustasi tanlovlar, ilmiy-amaliy konferensiyalar, ratsionalizatorlar va kashfiyotchilar bilan uchrashuv, ilm-fan, texnik olimlar bilan uchrashuvlar, namunali ishlar ko'rgazmasi, texnik to'garaklar orqali amalga oshiriladi.

2.Kasb-hunar ta'limini tashkil qilish shakllari va vositalari

O'quv jarayonini tashkil etish shakllari. Ta'lim-tarbiya jarayonida ishtirok etayotgan tahsil oluvchilar miqdoriga ko'ra: ommaviy, jamoaviy, guruhli, individual.

O'qitish joyiga ko'ra: ta'lim-tarbiya muassasalarida va ta'lim muassasalaridan tashqari (o'quv ustaxonalarida, mashq maydonlari, korxonalar, uy ishlari, sayohat va shu kabilar) da.

O'quv vaqtining davomiyligiga ko'ra: bir soatlik ya'ni 45 minutlik, juftlik (90 min.) qisqartirilgan (60 yoki 70 minutlik) qo'ng'iroqsiz (ishlab chiqarish ta'limi va amaliyoti) kabi.

Dars – ta'lim-tarbiya jarayonining asosiy shakli.

O'zining aniq maqsadi, mazmuni, vaqti va ishtirokchilari tarkibi bilan chegaralangan, o'quv muassasalarida tashkil etilib, o'tkaziladigan ta'lim-tarbiya jarayonining bir qismidir.

Dars turlari - darsning mohiyati, asosiy maqsadi, mazmuni va ajratilgan vaqti, ishtirokchilarining o'zaro munosabati va muloqoti kabilarga ko'ra turlanadi.

Sinf-dars tizimi XVII asrda Ya.A. Komenskiy tomonidan ilmiy asoslangan. Sinf-dars tizimining asosiy o'ziga xos jihatlari quyidagilar hisoblanadi:

- deyarli bir xil tarkib, yosh va tayyorgarlik darajasidagi tahsil oluvchilar ishtirok etadi; ta'lim-tarbiya jarayoni o'zaro bog'liq alohida-alohida qismlar ko'rinishiga ega bo'ladi;

- har bir dars o‘quv rejasiga kirgan ma’lum bir o‘quv predmeti dasturiga oid mavzuga bag‘ishlangan bo‘ladi;
- darslar muntazam ravishda almashib turadi;
- kasbiy ta’lim darslariga o‘qituvchi, muhandis-pedagog, yo‘riqchi, tajribali mutaxassis kabilar rahbarlik qilishi mumkin;
- tahsil oluvchilar turli ko‘rinishdagi o‘quv-bilish faoliyatida ishtirok etadilar.

Ta’limni tashkil etish shakllari

Ta’limning tashkiliy shakli - belgilangan tartibda sodir bo‘ladigan, ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchining maxsus tashkil qilingan faoliyatining tashqi ifodasidir.

An’anaviy sinf-dars tizimi

Yangi materialni o‘rganish darsi; o‘tilgan material-larni mustahkamlash darsi; o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni nazorat qilish darslari; kirish, umumlashtirish darslari; aralash dars; sayohat darsi.

Yakka tartibdagi ta’lim

Transport vositalarini boshqarishga o‘rgatish, repetitorlik, ustoz-shogird tizimi.

Ta’limning noan’anaviy shakllari

Seminar-trening, rolli o‘yin, aqliy hujum; Bahs -munozara; davra suhbati; viktorina; matbuot konferensiyasi; mo‘jizalar maydoni va shu kabilar.

Hozirgi paytda darslarni tashkil etib o‘tkazishga quyidagi didaktik talablar qo‘yiladi:

Darsning maqsad va vazifalarining aniqligi, o‘zaro bog‘liqligi hamda psixologik, pedagogik, fiziologik nuqtai nazardan maqbulligi.

Darsning mazmunan va tuzilmaviy jihatdan yaxlitligi.

Ishtirokchilarining ongli o‘zaro hamkorlik faoliyatining ta’minlanganligi.

Tahsil oluvchilarning o‘qib-o‘rganishlari, tarbiyalanishlari va rivojlanishlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratish.

Barcha didaktik va xususiy prinsiplarga asoslanganligi.

Tahsil oluvchilar shaxsini hurmat qilish, ularning faolligi, erkinligi, mustaqilligi, ijodkorligi kabilarga shart-sharoit yaratilishi kabilar.

Sayohat darslari

Biz, sayohat bir paytning o‘zida ham dars, ham alohida tashkiliy shakl bo‘lishi mumkin, deb o‘ylaymiz. Agar sayohat belgilangan o‘tkazilish vaqti, ishtirokchilari bilan chegaralangan qat’iy jadvalga binoan aniq mavzu bo‘yicha o‘tkazilsa, u sayohat darsi deb e’tirof etiladi.

Sayohatlarni tashkil etishda ularning nazariy va amaliy mashg‘ulotlar bilan o‘zaro uzviy aloqadorligini hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Sayohat shakli

O‘qituvchi sayohatni tashkil etishiga qaramay, ayrim hollarda o‘zining ob’ekti (predmet, hodisa, jarayon, voqea, shaxslar va ularning o‘zaro munosabatlari kabilar)ni mukammal bilmasligi mumkin. Bunday hollarda mashg‘ulotni maxsus shartnomaga ko‘ra belgilangan mutaxassislar o‘tkazishi, ya’ni o‘tkazish muddatining aniq chegaralanmaganligi, ya’ni mashg‘ulot jadvaliga ma’lum ma’noda amal qilinmasligi tufayli u ta’lim-tarbiyaning maxsus shakli sifatida tan olinadi.

Ta’lim vositalari – o‘qitilishi va o‘rganilishi lozim bo‘lgan bilimlarni beruvchi, ko‘nikma va malakalarni rivojlantiruvchi har qanday axborot tashuvchilardir.



Pedagogika fani va amaliyotida qo‘llaniladigan turli xil tizimlarning bo‘limlarida bo‘layotgan moddiy o‘qitish vositalari hozirgi paytda joriy qilingan tizimlarning harakatlanishi, qayta qurilishi va bir-biri bilan bog‘liqligini nazarda tutgan holda boshqa tarkibiy qismlarga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Bugungi kunda ta’lim oluvchilar o‘z ijodiy potensialini nazorat qilish, tabiatdan berilgan iste’dod va qobiliyatlarini rivojlantirishga yangi texnika paydo bo‘lgandan beri o‘qitishning yangi usul va texnologiyalarini egallashga real imkoniyatlari bor.

Shunday qilib, didaktikaning kategoriya apparatida moddiy vositalar (ish qurollari) maqsadlar, mazmunlari, usullari, o‘qitishning tashkiliy shakllari bilan birgalikda mustaqillik holatiga ega. Bundan tashqari ijtimoiy hayotning har bir sohasida texnologiyalashtirish munosabati bilan o‘quv-tarbiyaviy faoliyatda o‘qitish vositalarining ahamiyati ortib bormoqda, muammolarga oid tadqiqotlarda ikki asosiy yo‘nalish: pedagogik va injenerlik nuqtai nazari bor.

Didaktik nuqtai nazarga atrof-muhitni tavsiflashga bag‘ishlangan o‘quv vositalarini tasniflash kiradi:

1. Tabiiy ob’ektlar – izlanish va o‘rganish uchun haqiqiy real fanlarni o‘z ichiga oladi: moddalarning namunalari va kolleksiyalarini, xom-ashyo, asboblar, detallar, o‘simliklar, gerbariylar, hayvonlar va ularning qotirib qo‘yilgan holati, mikropreparatlar va hokazolar. O‘qitish vositalarining bu guruhiga yana maxsus ishlov berilgan moslamalar va ularning mexanizmlari hamda kasbiy ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish uchun o‘quv ishlab chiqarish moslamalari kiradi.

2. Moddiy ob’ektlarni tasvirlash va aks ettirishga kiradigan guruhni quyidagilar tashkil etadi: modellar, mulyajlar, maketlar, jadvallar, ko‘rgazmali

qurollar (rasmlar, fotoaksli chizmalar, portretlar), ekran-tovush vositalari (diafilmlar, diapozitivlar, slaydlar), kinofilmlar, video va tovush yozuvlari, plastinkalar, radioeshittirish va teleko‘rsatuvlar.

Alohida guruhga o‘qitishning texnik vositalari kiradi. Bunday o‘qitish vositalariga o‘quv ma’lumotlarini yetkazib beruvchi, uni ifodalash uchun maxsus texnik moslamalar talab qilinadi. Bu moslamalar transportlar, diafilm va kinofilmlar, videofilmlar, tovush yozish kompyuter dasturlari va boshqalardan iborat.O‘qitish vositalarini shakllantirish tizimi nafaqat o‘qitish vositalarining turli xil belgilardan aniqlab klassifikatsiya qilish emas, balki ularni funksiyalar va xususiyatlari haqida bilimlari ham taxmin qilinadi.

O‘qitish vositalari quyidagicha tavsiflanadi:

1. **Natural (tabiiy) ob’ektlar**. Tabiiy ob’ektlarga odatda jonli va jonsiz tabiatning ob’ektlari kiradi, ular bilan ta’lim oluvchilar mashg‘ulotlarda tarqatma yoki namoyish qilinadigan materiallar shaklida tanishadilar.

2**. O‘quv modellar, mulyajlar, maketlar.** Modellar sun’iy yaratilgan tabiiy ob’ektlarni ko‘rinishi ularning muhim sifatlarini, aloqalarini va munosabatlarini qayta takrorlaydigan o‘quv ko‘rgazmali qo‘llanmalar deb qabul qilinadi.

Modellarning eng keng tarqalgan va tipik turlari bu moddiy ya’ni predmetli modellardir. Modellar hajmiga ko‘ra ega va tekis modellarga bo‘linadi.

Mulyaj va maketlar predmetlarning tashqi belgi va xususiyatlarini va atrof-muhit hodisalarini o‘rganishda qo‘llaniladi, modellar o‘rganilayotgan ob’ektlarning ichki qurilmasi va harakatlanish tamoyili mashina va mexanizmlarning kinematikasini o‘rganilayotgan hodisalarda o‘rin olgan boshqa aloqalar va munosabatlar imkoniyatini beradi.

Ekran va ekran – tovushlik o‘qitish vositalari bugungi kunda keng tarqalgan. Bu o‘qitish vositalariga qo‘yilgan talablar eng avvalo ularning mavzuga oidligi, ikkinchidan, bu o‘qitish vositalarining sifati yaxshi bo‘lishi bilan ajralib turadi.

Diapozitiv – (slayd) bu harakatlanmaydigan o‘qitish ekran vositasi hisoblanadi. Diapozitivdagi chizmalar va rasmlar odatda plakatdagidan yaxshi qabul qilinadi.Diapozitiv – bu juda qulay o‘qitish vositasi, chunki o‘qituvchi uning bir qismini, yoki bir kadrni alohida ko‘rsatishi mumkin. Har bir kadr to‘liq bir informatsiyaga ega. Diafilm ham harakatlanmaydigan ekran o‘qitish vositasidir.

Transportlar – bu ham harakatlanmaydigan ekran qo‘llanmasidir.

Transporantlar proektor yordamida ko‘rsatilishi va xonani qorong‘ilatish shart emasligi bu o‘qitish vositasining katta yutug‘idir. Transporantlar sinf doskasini o‘rnini bosadigan vositadir. O‘qituvchi ta’lim oluvchilarga yuzlangan olatda, o‘tilgan yozuvlar yoki chizmalarni ekranga proeksiya qilib tushuntirishi mumkin[21].

[21] Sharon A. Wynne. Pedagogy professional responsibilities. EC-12 Teacher Certification. 2013. 54-б.

Nazorat savollari:

1. Kasb ta`limi metodlariga nimalar kiradi?
2. Ishlab chiqarish jarayonida faollik metodini izohlang?
3. Nazariy ta`lim metodi – bu nima?
4. Ko'rgazmali va amaliy metodlarni tushuntirib bering?
5. Nima uchun ishlab chiqarishda yozma yo'riqnomadan foydalaniladi?
6. Bilim, ko'nikma va malakaga ta`rif bering?
7. Mehnat faoliyatining harakatlarini ko'rsatish metodiga nimalar kiradi?
8. Ta`lim jarayonida nazorat qilishning necha turi mavjud?
9. Testning afzallik tomonlari nimada?
10. Suhbat metodiga nimalar kiradi?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boravskaya N.V., Rean A.A. Pedagogika.-M.: «Piter», 2004.
2. Professionalnaya pedagogika. Uchebnik dlya studentov. – M.: Pedagogika, 2002.
3. Pedagogika. Pedagogicheskie teorii sistemi, texnologii. Pod.redaksiey. S.A.Smirnova v kachestve uchebnika.- M.: Akademia, 2004.
4. Sharon A. Wynne. Pedagogy professional responsibilities. EC-12 Teacher Certification. 2013. 251 b.

7 O‘QITUVCHINING PEDAGOGIK FAOLIYATI VA KASBIY MAHORATI , TA`LIM JARAYONINI TASHKIL ETISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR

Reja:	7.1.O‘qituvchining lavozim vazifalari va metodik ishlari. 7.2. Kasbiy qobiliyatning pedagogik xarakteristikasi 7.3. Pedagogik qobiliyat turlari 7.4. Pedagogik innovatsiya: asosiy tushunchalar mohiyati va mazmuni

Tayanch iboralar: *metodik, tayyorgarlik, layoqat, sifat, fazilat, ta`limiy, tarbiyaviy, lavozim, kasbiy-pedagogik, malaka, mahorat, rejalashtirish. qobiliyat, faoliyat, pedagogik, psixologik, tayyorgarlik, didaktik, kreativ, pertseptiv, suggestiv, tashkiliy, ilmiy, tadqiqiy. innovatsiya, hamkorlik, empirik, pedagogik g'oya, qayta ishlash,*

7.1.O‘qituvchining lavozim vazifalari va metodik ishlari

Kasb-hunar ta’limi tizimida kichik malakali mutaxassislarni tayyorlash ko‘p jihatdan mutaxassislik fan o‘qituvchilari va muhandis-pedagoglarning layoqatlariga bog‘liqdir. Ishlab-chiqarish ta’limi jarayonida kasbiy-pedagogik ko‘nikma va malakalar tizimi yaratiladi, o‘quvchilar kerakli ishlab iqarish tajribasiga, kasbiy mahoratga ega bo‘ladilar. Shuning uchun kasb-hunar kollejlari mutaxassislik fan o‘qituvchilari va muhandis-pedagoglari ishlab chiqarish jarayonining va o‘z mehnat faoliyatining mazmunini aniq tasavvur etishi lozim.

Hozirda kasb-hunar ta’limi tizimiga har yili mutaxassislik pedagogika ma’lumotiga va ta’lim-tarbiya ish tajribasiga ega bo‘lmagan yangi muhandis-pedagoglar, ya’ni korxonalarning malakali ishchilari, oliy va o‘rta Mutaxassislik kasb-hunar ta’limi muassasalarining bitiruvchilari kelib qo‘shilmoqda. Kasb-hunar ta’limi tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan muhandis-pedagoglar mutaxassislik malakasiga hamda pedagogik malakaga ega bo‘lishi lozim (1-chizma).



1-chizma. Mutaxassislik fan o‘qituvchisining malakasi

Mutaxassislik malakasi deb, mutaxassislik fan o‘qituvchilari va muhandis-pedagogning mutaxassislik soha bo‘yicha ko‘nikma va malakalari nazarda tutiladi. Ularning malakalarining ikkinchi qismi «Kasbiy pedagogika» bilim sohasiga tegishli bo‘lib, pedagogik malakalarini o‘z ichiga oladi. Chunki o‘quv jarayoni faqatgina bilim berishga asoslanib qolmasdan, balki ta’lim va tarbiya psixologiyasi bilan uzviy bog‘langan.

Bu esa ulardan psixologiya, mehnat pedagogikasi, kasbiy pedagogika, iqtisod asoslarini, ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish asoslari bo‘yicha ham malakalarga ega bo‘lishini talab etadi. Mutaxassislik va pedagogik malakalar bilan bir qatorda Mutaxassislik fan o‘qituvchilari va muhandis-pedagoglarda shaxsiy va ijtimoiy layoqatlarning ham bo‘lishi talab etiladi (2-chizma).



2-chizma. Mutaxassislik fan o‘qituvchisining layoqatlari

Shaxsiy layoqatlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi: o‘zini tutishi, shaxsiy ijodkorlik, mas’uliyatlilik va boshqalar. Ijtimoiy layoqatlarga tashkilotchilik

qobiliyati, o‘quvchilar bilan munosabat, jamoa bilan munosabat kiradi. Bundan tashqari o‘qituvchi va muhandis- pedagoglar rahbarlik qobiliyatlariga ham ega bo‘lishlari lozim. Chunki mutaxassislik fan o‘qituvchilari va muhandis-pedagoglar faqat o‘quv ishlab chiqarish faoliyatini bajaribgina qolmay, balki guruhlarga rahbarlik qiladilar.

Mutaxassislik fan o‘qituvchisining lavozim vazifalari quyidagilardan iborat:

•o‘quvchilarning kasb-hunarga moyilligini, mahorat va malakasini rivojlantirish;

•tanlangan kasb va ixtisosligi o‘quv fanlari bo‘yicha chuqur bilimlarni, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish;

•ta’lim jarayonida o‘qitishning samarali usulllari, vositalari va shakllarini, yangi pedagogik texnologiyalarni keng qo‘llash;

•o‘qitadigan fani bo‘yicha darsdan tashqari ishlarni, tugarak mashg‘ulotlarini tashkil qilish;

•o‘quvchilarni bilim sifati, o‘zlashtirish darajasi va davomatini nazorat qilish;

•o‘quvchilar bilan yakka tartibda ishlash;

•o‘quvchilarni fan olimpiadalariga tayyorlash;

•o‘quv xonalarini jahon standartlari va dizayn talablari darajasida jihozlashda qatnashish;

•ilg‘or pedagogik tajribalarni o‘rganish va qo‘llash;

•muntazam ravishda malakasini oshirish.

Bilishi zarur:

•O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» to‘g‘risidagi qonunlarni;

•o‘qitadigan fanning o‘quv reja, dastur va darsliklarining mazmunini;

•davlatning ichki va tashqi siyosatini, ta’lim va yoshlar to‘g‘risida hukumat tomonidan qabul qilingan farmon va qarorlarni;

•mustaqil O‘zbekiston ramzlarining mazmun va mohiyatini;

•o‘smirlarning yosh va Mutaxassislik psixologiyasini, pedagogikani, o‘smirlar rivojlanishining asosiy qonuniyatlarini;

•pedagogik, ilmiy-metodik va tashkiliy boshqaruv vazifalarini hal qilish uchun zarur bo‘lgan hajmda umumnazariy fanlar asoslarini;

•pedagogik sikl fanlarini;

•yosh fiziologiyasi, o‘quvchilar gigienasini;

•informatika va elektron hisoblash texnikasi asoslarini;

•o‘quvchilarning turli xil jamoalarini shakllantirish va boshqarish yo‘llarini;

•o‘quv kabinetlar va yordamchi xonalarni jihozlashga bo‘lgan talablarni;

•ta’lim vositalarini va ularning didaktik imkoniyatlarini;

•ta’limni va pedagogik fan taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlarini va istiqbolini;

•mehnatni ilmiy ravishda tashkil etish va huquq asoslarini.

Mutaxassislik fanlar o‘qituvchilari bundan tashqari mutaxassisligi

bo‘yicha ishlab chiqarish texnologiyalarini, iqtisod asoslarini, ishlab chiqarish va boshqarishni tashkil etish asoslarini bilishi kerak.

Malaka talablari

Oliy toifali o‘qituvchi - fan doktori, nomzodi ish stajiga talab qo‘yilmaydi, pedagog (muhandis-pedagog) ixtisosligi bo‘yicha magistr; pedagog (muhandis-pedagog) yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr yoki diplomli mutaxassis va tegishli fandan 1-toifali o‘qituvchi sifatida kamida 3 yil ish stajiga ega bo‘lishi lozim;

1-toifali o‘qituvchi-pedagog (muhandis-pedagog) ixtisosligi bo‘yicha magistr,pedagog(muhandis-pedagog) yo‘na-lishi bo‘yicha bakalavr yoki diplomli mutaxassis va tegishli fandan 2-toifali o‘qituvchi sifatida kamida 3 yil ish stajiga ega bo‘lishi lozim;

2-toifali o‘qituvchi-pedagog (muhandis-pedagog) yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr yoki diplomli mutaxassis o‘qituvchi sifatida kamida 3 yil ish stajiga (ixtisosligi bo‘yicha magistr ish stajiga talab qo‘yilmaydi) ega bo‘lishi lozim;

o‘qituvchi - pedagog (muhandis-pedagog) yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr yoki diplomli mutaxassis, ish stajiga talab qo‘yilmaydi.

O‘qituvchining lavozim majburiyatlarini ish bajarilish ketma-ketligiga qarab

3 bosqichga bo‘lish mumkin:

➢ Rejalashtirish bo‘yicha vazifalar
➢ Amalga oshirish bo‘yicha vazifalar
➢ Baholash va tahlil qilish bo‘yicha vazifalar

Rejalashtirish bo‘yicha vazifalar

➢ davlat ta’lim standartlari, o‘quv reja va dasturlar asosida ta’limning maqsad va mazmunlarini tanlash va rejalashtirish;

➢ o‘quv reja va dasturlar asosida dars rejasini ishlab chiqish;

➢ ta’limni tashkillashtirish va o‘tkazish bo‘yicha hujjatlarni tayyorlash;

➢ o‘quvchilarning qobiliyatlarini va bilimlarini baholash bo‘yicha hujjatlarni tayyorlash;

➢ korxonaning turli bo‘limlarida o‘quvchilarni o‘qitish joylarini rejalashtirish;

➢ qo‘yilgan maqsadlarga javob beradigan ish topshiriqlari va mashqlarni tayyorlash;

➢ amaliy mashqlar hamda loyihalarni o‘tkazish uchun xomashyo va chiqim materiallarni rejalashtirish;

➢ ustaxonada o‘qitish uchun kerakli sharoitlarni tayyorlash;

➢ o‘quv-didaktik materiallarni aniqlash, tanlash va ishlab chiqish.

Amalga oshirish bo‘yicha vazifalar

- o‘quvchilarni o‘quv amaliyoti xonalari bilan tanishtirish;
- o‘quvchilarni amaliy topshiriqlarni mustaqil bajarishga jalb etish;
- texnika xavfsizligi bo‘yicha va amaliy topshiriqlar, mashqlarga taalluqli yo‘l-yo‘riqlar hamda ish o‘rnida o‘quv suxbatlar o‘tkazish;
- uskunalar bilan ishlash yoki ishlab chiqarish va ta’mirlash ishlariga taalluqli namoyishlarni o‘tkazish;
- an’anaviy 4 pog‘ona usuliga yoki ta’limning boshqa usullariga asoslangan amaliy mashqlarni o‘tkazish.

Baholash va tahlil qilish bo‘yicha vazifalar

- o‘quvchilarning amaliy natijalarini kuzatish, taxlil qilish va baholash;
- o‘quvchilarning o‘zlashtirilgan nazariy bilimlarini baholash;
- o‘quvchilarning xulqini baholash;
- ta’limning mavjud sharoitlarining sifatini baholash;
- rejalashtirish va tashkillashtirish bo‘yicha hujjatlarning sifatini baholash;
- o‘quv-didaktik materiallarning sifatini baholash;
- o‘zi bergan yo‘l-yo‘riq va namoyishlarni o‘zi baholash;
- berilgan topshiriqlarning sifatini o‘zi baholash.

O‘sib kelayotgan yosh avlod ta’lim jarayonida:

*Zarur bilimlar bilan qurollantiriladi.

*Kerakli malakalarga ega bo‘ladi.

*Ko‘nikmalar hosil qiladi.

O‘quv jarayonida ta’lim oluvchilar va pedagoglar o‘rtasida o‘ziga xos munosabatlar o‘rgatilib bu jarayon ikki tomonning birgalikdagi faoliyati natijasida boradi. Shuning uchun ham ta’lim jarayoni ikki tomonlama xarakterga ega deyiladi. Pedagoglar va talabalarning faollik darajasi ta’lim jarayonining samarasini belgilaydi. Albatta bu jarayonda pedagog yo‘naltiruvchi sifatida maydonga chiqadi. Pedagog aniq maqsadni ko‘zlab reja va dastur asosida bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantiradi. Talabalar esa ularni faol o‘zlashtirib olishlari kerak. Ta’lim jarayonida pedagog o‘rgatish, bilim, malaka, ko‘nikma hosil qilish vazifasini bajarsa, talabalar o‘zlashtirish jarayonini o‘z boshidan kechiradilar. Bu murakkab psixik jarayon bo‘lib, sezgi, idrok, tasavvur, tafakkur kabilar ishtirokida boradi. O‘qish talabalarning o‘zlashtirish, bilish qobiliyatlari, fikrlash operatsiyalari va harakatlarini hosil qilish jarayonidir. Bu passiv tomoshabinlik jarayoni emas, balki talabaga noma’lum bo‘lgan xaqiqatlarni ochib beradigan faol, ijodiy faoliyat jarayonidir.

Ta’limning asosiy vazifalaridan biri insoniyat hozirgacha erishgan ilmiy bilimlar va fan texnikaning yutuqlari bilan yosh avlodni qurollantirishdir. Yosh avlodda shunday bilimlar tizimini yaratish lozimki, bu bilimlar ularning keyingi rivoji uchun asos bo‘lib xizmat qilsin. Hozirgi kunda bilimlar hajmi, axborotlar

hajmi tobora oshib borayotgan bir davrda ta'lim tizimi talabalarga berishili kerak bo'lgan bilimlar, malaka va ko'nikmalar hajmini belgilash hamda bu jarayonda qaysi omillarni hisobga olish kerak degan masalalarni yechimini topish ustida bosh qotirmoqda. Zaruriy bilimlar hajmini belgilash va shu bilan bir qatorda o'qish muddatini aniqlash eng muhim masalalardan biri. Ta'lim jarayonida biror fan sohasidagi insoniyat tomonidan erishilgan hamma narsalarni o'rganish kerak deb o'ylash mutlaqo noto'g'ri bo'lar edi. O'quv jarayonida eng asosiy, eng muhim bilimlar-fanlarning asoslari o'rganiladi. Ammo shunga qaramay hozirda o'rganish zarur bo'lgan yangi-yangi fanlarning tarmoqlari (ekologiya, EHM, oila psixologiyasi, iqtisod asoslari, ma'naviyat asoslari) vujudga kelmoqdaki ular ta'lim hajmini benihoya kengayishiga sabab bo'lmoqda. Bunday muammolar hozirda deyarli barcha davlatlarda mavjud va har bir davlat bu muammolarni o'z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda hal etishga harakat qilmoqda. Biz bu muammolarni ta'lim tamoyillarini (prinsiplarini) buzmagan holda, yosh avlodning sog'ligiga ziyon yetkazmagan holda yechimini topishga harakat qilmoqdamiz.

Pedagogik jarayon – bu o'qituvchi va talaba bilimlarini, ko'nikma va malakalarini amaliyotda qo'llashni o'z ichiga qamrab oladi. Kasb ta'limi jarayonida mazmun, o'qish, o'qitish, tarbiyalash asosiy bog'lovchi komponentdir.

Ta'lim bilish faoliyatining turi sifatida pedagogika fanida bir necha asosiy ma'noni anglatadi. Ya'ni bu: talabalarda bilim, malaka va ko'nikmalarni hosil qilish: ularda dunyoqarash, fikr va e'tiqodlarni shakllantirish; o'quvchilarning muayyan darajada o'qimishli, madaniyatli, tarbiyali chin inson bo'lishiga erishish; ularning qobiliyatlarini o'stirishdan iboratdir.

Ta'lim – insoniyat tajribasining ma'lum tomonlarini, ya'ni talabalar ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi talablariga muvofiq darajada bilim va tarbiyaga ega bo'lishlarini ta'minlaydigan faoliyatdir.

Demak, pedagogik ta'lim jarayonining mazmunini bilim, ko'nikma va malakalar tashkil qiladi. Talabalar o'qish orqali bilim bilan qurollanadilar. Bunda bilimning o'zi kifoya qilmaydi. Uni hayotda ko'p unum beradigan qilib qo'llay olish lozim. Buning uchun esa talabada ko'nikma va malaka hosil qilish lozim.

Ko'nikma – mashq qilish natijasida beriladigan harakatlar yig'indisidir. Iqtidor va ko'nikma mashq qilish va takrorlash orqali malakaga aylanadi.

Bilim asosida ko'nikma va malaka hosil qilinadi. Bilim bahsda kerak bo'lsa, ko'nikma mehnatda, dunyoni o'zlashtirishda zarur bo'ladi. Shu jihatdan Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida, kasb-hunar kollejlarida va maktablarda bahslar, bellashuvlar, o'tkir zehnlilar mushoirasi, quvnoqlar va zukkolar bellashuvini tashkil etish foydalidir.

Ta'lim oluvchining xarakteri va faolligi rivojlangan holda uning darajalari turlichadir. Ammo shu bilan birga ta'lim oluvchilar passiv bo'lsa, o'qitish jarayonini amalga oshirib bo'lmaydi.

*Ta’lim oluvchining ilm qabul qilishi faolligi uning shaxs sifatida shakllantirishiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Ta’lim oluvchida o‘z-o‘ziga, mehnatiga, boshqa shaxslarga, jamiyatga, ishlab chiqarishga, atorof-muhitga munosabati shakllanib boradi.

*Pedagogik jarayonning muhim spesifik sharoitlari. Oliy o‘quv yurtlarida o‘qitishning muhim spesifik shartlaridan biri bu amaliy o‘qitishdir. Bu uning muhim tashkil etuvchi komponentidir. O‘qitish jarayoni amaliyotdan tubdan farq qiladi, chunki ishlab chiqarishdagi o‘qitish uslubining asosiy maqsadi, bu ta’lim oluvchini ma’lum bir kasbga yo‘naltirish va shakllantirishdir.

Pedagog va ta’lim oluvchi orasidagi o‘zaro birlik va aloqadorlik haqida gapirganda boshqaruvchi va o‘rgatuvchi shaxs bu o‘qituvchi ekanligini unutmaslik kerak. Faqat pedagog ta’lim oluvchiga bilim bera olishi, shaxs sifatida shakllantira olishi va o‘z ta’sirini ko‘rsata olishi mumkin[22].

Metodik ishlarning shakllari xilma-xil ekanligi sababli, ular mazmuni va o‘tkazilish muddatiga ko‘ra aniq rejalashtirilishi kerak.

O‘tkaziladigan tadbirlarni rejalashtirish ayrim metodik ishlarning takrorlanishini istesno qiladi, ishning reja asosida olib borilishini, pedagoglar jamoasida ishning barobar taqsimlanishini ta’minlaydi.

Metodik ishlarni o‘tkazish uchun haftaning ma’lum bir kunini ajratish kerak.

Aytaylik, agar bu maqsad uchun seshanba kuni ajratilsa, shu kuni jamoa ravishdagi metodik ishlarning bir firmasi o‘tkaziladi: masalan, har oyning birinchi seshanba kuni pedagoglar kengash majlisiga, ikkinchi seshanba-metodik komissiyalar majlisiga, uchinchisi-metodik kengashlar uchun, to‘rtinchisi-pedagogik xodimlarning malakasini oshirish uchun ajratiladi.

Xuddi shu kunlari seminarlar, amaliyotlar, metodik materiallarni o‘rganish ishlari va hokazolar o‘tkaziladi. Ulubiy ishlar uchun ajratilagan kunda boshqa hech qanday tadbir o‘tkazilmasligi lozim.

[22] Sharon A. Wynne. Pedagogy professional responsibilities. EC-12 Teacher Certification. 2013. 57-б



Metodik ishlarning shakllari

Barcha pedagog xodimlar yoki muhandis-pedagoglar va o‘qituvchilar bilan o‘tkaziladigan jamoa va ayrim muhandis-pedagoglar va o‘qituvchilar bilan o‘tkaziladigan shaxsiy shakllar.

Pedagogik kengash - kasb-hunar kollej direktori pedagogik kengashning doimiy raisi hisoblanadi. U bo‘lmagan vaqtlarda pedagog kengashning majlislarida direktorning o‘quv ishlab-chiqarish bo‘yicha o‘rinbosari tashkil qiladi.

Kengash 2-oyda 1-marta chaqiriladi.

Pedagogik kengash qarorlarining bajarilishi ustidan nazorat qilish kengash raisiga yuklanadi. U bor ishni shaxsan o‘zi bajaradi yoki kengash a’zolaridan biriga topshiradi.

Kasb-hunar kollejning pedagogik kengashlari bo‘lg‘usi kichik mutaxassislarni tayyorlash va ularni tarbiyalash bilan bog‘liq bo‘lgan juda ko‘p xilma-xil masalalarni ko‘rib chiqadilar.

Pedagogik kengash-bu kasb-hunar kollejlarida o‘quv-tarbiyaviy va metodik ishlar bo‘yicha jamoa bulimi xisoblanadi. Kasb-hunar kollej hayotida o‘quv-

tarbiyaviy jarayonini takomillashtirish; pedagogik faoliyatida fan yutuqlari va ilg‘or pedagogik tajribani jariy qilish; o‘quv va tarbiyaviy ishlar darajasiga muhandis-pedagog jamoaning mas’uliyatini oshirish; pedagogik jamoaning o‘quvchilarini o‘qitish va tarbiyalash jarayonini takomillashtirishga qaratilgan nuqtai nazar va talablarini bir yunalishga solish kabi qator masalalar borki, ularni jamoa bo‘lib ko‘rib chiqish, muhokama qilish talab etiladi.Bu esa pedagogik kengash tuzishni taqoza etadi.

Pedagogik kengash tarkibiga barcha o‘qituvchilar va muhandis-pedagoglar doimiy a’zo qilib kiritiladi. Bundan tashqari , unda qaysi korxona korxona, zavod va fabrikalar bilan shartnomalari bo‘lsa, usha tashkilotning vakillari ham kiritiladi. Ularning hammasi kengash ishida faol ishtirok etadilar.

Vaqti-vaqti bilan o‘qituvchilarning o‘qitishning yangi metod va shakllarini joriy qilish, o‘quv jarayoniga o‘qitishning texnik vositalarini joriy qilinganligi haqida, eng yaxshi o‘qituvchi va muhandis-pedagoglar hisobatlarini eshitish, va muhokama qilish hamda boshqa ta’lim muassasalari ish tajribalarini o‘rganish kabi va boshqa ishlar amalga oshiriladi.

Metodik kengash- kasb-hunar kollejda 5 yoki undan ko‘p muhandis-pedagog hamda bir yoki bir nechta o‘xshash mutaxassisliklar bo‘yicha Mutaxassislik fan o‘qituvchilari bo‘lsa metodik komissiyalar tuziladi.

Agar o‘xshash fan o‘qituvchilari kam bo‘lib, kasb-hunar kollej fanlarga oid metodik komissiya tuzish imkoniyati bo‘lsa, kasb-hunar kollej direktori bu o‘qituvchilarni yaqin orada joylashgan (qo‘shni) kasb-hunar kollejlardagi o‘quv-metodik kabinetidagi tegishli metodik komissiyalarning ishida qatnashishiga jalb qilishi, shuningdek ular bilan individual metodik ishlarni o‘tkazishi kerak.

Pedagog kengashning tavsiyasiga binoan shu buyruq bilan har bir komissiyaning raisi tayyorlanadi, raislar odatda Mutaxassislik oliy ma’lumotli, pedagogik ish tajribasiga ega bo‘lgan ancha tajribali o‘qituvchilar yoki ishlab chiqarish ta’limi muhandis-pedagoglardan tanlanadi.

Metodik kengash raisi ishning tashkil etilishiga va uning mazmuniga javob beradi. U kengashning ish rejasini tuzadi, reja asosida rahbarlik qiladi, metodik kengash majlislarini, tayyorlaydi va o‘tkazadi uning qarorlarining bajarilishini ta’minlaydi, kengash a’zolariga metodik yordam ko‘rsatadi, ochiq darslar, seminarlar va praktikalar tashkil etadi va o‘tkazadi, ishlarni hisobga oladi va hisobot ishlarini yo‘lga qo‘yyadi.

Metodik kengashlarda ta’lim tarbiyaviy ishlar saviyasini oshirish uchun ahamiyatga ega bulgan pedagogik va metodik xarakterdagi ayrim muommalar,kollejda o‘tkaziladigan ochiq darslar,tadbirlar, o‘qituvchilar darslarida qatnashish,o‘qituvchilarni attestatsiyadan o‘tkazish,malaka oshirishga yuborish kabi jadvallarni kurib chiqish alohida e’tibor talab qiladi.

Ilmiy-amaliy konferensiyalar- ta’lim tarbiya jariyoni,metodik ishlarni tashkil etishda ko‘pgina yangi masalalar paydo bo‘ldiki ,ularni o‘rganish,tizimlashtirish va umumlashtirish talab etiladi.

Ilmiy-amaliy konferensiya pedagogika va metodika sohasidagi ilg‘or tajribalarni ommalashtirish va bilim darajasini oshirishning ta’sirchan vositasi sifatida rpofessional texnika ta’limi tizimidagi har bir kasb-hunar kollejda an’anaga aylanishi kerak.

Ilg‘or tajriba maktablari - ilg‘or pedagogik tajribalarni va ishlab chiqarish tajribalarni joriy qilish hamda kasb-hunar kollejlari xodimlarining pedagogik maxoratini oshirishning eng muhim shaklidir.

Ilg‘or tajriba maktabining eng asosiy maqsadi-kasb-hunar kollejlari xodimlariga o‘z faoliyatlarida ta’lim tarbiyaviy ishlarning hozirgi zamon talablariga mos bo‘lgan darajada va natijalarga erishishga yordam berishdir.

Seminarlar-jadval bo‘yicha kamida oyda bir marta o‘tkaziladi. Seminarga barcha muhandis-pedagog va o‘qituvchilar qatnashishlari kerak. Seminarlar mazmuniga ko‘ra xar xil bulishi mumkin: 2-soatlik seminar, 1-kunlik seminar, 3-kunlik seminar va hokazo.

Konsul’tatsiyalar - shaxsiy va guruxli bulishi mumkin. Shaxsiy konsul’tatsiyalar muhandis-pedagog va o‘qituvchilarning mustaqil ishlash soatlarida muntazam o‘tkaziladi. Kasb-hunar kollej rahbarlari ,tajribali muhandis-pedagog va o‘qituvchilar konsul’tant bo‘lishlari mumkin.

Guruxli konsul’tatsiyalar ma’lum bir mavzular bo‘yicha vaqti vaqti bilan tashkil etiladi. Konsul’tatsiya o‘tkazish uchun korxonalarning mutaxassislari, ishlab chiqarish ilg‘orlari, ilmiy xodimlar, malakali metodistlar taklif qilinadi.

Ochiq darslarni metodik kengash rejalashtiradi va tashkil etadi. Ochiq dars o‘tkazadigan o‘qituvchiga tashkiliy va metodik yordam ko‘rsatish zarur.

Ochiq darsdan maqsad ish yuzasidan tajriba almashish, dars berishning ilg‘or metodlarini yoyish, ta’lim berish metodika-siiidagi kamchiliklarni bataraf etib, uni tuzatishga yordam berish. Ochiq dars o‘tishdan avval kengaytirilgan reja tuzib, unda darsdan ko‘zda tutilgan o‘quv tarbiyaviy ishlar maqsadi, uni amalga oshirish bosqichlari ko‘rsatiladi. Bunday dars rejasi metodik kengash tomonidan tasdiqlanib, barcha o‘qituvchilarga tarqatiladi.

Individual metodik ish butun o‘quv yiliga tuzilgan reja bo‘yicha olib boriladi. Unda o‘qituvchi va ishlab chiqarish ta’limi beruvchi ustozlarning o‘z pedagogik mahoratlarini va o‘z bilimlarini chuqurlatish maqsadida individual metodik topshiriqlar nazarda tutiladi. Ularga quyidagilar kiradi: fan bo‘yich ma’ruza matnlarini takomillashtirib birish, pedagogik mavzular bo‘yicha ma’ruzalar tayyorlash; o‘quv dasturining eng qiyin mavzulari bo‘yicha metodik ko‘rsatmalar tuzish; o‘quv-metodik qo‘llanmalar ishlab chiqish; maqolalar tayyorlash; ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish. Bu topshiriqlar har bir pedagog uchun majburiy minimum hisoblanadi.

“G‘oyaviy – nazariy saviyani oshirish” bo‘limiga doir materiallar ishlab chiqilayotganda hozirgi zamon hayoti va turmushini nazarda tutish lozim.

”Ish malakasini takomillashtirish” bo‘limining asosiy yo‘nalishi fan va texnika yutuqlari doimo mukammallashib borishini nazarda tutadi.

”Muntazam ravishda pedagogik mahoratni yaxshilash” bo‘limi boyicha tayyorlanadigan ma’ruzalar, ko‘rsatmalar, tavsiyalarda o‘quvchilar bilan bo‘ladigan o‘quv va tarbiya ishlari shaklini mukammallashtirib borish nazarda tutiladi.

“Dars berish metodikasini takomillashtirish” bo‘limida pedagogik kollektiv shug‘ullanayotgan metodik muammo bilan har bir o‘qituvchi shug‘ullanadigan muammo bir biri bilan bog‘lanadi. Bu yerda yangi metodik ko‘rsatmalar tayyorlash, o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish masalasini yechish, ilg‘or pedagogik tajribaga ijodiy baho berish, uni amalda joriy etish yo‘llarini qidirib topish uchun keng imkoniyatlar yaratib berilgan.

O‘qituvchiga metodik jihatdan yordam berish nuqtai nazardan nazariy va amaliy mashg‘ulotlarga boshqa o‘qituvchilarning kirishini tashkil qilish muhim ahamiyatga ega. Bunday darsga kirishlar natijasida hamkasblar dars o‘tishdagi kamchiliklarni aniqlab, uni bartaraf etishda yordam beradilar, ilg‘or tajribalarni esa boshqa o‘qituvchilar orasida yoyilishiga ko‘maklashadilar.

2.Kasbiy qobiliyatning pedagogik xarakteristikasi

Pedagogik qobiliyat tarixidan ma’lumki, pedagogik qobiliyat adabiyotda birinchi bo‘lib, 19-asr o‘rtalarida paydo bo‘lgan. pedagogika nazariyasida o‘qituvchilar tayyorlash va pedagogik perseptiv qobiliyatga A.Disterverg diqqat-e’tibor berdi. Shunday qilib, A.Disterverg pedagogik qobiliyatning kuchiga, pedagogik taktga va qat’iy erkinlikka ahamiyat berdi. U o‘qituvchining bilim orttirishlik qobiliyatini ilgari surdi. So‘ngra 19-asrning ikkinchi yarmida P.G.Redkin “Axloqiy qobiliyat” tushunchasini ilgari surdi. A.Disterverg, P.G.Redkin fikrlarini K.D.Ushinskiy davom ettirdi. K.D.Ushinskiy “Odamni tarbiyalashning eng asosiy yo‘li ishontirish, odam e’tiqodiga esa faqat ishiontirish bilan ta’sir qilish mumkin” – deydi.

A.S.Makarenko fikricha, tasodifiy ravishda o‘qituvchi bo‘lib qolgan, lekin u bu ishga qiziqib ketib badiiy adabiyotni ko‘p o‘qigan M.Gorkiyni o‘zining ustozi deb uni asarlarini o‘rganishga kirishgan. A.S.Makarenko o‘z tajribasiga asoslanib,

agar har bir kishi qunt bilan mehnat qilsa, u o‘ziga nisbatan talabchan bo‘lsa, u yaxshi pedagog bo‘lishi mumkin – deydi.

Qobiliyat hamma insonlarda mavjud bo‘lib, bir tekisda bo‘lmay biri yuqori, biri o‘rta va biri quyi darajada bo‘ladi. Faqat aqli zaif insonda qobiliyatni uchrata olmaymiz. Maktab o‘qituvchisining faoliyati inson shakllanishiga qaratilgan. Muvafaqqiyatli ishlash uchun har bir o‘qituvchi pedagogik mahoratga ega bo‘lishi zarur. Pedagogik mahorat egasi oz mehnat qilib katta natijaga erishadi. Qobiliyat faoliyat jarayonida paydo bo‘ladi, qobiliyatni rivojlantirish uchun esa layoqat, zehn, iste’dod inson asab tizimida anatomik – fiziologik xususiyat bo‘lishi zarur. O‘qituvchining ba’zi psixik jarayonlari unda shaxsga xos sifatlarni shunday tashkil qiladiki, buni pedagogik qobiliyat deb atash mumkin. Bu qobiliyatni ayrim psixik xususiyatlardan iborat qilib qo‘yish mumkin emas. Ta’lim ishlarining muvafaqqiyatli bo‘lishini pedagog shaxsiga xos bo‘lgan bir qancha sifatlar, jumladan, uning irodasi, hissiyotlari, Xarakteriga xos bo‘lgan bir qancha xususiyatlarni ham ta’minlab beradi. K.D.Ushinskiy “Faqat shaxs rivojlanishiga va tarkib topishiga ta’sir qilishi mumkin, Xarakter ta’siri bilan Xarakterni vujudga keltirish mumkin” – deb yozgan edi.

Qobiliyat – shaxsning muayyan faoliyati yuzasidan layoqati va uning kasbini muvafaqqiyatli bajarishdagi sub’ektiv shart – sharoitni ifodalovchi individual psixik xususiyatlari.

Falsafa tarixida qobiliyat uzoq davrgacha “O‘zgarmas irsiyat” nasldan – nasga o‘tuvchi alohida kuch sifatida talqin etilgan. Bunday qarashlar dastlab fransuz filosofi J.Lokk va boshqa fransuz olimlari tomonidan tashkil qilingan. Qobiliyatni rivojlantiruvchi anatomik – fiziologik xususiyatlar tug‘ma bo‘ladi.

Yempatiya boshqa odamlarning psixik holtlarni tushunishni va ularga hamdardlik qilish qobiliyati (birgalikda dardlashmoq).

Pedagogik bilishga o‘qituvchining barcha harakatlar majmuiga qarab, ular uning pedagogik faoliyatiga bog‘liq bo‘lgan, xususiyatlardan va uning kasbiy fanlardan bilimdonligidan kelib chiqadi



Pedagog qobiliyati - bu bolalar bilan ishlashga ishtiyoq, bolalarga nisbatan muhabbat, ular bilan bo‘lgan muloqotdan mamnun bo‘lish bilan ifoda bo‘ladigan shaxs sifatlari. Qobiliyat faoliyat jarayonida paydo bo‘ladi va rivojlanadi. Qobiliyat malaka va uddaburonlikdan farq qiladi. Malaka va uddaburonlik mashq, o‘qish natijasi hisoblansa, qobiliyatning rivojlanishi uchun esa yana iste’dod layoqat va zexn, ya’ni inson asab tizimida anatomik – fiziologik xususiyat bo‘lishi zarur.

Pedagogning kasbiy kompetentligi deganda o‘z mutaxassisligini yaxshi biladigan, faoliyat turlarini to‘g‘ri tashkil eta oladigan, dars jarayonida o‘zining tajribasini qo‘llay oladigan mutaxassisga aytiladi,

O‘qituvchi o‘zi ta’lim berayotgan fanini chuqur va mukammal bilishi va o‘quvchilar bilan muloqot ehtiyojiga ega bo‘lishi shart.

Har bir o‘qituvchi o‘zi o‘qitayotgan fanining o‘tmish tarixini hozirgi ahvolini va kelajagini mukammal bilishi kerak. Keng va asosli bilimga ega bo‘lgan pedagog har bir darsini erkin o‘tadi va qiynalmaydi. O‘quvchilarning har bir savoliga javob bera oladi. Talaba kasbiy bilimlarni chuqur egallashi bilan birga amaliy pedagogik faoliyatini ham kengaytirishi kerak[23].

7.3.Pedagogik qobiliyat turlari

Qobiliyatning quyidagi turkumlari mavjud:

1. Tashkiliy – o‘qituvchining o‘quvchilarni jipslashtirish, ularni band qilish, vazifalarbo‘lib berish, ishni rejalash, qilingan ishlarni jamlash, mahoratida namoyon bo‘ladi.

2. Didaktikaga oid - o‘quv material, ko‘rgazmali qurollar, vositalarni yig‘ib tayyorlab qo‘yish, o‘quv materialini aniq, ifodali va izchil bayon qilish, o‘rganishga bo‘lgan qiziqish va ma’naviy, hissiy istaklarni rag‘batlantirish, o‘quv bilimini orttirish, faollashtirish mahoratida namoyon bo‘ladi.

3. Perseptiv - tarbiyalanuvchilarning ma’naviy dunyosiga singib, ularning emotsional holatini baholash, ruhiy xususiyatlarini aniqlash mahoratida namoyon bo‘ladi.

4. Kommunikativ – o‘qituvchining o‘quvchilar, ularning ota-onalari, hamkasblari, ta’lim muassasalari rahbarlari bilan pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq munosabatlar qurish mahoratida namoyon bo‘ladi.

5. Suggestiv – o‘quvchilarga emotsional ta’sir ko‘rsatishda namoyon bo‘ladi.

6. Tadqiqiy - pedagogik vaziyat va jarayonlarni o‘rganish va ob’ektiv baholash mahoratida namoyon bo‘ladi.

---

[23] Sharon A. Wynne. Pedagogy professional responsibilities. EC-12 Teacher Certification. 2013. 74-б.

7. Ilmiy - o‘rganish qobiliyatlari – tanlangan sohada ilmiy bilimlarni o‘zlashtirish qobiliyatidan iborat.

Pedagogik faoliyatning samarali bo‘lishi uchun o‘qituvchida qobiliyatning quyidagi turlari mavjud bo‘lmog‘i va tarbiyalab etishtirilmog‘i lozim:

Bilish qobiliyati - fanning tegishli sohalariga oid qobiliyatlar. Bunday qobiliyatga ega bo‘lgan o‘qituvchi fanni o‘quv kursi hajmidagina emas, balki ancha keng va chuqurroq biladi. O‘z fani sohasidagi kashfiyotlarni hamisha kuzatib boradi.

Tushuntira olish qobiliyati – o‘quv materialini o‘quvchilarga tushunarli qilib bayon eta olish, o‘quvchilarda mustaqil ravishda faol fikrlashga qiziqish uyg‘otish qobiliyati.

Kuzatuvchanlik qobiliyati – o‘quvchining, tarbiyalanuvchining ichki dunyosiga kira bilish qobiliyati, o‘quvchi shaxsini va uning vaqtinchalik ruhiy xolatini juda yaxshi tushuna bilish bilan bog‘liq bo‘lgan psixologik ko‘zatuvchanlikdir.

Nutq qobiliyati – nutq yordamida, shuningdek, imo – ishora vositasida o‘z fikr va tuyg‘ularini aniq ifodalash qobiliyati. Bu o‘qituvchilik kasbi uchun juda muhim.

Tashkilotchilik qobiliyati - birinchidan, o‘quvchilar jamoasini uyushtirish, jipslashtirish, muhim vazifalarni hal etishga ruhlantirishni, ikkinchidan, o‘z ishini to‘g‘ri uyushtirishni nazarda tutadi.

Obro‘ orttira olish qobiliyati – o‘quvchilarga bevosita emotsional – irodaviy ta’sir ko‘rsatish va shu asosda obro‘ qozona olish. Obro‘ faqat shu asosdagina emas, balki o‘qituvchining fanni yaxshi bilishi, mehribonligi, nazokatliligi va hokazo.

To‘g‘ri muomala qila bilish qobiliyati - bolalarga yaqinlasha olish, ular bilan pedagogik nuqtai nazaridan juda samarali o‘zaro munosabatlar o‘rnata bilish, pedagogik nazokatning mavjudligini bildiradi.

Kelajakni ko‘ra bilish qobiliyati – o‘z harakatlari oqibatini ko‘ra bilishda, o‘quvchining kelgusida qanday odam bo‘lishini tasavvur qila olishida, tarbiyalanuvchilarda qanday fazilatlarni taraqqiy ettirish lozimligini oldindan ayta olish.

Diqqatni taqsimlay olish qobiliyati – o‘qituvchi uchun diqqatning barcha xususiyatlari – hajmi, kuchi, ko‘chuvchanligi, idora qilina olishi, safarbarligi kabilarning taraqqiy etishi bilan izohlanadi.

E’tiqod, odob, fuqarolik burchini anglash – o‘qituvchining asosiy sifatlaridan birir. O‘quvchilarga mehr – muhabbat o‘qituvchining eng muhim fazilati. Bu o‘quvchilarning hamma qilmishlarini kechirish, ularga hushomadgo‘ylik qilish emas, balki talabchanlik va qattiqqo‘llik, adolatlilik bilan qo‘shilgan mehr – muhabbat bo‘lib, ana shu sifatga ega bo‘lgan shaxs o‘zining ko‘p vaqtini va kuchini o‘quvchilar tarbiyasiga bag‘ishlaydi.

Ijtimoiy faollik va fuqarolik burchini anglash o‘qituvchi shaxsiga xos sifat. Zero haqiqiy pedagog to‘la ma’nodagi jamoatchi bo‘lib, bolalarga hayotda ijtimoiy faol xolatda turishning amaliy namunasini ko‘rsatadi.

Hozirgi sharoitdan kelib chiqqan holda, o‘quv – tarbiya jarayonida qulay munosabatlar yuritish uchun kasbiy jihatdan ahamiyatli asoslar bo‘luvchi pedagogning insoniy xislatlari muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda. O‘qituvchi uchun muhim hislat – insonparvarlik, ya’ni o‘sayotgan insonga oliy qadriyat kabi munosabatda bo‘lish lozim. Insoniy munosabatlar o‘qituvchining shaxsiga qiziqish, o‘quvchiga nisbatan xayrixohlik, unga yordam berish, ularning gapiga quloq solmoq, uning o‘quvchilik faoliyatiga yuksak talabchanlik, o‘quvchi shaxsi rivojlanishiga tashvish qilishdan iborat.

O‘qituvchi doim faol, ijodkor shaxs. U o‘quvchilarning kundalik hayotini uyushtiruvchi odam. O‘quvchilarning qiziqishini uyg‘otish, ularni o‘zi bilan etaklab yurish faqat yuksak irodali kishi qo‘lidan keladi. Sinf, auditoriya, o‘quvchilar jamoasi kabi murakkab organlarga pedagogik rahbarlik qilish tarbiyachidan topqir, zehni o‘tkir, savodli, har qanday vaziyatlarni mustaqil echishga doim tayyor bo‘lishligini talab qiladi. Pedagog – o‘quvchilarga o‘rnak, o‘z orqasidan yurishga unday oladigan odam. O‘qituvchiga kasbiy jihatdan kerakli xislatlardan biri bu sabr-toqat va dadillik. O‘qituvchining har qanday sarosimaga tushganini, nochorligini o‘quvchilar sezishi va ko‘rishi zarur emas. Bu borada A.S.Makarenko –“tormozsiz o‘qituvchi – bu buzuq, haydab bo‘lmaydigan mashina” – deb qayd qilgan. Buni hamisha esda tutish kerak, o‘z harakati va axloqini nazorat qilishi lozim. O‘quvchilar tubanlashmasligi, arzimagan narsalarga asabiylashmasligik kerak.

O‘qituvchi xarakterida qalbdan mehribonlik – o‘quvchilar ruhiy holatini, ularning kayfiyatini sezishga imkoniyat beradigan va vaqtida yordamga kelish imkoniyatini beradigan o‘ziga xos barometr. O‘z tarbiyalanuvchilarining bugungi kun kelajaklari uchun xavotirlik – bu pedagogning tabiiy o‘zining shaxsiy mas’uliyatini anglash.

O‘qituvchi – talabchan bo‘lishi shart. Bu uning muvafaqqiyatli ishlashining birinchi sharti. Dastlabki eng yuksak talablarni o‘qituvchi o‘ziga taqdim qilishi kerak, chunki o‘zingda yo‘q narsani birovlardan talab qila olmaysan. Pedagog talabchanligi bilan birga oqilona tarbiyachi ham bo‘lishi lozim. Pedagogik jarayonlarda bo‘lib turadigan keskinliklarni xolis qilish uchun tarbiyachiga xazil mutoyiba tuyg‘usi yordam beradi. “Quvnoq pedagog xo‘mrayganidan ko‘ra, yaxshiroq o‘qitadi” deb, bekorga aytilmagan. Uning ko‘lamida tayyor hazil, maqol, yaxshi, do‘stona piching – ijobiy emotsional xolat yaratishga yordam beradi va o‘quvchilarni o‘zga vaziyatga kulgili tomondan qarashga imkoniyat beradi.

Pedagogning shaxsiy qobiliyatlari

Interfaol uslublarni qo‘llash ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilarning hamkorligi g‘oyasini amalga oshiradi, ularni konstruktiv harakatga o‘rgatadi, ruhiy iqlimini sog‘lomlashtirishga yordam beradi, ishonchli sharoit yaratadi. Shu munosabat bilan pedagog shaxsiga u yoki bu bilim doirasidagi tor mutaxassis sifatida emas, balki yuqori ma’naviy sifatlar, ziyrak va tashabbuskor, sodda va moslashuvchan, hayotiy tajribaga ega shaxs sifatida kuchli e’tibor qaratiladi.

- Shuningdek, ta’lim jarayonida talabalarni o‘quv faoliyatiga tayyorlashda ularda bor bo‘lgan bilimlariga tayanib ish olib borish lozim bo‘ladi. O‘qitish jarayoni ko‘p qismlardan tuzilgan. O‘qituvchi talabalarning ijodiy va innovatsion faoliyatlarini to‘g‘ri rejalashtira olishlari lozim. O‘qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashdan ko‘zlangan asosiy maqsad-ularning yangilikka intiluvchanliklari, yangilikni mustaqil izlash, yaratish va qo‘llash ko‘nikma va malakalarini shakllantirish, ilg‘or pedagogik texnologiyalar, interfaol usullardan foydalanib, dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarni o‘tkazish mahoratini takomillashtirishdan iborat[24].

O‘qituvchining pedagogik qobiliyati

Hissiyotlar boshqarilishi – bu dolzarblikni tushunish, qiziqish harakatga undovchi sabab – faollik, qaror qabul qilish demak. Agar har birimiz o‘z dunyoqarashimizni kengaytirish orqali o‘z hissiyotlarimizni boshqarish, muvofiqlashtirish, me’yorga intilishni o‘rgansak, hayotimizdan jahldorlik, ochko‘zlik, munofiqlik ketib, aqlimiz kiradi. Ongimizning aynan shu qismi o‘z hayotimiz ma’naviyati darajasini boshqaradi, ya’ni yaxshilik yoki yomonlik; ijodiy yaratuvchanlik yoki bema’ni vayrongarchilik; boshqalarga nisbatan sevgi yoki nafratga o‘z munosabatimizni belgilaydi.

Xulosa qilib aysak, tarbiyani o‘z hissiyotlarini, xohish va istaklarini boshqarish jarayoni, deb aysak xato bo‘lmaydi.

Pedagogik jarayonda o‘z hissiyotlarini boshqarishni har bir talabaga o‘rgatish bu maqsadni aniq mo‘ljalga yo‘naltirilganligini ko‘rsatadi.

O‘qituvchi auditoriya bilan o‘zaro muloqot (o‘quv jarayonidan alohida vaqtda emas) o‘z vaqtida tarbiyaviy jarayon borayotganligini anglay olishi darkor. Qiziqishlarini saqlab qolish, asoslab bera olish, faolliklarini qo‘llab-quvvatlash, o‘qituvchilarda pedagogik jarayonda maqsadni yuzaga keltiradi, ular kasbiy faoliyatda juda zarur bo‘lgan o‘zliklarini anglash mashqini oladilar.

Tarbiya to‘grisida qanchalar gapirilgan. Yana biror narsa qo‘shish mumkinmikan? Balkim, agar fikr, so‘z, harakatni ishlab chiqishga undaydigan

[24] Sharon A. Wynne. Pedagogy professional responsibilities. EC-12 Teacher Certification. 2013. 73-б.

yo‘nalishni: jarayondan natijaga «bilim, mahorat, ko‘nikma» dan «bilim, mahorat, ko‘nikma plyus qarashlar, harakatlar»ga cheklangan intellektli iste’molchini shakllantirish (diqqat, o‘qish, xotira - imtihon uchun yetarli!) dan to‘laqonli yaratuvchi (diqqat, o‘qish, xotira, fikrlash) ni shakllantirishga o‘zgartira bilsak, mumkindir. Shundagina, tarbiyaga ham qandaydir yangilik kiritish mumkin bo‘ladi.

O‘quv jarayoniga qadam qo‘ygan talabalar o‘qish mazmuni qo‘yilishi kerak bo‘lgan o‘z ichki ehtiyojlari (ichki normalar) ga ega bo‘ladilar, ya’ni ba’zi bir tashqi narsalar (informatsiya) hozircha ularga begona bo‘lgan har qanday narsa ularni hushyorlikka chorlaydi.

Narsa hodisaning tarkibini sistemali (tizimli) ravishda ko‘rish kerak, ya’ni ma’lum ilmiy bilimni zanjirga aylantirish: sistema (yelementlar va aloqalanish), yoki podsistema (yelementlar va aloqalar) va h.q.

Kasbiy faoliyat mazmunining asosi bo‘lib - malakali talablar, o‘lchovlar, mezon, maqsad, vazifalar xizmat qiladi va ular kasbiy faoliyatga o‘qish yordamida madaniyatga ega bo‘ladilar.

Ko‘pincha kattalarning ta’limdagi odatiy texnologiyalari – ma’lumotlarni berishgagina yo‘naltirilgan bo‘ladi va shu sababli talabalarga har qanday mazmunda bo‘lishi mumkin bo‘lgan o‘z muammolarini hal qilish metodi, usuli va texnologiyasini o‘zlashtirishga sharoit yaratilmaydi. Bunda mazmun tuzilmasi fikrlash texnikasini, uni taqdim etish usuli esa kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirmaydi. Bu kasbiy faoliyat uchun salbiy holatdir.

Faqatgina pedagogik texnologiyalarda talabaning ichki xususiyatlarini o‘stirish, ularni uning ichki mazmuniga bogliq holda amalga oshirilgan taqdirdagina tarbiya va ta’limda unumdorlikni kam yo‘kotishi mumkin. O‘qituvchi «mening yo‘limdan yur» talablari o‘rniga «Atrofga qara, o‘yla, tanla, mening yordamimda o‘rgan» talabiga o‘sagina bu kasbiy faoliyatni tashkil etish maqsadli bo‘ladi. «Taraqqiyot va ta’lim biror kishiga tayyor holda xabar berilmaydi va taqdim etilmaydi. Buning uchun istagan har bir odam unga o‘z faoliyati, o‘z kuchi va o‘z intilishi orqali erishadi»-degan edi, *A. Disterveg*.

Pedagogik faoliyatda o‘qituvchining fikrlashi (fikrlash texnikasi), so‘z bilishi (kommunikativ) qobiliyati, izlanuvchan ongi va anglanganligi (refleksli) harakatida namoyon bo‘ladi.

Fikrlash texnikasi qobiliyatlarni rivojlantirish, izlanuvchanlik texnikasini egallashdan kelib chiqadi .

Har qanday pedagogik texnologiya ham o‘qituvchi, ham talabadagi fikrlash texnikasini amalga oshirish jaryonida sodir bo‘ladi va rivojlanadi.

Tabiiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning funksiyasi ta’lim jarayonining asosini tashkil etadi.

Atrofimizga qaraylik: bizni norozi qiladigan hamma holatlar bir-birimizni tushunmaslik, bir-birimiz bilan kelisha olmasligimiz, o‘z fikrimizni o‘zgalar diqqatiga yetarli darajada asoslab, nuqtai nazarimizni, himoya qila olmasligimizdan kelib chiqadi. Donishmandlardan biri «oxirgi dalil-o‘q» deb bekorga aytmagan. Demak, o‘q otishning raqobatdoshi - ko‘proq, salmoqliroq dalillarni keltirish ekan, ya’ni fikrlash ekan, u albatta – natijali bo‘ladi.

Pedagogik jaryonda *kommunikatsiya* ro‘y beradi – intellektual va hissiy mazmunlar almashadi, ya’ni pedagogik muhitda qayd etilganidek, to‘gri va teskari aloqa ya’ni natijali kommnikatsiya sodir bo‘lishini tashkil etish orqali uchun o‘qituvchida yuqori malaka shakllanadi.

Refleksiv qobiliyatlar o‘qituvchining kasbiy yoki shaxsiy sifatlarining ishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Pedagogik ijodkorlik va mahorat ko‘pincha o‘qituvchining rivojlanish darajasiga boglik bo‘ladi. Biror yangilik yaratishga, o‘z harakatlarini, tajribalarini qaytarishga urinish, agar sharoit o‘zgarishi, ya’ni yangilik elementlarini hisobga olgan holda amalga oshirilsa, muvaffaqiyatga erishish mumkin. Bunda o‘qituvchiga *ijodiy qobiliyatlar* zarur bo‘ladi.

Agar ta’lim sub’ekti to‘grisidagi bizning tasavvurimiz bizni o‘rab turgan olam yaxlitligiga mutanosib ravishda: fikr-so‘z-harakat («ruh»-«sotsio»- «bio») bilan hamjihat bo‘lsa, bizning pedagogik jarayondagi vazifamiz – shu yaxlitlikni ta’minlash uchun asos bo‘ladi. Buni quyidagi jadvalda ko‘rish mumkin:

Fikr, so‘z, harakat mazmunidan o‘rin olgan qobiliyatlar o‘zgarishi – tabiat in’om etgan hamma narsani ongimizda rivojlantirishi mumkin.

Unutmaylik, pedagogik jarayonda aynan metodlar – talabalarning faoliyat yo‘nalishini aniqlaydi, va belgilaydi, o‘qituvchining mahoratiga bogliq ravishda u yoki bu qobiliyatni rivojlantirish uchun xizmat qiladi. Shu sababdan o‘quv yurtini faqat ilm olish maskani emas, balki mashq maydonchasi sifatida ham ko‘rib chiqish lozim bo‘ladi. Chunki u yerda bo‘lajak kasbiy faoliyat egalari o‘z qobiliyatlarini malakali mutaxassislar rahbarligida rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bunda metod boshqaruvchi rolida bo‘ladi.

7.4.Pedagogik innovatsiya: asosiy tushunchalar mohiyati va mazmuni

Bugungi kunda bizning hayotimizga *“**innovatsiya**”* tushunchasi kirib keldi va mustahkam o‘rnashib oldi. “Innovatsiya” so‘zi lotinchadan - yangilash, o‘zgarish, biror yangilik kiritish, yangiliklar joriy qilish ma’nosini anglatadi.

Pedegogik adabiyotda ta’lim sohasida innovatsiyaning ikki tipi ajratib ko‘rsatiladi:

birinchi tipga keltirib chiqaruvchi ehtiyojga aniq boglanmagan yoki innovatsion jarayonlarni amalga oshirish shart-sharoitlari, vositalari va yo‘llarining yaxlit tizimini to‘liq anglamasdan turib, stixiyali ravishda vujudga keladigan innovatsiyalar kiradi. Bu turdagi innovatsiyalar to‘liq ilmiy asosga ega bo‘lmaydi, asosan yuzaga kelgan vaziyat talablaridan kelib chiqib empirik asosda yuz beradi. Bu tipdagi innovatsiyalarga ta’limga ko‘plab innovatsion jarayonlarni olib kirgan “pedagogik g‘oyalar generatorlari”, entizuazist o‘qituvchilar faoliyatini kiritish mumkin.

Ikkinchi tipga pedagogik voqelik faktlarini hamisha o‘rganishga va tahlil qilishga moyil bo‘lgan o‘qituvchi-novatorlar, o‘qituvchi-tadqiqotchilar faoliyatining puxta o‘ylangan, maqsadga yo‘naltirilgan, ilmiy jihatdan asoslangan mahsuli bo‘lgan innovatsiyalar kiradi. Ular o‘zlarini juda ko‘p marotaba tekshirib ko‘rishadi va o‘zlarining muammoni yechish modelini yaratishadi. Binobarin, ular o‘zlarining g‘oyalari haqida gapirishni boshlaganlarida bu g‘oyalar oddiy faraz, qiziqarli topilma, usul, o‘ziga xos yechim sifatida emas, uzoq davom etgan tadqiqotlar natijasida yuzaga kelgan pedagogik qoida sifatida o‘rtaga chiqadi.

Amaliyotning ko‘rsatishicha, har qanday innovatsiya me’yoriy faoliyat doirasidan chetga chiqadi va olga intilishga harakat qiladi. Lekin shu bilan birgalikda avvalgi tajribalarga e’tibor qaratish, faoliyatni mavjud tajriba bilan solishtirish kerak.

Innovatsiyalar odatda bir necha muammolar kesishgan paytda vujudga keladi va umuman yangi masalalarni hal qiladi, pedagogik jarayonni uzluksiz yangilanib borishiga olib keladi.

“**Yangiliklarni joriy qilish**” tushunchasi, bizningcha, ham yangilik, ham ana shu yangilikni amaliyotga joriy etish jarayonidir. Yangilik – bu alohida olingan shaxs uchun yangi bo‘lgan g‘oyadir, bu g‘oya ob’ektiv ravishda yangi yoki yangi emasligi ahamiyat kasb etmaydi, biz uni vaqt bo‘yicha – bu yangilik ochilgan payt yoki undan birinchi marta foydalanilgan payt bo‘yicha aniqlaymiz.

Yangiliklar joriy qilishni turli asoslar to‘plami bo‘yicha guruhlash mumkin.

Predmet mazmuniga ko‘ra yangiliklar joriy qilish uchta asosiy guruhga bo‘linadi:

1) texnik-texnologik;
2) mahsuliy;
3) ijtimoiy, bularga quyidagilar kiradi: iqtisodiy, tashkiliy-boshqaruv, xususiy-ijtimoiy, huquqiy.

Oldingi vositaga nisbatan: “o‘rnini bosuvchi” va “bekor qiluvchi” yangiliklar joriy qilish. Yangiliklar joriy qilishdagi bu farqlar ularni amalga oshirishning tezkorligi va to‘laqonliligi nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi.

Amalga oshirish usuliga ko‘ra, yangiliklar joriy qilish sinov, ya’ni aprobatsiya, tekshirish bosqichidan o‘tuvchi va bevosita, ya’ni sinovlar amalga oshirilmaydigan yangiliklarga ajratiladi.

Hajmiga ko‘ra: nuqtaviy, tizimli, strategik yangiliklar joriy qilish bo‘ladi.

Belgilanishiga ko‘ra: yangiliklar joriy qilish ishlab chiqarish samaradorligi, mehnat sharoitlarini yaxshilash, tashkilotni boshqarish sifatini oshirish, mahsulot sifatini oshirishga qaratilgan bo‘ladi.

Ijtimoiy oqibatlariga ko‘ra: ijtimoiy xarajatlar keltirib chiqaruvchi va ijtimoiy daromad keltiruvchi yangiliklar joriy qilish bo‘ladi.

Faollik darajasiga ko‘ra: «nofaol», ya’ni birdaniga yuzaga kelgan yoki oldingilari keltirib chiqargan o‘zgarishlarga moslashish maqsadida qo‘llaniladigan; «tashabbuskor», ya’ni istakdagi jarayonni mustahkamlash uchun mustaqil o‘zgartirish maqsadida ishlab chiqiladigan yangiliklar joriy qilish.

Rejalashtirish manbasiga ko‘ra: markazlashgan, lokallashgan (mahalliy), spontonlashgan (o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladigan) yangiliklar joriy qilish.

Samardorligiga ko‘ra: joriy qilingan va to‘liq foydalaniladigan; joriy qilingan va qisman foydalaniladigan; joriy qilinmagan.

Jarayonning davomiyligiga ko‘ra: ishlab chiqish va loyihalashtirishga ketadigan vaqt xarajatlari; loyihadan iste’molchigacha, shu jumladan joriy etish uchun sarflangan vaqt oraligi.[25]

Pedagogik yangiliklarning uch ko‘rinishi ajratib ko‘rsatiladi:

1) yangilik deb butunlay yangi va ilgari ma’lum bo‘lmagan ta’lim g‘oyalari va harakatlarini aytishimiz mumkin. Bunday butunlay yangi va o‘ziga xos yangiliklar juda kam;

2) eng ko‘p uchraydigan yangiliklarga moslashtirilgan, kengaytirilgan yoki qayta shakllantirilgan g‘oya va harakatlar kiradi, ular ma’lum muhitda va ma’lum vaqt oraligida o‘ziga xos dolzarblikka ega bo‘ladi;

3) pedagogik yangiliklar o‘zgargan sharoitlarda maqsadlarni qaytadan qo‘yish bilan bogliq ravishda ilgari mavjud bo‘lgan harakatlar qaytadan yuzaga chiqishi tufayli vujudga keladi, zero yangi shart-sharoitlar ma’lum bir ijobiy g‘oyalarning muvaffaqiyatini kafolatlaydi.

Ye.P.Morozov va P.I.Pidkasistiyning[26] tasdiqlashicha, maktablarga yangiliklar joriy qilish hozirgi kungacha asosan yuqoridan tavsiyalar, ko‘rsatmalar va boshqalar sifatida kirib bormoqda, maktablarning o‘zida esa kamdan kam hollarda ishlab

---

[25] Пригожин А.И. Опыт систематизации элементов инновационных процессов// Диалектика и системный анализ. –М.: Наука, 1986. – 314-322 с

[26]Морозов Е.П., Пидкасистый П.И. Подготовка учителей к инновационной деятельности. // Сов. педагогика, 1991. № 10.- С. 88-93.

chiqilmoqda. Talabalarni ilgor pedagogik tajribaga ijodiy yondashishga yo‘naltirilmoqdaki, bu ularga pedagogik tajriba texnikasini emas, balki g‘oyasini tushunish, umumiylik, o‘ziga xoslik va yagonalik alomatlarini ajrata olish imkonini beradi, xolos. Pedagogik nazariyaga qadrli munosabatda bo‘lishni shakllantirish bo‘yicha ishlar olib borilmoqda. Qilingan ishlar oz emas, lekin yetarli ham emas, chunki bu vaziyatda talabalar innovatsion jarayonning joriy qilish bosqichida ishtirok etishga tayyor bo‘lishadi, xolos. Lekin o‘qituvchi g‘oyalarni ishlab chiqish jarayonida ishtirok etish orqali o‘zining ikkinchi darajali rolidan pedagogika kafedralari, laboratoriyalari, ITI bilan teng hamkorlik munosabatlariga o‘tishi kerak. Ana shunda ta’lim tizimi nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarda ortda qolib ketmaydi, balki ma’lum ma’noda ana shu o‘zgarishlarni ta’minlaydi.

Yangiliklar joriy qilish jarayon sifatida ichki mantiq va yo‘nalishga ega. U yangilik g‘oyasidan boshlanib ushbu yangilikdan iste’molchi va jarayon ishtirokchisi o‘rtasidagi munosabatlar mohiyatini hisobga olgan holda foydalanishgacha bo‘lgan oraliqni o‘z ichiga oladi va innovatsion jarayon deb ataladi.

Innovatsion jarayon xaqida tushuncha

Innovatsion jarayon – bu pedagogik yangiliklar, bu yangiliklarni pedagogik hamjamiyat tomonidan o‘zlashtirilishi va ulardan ilmiy asosda amaliyotda samarali foydalanishning o‘zgarib boruvchi yaxlitligidir.

Innovatsion jarayon mikrotuzilmasini ko‘rib chiqqan holda olimlar yangiliklar joriy qilishning “hayotiylik bosqichi” tamoyilini qayd etib o‘tadilar, chunki yangiliklar joriy qilish vaqt davomida kechadigan jarayondir.[27] Bu jarayonda faoliyat ko‘rinishi bo‘yicha yangilikni yaratish va amalga oshirishni ta’minlovchi bir qator bosqichlarga ajratiladi.

Birinchi bosqich – yangi g‘oyaning tugilishi va yangilik tamoyilining vujudga kelishi, uni shartli ravishda ochilish bosqichi deb atash mumkin. Bu bosqich odatda fundamental va amaliy ilmiy tadqiqotlar natijasi hisoblanadi.

Ikkinchi bosqich – ixtironing yaratilishi, ya’ni qandaydir ob’ektda o‘z ifodasini topgan moddiy yoki ma’naviy mahsulot – namuna.

Uchinchi bosqich – yangilikni joriy qilish, bu bosqichda yangilik amaliyotda sinab ko‘riladi, oxiriga yetkaziladi va yangilikdan barqaror samara olish bilan yakunlanadi.

To‘rtinchi bosqich – yangilikni tarqalishi, ya’ni uni keng ko‘lamda joriy qilinishi, yangilikning boshqa sohalarga ham kirib borishi.

Beshinchi bosqich – yangilikning aniq bir sohada hukmronlik qilishi, muqobil yangilikning yuzaga kelishi yoki yana ham samaraliroq yangilik bilan almashtirilishi orqali yakunlanadi.

---

[27] Лапин Н.И., Пригожин А.И., Сазанов Б.В. и др Нововведения в организациях. М., 1981.

Oltinchi bosqich – yangi mahsulot bilan almashtirilishi munosabati bilan yangilikdan foydalanish ko‘lamining qisqarishi. [28]

Bizning fikrimizcha, innovatsion jarayonning ushbu navbatma-navbat bir-birini o‘rnini bosuvchi chiziqli tuzilmasi uni haqiqatda amalga oshirishning soddalashtirilgan sxemasini aks ettiradi.

Aniq bir innovatsion jarayon ko‘rib chiqilgan barcha bosqichlarni qat’iy ketma-ketlikda va uzluksizlikda o‘z ichiga olishi shart emas. Shunday bo‘lsa-da, keltirilgan bosqichlarning davomiyligi turlicha bo‘lishi va ular o‘zaro kesishishi mumkin.

Innovatsion jarayon pedagogik va boshqaruv tizimidagi o‘zgarishlar sifatida tushuniladi. Ular birinchidan, yangilikka ega bo‘ladi; ikkinchidan, maktab samaradorligini oshirish salohiyatiga ega; uchinchidan, yangilikni joriy qilishga sarflangan harakat va vositalarni qoplovchi uzoq muddatli foydali samara beradi; to‘rtinchidan, amalga oshirilayotgan boshqa yangiliklar bilan muvofiqlashtirilgan bo‘ladi.

Innovatsion jarayon innovatsion tizimda amalga oshiriladi. *Innovatsion tizim* – bu bir-biri bilan o‘ziga xos ravishda boglangan insoniy, moddiy-texnik, axborot, me’yoriy-huquqiy va boshqa komponentlarni o‘zgartirish g‘oyalari, maktab pedagogik tizimidagi maqsadga yo‘naltirilgan o‘zgartirishlar jarayonlari hamda ana shu o‘zgarishlar natijalari yigindisidir.[29]

Ta’lim tizimidagi innovatsion jarayonlarning o‘ziga xos xususiyati shundaki, ular amalga oshirilishi davomida ana shu jarayonlar amalga oshirilayotgan innovatsion ijtimoiy-pedagogik muhitga, hech shubhasiz, tuzilmaviy o‘zgartirishlar kiritadi.

Yendi *innovatsion pedagogik faoliyatning* mohiyati haqida to‘xtalib o‘taylik. Ko‘pincha uni sanoatdagi yoki boshqaruvdagi yangiliklar joriy qilishga o‘xshatishadi. Shu bilan birgalikda pedagogik hamjamiyat ongida boshqa tushuncha mustahkamlanib bormoqda.

Pedagogik innovatsion faoliyat – prinsipial ravishda pedagogik jamoa tomonidan amalga oshiriluvchi maqsadga yo‘naltirilgan harakatlar, ijod va turmush tarzidir. Bu pedagoglarning tashabbusi (yangi g‘oyalari, loyihalari, rejalari, aniq bir harakatlari va boshqalar) bo‘lib, bu tashabbus tashabbuskorlarning o‘zlariga va ana shu tashabbusda ishtirok etishni istaganlarga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Bu joriy vaziyatga jonli ta’sir etuvchi, jarayonning barcha ishtirokchilari, eng avvalo, uning tashabbuskorlari ongi va tushunchalarining o‘zgarib borishini nazarda tutuvchi pedagoglarning ijod va turmush tarzidir.[30]

---

[28] Сластенин В.А., Подымова Л.С. Педагогика: инновационная деятельность. М., 1997.

[29] Лазарев В.С. О развивающихся педагогических системах //Педагогика, 2002. № 8. –С. 13-24.

[30] Розин В.М. Инновационное педагогическое творчество // Педагогика,

Innovatsion faoliyatni ta’lim muassasalarini rivojlanish rejimidagi faoliyatining bir jihati sifati ko‘rib chiqamiz. Innovatsion faoliyat deganda, ijobiy sifat o‘zgarishlari bilan xarakterlanuvchi ma’lum bir bosqichlar ketma-ketligi tushuniladi. Bu faoliyat aniq bir ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda tan olingan standartni ifoda etuvchi me’yordan chetga chiqishni, muqobil me’yorlarni joriy etishni, boshqa sohalardagi me’yorlardan foydalanishni nazarda tutadi. U rivojlanish uchun kerak bo‘lgan vositalar to‘plamini ta’minlaydi, pedagogik voqelikni ongli ravishda o‘zgartirishni nazarda tutadi.

Pedagogning innovatsion faoliyati har bir tarbiyalanuvchining ijod jarayoni va butun pedagogik jamoaning ijod jarayoni bilan uygunlashgan holda olib borilishi kerak. Pedagogning ijodiy harakatlari butun jamoaning izlanishlari bilan muvofiqlashtirilmasa, pedagogik yangiliklar joriy qilish yaxlit, sermahsul jarayon bo‘la olmaydi.

Ta’lim muassasalarida ham innovatsion faoliyatga zaruriyat tugiladi. Bu faoliyat hamisha ziddiyatli bo‘lib, uning o‘zi ziddiyatlarni keltirib chiqaradi va bu ziddiyatlarni hal etish orqali rivojlanib boradi. Shuning uchun maktab xodimi – innovator “xavfsiz sinovlar o‘tkazish” psixologiyasining bilimdoni bo‘lishi kerak.

Bundan tashqari pedagogik nashrlarda juda ko‘p marta aytilgan, maktabni o‘zgartirish borasidagi harakatlarga nafaqat alohida odamlar tomonidan, balki yana ham xavfliroq sanalgan kasbiy guruh – o‘qituvchilar jamoasi tomonidan qarshilikni ham e’tiborga olish kerak. Shuning uchun ham maktabda o‘zgartirishlar jarayonini boshlash g‘oyasiga ishonqiramay qarashlari, keyinchalik uning yo‘lini to‘sib qo‘yishlari mumkin. Albatta, o‘qituvchilarning innovatsion jarayonga kerakli munosabatini qandaydir vaqt davomida ishontirish, me’yoriy yondashuv va majburlash orqali ta’minlash mumkin.

Ehtimol, “o‘z tizimimiz” koordinatalaridan, kasbga taalluqli muammolarni hal etishda odatiy bo‘lgan usullardan, faoliyatni amalga oshirish to‘grisidagi o‘z tasavvurlarimizdan chetga chiqish, qisqa muddatga bo‘lsa ham boshqa platformaga, boshqa nuqtai nazarga o‘tish zarur bo‘lgan paytda paydo bo‘ladigan psixologik to‘siqlar haqida o‘ylab ko‘rmasdan turib, innovatsion faoliyat yuzaga keladigan mexanizmni va bu mexanizm ishlaydigan shart-sharoitni ko‘z oldimizga keltira olmasmiz. Boshqa bir madaniyatga o‘tish oson emas, albatta.

Innovatsiyaga qarshi to‘siq – ijtimoiy va pedagogik adabiyotda an’anaviy ravishda foydalaniladigan tushuncha. Psixologik, shaxs doirasidagi to‘siq ham o‘qituvchining individual xususiyatlari, ham u a’zosi bo‘lgan jamoaning ijtimoiy-psixologik belgilari bilan asoslanadi. Tashqaridan bu to‘siq ko‘pincha aniq bir innovatsiyalarga nisbatan mavjud bo‘lgan sterotiplarni ifoda etuvchi himoyaviy fikrlarda olga suriladi. A.I. Prigojin bir necha innovatsion sterotiplarni ajratib ko‘rsatadi. Ularning ichida quyidagilar hukmronlik qiladi:

1. «Bu bizda allaqachon mavjud». Taklif qilinayotgan yangilikka qandaydir alomatlari bilan haqiqatdan ham o‘xshash bo‘lgan misol keltiriladi.

2. «Buni bizda amalga oshirib bo‘lmaydi». Ushbu yangilikni amalga oshirish mumkin bo‘lmagan bir qator xususiyatlar, ob’ektiv shart-sharoitlar keltiriladi.

3. «Bu bizning asosiy muammolarimizni hal qila olmaydi». Tub o‘zgarishlar tarafdorining holati. Bu holatda innovator haqiqiy taraqqiyotning yetarli darajada mohir va faol bo‘lmagan yetakchi alomatlarini oladi.

4. «Bunga hali ishlov berish kerak». Yangilikning haqiqatdan ham mavjud bo‘lgan kamchiliklari, oxirigacha ishlov berilmagan unsurlari ko‘rsatiladi, chunki bundan qochib qutilib bo‘lmaydi, har qanday loyiha ishchi tartibida sinalishi va oxirigacha ishlov berilishi kerak.

5. «Bu yerda hammasi teng qiymatli emas» - yuqoridagi mulohazalarning xohlagan bittasiga asosan ba’zi bir detallarni olib tashlashga harakat qilish, buning natijasida yangilik o‘zining innovatsion salohiyatiga ko‘ra yoki “zararsiz” bo‘lib qoladi – “qo‘lga o‘rgatiladi” yoki xuddi shu sababga ko‘ra foydasiz bo‘lib qoladi, chunki endi hech qanday samara bermaydi.

6. «Boshqa takliflar ham bor». Bunda boshqa mualliflar, maktablar tomonidan ilgari surilgan, ushbu yangilikka muqobil yangilik nazarda tutiladi.

Pedagogik faoliyat ijodiy mehnat sifatida ijodiy jarayonning zamonaviy fan tomonidan ochilgan umumiy mohiyatini saqlab qolgan:

a) fikrning, ya’ni ma’lum muammoli vaziyatning yuzaga kelishi; b) fikrni tushunib yetish; v) kuzatuvlarning to‘planishi; g) turli variantlar ichidan tanlash yo‘li bilan ijodiy masalaning mumkin bo‘lgan yechimlaridan eng yaxshisini tanlash; d) ijodiy jarayon natijasi va uni baholash. Bu tuzilmani innovatsion pedagogik faoliyatga nisbatan aniqlashtirilgan holda pedagogning innovatsion jarayonida quyidagi ketma-ket bosqichlarni keltirish mumkin: 1) pedagogikaga oid muammoni hal etishga yo‘naltirilgan pedogogik fikrning vujudga kelishi; 2) fikrni ishlab chiqish; 3) pedagogik fikrni faoliyatda, o‘quvchilar bilan aloqada qo‘llash; 4) natijalarni tahlil qilish va baholash. Innovatsion faoliyatning tahlilida qulaylik uchun bu faoliyat modelini yaratishda pedagog innovatsion jarayonining ana shynday bosqichliligiga tayanamiz.

Innovatsion faoliyat bevosita o‘quvchilar bilan o‘zaro aloqa davomida kechadi, shuning uchun pedagogdan o‘zining ruhiy holatini boshqara olish, o‘zida va faoliyat ishtirokchilari bo‘lgan o‘quvchilarda tezkorlik bilan ijodiy hissiyotni uygota olish, pedagogik aloqada ijodiy jarayonni amalga oshirishni talab qiladi. Pedagog innovatsion jarayonining ushbu kasbiy xususiyatlari uning faoliyati mazmuniga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Innovatsion pedagogik faoliyatning mohiyati

Ta’limning zamonaviy sharoitdagi rivojlanishi o‘qituvchidan innovatsion xulqni, ya’ni pedagogik faoliyatda faol va tizimli ijodni talab qiladi. *Innovatsion xulq* – bu moslashuvchanlik emas, balki individuallikni, o‘z-o‘zini faollashtirishni maksimal darajada rivojlantirishdir. Agar kimdir o‘zining qadriyatlari va ideallarining bir qismidan voz kechgan, o‘zining ahloqiy va intellektual yaxlitligini buzgan, baxsizga aylangan, erkini yo‘qotgan paytda o‘qituvchi fikran uning ongiga kira olishi

kerak. Jamiyatda insonni o‘z innovatsion faoliyatini to‘xtatishga majbur qiladigan maxsus usullar “mavjud”. O‘qituvchi uchun uning innovatsion faoliyatini amalga oshirishga to‘sqinlik qiladigan psixologik to‘siqlarni his etish, boshdan kechirish va ulardan xalos bo‘lish juda foydalidir. Pedagog xulqini va ichki dunyosini bir qolipga solib qo‘yilishi natijasida uning faoliyatida faqat buyurilgan ko‘rsatmalardan foydalanish ustun bo‘lib boradi. Uning ongida pedagogik faoliyatning ko‘p sonli turli-tuman tayyor namunalari to‘planib boradi. Bu esa o‘zining ijodkorlik darajasini pasaytirish orqali o‘qituvchining pedagogik jamiyatga qo‘shilib ketishiga olib keladi.

O‘qituvchini innovatsion faoliyatga maqsadga yo‘naltirilgan tayyorlash – bu yaxlit, bir butun jarayon. U ikki o‘zaro bogliq va bir-biridan kelib chiquvchi davrlardan tashkil topgan: oliy o‘quv yurtida o‘qitish va tarbiyalash, shuningdek, maxsus muassasalarda o‘qish va maktabdagi amaliy pedagogik faoliyatning o‘zaro almashib kelishi asosida tashkil qilingan OTMdan keyingi ta’lim. Qayd etib o‘tilgan davrlarni o‘qituvchi shaxsini bosqichma-bosqich rivojlantirib borishning yaxlit jarayoniga birlashtirilishi – uni innovatsion faoliyatga kiritishning asosidir. Ammo bizning tadqiqotimiz uchun bu davrlarning birinchisi muhimroq, chunki bo‘lgusi o‘qituvchining kasbiy shakllanish jarayoni innovatsion faoliyat tuzilmasini modellashtirgan holda oliy o‘quv yurtida o‘qitish shart-sharoitida muvaffaqiyatli va to‘laqonli kechadi.

O‘qituvchini innovatsion faoliyatga tayyorlash tamoyilini yaratishda o‘qituvchi shaxsini shakllantirishning bir butun jarayonini yaratilishi va faoliyat olib borishini ta’minlovchi tizimli, refleksiv-tashabbuskor, individual-ijodiy yondashuvlar asos qilib olinadi.[31]

▪ tizimli yondashuv jihatdan – pedagogik ta’limning barcha bo‘ginlari innovatsion faoliyatning barcha komponentlarini ularning yaxlitligida yuzaga chiqishini maksimal darajada ragbatlantirishi kerak.

▪ refleks-tashabbuskor yondashuvni amalga oshirish o‘qituvchining o‘z faoliyatiga nisbatan, faoliyatning o‘quvchi shaxsini rivojlantirish borasidagi samaradorligini tanqidiy tahlil etish, mulohaza qilish va uni baholash maqsadida faoliyat sub’ekti sifatida o‘ziga nisbatan ham faol tadqiqot mavqeiga chiqa olish qobiliyatini rivojlantirishni nazarda tutadi.

▪ individual-ijodiy yondashuv o‘qituvchida ijodiy individuallikni aniqlash va shakllantirish, unda innovatsion ongni rivojlantirishni ta’minlovchi faoliyatning takrorlanmas texnologiyasini shaxsiy darajaga olib chiqadi.

Uzluksiz ta’lim tizimida kasbiy-tadqiqot va kasbiy-pedagogik jihatlar aniq ajralib turadi. Nafaqat pedagogik izlanishning predmetli mazmunini, balki o‘qituvchining innovatsion faoliyatda ishtiroki shaklini ham qaytadan yaratish imkonini beruvchi kasbiy-pedagogik jihat markaziy o‘rinda turadi.

---

[31] Сластенин В.А., Подымова Л.С. Педагогика: инновационная деятельность. М., 1997.

V.A.Slastenin tadqiqotlariga ko‘ra, o‘qituvchini innovatsion faoliyatga tayyorlash ketma-ketligi quyidagi bosqichlardan iborat:

• Birinchi bosqich – o‘qituvchining ijodiy individualligini rivojlantirish, talabalarda ijodiy pedagogik masalalarni aniqlash, ifodalash, tahlil qilish va hal qilish qobiliyatini shakllantirish, shuningdek, ijodiy izlanishning umumiy texnologiyasini rivojlantirish: ilgari egallangan bilim va ko‘nikmalarni yangi vaziyatga mustaqil olib o‘ta olish, tanish vaziyatdagi muammoni, yangi funksiya ob’ektini ko‘ra olish, ob’ekt tuzilmasini aniqlay olish, muqobil yechim yoki uning usulini ko‘ra bilish, ilgari egallangan faoliyat usullarini vujudga kelgan muammo yechishda qo‘llay olish, tanqidiy tafakkurni rivojlantirish.

• Ikkinchi bosqich – ilmiy anglash, pedagogik tadqiqot, innovatsion pedagogikaga kirish uslubiyati asoslarini egallash. Talabalar innovatsion pedagogikani vujudga kelishining ijtimoiy va ilmiy sabablari, uning asosiy tushunchalari bilan tanishishadi, maktabni tashkil etishga muqobil yondashuvlarni ijodiy izohlashga harakat qilishadi, muqobil maktablarni rivojlantirishni asosiy manbalarini o‘rganishadi, innovatsion o‘quv muassasalarining turli tiplari bilan tanishishadi va hokazo.

• Uchinchi bosqich – innovatsion faoliyat texnologiyasini o‘zlashtirish. Talabalar maktabdagi sinov ishlari bosqichlarining mualliflik dasturlarini tuzish uslubiyati bilan tanishishadi, mualliflik dasturlarini tuzishda ishtirok etishadi, yangilikni tahlil qiladi va uning keyingi rivojlanishini, uni joriy qilishdagi qiyinchiliklarni bashorat qiladi.

• To‘rtinchi bosqich – yangilikni pedagogik jarayonga joriy qilish bo‘yicha sinov maydonidagi amaliy ishlar, tuzatishlar kiritish, sinov natijalarini kuzatib borish, kasbiy faoliyatni mustaqil tahlil qilish. Bu bosqichda yangilikka nisbatan qarashlari va ko‘rsatmalari tizimi sifatida o‘qituvchining innovatsion munosabati shakllanadi.

Sanab o‘tilgan bosqichlardan ko‘rinib turibdiki, bo‘lgusi o‘qituvchilarni tayyorlashda asosiy e’tibor ularning ilmiy-pedagogik ongini shakllantirishga qaratiladi. O‘qituvchining bevosita maktab ishchisi sifatidagi funksiyasi va olim sifatidagi funksiyasini (bu o‘qituvchiga ogriqli nuqtalarni topish, g‘oya taklif qilish, bunday o‘zgartirishlar oqibatlarini uzoq muddatli bashorati asosida ularni o‘zgartirib borish uslubiyatini ishlab chiqish imkoniyatini beradi) birgalikda olib borishning zaruriyati haqidagi fikrlar V.I. Suxomlinskiy tomonidan ham aytib o‘tilgan:: «Agar siz pedagogik mehnat o‘qituvchiga quvonch olib kelishini, har kungi dars berishlar bir qolipdagi zerikarli ishga aylanib qolmasligini xohlasangiz, har bir o‘qituvchini baxtli tadqiqot yo‘lagiga boshlang.… O‘zini tadqiqotchi sifatida his qilgan o‘qituvchi pedagogik mehnatning ustasiga aylanadi.[32]

S.M.Shalyutinning qayd qilishicha, «inson quyidagi sharoitlarda ijodiy izlanishlarga murojaat qiladi: a) masalani hal etish algoritmi mavjud emas; b)

[32] Сухомлинский В.А. Разговор с молодым директором школы. М., 1982. С. 72.

masalani hal etish algoritmi mavjud bo‘lsa-da, lekin noma’lum (yoki umuman nomalum, yoki ushbu shaxs uchun noma’lum); v) algoritm ma’lum, lekin juda murakkab, masalaning individual xususiyatlaridan kelib chiqib uni yechish yo‘lini qisqartirishga umid qilish mumkin».[33] O‘qituvchi innovatsion faoliyatining o‘ziga xosligi shundaki, pedagoglarga o‘rgatiladigan usullar va uslublar to‘plami mavjud bo‘lsa-da, bu faoliyatni to‘liq algoritmlash deyarli mumkin emas. Ba’zi uslublar boshlangan innovatsion jarayonni to‘xtatishga xizmat qiladi. Ularning ichida eng keng tarqalganlari quyidagilar hisoblanadi:

• «konkretlashtiruvchi hujjatlar uslubi» - eng asosiysi yangilikning, mazmun hajmini tarqalib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik;

• «qismlab joriy qilish uslubi» - faqat bir unsurni olib kirish;

• «amaliy sinov uslubi» - sun’iy ravishda sinov tarzida ushlab turish;

• «hisobotli joriy qilish uslubi» - haqiqatdagi joriy qilishni aniq ifoda etmaslik;

• «parallel joriy qilish uslubi» - yangilikning eskisi bilan birgalikda amalda bo‘lishi. Ko‘p unsurlar yangilari bilan almashtirilmaydi, birgalikda amalda bo‘ladi.

O‘qituvchini innovatsion faoliyatga tayyorlash jarayoni ma’lum darajada boshqariluvchi jarayon bo‘lishi mumkin, agar bir qator maxsus tashkil etilgan shartlarni qanoatlantirsa:

- ko‘p bo‘ginli pedagogik ta’limning barcha bosqichlarining doimiyligi;
- oliy o‘quv yurtidagi ta’limning o‘qituvchini innovatsion faoliyatga tayyorlashning umumlashtirilgan modeliga yo‘naltirilishi;
- bo‘lgusi o‘qituvchining ushbu faoliyatga tayyorligini psixologik tashxislash;
- talabalarda ijodiy faollik va pedagogik innovatsiyalarga motivatsiyali yaxlit munosabatini shakllantirish;
- o‘qituvchining metodologik, maxsus, umumpedagogik, psixologik va metodik tayyorgarligining o‘zaro bogliqligi;
- bosqichlararo va fanlararo o‘zaro ta’sirni amalga oshirilishi, bilimlarni innovatikaning umumiy muammolari oqimida integratsiyalashuvi;
- talabalarda innovatika madaniyatini, yangilikni his eta olishni shakllantirish;
- pedagogik amaliyotning tizim tashkil qiluvchi funksiyalarini uning tadqiqiy tayyorgarligi bilan yaxlitlikda ta’minlash;
- o‘qituvchining innovatsion faoliyatni o‘zlashtirish dinamikasini o‘rganish va mezonli baholash (V.A.Slastenin, L.S.Podыmova).

Bu shartlar bir tomondan, oliy o‘quv yurtidagi ta’limi tizimi, ikkinchi tomondan, pedagogika OTM professor-o‘qituvchilari tarkibining bevosita talabalar ishtirokidagi rejali ilmiy-tadqiqot ishlari bilan qanoatlantiriladi.

Bo‘lgusi o‘qituvchilarni tayyorlash tuzilmasidagi zaruriy komponent ularning innovatsion faoliyatni amalga oshirishga kasbiy tayyorgarligi hisoblanib, u o‘ziga xos

---

[33] Шалютин С.М. О сущности творческой деятельности /Творческие мышление и научно-технический прогресс. Курган, 1971. С.9.

mezonlar bilan aniqlanadi. Pedagogning har qanday kasbiy tayyorgarligini, shu jumladan, innovatsion faoliyatga tayyorgarligini quyidagi ramziy formula bilan ifodalash mumkin:

T = X + B +U,

ya'ni : X – xohish; B – bilim; U – uddalash, yoki ***«tayyor» = xohlayman + bilaman + uddalayman».*** Bu formula tayyorgarlikning uch jihatini ifoda etadi: motivatsion, informatsion faoliyat bilan bogliq. Tayyorgarlik mezonlari, bizning fikrimizcha, o'qituvchida sanab o'tilgan tayyorgarlik jihatlarini mavjud yoki mavjud emasligini aniqlash imkononi beruvchi alomatlarni o'z ichiga olishi kerak.

Ta'lim tizimlari rivojlanishining har bir davri o'zining innovatsion pedagogik g'oyalari bilan xarakterlanadi, bu g'oyalar ushbu davrdagi hukmron g'oyaga nisbatan ichki va tashqi bo'ladi. Oliy pedagogik ta'lim tizimida dasturli o'qitish g'oyasi, muammoli o'qitish g'oyasi, modulli o'qitish g'oyasi, kodlashtirilgan o'qitish g'oyasi (V.F. Shatalov) va boshqalar innovatsion g'oyalar bo'lgan.

O'zbekiston ta'lim tizimi rivojlanishining zamonaviy bosqichida quyidagi pedagogik g'oyalar innovatsion hisoblanadi:

- shaxsga yo'naltirilgan ta'lim (R.Safarova, R.Djuraev va boshqalar);
- ta'limning insoniylashuvi va insonparvarligi (M.Taxtaxodjaeva, M.Quronov, O.Musurmonova, N.Ortiqov, A.Choriev va boshqalar);
- o'qitishning kredit tizimi (B.Farberman, S.G'ulomov va boshqalar);
- o'quv jarayonini texnologiyalashtirish (N.Azizxodjaeva, B.Adizov, B.S.Bazarova, J.Yo'ldoshev, D.Mirzajonova, U.Tolipov va boshqalar);
- o'quv jarayonini kompyuterlashtirish (M.Lutfullaev, U.Begimkulov, A.Abduqodirov, A.Xaitov va boshqalar);
- o'quv jarayoniga o'zbek xalq pedagogikasi g'oyalarini joriy qilish (M.Maxmudova, S.Nishanova N.Safarov, B.Qodirov va boshqalar);
- o'qitish jarayonlarini sifatli boshqarish (Ye.Seyitxalilov, Sh.Qurbonov, R.Axliddinov, U.Inoyatov va boshqalar).

O'qituvchining yuqorida sanab o'tilgan pedagogik g'oyalarni amalga oshirishga tayyorligining umumiy alomatlari quyidagilar bo'lishi mumkin:

• pedagogning sinf bilan kutilayotgan aloqasini o'quvchilar bilan bevosita faoliyat olib borishga tayyorgarlik jarayonidayoq modellashtirishni uddalay olishi;

• o'zining har qanday harakatini o'quvchilar ko'zi bilan ko'ra olish qobiliyati, o'zining pedagogik harakatlari mazmuni va natijalarini o'quvchi ongida, qarashlarida qanday aks etganini aniqlay olish qobiliyati va bunga bo'lgan xohish;

• pedagog va o'quvchilarning emotsional birdamligi, bu o'qituvchiga darsda kutilayotgan vaziyatni oldidan ko'ra olish, dars paytida kutilishi mumkin bo'lgan o'zaro aloqalar saviyasini his qila olish va uni kelajakda rivojlantirishga yordam beradi;

• o'quv jarayoniga har bir o'quvchining sub'ektiv tajribasini qo'sha olish malakasi;

• hamkasaba nuqtai nazarini tushuna olish bilan bir paytda jamoada prinsipial va talabchan bo‘la olish malakasi va boshqalar.

Qayd etib o‘tilgan alomatlar ustuvor ravishda o‘qituvchining pedagogik qarashlarini oldindan belgilab beradi, bu qarashlar ushbu o‘qituvchining o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan innovatsion faoliyatni amalga oshira olish yoki olmasligini aniqlab beradi.

O‘qituvchining shaxsga, shaxs munosabatlariga yo‘naltirilgan innovatsion faoliyatni amalga oshirishga tekshirishning ishonchli vositasi pedagogik vaziyatlar va jarayonlardagi ***innovatsion harakatlar*** hisoblanadi.

Innovatsion harakatni biz tashqi tashkilotchilik va qayta qurishlar deb emas, balki ko‘zlangan maqsadlarga shu sohadagi hayot sifatida, jamoaviy ijod sifatida birgalikdagi harakat deb tushunamiz. Albatta, bu harakatni tashkil etish, rejalashtirish, loyihalashtirish, kuzatib borish, u haqda fikr yuritish, ya’ni psixologik-pedagogik ta’minotni amalga oshirish kerak, lekin uning harakatlantiruvchi motori pedagoglar jamoasi sanaladi, unga energiyani tashabbuskorlar beradi, barcha ishtirokchilarning o‘zaro aloqalari nafaqat bilim va loyihalar bilan balki jarayon ishtirokchilarini qiziqtiruvchi va ilhomlantiruvchi jonli g‘oyalar bilan ta’minlanadi. Maktab innovatsion faoliyatini psixologik-pedagogik ta’minotiga hamkorlik, ya’ni innovatsion faoliyatni optimallashtirishni ta’minlovchi maktab jamoasining barcha a’zolari o‘rtasida ijtimoiy o‘zaro aloqalarni o‘rnatishga yo‘naltirilgan murakkab psixologik-pedagogik jarayon sifatida qaraladi.

Talabalarni innovatsion faoliyatga tayyorlashdan ko‘zlangan asosiy maqsad - ularning yangilikka intiluvchanliklari, yangilikni mustaqil izlash, yaratish va qo‘llash ko‘nikma va malakalarini shakllantirish, ilg‘or pedagogik texnologiyalar, interfaol usullardan foydalanib, dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarini o‘tkazish mahoratini takomillashtirishdan iborat. Ilmiy-tadqiqot faoliyati-pedagogik jamoani harakatga keltiruvchi, zamon bilan birga qadam tashlashga yordam beruvchi kuch sanaladi.

Ilmiy-tadqiqot faoliyati - uzluksiz ravishda yangliklar bilan ishlashdan iborat bo‘lib, u uzoq vaqt davomida shakllanadi va takomillashib boradi.

Talabalar ilmiy-tadqiqot faoliyatini o‘rganib chiqqan pedagog olimlarning fikriga tayangan holda, quyidagilarni innovatsion faoliyatning belgilari deb e’tirof etish mumkin:

*ijodiy faoliyat falsafasini egallash;

*pedagogik tadqiqot usullaridan samarali foydalanish malakalarini o‘zlashtirish;

*mualliflik konsepsiyalarini yaratish qobiliyatiga ega bo‘lish;

*tajriba-sinov ishlarini rejalashtirish va amalga oshira olish;

*hamkasblar bilan hamkorlikka erishish;

*hamkasblar bilan o‘zaro fikr almashish;

*ziddiyatlarning oldini olshi va bartaraf etish tajribasini o‘zlashtirish;

*yangiliklarni izlab topish, ularning bankini yaratish va o‘z sharoitiga moslashtirib borish.

Pedagogik faoliyatda innovatsiyalar qancha ko‘p bo‘lsa,talaba o‘zi tashkil etadigan tajriba mohiyatini shunchalik yaxshi tushunadi, shu bilan birga,u o‘z ilmiy-tadqiqot faoiyatining sub’ekti va tashkilotchisi sitfatida yangilikni yaratish, qo‘llash hamda takomillashtirishda faol ishtirok etadi. U fandagi bilim, an’analardagi o‘zgarishlarni mazmun va mohiyatini tahlil eta bilishga ko‘nib boradi.

Bugungi kunga kelib,ta’lim tizimidagi yangiliklarni quyidagicha tavsiflamoqdalar:

*faoliyat yo‘nalishiga qarab;

*kiritilgan o‘zgarishlarning tavsifiga ko‘ra;

*kelib chiqqan manbaiga ko‘ra.

Talabaning ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorgarligini tahlil qilishni 3-bosqichda amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

1.Yangilikni pedagogik faoliyatda qo‘llashdan oldingi davrdagi faoliyatini tahlil qilish.

2.Innovatsion faoliyatning faol shakllanishi davrini tahlil qilish.

3.Pedagogik jarayonga yangilik kiritib bo‘lgandan keyingi davrdagi faoliyatini tahlil qilish[34].

Bo‘lg`usi o‘qituvchilar innovatsion faoliyatini psixologik-pedagogik ta’minotining muhim tarkibiy qismi ularni oliy o‘quv yurtidagi tayyorgarligi hisoblanadi. Davlatning maktablarni qayta qurishga munosabati yuqori darajada ijobiy bo‘lganda ham pedagogik kadrlarni tayyorlashga mas’ul bo‘lganlarning qarashlarini tubdan o‘zgartirish talab qilinadi. O‘zgartirishlarning uzoq muddatli strategiyasini belgilab olish kerak, bu strategiyada o‘qituvchini tayyorlashni boshqacha asosda, bevosita innovatsiyaga yaqinlashtiruvchi asosda olib borilishi muhim o‘rin egallashi kerak.

Nazorat savollari:

1. O'qituvchining asosiy lavozimi vazifalari nimalardan iborat?
2. O'qituvchi lavozimi vazifalaridan tashqari yana nimalarni bilishi zarur?
3. O'qituvchining metodik ishlarining qanday turlari mavjud?
4. Kasbiy qobiliyat nima?
5. Kasbiy qobiliyatning pedagogik xarakteristikasi
6. Pedagogik qobiliyatning turlari qaysilar.
7. Innovatsion jarayon deganda nimani tushunasiz?
8. Innovatsion faoliyat deganda nimani tushunasiz?
9. Pedagogik innovatsiya: asosiy tushunchalar mohiyati va mazmunini tushuntirib bering

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Olimov Q.T. va boshqalar. Mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Fan, 2004.

2. Semushina L.G., Yaroshenko N.G. Soderdanie i texnologii obucheniya v srednix spesialnix uchebnix zavedeniyax. – Moskva: Masterstvo, 2001.

3. Xodjaboev A. Xusanov L. Kasbiy ta’lim metodologiyasi. T.: Fan va texnologiyalar, 2007.

4. Sharon A. Wynne. Pedagogy professional responsibilities. EC-12 Teacher Certification. 2013. 251 b.

5.Boravskaya N.V., Rean A.A. Pedagogika.-M.: «Piter», 2004.

6. Xasanboev J., Sariboev H., Niyozov G., Hasanboeva O., Usmonboeva M.

7.Pedagogika. O‘quv qo‘llanma. –T.: 2006. - 158 b.

8.Xasanboev J., To‘rakulov X., Xaydarov M., Xasanboeva O., Usmonov N.

9.Pedagogika fanidan izohli lug‘at. – T.: Fan va texnologiya, 2009.

10. Kurbanov Sh.Ye., Seytxalilov Ye.A. Ta’lim sifatini boshqarish. - T.: Sharq, 2006. – 592 b.

11. www.inter-pedagogika.ru.

8 KASBIY PSIXOLOGIYA FANINING PREDMETI, KASBLAR VA ULARNING KLASSIFIKATSIYASI.

Reja:

8.1 Kasbiy psixologiya fanining maqsadi, predmeti va vazifalari.

8.2 Kasbiy psixologiya fanining tadqiqot metodlari.

8.3 Kasblar va ularning klassifikatsiyasi. Kasblarni psixologik tizimlash.

Таянч иборалар: *, insonni ruhiy holati, psixik hodisalar, qonuniyat va mexanizmlar, shaxs va voqelik, shaxs va jamiyat, shaxs va predmetlar olami, yosh taraqqiyotni davrlashtirish, natijaviy yutuqlar, tadqiqot metodlarining klassifikatsiyasi, tadqiqot usullari, genetik usullar, biografik metod, tahlil qilish metodi, kasblar tavsifi, topshiriqlarni tahlil qilish, professiografiya va uning mohiyati, asosiy tamoyillar, professiografik tadqiqotlarni o`tkazish, kasblarni psixologik tizimlash,*

8.1 Kasb psixologiya fanining maqsadi, predmeti va vazifalari.

Kasbiy psixologiya, o`z mohiyatiga ko`ra, psixologiya fani tarkibiga kiradi. Shu nuqtai nazardan qaraganda *kasbiy psixologiya* o`ziga xos *predmet* bo`lib, psixologiyaning nozik tomonlarini qamrab oladi. Ya`ni, bu fan psixologiya sohalarining kesishuvida yuzaga keladi. Psixologiya muayyan shaxs, uning jamiyatdagi xulq-atvori va turli faoliyatlarining o`ziga xos tomonlarini o‟rganadi. Bundan ko‟rinadiki, har ikkala fanning obyekti va subyekti shaxs, inson hisoblanadi.

Yuqorida ta`kidlab o`tganimizdek, kasbiy psixologiya faoliyat psixologiyasi psixologiya tarkibida yuzaga kelgan bo`lib, aniq faoliyat, ya`ni kasb faoliyatidagi psixologik jihatlarning muhim tomonlarini o`rganishga bag`ishlangan fan hisoblanadi.

Kasbiy psixologiya ilmiy-amaliy fan bo`lib, umumiy psixologiyaning qonuniyatlarini o‟rganadi va bu fanning samaradorligini oshirish uchun tavsiyalar ishlab chiqadi.

Kasbiy psixologiya fani kasb doirasidagi munosabatlar, odamlarning psixik faoliyatini boshqarish mexanizmlari va qonuniyatlarini o‟rganuvchi fandir. Bunda kasb egalarining psixologik asoslarini o‟rganish *maqsad* qilib qo‟yilgan.

Kasbiy psixologiya fanining maqsadi – kasb egalari faoliyatining taraqqiyot qonuniyatlari, turli toifadagi shaxslar bilan o‟zaro munosabatlar jarayonida psixologik bilimlardan foydalana olish ko‟nikma va malakalarini shakllantirishdaniboratdir.

Kasbiy psixologiya fanining predmetini quyidagilar tashkil etadi:

-qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish kasb egalari psixikasini har tomonlama o‟rganishdan hosil bo‟lgan bilimlar;

- qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish kasb egalarining ongi, ruhiyati, onglilik va ongsizlik holatidan hosil bo‟lgan xulosalar;
- qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish kasb egasi shaxsining tuzilishi, uning faoliyati va faolligini o‟rganish orqali olingan nazariy va amaliy xulosalar.

Barcha fanlar singari kasbiy psixologiya fanining ham o`z obyekti mavjud, ular quyidagilardan iborat:

- qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish kasb egalarining psixologiyasi;
- fuqarolarning onglilik va ongsizlik holatlari;
- shaxsning to`zilishi;
- shaxsning faoliyati;
- shaxsning faolligi va uning shakllari.

Shunday qilib, kasbiy psixologiya kasb egalari xodimlari faoliyatidagi psixika, ong, ongsizlik kabi fenomenlarning kelib chiqishi, rivojlanish qonuniyatlarini o‟rganuvchi fandir.

Mamlakatimizda huquqiy davlat qurish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonining borishi ichki ishlar idoralari xodimlari zimmasiga bir qator yangi vazifalarni yuklaydi.

Kasbiy psixologiyaning asosiy vazifasi shaxsning ichki his-tuyg‟ularini o‟rganish, ish faoliyatida kelib chiqadigan subyektiv va obyektiv sabablarini o‟rganishdir.

Shu bilan birga, bu fanni o‟rganish jarayonida quyidagi omillarga alohida e‟tibor muhimdir:

- betartibsizlikning oldini olish;
- betartibsizlikni batamom tugatish;
- qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish soha egalari o‟rtasida muloqot madaniyatini shakllantirish;
- fuqarolarning huquqiy bilimdonligini oshirish;
- inson omilini birinchi o‟ringa olib chiqish.

Kasbiy psixologiya fanini o‟qitishda quyidagilarga e‟tiborni qaratish zarur:

- bo‟lg‟usi qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish soha egalarini kasbiy psixologik bilimlar bilan qurollantirish;
- kasbiy vazifalarni hal etishda olingan nazariy bilimlardan mohirona foydalanish va ularni hayotga, amaliyotga tatbiq etish;
- mutaxassisligiga xos zamonaviy kasbiy fazilatlarni har tomonlama shakllantirish;
- qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish soha yo‟nalishida ta‟lim olayotgan mutaxassislarning kasbiy qobiliyatlarni har tomonlama rivojlantirish;
- kasbiy sezgirlik, xotira, tafakkur, fuqarolar bilan muloqotda bo‟lish va psixologik aloqa o‟rnatish mahoratiga ega bo‟lish.

Kasbiy psixologiya fani ana shu vazifalarning maqsadi va ko‟lamidan kelib chiqqan holda quyidagi bir qator vazifalarni bajaradi:

1) qurilish va psixologik bilimlarni chuqur o‟rganish hamda ularni ilmiy jihatdan sintezlash;
2) qurilish tehnolologiyasi tushuncha va kategoriyalarining qurilish va psixologik mohiyatini ochib berish;
3) qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish xodimlariga oid asosiy obyekt - inson xulq- atvorining ruhiy jihatlarini tushuntirish;
4) qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish sohasi munosabatlariga kirishayotgan subyektlar o‟rtasidagi psixik jarayonlarni o‟rganish va ularning ruhiy holatlarini ko‟rsatish;
5) jamiyatning ijtimoiy holatini tartibga solishni yanada takomillashtirish uchun tavsiyanomalar ishlab chiqish;
6) qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish sohasi xodimlari uchun psixologik xizmat ko‟rsatish taktikasi va metodikasini ishlab chiqish.

Shu ma‟noda, qurilish sohasi xodimlari uchun psixologik bilimlar ijtimoiy kategoriyalar (motiv, maqsad, shaxs va boshq.)ni va alohida ijtimoiy vazifalar, ya‟ni psixologik ekspertizasini tayinlash tarkibini klassifikatsiya qilish muhim ahamiyatga ega.

Psixik rivojlanishning qonuniyat va mexanizmlari. Har qanday inson kundalik hayotida odamlar bilan uchrashib, muloqotga kirishar ekan, u o‟zining bosiq yoki

qiziqqon, beparvo yoki qiziquvchan, mehribon yoki bag‟ritosh, jahldor yoki bosiq va hokazolardan iborat ichki va tashqi ruhiy olamini namoyon qiladi. Bu ruhiy holatlar ongli va ongsiz tarzda namoyon bo‟ladi. Ana shu holatlarning barchasi insonning psixikasini tashkil qiladi.

Inson psixikasi moddiy va ma‟naviy borliqdagi narsa va hodisalarni jonli yaratuvchi murakkab jarayon bo‟lib, u insoniyatning uzoq davom etgan fiziologik rivoji uyg‟unligining mahsuli hisoblanadi.

Xo‟sh, psixika nima?

Psixika - yuqori darajada tashkil topgan materiyaning tizimli xossasi (xususiyati), subyekt tomonidan obyektiv borliqni faol aks ettirish, mazkur borliq manzaralarini subyekt o‟zidan uzoqlashtirmay ifodalashi, xuddi shu asnoda o‟z xulqi va faoliyatini shaxsan boshqarishidir. Psixikada o‟tmishning, hozirgi davr va kelgusi zamonning hodisalari ifodalangan, tartibga solingan faoliyat va xatti- harakatlarni boshqarishdir[1].

Uning namoyon bo‟lish shakllari va ularning o‟zaro bog‟liqligi psixik (bilish) jarayonlar (sezgi, idrok, xotira, tafakkur, xayo`l, nutq va diqqat), psixologik holatlar (hissiyot, emotsiya, e‟tiqodlilik, bardamlik, tetiklik, qiziquvchanlik, hayratlanish, ishonchlilik, ijodiy ruhlanish), shaxsning xususiyatlari (yo‟nalishlar, temperament, xarakter, qobiliyat, iqtidor, aqliy salohiyat, xulq motivatsiyasi, ish uslubi, mas‟uliyat) da kuzatiladi.

Psixologiya - psixikaning kelib chiqishi, rivojlanish qonuniyatlari, shuningdek, insondagi onglilik va ongsizlik fenomenlarining hilma-hil ko‟rinishlarini o‟rganuvchi fan.

Psixologiya yunoncha «psixologos» so‟zidan olingan bo‟lib, «jon», «ruh» haqidagi fan, ta‟limot degan ma‟noni anglatadi. Biroq hozirgi davr ilmida «jon» tushunchasi o‟rniga «psixika» atamasini qo‟llash qabul qilingan. Chunki lingvistiknuqtai nazardan «jon», «psixika» tushunchalari aynan bir ma‟noni bildiradi. Lekin «psixika» atamasi bugungi kunda «jon»ga nisbatan kengroq ma‟noga, ko‟lamga ega bo‟lib, inson ruhiyatining ham ko‟zga ko‟rinuvchi, ham ko‟zga ko‟rinmas tomonlarini o‟zida aks ettiradi.

Psixologiya fanining obyektiga psixika, ong va ongsizlik, shaxs va uning faolligi kirsa, uning predmetini ana shu obyekt haqidagi muayyan bilimlar tashkil qiladi (Obyekt - kishilarning diqqatini o`ziga tortadigan moddiy va ma‟naviyborliq. Predmet - moddiy va ma‟naviy borliq haqidagi bilimlar majmuasi va o‟rganiladigan masalalar).

Kasbiy psixologiya fani ham ma`lum bir psixologik qonuniyatlarni o`rganadi va ularni amalda qo`llash bo‟yicha tavsiyalar ishlab chiqadi.

Psixologik qonuniyat u, yoki bu, ruhiy hodisani keltirib chiqaruvchi va rivojlantiruvchi sabab bilan natijaning ichki bog`liqligidan iboratdir. Bunday psixologik qonuniyatlardan biri ma‟lum sharoitda u yoki bu ruhiy hodisaningtakror namoyon bo`lishidir. Psixologik qonuniyatlarni bilish - muayyan psixik hodisani tushunish, oldindan ko‟ra olish va ularni qayta tiklash imkonini beradi. Shuningdek, ichki ishlar

[1] *G`ozuev E.* Umumiy psixologiya. - T., 2002. - 25-b.

idoralari xodimlariga fuqarolarning ruhiy faoliyatlari umumiy xususiyatlarini chamalab ko`rishga, fikr yuritish va xulq-atvorlarini belgilashga, ayniqsa, jinoyatchi shaxsining qilmishlarini ochish ishlarini tashkil qilishda xatoga yo`l qo`ymasliklarida yordam beradi. Har bir xodim shaxsning individual xususiyatlarini, sof tasodifiy holatlarni keltirib chiqaradigan boshqa narsalarni hamisha o‟rganib borishi va hisobga olishi shart. Psixologik qonuniyatlar umumiy va jo`z`iy bo`lishi mumkin. Umumiy qonuniyatlar hamma shaxslarga yoki ko‟pchilikka aloqador bo`lishi mumkin. Masalan, hammashaxslarda sezgilarning (tez, jadal) qo`zg`atuvchining kuchiga nisbatan (o‟rtacha kuchiga nisbatan) logarifma mutanosibligida o`sib boradi.

Juz`iy qonuniyatlar ba`zi yoshdagi kasb egalari va ba`zi toifadagi shaxslarga xos qonuniyatlardir. Masalan, o`smirlarda abstrakt fikrlashning tezlik bilan rivojlanishi hamma shaxslarga emas, faqat o`smirlarga xos bo`lgan jo`z`iy qonuniyatdir. Psixologik qonuniyatlarni jiddiy o`ylab tashkil qilingan hamda rejali ravishda olib boriladigan tekshirishlar orqali aniqlash mumkin. Qanchalik murakkab bo`lishidan qat`iy nazar, ko‟pgina psixologik tekshirishlar mutaxassis uchun tushunarlidir va ularni muvaffaqiyatli ravishda amalga oshirish mumkin.

Psixologik qonuniyatlar jarayonini ba`zi asosiy bosqichlarga ham bo‟lish mumkin. Bularga quyidagilar kiradi:

1. *Masalaning qo"yilishi.* Har qanday ilmiy-tekshirish ishlari kabi, psixologiyada olib boriladigan ilmiy tekshirish ishlari ham nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo`lgan masalani aniqlashdan, shuningdek, bu masala fanda qanchalik o‟rganilganligini bilish uchun mazkur mavzuga oid adabiyotlarni o‟rganishdan boshlanadi.

2. *Tekshirish metodikasini tanlash.* Psixologik kuzatishlar turli metodlar (bu metodlar haqida quyida batafsil fikr yuritiladi) bilan olib boriladi. Ishning muvaffaqiyatli chiqishi ko‟p jihatdan metodni tanlashga bog‟liq bo‟ladi.

3. *Aniq ma"lumotlarni to"plash.* Ma‟lumotlar, I. P. Pavlov ta‟biri bilan aytganda, olim uchun go‟yo havodek zarur narsadir. To`plangan ma‟lumotlar o‟rganilayotgan muammoga mos kelishi zarur. Ilmiy ma‟lumotlarga bo‟lgan asosiytalab - ularning to`liq va izchil bo`lishidir. To`plangan ma`lumotlar o`rganilayotgan masalani har jihatdan tavsiflab berishi kerak.

4. *Aniq ma"lumotlarni ishlash.* To‟plangan ma‟lumotlarni matematik va mantiqiy jihatdan ishlab chiqish umumiylikni, tipiklikni topish va ularni tasodifiy materiallardan ajratish imkonini beradi. Bunda to‟plangan materiallarning o‟rtacha miqdori (arifmetik, kvadrat va h.k.), foizi va boshqalar aniqlanadi, songa oid ma‟lumotlar jadvallarga joylashtiriladi, grafik, diagramma ko‟rinishlarida aks ettiriladi. Murakkab mutanosiblikdagi ma‟lumotlarni aniqlashda esa variatsion statistika metodlari qo‟llanadi.

5. *Qonuniyatning ifodalanishi.* Bu tekshirishning eng qiyin va mas‟uliyatli bosqichi hisoblanadi. Chunki bu bosqichda ma‟lumotlarning mohiyatini chuqur tushunish, ularning o‟zaro bog‟liqlikni hisobga olish kerak bo‟ladi, binobarin, bitta ma‟lumotdan turlicha xulosa chiqarish mumkin. Ko‟pincha chiqarilgan xulosalar

taxminiy xususiyatga ega bo‟lib, keyingi tekshirishlar, aniqlashlar uchun asos bo‟ladi.

6. *Qonuniyatni amalda qo"llash.* Aniqlangan qonuniyat ma‟lum bir amaliyot sohasida, masalan, tergov jarayonida gumon qilinuvchini so‟roq qilish psixologiyasini o‟rganishdan to‟plangan tajriba keyingi tergov jarayoni uchun kerak bo‟ladi. Ko‟pgina xodimlar amaliy faoliyatlarida hamisha shaxsiy hamda boshqalarning tajribalarini umumlashtiradilar. Lekin, shunday bo‟lsa ham, har holda bunday umumlashtirishlar ilmiy jihatdan yetarli asoslangan bo‟lmaydi, boshqacha qilib aytganda muhim aniqlik va teranlik bilan ajralib turmaydi.

Kasbiy psixologiya fani o`rganishi kerak bo`lgan qonuniyatlarni quyidagi uch guruhga ajratish mumkin:

Shaxs va mexnat faoliyati bilan bevosita bog`liq bo`lgan psixik qonuniyatlar;

1) soha egasining psixikasini o‟rganishga qaratilgan psixologik qonuniyatlar;

2) kasb egalariga har hil sabablar bilan murojaat qiladigan fuqarolarning psixologiyasini o‟rganishga qaratilgan psixologik qonuniyatlar.

Hozirgi kunda o`zbek psixolog olimlari ushbu muammolar ustida ilmiyizlanishlar olib bormoqdalar.

Xo‟sh, kasbiy psixologiya fanining bahs mavzui nima?

Kasbiy psixologiyaning o‟ziga xos prinsiplari mavjud. Har qanday usulda o`tkaziladigan psixologik tekshirishlar qator prinsiplarga rioya qilishni talab etadi. Masalan: subyektiv (psixologik) asosga nisbatan obyektiv (moddiy) asosning birlamchiligi, psixikaning taraqqiyotida faoliyatning yetakchilik roli, psixikhodisalarning o‟ziga xos bog`liqligi prinsipi, psixologik faoliyatni o`rganishda obyektivlik prinsipi, nazariya bilan amaliyotning bog‟liqligi prinsipi.

Subyektiv asosga nisbatan obyektiv asosning birlamchiligi prinsipi psixika moddiy bo‟lmasa ham moddiylikdan ayri holda yashay olmasligidan kelib chiqadi. Shaxsni o`rganishda biz psixik faoliyatning ko‟plab tashqi ko‟rinishlariga duch kelamiz. Ulardan asosiylari:

- og`zaki va yozma nutq. Psixolog uchun shaxsning o`zi (shaxsiy hisobot ma‟lumotlari) haqidagi mulohazalari g`oyat muhim hisoblanadi. Nutq orqali shaxslarning fikrlari, hissiyotlari, qarashlari, intilishlari, bilimi va boshqalar haqida xulosaga kelish mumkin;
- shaxs faoliyatining mahsuli. Shaxslar psixikasi haqida ularning o`z qo`llari bilan yasagan buyumlar, asbob-uskunalar, turli yasamalar, rasmlar va boshqalar aniqroq ma‟lumot beradi;
- psixik faoliyatning tashqi ko‟rinish va tanada namoyon bo`lishi. Bu ko`z qarashining ma`nodorligi, yuz mimikasi, imo-ishora, nafas olish va qon aylanishining o‟zgarishi, miya elektr faolligining o‟zgarishi va hokazo.

Shuni ham ta`kidlab o‟tish zarurki, bunday holatda faqat psixikaning tashqi namoyon bo`lishigina emas, balki psixikaning o‟zi tashqi namoyon bo`lishiga qarab ham o`zgaradi. Masalan, soha egasi ishida xatoga yo`l qo‟ydi. Ushbu faktni aniqlashdan avval xatoning sabablarini bilish lozim.

Psixikani tashqi namoyon bo`lish shakli orqali o`rganish vositali bilish deyiladi. Psixologiya fani tarixida uzoq yillarga qadar psixikani o‟rganishning asosiy metodi sifatida o`z-o`zini kuzatish (introspensiya) metodidan foydalanib kelingan. Biz o`z ichki dunyomizni bevosita his qilamiz. Psixologiya uchun o`z- o`zini kuzatish metodi o`ta qulay tuyo`ladi. Lekin masalaga bunday qarash xatodir, chunki o‟z-o‟zini kuzatish ko‟pincha umumiydan oddiy yoki tasodifiyni farqlash imkonini bermaydi, psixik faoliyat jarayonini noto`g`ri ko`rsatadi.

*Psixika taraqqiyotida faoliyatning yetakchi o`rin tutishi prinsipi* inson psixikasining mehnatda yuzaga kelishi va faoliyatda tarkib topishidan kelib chiqadi. Shunga ko`ra, psixikani kishining amaliy faoliyatidan ayrim holda o`rganish mumkin emas.

Psixik hodisalarning o`zaro bog`liqlik prinsipi bizning ichki dunyomiz yagona, bir butun ekanligidan, ma‟lum shart-sharoitlarda shakllangan, muayyan shaxslarga xos miyaning mahsuli ekanligidan kelib chiqadi. Shu jihatdan shaxslarning ayrim tomonlarini, uning psixikasini o‟rganishning o`zi asosiy maqsad bo`lib qolmasligi kerak. Har bir tekshirishda biror psixik hodisaning boshqa psixik hodisalar bilan uzviy aloqasini va ta`sirini hisobga olish lozim bo`ladi.

*Psixik faoliyatni o`rganishda obyektivlik prinsipi* boshqa tekshiruvchilar qatori psixologdan ham hodisaning aniq tafsilotlarini o`rganishni, real holatni ifodalamaydigan shoshilinch umumlashtirish va xulosalarga yo`l qo‟ymaslikni talab qiladi.

*Nazariya bilan amaliyotning bog`liqligi prinsipi* nazariya amaliyot uchun asos ekanligini, u o`z qobig`iga o‟ralib olmasdan amaliyot uchun yangi-yangi yo‟nalishlar ko`rsatishni anglatadi.

Kasbiy psixologiya fanining bu prinsiplari birgalikda qo‟llaniladi va ular har bir aniq psixologik metodning asosini tashkil qiladi.

Shaxsning ong osti holatini chuqur va har tomonlama o‟rganishga imkon beradigan psixoanaliz metodi kasbiy psixologiya uchun muhim hisoblanadi. Psixoanaliz jinoiy xatti-harakat motivlari, murakkab nizolarning haqiqiy sabablarini tadqiq etish darajasini aniqlashda keng qo‟llaniladi.

8.2 Kasbiy psixologiya fanining tadqiqot metodlari

Kasbiy psixologiya muhandislik sohasining ob‟ektiv qonuniyatlarini o`rganishda uning metodlaridan keng foydalanilinadi. Ushbu metodlar o„zining maqsadi va yo`nalishiga qarab tasniflanadi. Tadqiqot maqsadiga ko`ra muhandislik psixologiyasi metodi quyidagi uch guruhga bo`linadi.

Ilmiy tadqiqot metodi. Ushbu metod yordamida shaxslarning huquq normalariga nisbatan munosabatining psixik qonuniyatlari o„rganiladi, shuningdek, jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurashish faoliyati bilan shug`ullanuvchi amaliyot xodimlari uchun ilmiy jihatdan asoslangan tavsiyalar ishlab chiqiladi. Ular quyidagilardan iborat:

- anamnestik (biografik) metod;
- kuzatish va tabiiy eksperiment metodlari;

– shaxsning individual-psixologik xususiyatlarini o„rganishning instrumental (test, anketa va boshq.) metodlari.

Ushbu metodlarning qo`llanishi individual-psixologik xususiyatlarni o`rgatadi. Psixolog-ekspert oldida har bir bosqichdagi psixologik determinantlar (omillar)ni ajratish vazifasi turadi. Birinchi bosqichda o`zini- o`zi anglashi, o`zini o`zi baholashning shakllanishi, haqiqiy hayotiy qadriyat va axloqiy-me`yoriy yo`naltirishlarning rivojlanish xususiyatlarini tahlil qilish zarur. Ekspertizadan o`tkazilayotgan shaxsning individual-tipologik xususiyatlarini tahlil qilish ham muhim o„rin tutadi. Ikkinchi bosqichda ekspertizadan o`tkaziluvchining qaror
qabul qilishining o`ziga xos tomonlari tadqiq etiladi. Qaror qabul qilish sub`ektning shaxsiy jihatlari, xatti-harakat motivlarining ob`ektiv tashqi vaziyat bilan o`zaro ta`sir jarayoni sifatida baholanadi.

Shunday qilib, psixolog-ekspert oldida turgan vazifalarning keng qamrovligi va xilma-xilligini inobatga olgan holda, ekspertizadan o`tkaziluvchining shaxsini bir marta tekshirish emas, balki uning rivojlanish jarayonini o`rganish, turli sharoitlarda o`zini namoyon etishini tahlil qilish zarur. Hech bir psixologik metod shaxs haqida mutlaqo to`g`ri ma‟lumot olinishini kafolatlamaydi. Shaxsni samarali psixologik tadqiq etishning muhim tomoni standart va nostandart tadqiqotlar ma`lumotlarini, eksperimental va noeksperimental metodlarni qo`shish hisoblanadi. Kasbiy psixologiyaning o`ziga xos metodlariga muhandislik faoliyati ishini psixologik tahlil qilish kiradi. Bu o`rinda qaror qabul qilish muammosini tadqiq etish, ayniqsa samarali hisoblanadi .

So`nggi yillarda psixodiagnostika o`tkazishda kompyuterdan foydalanishga qiziqish keskin oshdi. Avtomatlashtirilgan psixologik tizimlarning dastlabki variantlari mamlakatimizda XX asrning 60-yillaridayoq ishlab chiqilgan edi.

Ammo ular, EHMlardan foydalanish qiyinligi va ularning qimmat turishi sababli, ommaviy tarzda yoyilmadi. O„tgan asrning 80-yillari o`rtalaridan boshlab esa, kompyuter tizimlari test o`tkazish amaliyotiga keng tatbiq etila boshlandi. Kompyuterlashtirishdan avval, psixologik test o`tkazish uzoq davom etadigan, bir xil tusdagi bir muncha murakkab ish bo`lgan. Testdan o„tayotgan shaxs juda ko`p savollarni o„qir hamda maxsus jadvallarning katta qog„ozlarini to„ldirar edi. To„ldirilgan jadvallarga qo`lda ishlov berish ayniqsa, qiyin va katta hajmli ish bo`lgan. Psixolog yoki uning yordamchilari javoblarni guruhlarga ajratar (yordamchi jadvallarga yozib qo`yar yoki maxsus trafertalardan foydalanar), har bir guruhdagi javoblarni hisoblar va aniq psixologik ko`rsatkichlarni aniqlar edi. Bunday psixologik diagnostika quyidagi sabablarga ko`ra amalda qoniqarsizdir:

– testlarda kam sonli xohlovchilarning ishtirok etishi, javoblarga ishlov berishning nihoyatda qiyinligi statistik jihatdan ishonchli natijaga erishish uchun zarur bo`lgan ma‟lumotlarni shakllantirishga imkon bermasligi;

– jarayonning testdan o`tkazilayotgan shaxs ruhiyati va his-tuyg`ulariga ta`siri, natijada uning psixologik holatini buzib ko`rsatishi;

– javoblar ishlovi hajmining kattaligi muqarrar ravishda hisob-kitobxatolariga olib kelishi;

– ko`pchilik tadqiqotchilarning fikricha, test o`tkazuvchi psixologning sub`ektiv qarashlari va test natijalarini amaliy qilishi.

Hozirgi vaqtda test o„tkazish jarayoni kompyuterda erkin suhbat shaklida olib boriladi. Savollarning bir xildagi ketma-ketligiga barham berilgan. Har bir savol ekranda paydo bo`ladi va javob kiritilganidan keyin yo`q bo`ladi. So`ngra keyingi savol paydo bo„ladi va hokazo. Vaziyat uzluksiz o`zgarib turadi.

Testdan o`tayotgan shaxsning o`zi suhbat (dialog) sur`atini, hissiy boyligini belgilaydi. Bularning bari shaxsning suhbatda o`zini to`liq namoyon etishiga yordam beradi.

Hozir kompyuterlarda psixologik parametrlarni hisoblash hamda testdan o„tayotgan shaxs javoblarining butun majmui bo„yicha berish jarayoni bir nechta soniya vaqt talab qiladi. Psixolog test o„tkazib bo„lingan zahoti asosiy psixologik ko„rsatkichlarning to`liq to`plamiga ega bo`lgan tayyor psixokartani oladi. U faqat mutaxassis sifatida ishlaydi. Asosiy ko„rsatkichlar majmui dastlabki tarzda baholanganidan so`ng ancha ixtisoslashgan dasturlar bo„yicha qo„shimcha test tayinlanishi mumkin. Bunday dasturlar bloki ishlab chiqilgan, yo`lga qo`yilgan va amalda foydalanilmoqda.

Psixolog test natijalari bo`yicha individual maslahat jarayonida psixik adaptatsiya (moslashuv) xususiyatlari, hissiy-irodaviy holati, shaxsning tuzilishi va ehtiyoj yo„nalishlarini tahlil qiladi. Shunday qilib, tizimli yondashuv psixologiya va muhandislik faoliyatiga oid turli usullari bilan birga, faoliyat jarayonining asosiy psixologik qonuniyatlari, shaxsning tuzilishi va huquqiy normalar tizimining o`zaro ta‟sirini yetarlicha chuqur tahlil etish va aniqlashga, ushbu o`zaro ta‟sirning barcha ishtirok etuvchi elementlarini inobatga olgan holda aniq tavsiflash va muhim xususiyatlarini ajratishga imkon beradi.

shakllantirish. Kasbiy psixologiya fanining o`ziga xos ilmiy o`rganish metodlari mavjud. Psixologiya fanini ilmiy o`rganish metodlari («metod» yunoncha so`z bo`lib, «biror narsaga borish yo`li» degan ma`noni anglatadi) psixik jarayonlar, holatlar va individual xususiyatlar to`g`risidagi bilimlarni egallashda qo`llaniladigan nazariy tadqiqotlar hamda amaliy harakat qilish usullari va ularningyig`indisidir.

Kasbiy psixologiya muxandislik psixologiya sohasining ob`ektiv qonuniyatlarini o‟rganishda uning metodlaridan keng foydalanadi. Ushbu metodlar o‟zining maqsadi va yo‟nalishiga qarab tasniflanadi.

Individual-psixologik xususiyatlarni o‟rganishning instrumental metodlariga, avvalo, eksperiment metodining turli variantlari, shuningdek, har xil testlar o‟tkazish, anketalar, so‟rovnomalar kiradi. Ularning mazmuni psixodiagnostikaga oid asosiy qo‟llanmalarda berilgan.

Metodlarning ushbu guruhi insonning ayrim ruhiy xususiyatlarining doimiyligi yoki o`zgaruvchanligi darajasi, tuzilishini aniqlash uchun nihoyatda katta ahamiyatga ega. Biroq, psixologik metodlar yordamida olinadigan materiallarda ayrim xatolar ham bo`lishi muqarrar. Ushbu xatolar inson shaxsini psixologik o‟rganishning o‟ziga xos

«artefaktlari» hisoblanadi. U eksperiment tadqiqotining barcha bosqichlarida maxsus o‟rganish va hisobga olishni talab qiladi.

Kasbiy psixologiyaning o‟rganish sohalariga, jumladan, tekshirilayotgan shaxsning inson-texnika munosabatlari sharoitidagi holatlari kiradi. Shaxs harakat qiladigan bu sharoitlar shaxsning odatdagi tadqiqot sharoitida yo aniqlash juda qiyin bo‟lgan, yo umuman ko‟rinmaydigan tomonlarini ko‟rsatadi.

Shaxsning ong osti holatini chuqur va har tomonlama o‟rganishga imkon beradigan psixoanaliz metodi kasbiy psixologiya uchun muhim hisoblanadi.

Psixoanaliz xatti-harakat motivlari, murakkab nizolarning haqiqiy sabablarini tadqiq etish darajasini aniqlashda keng qo‟llaniladi.

Anketa metodi. Bu metodga tadqiqotchini qiziqtiruvchi faktlar haqida bir qator materiallar olish uchun nisbatan ko‟p sonli shaxslar guruhiga beriladigan savollarning bir xilligi xos. Materiallarga statistik ishlov beriladi va tahlil qilinadi.

Suhbat (intervyu) metodi. Ushbu yordamchi metod tadqiqqotning eng boshida umumiy yo‟nalish olish va ishchi farazlarni yaratish maqsadida qo‟llaniladi. Bu erkin, majburiy bo‟lmagan suhbat. Suhbat (intervyu) anketa tadqiqotlaridan keyin ham qo‟llanishi mumkin. Bunda anketa tadqiqotlari natijalari suhbatlashish orqali chuqurroq o‟rganiladi. Suhbatga tayyorgarlik jarayonida savollarni berishga katta e‟tibor qaratish lozim. Savollar qisqa, aniq va tushunarli bo‟lishi kerak.

Psixokartalarning to‟planib boruvchi massivi kompyuterda keyinchalik ishlov berish – umumiy statistik qonuniyatlarni (mutaxassisning psixologik portreti xususiyatlariga jins, yosh, ish staji, kasb va boshqa omillarning ta‟sirini) aniqlash uchun foydalaniladi.

Testdan o‟tish 90 daqiqadan oshmasligi kerak. Asosiy testdan keyin tekshiriluvchi shaxs o‟zining individual-tipologik va shaxsiga xos xususiyatlarni raqamlar ko‟rinishida ifodalovchi maxsus psixogrammalarni oladi. Psixolog- mutaxassis yakka tartibdagi suhbatda

tekshiruvchiga test natijalarini tushuntirib beradi. Ta‟kidlash joizki, ba‟zi test o‟tkazish tizimlarida kompyuterda tekshiriluvchilarga o‟z shaxsini test ma‟lumotlari bo‟yicha tavsiflash taklif etiladi. Bunday xarakteristikalar (tavsiflar) rasmiy (formal) xususiyatga ega, ularda olingan empirik ma‟lumotlar inobatga olinmaydi. Bundan tashqari, test o‟tkazish tizimi o‟z-o‟zicha emas, balki inson faoliyatini yaxshilash uchun zarur.

Olingan ma‟lumotlarni psixolog muayyan maqsadga yo‟naltirilgan suhbat, kuzatish kabilarning natijalari bilan solishtiradi.

Psixolog test natijalari bo‟yicha individual maslahat jarayonida psixik adaptatsiya (moslashuv) xususiyatlari, hissiy-irodaviy holati, shaxsning tuzilishi va ehtiyoj yo‟nalishlarini tahlil qiladi.

Shunday qilib, tizimli yondashuv psixologiya va muxandislikning turli usullari bilan birga, faoliyat jarayonining asosiy psixologik qonuniyatlari, shaxsning tuzilishi va

huquqiy normalar tizimining o‟zaro ta‟sirini etarlicha chuqur tahlil etish va aniqlashga, ushbu o‟zaro ta‟sirning barcha ishtirok etuvchi
elementlarini inobatga olgan holda aniq tavsiflash va muhim xususiyatlarini ajratishga imkon beradi.

Psixologik tadqiqotda qo‟llaniladigan metodlarning barchasini to‟rt guruhga ajratish mumkin: 1) tashkiliy metodlar; 2) tajriba metodlari; 3) ma‟lumotlarni qaytaishlab chiqish metodlari; 4) izohlash metodlari. Birinchi guruhga qiyosiy, longityud va majmua metodlari kiradi. Ma‟lumotlar olishning tajriba metodlari kuzatish va o‟zini kuzatish (introspektsiya), tajriba metodlari (laboratoriya, tabiiy, shakllantiruvchi), psixologik tashhislash metodlari (testlar, anketalar, so‟rovnomalar, sotsiometriya, suhbat, intervyu), faoliyat mahsuli tahlili (xronometriya, kasbiy ta‟riflar, mahsulot va bajarilgan ishlarni baholash va boshqalar), tarjimai hol va egizaklar metodlarini o‟z ichiga oladi. Ma‟lumotlarni qayta ishlash metodlariga miqdoriy (statistika) va sifat (materialni guruhlarga ajratish, tahlil) metodlari kiradi. Izohlash metodlariga turli xildagi irsiy (materilning rivojlanishdagi alohida davrlar, bosqichlar, xavfli vaziyatlar va boshqalarni ajratib ko‟rsatgan holda tahlili) va tarkibiy (psixika barcha xususiyatlarining tuzilishlari o‟rtasidagi aloqani o‟rnatish) metodlar kiradi.

Psixologik tadqiqotning asosiy metodlarini birmuncha to‟liqroq holatda ko‟rib chiqamiz. Qiyosiy metod («ko‟ndalang kesim» metodi) turli guruhlarga mansub odamlarning yoshi, ma‟lumoti, faoliyati va muloqotiga ko‟ra taqqoslashdan iborat. Masalan, yoshi va jinsi bir xil bo‟lgan odamlarning ikkita katta guruhi (talabalar va ishchilar) ilmiy ma‟lumotlarga ega bo‟lish uchun bir xil tajriba metodlari bilan tadqiq etiladi va olingan ma‟lumotlar o‟zaro solishtiriladi. Longityud metodi («uzunchoq kesim» metodi) tanlangan sinaluvchilarni uzoq vaqt davomida qayta-qayta tekshirishdan iborat. Masalan, talabalarni oliygohda ta‟lim olish vaqti davomida ko‟plab marta tekshirish.

Qiyosiy va longityud metodlari o‟z afzalliklariga ega. Kesimlar metodi qisqa vaqt ichida ko‟p sonli sinaluvchilarni tadqiqot bilan qamrab olish imkonini beradi.

Longityud metodi kesimlar metodi e‟tiboridan chetda qolgan nozik farqlar, ususiy rivojlanish turlarini qayd etishga imkon yaratadi. Amaliyotda bu ikki metod bir-birini to‟ldiradi.

Majmuiy metod – tadqiqotda turli fan vakillarining ishtiroki, turli hodisalar, masalan, shaxsning fiziologik, psixologik va ijtimoiy taraqqiyoti o‟rtasidagi aloqalar va bog‟liqliklarni o‟rnatish imkonini beruvchi o‟rganish usuli. Kuzatish – psixika tashqi alomatlarini oldindan belgilangan, tizimli, maqsadga muvofiq va qayd etilgan holatda qabul qilishdan iborat bo‟lgan metod.

Bu metod ilmiyligining asosiy sharti bo‟lib uning ob‟ektivligi, ya‟ni, qayta kuzatuv yoki tadqiqotning boshqa usullarini, masalan, tajribalarni qo‟llagan holda nazorat olib borish imkoniyati xizmat qiladi. Kuzatish bir necha xil: standartlashtirilgan (belgilangan dasturga qat‟iyan mos ravishda o‟tkazilgan), erkin (oldindan o‟rnatilgan chegaralarga ega bo‟lmagan), kiritilgan (tadqiqotchi o‟zi kuzatayotgan jarayonning bevosita ishtirokchisiga aylanadi), yashirin bo‟ladi.

O‟tkazilish joyiga asosan kuzatishlar dala va laboratoriya kuzatishlariga bo‟linadi. Dala kuzatishlari tabiiy sharoitlarda, laboratoriya kuzatishlari esa, sun‟iy, ya‟ni, oldindan yaratilgan sharoitlarda o‟tkaziladi.

Olib borish muntazamligiga ko‟ra kuzatishlar tizimli (ma‟lum vaqt davomida ob‟ektni o‟rganish uchun ishlab chiqilgan reja bo‟yicha) va tizimsiz (noma‟lum vaqt davomida rejaga asoslanmagan) bo‟ladi.

O‟rganilayotgan hodisaning o‟tkazilish davomiyligi, vazifalari va ko‟lamiga ko‟ra kuzatishlar qisqa vaqtli (farazlarni ifodalash yoki boshqa metodlar yordamida olingan ma‟lumotlarni nazorat qilish va to‟ldirish uchun tadqiqotning boshlang‟ich bosqichida o‟tkaziladi) va uzoq oylar hamda yillar davomida keng ko‟lamli yoki murakkab tuzilmali ijtimoiy jarayonlarning kechishini kuzatishga xizmat qiluvchi uzoq vaqtli kuzatishlarga bo‟linadi.

Kasbiy psixologiya fanining o‟ziga xos ilmiy o‟rganish metodlari mavjud. Psixologiya fanini ilmiy o‟rganish metodlari («metod» yunoncha so‟z bo‟lib, «biror narsaga borish yo‟li» degan ma‟noni anglatadi) psixik jarayonlar, holatlar va individual xususiyatlar to‟g‟risidagi bilimlarni egallashda qo‟llaniladigan nazariy tadqiqotlar hamda amaliy harakat qilish usullari va ularning yig‟indisidir.

Kasbiy psixologiya muxandislik psixologiya sohasining ob‟ektiv qonuniyatlarini o‟rganishda uning metodlaridan keng foydalanadi. Ushbu metodlar o‟zining maqsadi va yo‟nalishiga qarab tasniflanadi.

Individual-psixologik xususiyatlarni o‟rganishning instrumental metodlariga avvalo, eksperiment metodining turli variantlari, shuningdek, har xil testlar o‟tkazish, anketalar, so‟rovnomalar kiradi. Ularning mazmuni psixodiagnostikaga oid asosiy qo‟llanmalarda berilgan.

Metodlarning ushbu guruhi insonning ayrim ruhiy xususiyatlarining doimiyligi yoki o‟zgaruvchanligi darajasi, tuzilishini aniqlash uchun nihoyatda katta ahamiyatga ega. Biroq, psixologik metodlar yordamida olinadigan materiallarda ayrim xatolar ham bo‟lishi muqarrar. Ushbu xatolar inson shaxsini psixologik o‟rganishning o‟ziga xos «artefaktlari» hisoblanadi. U eksperiment tadqiqotining barcha bosqichlarida maxsus o‟rganish va hisobga olishni talab qiladi.

Kasbiy psixologiyaning o‟rganish sohalariga, jumladan, tekshirilayotgan shaxsning inson-texnika munosabatlari sharoitidagi holatlari kiradi. Shaxs harakat qiladigan bu sharoitlar shaxsning odatdagi tadqiqot sharoitida yo aniqlash juda qiyin bo‟lgan, yo umuman ko‟rinmaydigan tomonlarini ko‟rsatadi.

Shaxsning ong osti holatini chuqur va har tomonlama o‟rganishga imkon beradigan psixoanaliz metodi kasbiy psixologiya uchun muhim hisoblanadi.

Psixoanaliz xatti-harakat motivlari, murakkab nizolarning haqiqiy sabablarini tadqiq etish darajasini aniqlashda keng qo‟llaniladi.

Metod so‟zi – yunoncha methodos bo‟lib tadqiqot, tekshirish degan ma‟noni beradi. Nazarimizda yuqoridagilarga yana yo‟l, usul so‟zlarini ham kiritish mumkin. Metodlar tadqiqot ishlarida ham, bilim berishda ham qo‟llaniladi. Ushbu bobda bilim

berish metodlari haqida emas, balki fan uchun, uning rivojlanishi uchun zarur bo‟lgan ma‟lumotlarni to‟plashdagi qo‟llaniladigan tadqiqot metodlarihaqida so‟z boradi.

Psixologiya fanining empirik (amaliy) metodlari turkumidan muhim o‟rin egallagan, diagnostik xususiyatli metodlardan biri – kuzatish metodidir. Mazkur metod fanimizing eng qadimgi zamonidan boshlab to hozirgi davrgacha ilmiyizlanuvchilarning asosiy tekshiruv qurollaridan biri bo‟lib, keng ko‟lamda foydalanib kelinmoqda. Lekin bugungi kunda uning ob‟ekti, ko‟lami yanada kengaydi, murakkab psixologik jarayonlar, holatlar, hodisalar, kechinmalar, faoliyat va muomala xususiyatlarini o‟rganish imkoniyati tug‟ildi, sifat hamda mazmun jihatidan katta o‟zgarishlar yuzaga keldi.

Kuzatish – psixika tashqi alomatlarini oldindan belgilangan, tizimli, maqsadga muvofiq va qayd etilgan holatda qabul qilishdan iborat bo‟lgan metod.

Bu metod ilmiyligining asosiy sharti bo‟lib uning ob‟ektivligi, ya‟ni, qayta kuzatuv yoki tadqiqotning boshqa usullarini, masalan, tajribalarni qo‟llagan holda nazorat olib borish imkoniyati xizmat qiladi. Kuzatish bir necha xil: standartlashtirilgan (belgilangan dasturga qat‟iyan mos ravishda o‟tkazilgan), erkin (oldindan o‟rnatilgan chegaralarga ega bo‟lmagan), kiritilgan (tadqiqotchi o‟zi kuzatayotgan jarayonning bevosita ishtirokchisiga aylanadi), yashirin bo‟ladi. Kuzatish metodi. Kuzatishning texnologiyasi takomillashdi, uning yangi shakllari, vositalari, usullari paydo bo‟ldi, xolisonalik (ob‟ektivlik) darajasi ortdi, ishonchliligini ifodalovchi mezonlar, o‟lchovlar yaratildi. Buning natijasida kuzatish psixologiya fanining universal tadqiqot metodlari qatoriga kirib, uning barcha sohalarida qo‟llanilmoqda, ayniqsa tadbiqiyligi imkoniyatining yuksakligi, statistik hisoblashga beriluvchanligi xususiyati bilan boshqa metodlardan ajralib turadi.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqqan holda uning yoritilmay qolib ketgan jihatlari, tarkiblari, yordamchi jabhalari yuzasidan mulohaza yuritamiz.

Kuzatish metodining texnologiyasi quyidagilardan tashkil topadi:

- voqelik (atrof – muhit, inson shaxsi)ni kuzatish oqimini muayyan qismlarga, yo‟nalishlarga ajratish (nemischa – lotincha “kvantifikatsiyalash”, ya‟ni eng zarur, birinchi darajali jihatlarini saralash);
- kuzatishning ko‟lami (xajmi), xususiyati va o‟ziga xosligini aniqlash, ya‟ni uning nimalarga qaratilganligini belgilab olish;
- kuzatish jarayonida barcha holat, hodisa, alomat va tashqi qiyofa, ko‟rinishning o‟ziga xosligini qayd qilish (ularni yozma nutqda ifodalash, ya‟ni frantsuzcha – lotincha “fiksatsiyalash”);
- kuzatish davomida to‟plangan omillar, ma‟lumotlar, natijalarni matematik statistik metodlar yordami bilan hisoblab chiqish va miqdoriy tahlil yakunlari bo‟yicha psixologik sifat talqinini amalga oshirish.

Psixologik kuzatish olib borishdan ko‟zlangan maqsad mana bulardan iborat:

- kuzatiluvchi vaziyat, holat va ob‟ektni maqsadga muvofiq tanlash, uning oqilona ekanligiga ishonch hosil qilish;
- kuzatishning dasturini ishlab chiqish, uni amaliyotga tatbiq qilish, sxematik

ifodalashni yaratish, yig‟ilgan natijalarni chizma asosida aks ettirish. Kuzatishning ob‟ekti va predmeti quyidagi tuzilishga ega:

- kuzatishning ob‟ekti – inson, guruh, jamoa va shaxslararo munosabatlar, emotsional – hissiy kechinmalar, xayvonot olami, shaxsning faoliyati, ijodiyoti, muomalasi kabilarni o‟rganishdan iboratdir;
- kuzatishning predmeti – insonning xilma xil holati, jarayoni, harakatining kuchi, jadalligi, uzluksizligi, dinamikasi, o‟ziga xosligi, uning hamkorlikdagi harakati, undagi onglilik, ongsizlik, ongosti holatlarining kechishi, faoliyat va muomala kabilarni eksteriorizatsiyalashdan tashkil topgandir;
- amaliy va gnostik holatlar; nutq aktlari: ma‟nosi, mazmuni, mohiyati, yo‟nalishi, chastotasi, ritmikasi, tempi, amplitudasi, davomiyligi, intensivligi, ekspressivligi, uning leksikasi, grammatikasi, fonetikasi, lingvistik qurilishi vaboshqalar;
- noverbal nutq ifodasi: mimika, pantomimika va vokal mimikasi (musiqa ma‟nosini tana a‟zolari orqpli ifodalash);
- vegetativ reaktsiyalarning ko‟rinishi: rangning qizarish, oqarishi, terlash, nafas olishning tezlashuvi, sekinlashuvi va qiyinlashuvi.

Kuzatishning bosqichma – bosqichliligi, tadrijiyligi (ierarxiyasi) tarkiblari quyidagilardan tashkil topadi:

- kuzatishning maqsadi, vazifalari, dasturi, qaydnomasi: bunda umumiy talablarga rioya qilish, kundalik, texnika vositalari (faktik holatlar), natijalarning tahlili, talqini va g‟oyalarni ilgari surish.

Kuzatishni ifodalash uslublari: tajribalarda to‟plangan ma‟lumotlarni alomat, belgi va simvolika orqali aks ettirish (piktogramma, chizgi, jadval, anogramma) va turli shakl, xususiyatli bayonnomalar, qaydnomalar yuzaga keltirish. Psixologiya fanida kuzatishning quyidagi turlaridan foydalaniladi: izchil, epizodli, dala sharoitli, laboratoriyaviy – sun‟iy, tabiiy, xronologiyali, davriy, bir martali kabilar.

Insonning mehnat faoliyatini kuzatishda quyidagi vositalarni qo‟llash maqsadga muvofiq:

- G. Gilbertning “Ish kuni fotografiyasi” metodikasi (rasmlarda ifodalangan ishchining harakatini kuzatish, ko‟zdan kechirish orqali ularni tahlil qilish (sa‟i – harakatlar bo‟yicha tizim vujudga keltirish, ulardagi o‟zgarishlarga binoan muayyan ketma – ketlikda joylashtirish);
- A. K. Gostevning xronokartasi (ikki yoki uch marta yarim soatdan smenada va smenadan keyin tekshiruv o‟tkazish);
- talabalarda dars boshida, o‟rtasida va oxirida yoki boshqa vaziyatlarda: yordamchi yumush bilan shug‟ullanish holati, dam olish, uyqu va shu kabilar.

Kuzatish metodining bir necha xil shakllari mavjud bo‟lib, vazifalarigaqarab ularning har biridan foydalanish mumkin: aralishib yashirin kuzatish, kuzatiluvchining psixologik portretin yaratish, aralashib oshkora kuzatish (o‟smirlarda yuqori natijalar beradi), hulq – atvor portretini tahlil qilish va hokazo. Kuzatilgan ob‟ektni qayd qilishning turlari va vositalari mavjuddir: kundaliklar, foto, video,

kinoapparatlarning mahsullari, voqelikning musavvir tomonidan faktik ifodalanishi, ta‟kidlovchi, ta‟birlovchi, umumlashtiruvchi xususiyatlar majmuasi. Kuzatish natijalarini umumlashtirishda ma‟lumotlar miqdor va sifat jihatidan tahlil qilinadi, tajriba yakunlari bo‟yicha g‟oyalar, umumlashmalar, xossalar, qonuniyatlar mexanizmlar, holatlarining ilmiy psixologik talqini amalga oshiriladi. Kuzatish yakunida to‟plangan ma‟lumotlar ilmiy hisobot sifatida muayyan qoidalarga asoslangan holda quyidagi tartibda joylashtiriladi: kirish,metodikalarning tasnifi, natijalarning bosqichma – bosqich tahlili, ularning muxokamasi, izlanishlarning xotimasi va xulosalari, amaliy xususiyatga ega bo‟lgan tavsiyalar, ko‟rsatmalar berilishi, foydalaniladigan adabiyotlar ro‟yhati va nihoyat ilovalar (har bir qism o‟ziga xos yakunlangan, tugallangan ma‟no anglatishi lozim).

Kuzatish metodi yordami bilan xatto nizoli (konfliktli) vaziyatlarni kuzatish ham mumkin. Nizoli vaziyatlar turli – tuman bo‟lishidan qat‟i nazar kuzatish jarayonida ushbu holatlarga e‟tibor berish zarur: nizoning mohiyatiga kirish, nizoning kuchayishi va uning tashqi va ichki omillari, nizoni pasaytirishga qaratilgan ta‟siro‟tkazuvchi vositalardan foydalanganlik, nizo echimining topilishi,nizoli vaziyat bartaraf qilingandan keyin sixologik holatning tasnifi.

Kuzatish jarayonida R. Beylzaning interaktsiya metodikasini (bahs – munozara jarayonida o‟zaro ta‟sir o‟tkazish imkoniyatini aniqlash uchun) qo‟llash ijobiy natijalar beradi:

- umumiy muammo mohiyatiga guruh a‟zolarini yo‟naltirish;
- guruh a‟zolari tomonidan muammoni echish yo‟llarini baholash;
- bahs (munozara, diskussiya) jarayonini nazorat qilish;
- umumiy fikrga kelish uchun guruhiy qaror qabul qilish;
- muammo yechimiga erishishdagi guruh a‟zolarining birdamligi va hamjixatligi.

Kuzatish yakunlari bo‟yicha umumpsixologik xulosalar chiqarish, milliy, etnopsixologik, hududiy xususiyatlarni qat‟iy ravishda sharxlash, yosh davrlari, jinsiy xususiyatlariga taalluqli mulohazalar bildirish – psixologik bilimlarning boyishiga olib keladi. Tajribalarda, kuzatishlarda to‟plangan materiallar qiymatini oshirish uchun vujudga kelgan barcha omillarni psixologik tahlil qilish, statistik metodlardan unumli foydalanish zarur, toki bu mezonlar ma‟lumotlarning ilmiylik darajasini yuksaltirishga xizmat qilsin.

Kuzatish natijalarini miqdoriy tahlil qilishda statistik metodlarni quyidagi tartibda qo‟llash lozim:

- olingan natijalarni foizlar bo‟yicha hisoblash chiqish;
- to‟plangan ma‟lumotlarning o‟rtacha arifmetik qiymatini topish;
- son qatoridagi o‟rtacha kvadrat og‟ishni hisoblash (sigma);
- son qatoridagi miqdorlar tarqoqligini aniqlash (dispersiya);

- millar o‟rtasidagi muayyan munosabatlar mavjudligini (korrelyatsion)tahlil

qilish;

- ma‟lumotlar, metodikalar ishonchlilik darajasini aniqlash uchun Styudent mezonidan foydalanish lozim.

Genetik metodlar guruhi. Genetik metodlar uzoq vaqt davomida shaxs kasbiy rivojlanishining o„zgarishlarini tadqiq etish uchun mo„ljallangan. Kasb psixologiyada longityud metod, psixobiografiya, individning kasbiy shaklanishini monografik tasvirlash usullaridan keng foydalaniladi. ***Longityud metod*** – bir xil yoshdagi sinaluvchilarning ularni rivojlanishi jarayonini ko„p marotabali tizimli ravishda o„rganishdan iborat. Longityud metodi insonlardagi turli xususiyat va sifatlarni o„rganish maqsadida yillar davomida o„tkaziladi. Longityud metodi psixologiyada XX asrning 20-yillarida shakllana boshladi va asosan psixik genezisi va bolalar, yoshlar psixik bashoratini ilmiy jihatdan asoslab berish uchun qo„llanilgan. Keyingi yillarda (20-30 yil davomida o„tkazilgan) davomli longityud tadqiqotlari jarayonida deyarli qo„llanilmagan.

Longityud metod bir vaqtning o„zida boshqa metodlarni qo„llanilishini ham nazarda tutadi. Jumladan, kuzatish, savol-javoblar, test, psixografiya, praksimmetriya va hokazo.

Longityud metodi yordamida olingan natijalar shaxsning yoshiga, ish stajiga, tadqiqot o„tkazilgandagi ijtimoiy iqtisodiy sharoitlariga hamda kasbiy faoliyat turiga bog„liq bo„ladi. Longityud metodini kasbiy psixologiyada qo„llash orqali shaxs kasbiy shakllanishining individual o„zgarishlarini o„rganish imkonini beradi shuningdek, kasbiy faoliyatda rivojlanish, obro„-e‟tibor qozonishning yo„l- yo„riq va vositalarini aniqlash imkonini beradi.

Longityudni qo„llashdagi qiyinchiliklardan biri sinovda ishtirok etayotganlarni tanlash hamda ularning sonining ko„pligi va kamligida bilinadi. Keyingi muammo o„lchovlar o„rtasidagi oraliq masofalar hisoblanadi. Bu metod orqali insonlarda tadqiqotlar gohida bir yil ayrim vaqtlarda esa undan ham uzoq vaqtlar oralig„ida o„tkazilgan.

Shaxsning kasbiy shakllanishini o„rganishda tadqiqot intervali sifatida

kasbiy rivojlanish fazalari va bosqichlarini ajratib olish mumkin. Longityud metodidagi muammolardan biri uning davriyligini belgilash bo„lib, bunda u 5- yildan 50 yilgacha davom etishi mumkin. Klassik longityud sifatida 1928 yildan bugungi kungacha davom etib kelayotgan Kaliforniya longityudini misol sifatida keltirish mumkin.

Longityud metodning kamchiligi uning davriyligidadir. Shaxsiy va kasbiy o„zgarishlar tasodifiy yoki drammatik voqealarga bog„liq bo„lishi mumkin. Yillar davomida tekshiriluvchilar sonining qisqarishi, o„rganilayotgan jarayonlarning mazmun mohiyati kengayib boradi. Longityud metodining qo„llanilishini chegaralovchi omillardan biri shaxsni o„rganish uchun ko„p vaqtni ketishidir. Longityud metodining kamchiliklarini boshqa psixobiografik usullarni qo„llash yordamida bartaraf etish mumkin.

Praksimetrik metodlar guruhi. Faoliyat mahsulotlari va jarayonlarini tahlil etish yo„llari bo„lib, unga B.G.Anan`ev xronometriya, profesiografiya, bajarilgan ishlar va buyumlar bahosini izohlashlarni kiritadi. Kasbiy psixologiyaning bu guruhidan quyidagi metodlar muhim ahamiyatga ega:

Topshriqlar tahlili – bu kuzatilayotgan inson va uning yashirin kasbiy xulqining yo„nalganligini psixologik jihatlarini tadqiq qilish metodidir. Topshiriqlarni tahlil etish

metod F.Teylor tomonidan ishlab chiqilgan bo„lib, tasvirlash va tahlil etish maqsadida qo„llanilgan.Topshiriqlarni tahlil etish hamda bajarilgan ishlarni tahlil etish metodi ham muhandislik psixologiyasida keng qo„llaniladi.

Ye.Mak-Kormik va uning kasbdoshlari metallurgiya sanoatiga xos bo„lgan

250 ta kasb turlarini tahlil etish uchun faoliyatlar ro„yxatini ishlab chiqishdi. Olingan ma‟lumotlarni omilli tahlil qilish yo„li bilan qayta ishlash orqali 14 ta omilajratildi va bu omillar "pozitsion tahlil so„rovnomasi"ni loyihalashtirishga asos bo„ldi (RAQ).

RAQ 187 elementdan iborat bo„lib, ular mehnat xulqining asosiy shakllari hamda turli jihatlarini o„z ichiga oladi. Ayrim jihatlarga tegishli misollarni keltiramiz: yozma topshiriqni ko„rsatmasiga asoslangan holda bajarish, klaviaturadan foydalanish, konsultatsiyalarda qo„l ostidagi ishchilar miqdori va boshqalar.

RAQ metodi asosida to„plangan ma‟lumotlarni tahlil etishda tadqiqotchi har bir bo„limlar bo„yicha javoblarni oladi. Ta‟kidlash kerakki, RAQ – topshiriqlar emas, balki bajarilgan ishlar tahlili metodi bo„lib, ishchilarni tanlash muammosini hal etishda qo„llaniladi. RAQ ishchilarni o„qitish, malaka oshirish va ma‟muriy jihatdan o„zgarishlarida qo„llaniladi.

Psixometrik metodlar guruhi. Psixometriya-psixik voqea va hodisalarning miqdoriy tomonining nisbati va tavsiflarini o„rganadi. Psixometriyaning muhim belgisi psixik jarayonlarning individual farqlar, empirik dalillar dinamikasini, parametrlarini o„lchash texnologiyasining standartlashganligidir. Psixometriya ishonchliligi bilan ajralib turuvchi psixodiagnostik metodikalarini yaratishga yo„naltirilgan. Psixometrik usullar tarkibiga psixologik test ham kiradi. Test – psixologik diagnostika metodi bo„lib, u ma‟lum ma‟noga ega bo„lganstandart savol va masalalardan iborat. Test intellektual va maxsus qobiliyatlarini, shaxsning psixofiziologik xususiyatlari va sifatlarining rivojlanishini, kasbiy layoqatni aniqlash, kasbiy ekspertiza va reabilitatsiya shuningdek, kasbiy maslahatlar jarayonida qo„llaniladi.

Test o„tkazish 3 bosqichga ajratiladi:

- test savolnomasini tanlash (tadqiqot masalasi bilan belgilanadi);
- test o„tkazishda etika normalariga rioya qilgan holda ko„rsatmaga muvofiq tashkil etish;
- olingan ma‟lumotlarni qayta ishlash va natijalarni o„rganish.

Kasbiy psixologiyada maxsus qobiliyatlarning diagnostikasi va kasbiy yutuqlar muhim ahamiyat kasb etadi. An‟anaviy intellektual testlar akademik qobiliyatlarni o„rganishga qaratilgan. Vakant (bo„sh) o„rinlarga nomzodlarni kasbiy tanlovi uchun ishonchli usullarga bo„lgan ehtiyoj psixologlarni maxsus qobiliyatlarni diagnostika qilish uchun test ishlab chiqildi. Ishlab chiqarishning turli sohalari ishchilarning oldiga o„ziga xos talablarni qo„yadi. Kasbiy tanlov, kasbiy maslahat, kadrlarni joylashuvi, vakant ishchi o„rinlarini to„ldirish

maqsadida muhim kasbiy psixofiziologik xususiyatlar, psixologik sifatlar, kasbiy malakalarni aniqlash imkonini beruvchi testlar bo„lishi lozim.

Psixometrik usullar guruhiga barcha standartlashgan so„rovlar kiradi. Kasbiy psixologiyada anketa-so„rovnomalari keng ko„lamda qo„llanilib, ular orasida biografik

anketalar, qiziqish savolnomalari ham mavjud. Biografik anketalar kasbiy faoliyat turlari, ish va ish joyining o„zgarishi, ta‟lim xarakteri darajalarini aniqlaydi.

Eksperimental tadqiqotlarda psixologiyaning barcha metodlaridan keng qo`llaniladi. Bunda tadqiqot mavzusi, maqsadi va xususiyatlaridan kelib chiqqan holda u yoki bu metod asosida tadqiqotlar tashkil etiladi.

Eksperimental psixologik metodlariga murojaat qilishdan oldin ularni umum- ilmiy pozitsiyalarini ko`rib chiqamiz. Barcha metodlar ma'lumotlar olish uchun ishlatiladi. Ular aktiv va passivlarga ajratilgan. Aktivlariga laboratoriya eksperimentlari va ularning modifikatsiyasi, kvazi-eksperiment kiradi. Passivlariga

– kuzatish, kichik metod, faoliyat mahsuli analizi, o`lchash va korrelyatsion kuzatuvlar, ma'lumotlar yig`ish metodi va h.k. Birinchi metodda kuzatuv, xodisa va jarayonlar bilan faol tanishtiradi.

Albatta, ob'ektga ta'sir etgan holda, ikkinchi metod jarayoni esa uni faqat ro`yxat qilish bilan chegaralanadi. Kuzatuvchi ro`yxatni to`g`ridan-to`g`ri yoki savolnoma asosida yozib boradi. Xuddi shu narsa ta'sir qilish jarayonida ham qo`llanilishi mumkin. Eksperiment jarayonida to`g`ridan-to`g`ri muloqot metodi orqali o`tkaziladi. Bu ikkinchi jarayon psixologik eksperiment metodlaridir. Uchinchi jarayon ham mavjuddir. Eksperimentator kuzatuv jarayonida tabiiy usullardan yoki «tushunish metodi» dan to`g`ridan to`g`ri kuzatuvchiga nisbatan qo`llaydi. Eksperiment jarayonida kuzatuvchi vazifalarni faol bajaradi. Kuzatish, so`rov davomida esa unga hech qanday vazifa berilmaydi va u o`zini erkin tutadi.

Qiziqishlar so„rovnomalari ta‟limiy va kasbiy manfaatlarni o„lchash uchun mo„ljallangan. Ular professional tanlash masalalarini hal qilish uchun foydalaniladi. Birinchi bunday so„rovnomalardan biri 1920 yilda E.Strong tomonidan yaratilgan "Kasblar qiziqish bloki" bo„lib, u to„rtta qiziqish ko„rsatkichini aniqlaydi:

1) muayyan kasbda muvaffaqiyat qozongan shaxslarning manfaatlari bilan sub‟ektning manfaatlariga o„xshashligi;
2) erkaklar va ayollar qiziqishlari tuzilmasi;
3) qiziqishlar yetuklik darajasi;
4) kasbiy tayyorgarlik darajasi.

Kasbiy ta‟lim diagnostikasi. Ta‟lim tizimi orqali o„quv-kasbiy faoliyat samaradorligi, shaxs qobiliyatlari (dastlabki bilim, qobiliyat, ijobiy motivatsiya, ma‟lum darajada jismoniy rivojlanish, salomatlik va b.) aniqlanadi. O„quvchanlik qanchalik yuqori bo„lsa, ta‟lim oluvchi yangi bilimlarni tez o„zlashtiradi, professional ko„nikmalarni oson egallaydi. O„quv – kasbiy vaziyatlar qanchalik erkin bo„lsa, talabaning kasbiy rivojlanishini yuqori darajaga oshiradi. Kasbiy ta‟limning asoslari sensomotor qobiliyatlarni, psixik jarayonlarni, shuningdek, shaxsning hissiy, motivatsion-irodaviy fazilatlarini rivojlantirishdan iborat. Rivojlanish darajasi va ushbu xususiyatlarning kombinatsiyasini o„zlashtirish qobiliyatidagi individual farqlarni aniqlab, uning sifat ko„rsatkichlari hisoblanadi.

O„rganish mezonlariga qo„yidagilar kiradi:mantiqiy fikrlash usullarini shakllantirish; tafakkurning mustaqilligi;

tafakkurning xilma-xilligi.

Tafakkurning bu sifat xususiyatlarini diagnostika qilish psixologiyada keng qo„llaniladigan usullar yordamida amalga oshiriladi.

Kasblar psixologiyasida "Kasb-hunar o„rganish" tushunchasini ishlatish va kasb mazmuniga qarab, diagnostika metodikasi ishlab chiqiladi. Asosiy diagnostik ko„rsatkichlar quyidagilar: kasb tanlash motivi va maqsadli qadriyatlar; o„quv- kasbiy qobiliyatlarini rivojlantirish darajasi;mustaqillik va refleksiya.

O„quv-kasbiy ta‟limning diagnostikasi mutaxassislarni kasbiy tayyorgarligini farqlashga, professional faoliyatning yutuqlarini taxmin qilishga imkon beradi.

8.3 Kasblar va ularning klassifikatsiyasi. Kasblarni psixologik tizimlash.

Kasblar va ularning klassifikatsiyasi. Kasblarni psixologik tizimlash. Kasblar psixologik tizimlashi kasbga yo‘naltirish ishlari uchun mo‘ljallangan. Qayt etilganidek, kasblar olami juda keng bo‘lib, unda 20 mingdan oritq kasb va 40 minga yaqin mutaxassisliklar mavjud. Ularning turli belgilariga ko‘ra tizimlash mumkin. Psixologik tizimlashning xususiyati shuki, bunda ijtimoiy – iqtisodiy va texnalogik belgilardan vos kechiladi.Kasblar psixologik tizimlashi kasbiy qiziqishlar, qobiliyatlar tashxisini taminlab berish lozim. SHunda kasblarni guruxlarga birlashtiruvchi psixologik muammosi kelib chiqadi. Asosiysi , kasblar tizimlash shaxsini koniqtiruvchisi kasb tanlanishi, ya’ni kasb tanlovini engillashtiradi.Adabiyotlarni o‘rganib chiqish shaxs va kasb muvaffaqiyatligini, ya’ni kasbiy layoqatni hisobga oluvchi belgilarga to‘xtalib o‘tish imkonini beradi. Kasblar tizimlashni muhim muammosi – bu kasbni tavsiflovchi ma’lumotlar to‘plash usullaridir. Bularga kuzatish faoliyatini mustaqil bajarishi (mehnat usuli), ishchilar bilan savol javob, ish joyidan kuzatuvchi savol javob.

Chet elda qiziqishlar, shaxs qobiliyatlari va temperament xususiyatlarini xisobgi olish asosida kasblarni tizimlashi keng tarqalgan. Avvalambor Dj.Xolland tomonidan 1966 yilda ishlab chiqarilgan kasblar tizilashini ajratish mumkin. Uning hiyati psixolog konsepsiyasiga asoslangan bo‘lib ushbu konsepsiya shaxs nazariyasini kasb tanlash nazariyasi bilan birlashtiradi.Yo‘nalishning asosiy komponentlarini o‘rnatish asosida Dj Xolland shaxsning kasbiga yo‘naltirilgan turlarini ajratadi: Realistik, iqtidor, ijtimoiy konvensional ya’ni, umumqabul qilish mezonida va an’analarga asoslangan ishbilarmonlik va badiiy kabi.Har bir shaxs turi ma’lum kasbiy muhitga yo‘naltirlgan idealistik tur – moddiy buyumlar yaratishga texnologik jarayon va tehnik qurilmalar iqtidor – aqliy mehnatga ijtimoiy – ijtimoiy mehnat bilan o‘zaro a’loqaga konvensional aniq tuzilgan faoliyatga ishbilarmonlik – odamlarga raxbarlik va badiiy – ijodga har bir shaxs turi modeli quyidagi sxema bo‘yicha tuziladi: maqsadlar, qadriyatlar, qiziqishlar, qobiliyatlar, istalgan kasbiy rollar mumkin bo‘lgan yutuqlar koryera.Keyingi kasblar tizimlashi qobiliyatlarini xisobga olishga asoslanadi. Talab etiladigan qobiliyatlar bo‘yicha kasblar tizimlashi byicha bir necha bor urinshlar bo‘lgan (E. Bornetann, A. Melcher 1941 : B. I. Dvorok1947) 1953 yilda D Paterson tomonidan taklif etgan.

Kasblar tizimlashga to‘xtalib o‘tamiz. U juda keng tarqalgan. Tizimlash asosini 9 ta turli qobiliyatlari tashkil etadi. Minnesota Ocupational Rating Scale (MORS) yordamida kasbshunos psixologlar tomonidan 432 ta kab tanolanib olinib quyidagi 7 ta guruhga bo‘lindi. Akademik, mexanik ijtimoiy, diniy, musiqaviy, artistlik va jismoniy guruhlardir. Tadqiqot natijalarini umumlashtirish bu 432 kasbni 214 ta na’munaga keltirildi, shulardan 137 tasi bitta kasb mutaxassislika qolgan 77 tasi ikkitadan 18 tagacha mutaxassislikni birlashtiradi.

E.A.Klimov ishlab chiqqan kasblar tizilmasi ham keng tanilgan.Mehnat ob’ktiga ko‘ra 5 ta kasb turlari ajratiladi.

1. Inson tirik tabiat (P). Bu tur namoyondalari o‘simlik va hayvonot mikroorganizmlar va ular yashash sharoitlari bilan ishlashadi. Masalan meva sabzavot ustasi, agranom, zootexnik, vitirenar, mikrobiolog.
2. Inson texnika va jonsiz tabiat (T). Ishchilar jonsiz texnik mehnat ob’ektlari bilan ishlashadi. Masalan texnik, mexanik, muxantis mexanik, muxandis elektrik, texnik texnolog va xokozo.
3. Inson – inson (CH) buna ijtimoiy tizimlar, axloqiy gurxlar, turli yoshdagi insonlar bilan ishlash nazarda tutiladi. Masalan oziq – ovqat maxsulotlarini sotuvchisi, sartarosh, shifokor, o‘qituvchi.
4. Inson – belgili tizim. Tabiiy va sun’iy tilliar, shartli belgilar,ramzlar, raqamlar, formulalar kasb turi namoyondalarini qiziqtiruvchi predmetlar olami. Masalan pragrammist, chizmachi – kortagraf, matematik, tilshunos, nashriyot muxarriri.

Inson – badiiy obraz (X). Xodisalar badiiy aks etish dalillari – mana shu narsalar bu kasb turi vakillarini qiziqtiradi. Masalan rassom dekarator, rassom – restavrator, musiqa asboblarini sozlovchi, balet artisti, konsert ijrochisi, aktyor

2. Kasb tushunchasining mohiyati. Kasb tushunchasi – kasbshunoslik asosiy konseptual bosh tushunchasi – bu kasb tushunchasidar. Kasbshunoslik adabiyotda kasb tushunchasining tavsif juda ko‘p. Avvlambor bu mahsus tayyorgarlikni talab etuvchi, inson doim tajribadan o‘tkazuvchi va unga yashash uchun manba bo‘lib xizmat qiluvchi mashg‘ulotdir. Keyin kasb bir xil faoliyat bilan shug‘ullanuvchi kishilarni birlashtiradi. Bu faoliyat ichda ma’lum a’loqalar va axloq normalari o‘rnatiladi. Kasb jamiyatning mehnatga layoqatli a’zolarini itimoiy tashkillashtirishning alohida shakli bo‘lib bunda a’zolar faoliyatining umumiy turi va kasbiy ongi bilan birlashgan. B.SHouning fikri bo‘yicha kasb – mutaxassislaring chetdagi odamlarga qarshi fitnasi. E.A.Klimov o‘z ishlarida bir necha ta’riflar beradi. Nisbat batafsil quyidagicha. “Kasb – jamiyat uchun zarur va qadriyatli soha bo‘lib bunda insonning jismoniy va ruhiy kuch talab etadi” bu kuchlar unga sarflangan mehnat o‘rniga yashashi va rivojlanishi uchun muxim vositalar omil imkonini beradi.

Bu ta’rifni yana to‘ldirarkan, E.A.Klimov kasbiga faoliyat, sifatli tarixiy rivojlanuvchi tizim va shaxsning o‘zini namoyon etish soxasi deb ta’riflaydi. YAna bir ta’rifni keltiramiz. “jamiyat nuqtaiy nazaridan kasb bu kasbiy masalalar , kasbiy faoliyat shakllari va turlari, shaxsiy kasbiy xususiyatlari tizimi bo‘lib, bular jamiyat ehtiyojlarini qondirish uchun muhim bo‘lgan natija, mas’uliyatlarni etkazishni taminlab berishlari kerak bo‘ladi” nisbatan tor ta’rifni V.G.Makushin keltiradi kasb – bu shunday faoliyatki uning yordamida shaxs jamiyat hayotida ishtirok etadi va uning yashashi uchun moddiy vositalar asosiy manbasi bo‘lib xizmat qiladi.Mavjud ta’riflarni umumlashtirib, quyidagiga xulosa qilish mumkin. Kasb mehnat faoliyatining paydo bo‘lgan shakllari bo‘lib, ularni bajarish uchun inson albatta ma’lum bilimlar va ko‘nikmalarga mahsus qobiliyatlar va rivojlangan muhim kasbiy sifatlarga ega bo‘lishlari kerak.

3. Professiografiyaning mohiyati va uning tamoyillari. 1920 yillarning ikkinchi yarmida sovet psixotexniklari tez suratlarda kasbiy faoliyat tahlili prinsip va usullarini ishlab chiqdilar. SHu tadqiqotlarni umumlashtirish psixotexnikada muxsus yondashuv professiografiya shakllanishiga olib keldi. Bu yondashuvning mohiyati nomida aks etgan – “kasblar tasviri” umuman olganda professiografiya o‘rganish kasb psixologik tavsifi va loixalashtirishini o‘z ichiga oladi.

Professiografiyada ma’lum mehnat jarayonini tashkil etuvchi ob’ektlar belgilari o‘rnatiladi, mehnat sub’ekti, mehnat predmeti vazifalari, vositalari va sharoitlari. Professiografiyaning asosiy prinsiplaridan biri kasbiy faoliyatni o‘rganishda differensial yondashuv prinsipi hisoblanadi. Bu prinsipning mohiyati professiografiyaning aniq amaliy masalalarini echishga bo‘ysunishi. Masalan, kasbiy konsultatsiya va kasbiy tanlov uchun shunday kasbiy muhim belgilarni ajratish kerakki ular sinovdagilarning kasbiy layoqatiga ko‘ra farqlanishi lozim. Malaka darajasini aniqlash uchun mehnat vazifalari kasbiy bilim, malaka, ko‘nikma tavsifi muhim ahamiyatga ega. Kasbiy toliqishni o‘rganish uchun shunday belgilar aniqlanadiki, ular kasbiy toliqishni keltirib chiqaradigan omillarni aniqlashadi.Shunday qilib, Professiografiya deganda kasblar va ularning bir – biridan farqlanuvchi ixtisoslar tomonidan inson oldiga qo’yiladigan talablarni bayon qilish majmuasi tushuniladi, profesiografiyaning differensial prinsipi kasbning o‘rganish usullarini, uning tavsif mazmuni, shuningdek qo‘llash sohasi, ya’ni professiografiya o‘tkazish hususiyatlari uning maqsadlari bilan belgilanadi.Professiografiya natijalari professigrammada aks etadi, u mehnat sharoitlari tasviri, ishchi huquq va majburiyatlari, muhim kasbiy sifatlari shuningdek sog‘liqqa qarshi ko‘rsatmalarni o‘z ichiga oladi.Professiogrammaning muhim tarkibiy qismi – psixogramma bo‘lib, u mutaxassisning mativatsion, iroda va emotsional sohasining tavsifi hisoblanadi. Psixogramma – kasbning psixolgik portreti bo‘lib, u aniq kasbda dolzarb bo‘lgan psixologik funksiyalar gurhi bilan namoyon.

Professiografik tadqiqotlar metodlari. Kasb ilmiy ta'siri mehnatning tashqi (mehnat xulqi) tashqi, ya'ni psixik jarayonlar ko'rishini, ya'ni mehnat sub'ektining ichki vositalari bo'lgan integral psixologik tizilmalarini nazarda tutadi. Professiografiyada ko'pgina turli tuman usullar qo'llanadi.

- Ijtimoiy (so'rovnomalar savollar kiritilgan kuzatuv);
- Psixologik (suxbat kuzatuv tajriba va ulardan kelib chiquvchi intervьyu shaxsiy so'rovnomalar teslar tajribalar psixobiografiyalar faoliyat maxsulotlarning muhim)
- Fiziologik (EKG.KGR qayda arterial bosimni o'lchash antopometrik va tehnik ma'lumotlar);
- Tehnalogik jarayonlar ta'siri va boshqa usullar xilma – xilligidan vaqt, kuch va vaziyatlarni minimal bilan profesiogramma tadqiqotdagi savollarga javob beruvchi usullarni tanlash lozim .

Psixografiyalarni kasbga yo'naltirish uchun ishlab chiqayotganda kasbning umumiy professiografik va ijtimoiy psixologik ta'siriga katta e'tibor beriladi. Mehnat sharoitlaridan, tehnik, tehnologik va ijtimoiy psixologk sharoitlari ancha chuqurroq o'rganiladi. Tadqiqotlarning muhim yo'nalishi shaxsning qobiliyatlari, psixofiziologik xususiyatlarini baholashdir.

Professiogrammalarning kasbga yo'naltirish va kasbiy tanlov maqsadida ishlab chiqishda psixodiognostik tadqiqotlar juda muhim hisoblanadi. Qolgan tadqiqotlar o'quv – kasb muassasalarida talabalar, o'quvchilar o'qishiga qabul qilinadigan shaxslar ishlashi lozim bo'lgan sharoitlarni aniqlash uchun ahamiyatga ega. Ammo ular ham muhim hisoblanadi, chunki aniq majburiyatlarni va mehnat sharoitlarni bilmasdan, kasbga yo'naltirish, kasbiy yo'naluvini tashkillashtirib va kasbga layoqatni aniqlab bo'lmaydi.

Professiografik tadqiqotlarning keyingi yo'nalishi – toliqish monotoniya boshqa yomon holatlarni oldini olish, travmatizm bilan ko'rish kasalligining pasayishi maqsadida mehnat sharoitlari va tartibini o'rganishdir. Tadqiqotlarning asosiy maqsadi – mehnat sharoitlar va tartibini o'rganishi va shu bilan birga normal va patologik xolatlar, shuningdek, shaxsning kasbiy muhim va faoliyatiga bo'lgan reaksiyasini tashxis etadi. Bu kompleksga professiografik usullardan gigienik, tabiiy, psixologk va fiziologik usullar kiradi. Professiografiya natijalari professiogrammada aks etadi, u mehnat sharoitlari tasviri, ishchi huquq va majburiyatlari, muhim kasbiy sifatlari shuningdek sog'lig'iga qarshi ko'rsatmalarni o'z ichiga oladi. Professiogrammaning muhim tarkibiy qismi - psixogramma bo'lib, u mutaxassisning

motivasion, iroda va emosional sohasining tavsifi hisoblanadi. Psixogramma - kasbning psixologik portreti bo‘lib, u aniq kasbda dolzarb bo‘lgan psixologik funksiyalar guruhi bilan namoyon bo‘ladi.



9 SHAXS PSIXOLOGIYASI VA KASBIY SHAKLLANISH, IDROK VA KASBGA YO`NALTIRISH

Reja:

9.1Shaxs psixologiyasi va kasbiy shakllanish.

9.2Idrok va kasbga yo`naltirish haqida tushuncha.

9.3Xulosa.

Таянч иборалар: *, insonni ruhiy holati, psixik hodisalar, qonuniyat va mexanizmlar, shaxs va voqelik, shaxs va jamiyat, shaxs va predmetlar olami, yosh taraqqiyotni davrlashtirish, natijaviy yutuqlar, tadqiqot metodlarining klassifikatsiyasi, tadqiqot usullari, genetik usullar, biografik metod, tahlil qilish metodi, kasblar tavsifi, topshiriqlarni tahlil qilish,*

9.1Shaxs psixologiyasi va kasbiy shakllanish.

Psixologiyada shaxs tushunchasi. Inson, odam juda ko`plab fanlarning o`rganish ob`ekti bo‟lib hisoblanadi. Ular odamlarning turli tomonlarini va hayot tarzini, rivojlanishini va boshqalarni o‟rganadi. O‟z ob‟ektini belgilash va ta‟riflash uchun turli tushunchalar qo‟llaniladi. Psixologiya fani odamni jamiyatda, boshqalar bilan munosabatda bo‟luvchi ongli faoliyat sub‟ekti sifatida o‟rganadi. Psixologiya fanida odamni ta‟riflashda ko‟plab tushunchalar qo‟llaniladi. Shu jumladan "shaxs", "individ", "individuallik" tushunchalari ham qo‟llaniladi. Odamning insonlik jinsiga mansubligi individ tushunchasi bilan ifodalanadi. Katta yoshdagi kishilar, chaqaloqlar, tilni va oddiy malakalarni o‟zlashtira olmaydigan ruhiy kasallar (telbalar) ham individdir. Individ tushunchasida kishining biologik turga mansubligi aks ettirilgan. Barcha kishilar (odamlar) individdir. "Individ" tushunchasida kishining nasl - nasabi ham mujassamlashgandir. Yangi tug‟ilgan chaqaloqni ham, katta yoshdagi odamni ham, mutafakkirni ham, aqli zaif ovsarni ham, yovvoyilik bosqichidagi qabilaning vakilini ham, madaniyatli mamlakatda yashayotgan yuksak bilimli kishini ham individ deb hisoblash mumkin.

Individ sifatida dunyoga kelgan kishi hayot jarayonida alohida sotsial fazilat kashf etadi, shaxs bo‟lib yetishadi. Individ sifatida dunyoga kelgan odam keyinchalik, jamiyatdagina shaxsga aylanadi. Ijtimoiy munosabatlarga kirishuvchi, ijtimoiy taraqqiyotda ishtirok etuvchi odamgina shaxs deyiladi. Shaxsning eng asosiy belgisi - uning ongli faoliyat egasi ekanligidir. Ma‟lumki kishi ongi faqat jamiyatda, boshqalar bilan o‟zaro munosabatda, til yordamida ijtimoiy tajribani o‟zlashtirishda shakllanadi. Binobarin shaxs ham faqat jamiyatdagina shaxsga aylanishi mumkin. Shaxs tushunchasida odamning ijtimoiy xarakteri aks ettirilgan. Lekin shaxsni ijtimoiy muhitning passiv mahsuloti deb qarab bo‟lmaydi. Shaxs ijtimoiy tajribani faol ravishda tahlil qiladi, o‟zlashtiradi, o‟zi uchun o‟zgartiradi - bu jarayon davomida o‟zi ham shaxs sifatida shakllanadi. Shaxsning faolligi uning o‟zi hayot uchun yo‟l tanlashida, bu yo‟lni egallashida, hayotda o‟z mavqei va o‟rnini anglashida ifodalanadi. Shaxs shakllanib borgan sayin tashqi ta‟sirlar, shu jumladan ijtimoiy ta‟sirlar ham uning ichki dunyosi, psixologiyasiga qarab turli odamlarga turlicha ta‟sir qiladilar. Masalan bir xil baho turli o‟quvchilarga turlicha ta‟sir qiladi. Shaxsni faqat psixologiya emas, balki sotsiologiya, tarix, san‟atshunoslik, estetika, etika, pedagogika, meditsina, yuridik va boshqa fanlar ham o`rganadi. Odamning shaxs sifatidagi asosiy belgisi: sotsialligi, ongi va tilidir. Inson shaxsining xarakterli tomonlaridan biri uning individualligidir.

Individuallik - shaxsning psixologik, ijtimoiy, fiziologik xususiyat birikmalarining qaytarilmasligidir. Shaxsning individualligi uning xarakteri, temperamenti, psixik jarayonlarining dinamikasi, hissiyotlari, faoliyatining motivlari, qobiliyatlari va shunga o‟xshashlarning yig‟indisiga bog‟liq. Bularning hammasini birga qo‟shib, mujassamlashtirsak, ikkita bir xil odam bo‟lmagan va bo`lmaydi ham. Har bir odam o‟ziga mansub bo‟lgan sinf millatiga xos ko‟pgina umumiy sifatlarga ega bo‟lishi bilan bir qatorda o‟zining shaxsiy fazilatlariga egaki, bu sifatlar uni takrorlanmas individuallikka aylantiradi. Olamda ikkita bir xil kishi yo‟q. Individuallik kishining o‟ziga xosligini uning boshqa odamlardan farqini aks ettiruvchi psixologik fazilatlar birikmasidir. Individuallik temperament va xarakter xususiyatlarda, odatlarda, ustun darajadagi qiziqishlarda, bilish jarayonlarga oid fazilatlar (idrok, xotira, tafakkur, tasavvur) da, qobiliyatlarda, faoliyatning shaxsga xos uslubida va hakozalarda namoyon bo‟ladi. Zikr etilgan psixologik xususiyatlarning bir xildagi birikmasini o‟zida mujassamlashtirgan odam yo‟q - inson shaxsi o‟z individualligi jihatidan betakrordir.

Shunday qilib, individuallik inson shaxsiga xos fazilatlarning faqat bitta jihati bo‟lib hisoblanadi, xolos.

Ma‟lumki, odam jamiyatda turli guruhlarda (oilada, o‟qishda, ishda, davrada) bo‟ladi. Har bir guruhda o‟ziga xos, ba‟zan butunlay bir-biriga o‟xshamaydigan rollarni o‟ynaydi. Lekin shunga qaramay, ko‟pincha odam har turli vaziyatlarda o‟xshash sifatlarni namoyon qiladi. Bir qarashda qarama-qarshi ko‟ringan xususiyatlarning namoyon bo‟lishida umumiylik bor. Ana shu shaxs sifatlarining bir-biriga mosligi shaxsning yaxlitligini ko‟rsatadi. Shaxsning psixologik tuzilishi, psixologik xususiyatlarining birikmalari har bir odamda nisbatan doimiylikka ega. Odamning psixik holatlari, o‟zini tutishi o‟zgarib tursa ham shaxsning psixologik qiyofasi ma‟lum darajada barqaror bo‟lib qolaveradi. Shaxs xususiyatlarining bunday nisbatan barqarorligi unga shaxs sifatida xarakteristika berish, uning ma‟lum vaziyatlarda o‟zini qanday tutishini oldindan belgilashning asosi bo‟lib xizmat qiladi. Ehtiyojlarni rivojlantirish, tanlash va tarbiyalash ularni hozirgi jamiyat kishisiga xos bo‟lgan ma‟naviy yuksaklik darajasiga olib chiqish kishi shaxsini shakllantirishning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Shaxsning shakllanishi jamiyatda ro‟y beradi. Individning shaxs bo‟lishi, yangi jamiyatni qurishning faol ishtirokchisi bo‟lish kabi ehtiyoji aynan jamoada to‟laqonli qondiriladi. Shaxsning shakllanishida unga maqsadga yo‟naltirilgan tarzda ta‟sir o‟tkazishda tarbiya yetakchi rol‟ o‟ynaydi. Tarbiya shaxsning rivojlantirishini jamiyat tomonidan qo‟yilgan maqsadlarga muvofiq tarzda yo‟llantirib boradi va uyushtiradi.

Shaxs haqidagi psixologik nazariyalar. Shaxs haqidagi psixologik nazariyalar uzoq vaqt davomida rivojlanib keldi. Buning natijasida ko‟plab nazariyalar, yondoshishlar yuzaga keldi. Ular orasidan g‟arb mamlakatlarida rivojlangan va tan olingan asosiy nazariyalarga to‟xtalib o‟tish lozim. Shaxs haqidagi barcha nazariyalarni rivojlanish bosqichiga ko‟ra uch guruhga birlashtirish mumkin:

1. Shaxs haqidagi an‟anaviy nazariyalar (V. Dil‟tey, K. Levin, V. Shtern, Z.Freyd, K. Yung va boshqalar);
2. Shaxs haqidagi yangi nazariyalar (G. Ayzenk, D. Kettel, A. Maslou, G.Olport, K. Rodjers, K. Xorni va boshqalar);
3. Eng yangi nazariyalar (E. Bern, K. Leongard, D. Mid, G. Sallivin, Sirs, E. Fromm va boshqalar).

Ko‟rsatib o‟tilgan nazariyalar quyidagi psixologik yo‟nalishlarning tarkibida rivojlangan yoki ularning asosi bo‟lgan:

Freydizmning psixoanalitik kontseptsiyasi, neofreydizm (yangi freydizm) va postfreydizm, bixevorizm va neobixevorizm, gumanistik

psixologiya, interaktsionizm, ekzistentsionalizm, sotsiologik nazariyalar, ekliktik nazariyalar va h.k.

An`anaviy nazariyalar. Shaxs haqidagi an‟anaviy nazariyalar orasida freydizm nazariyasi alohida o‟ringa ega. Z.Freyd turli xil kasalliklarni (asosan, nevroz bilan bog‟liq bo‟lgan) tahlil qilish natijasida bu kasalliklarning sabablari kasalning hayotida oldin ro‟y bergan va uning psixika (ruhiyati)ga yoki rivojlanishiga salbiy ta‟sir ko‟rsatgan voqealar degan xulosaga keldi. Bu ta‟sirlar ko‟pincha odamlar tomonidan unitiladi va anglanmaydi, ammo ular kishilarning xulq-atvorlariga ta‟sir qilishda davom etadilar, ba‟zida xulq-atvorda buzilishga olib keladilar. Z.Freyd turli xil psixoterapevtik usullar yordamida ularni topish va ularni anglashga yordam berish samarali davolash usuli ekanligini aniqladi. Izlanishlar natijasida Z.Freyd odamning psixik hayotida uch darajani ajratdi: ongsizlik, ong osti (ong oldi) va ong.

Ongsizlik - instinktiv harakatlarning asosi. Ular orasida, ayniqsa, jamiyat tomonidan ta‟qiqlanganligi sababli anglanmaydigan bo‟lib qolgan jinsiy mayllar (libido) alohida o‟rin tutadi. Ong oldi - uning mazmunini kishi qiynalmay anglaydi.Ong - ijtimoiy me‟yorlar, man qilinishlar (tabu). Ong doimo ongsizlik bilan kelishmovchilikda. Turli xildagi jinsiy va boshqa mayllarni yuzaga chiqarmaslikkaharakat qiladi.

K.Yung va uning psixologik qarashlari. Karl Gustav Yung (1875-1961) shveytsariyalik psixiatr, psixolog. Z.Freydning yaqin safdoshlaridan biri. U Z.Freydning izidan borib inson psixikasida "ong" va "ongsizlik" darajalarini ajratgan. Uning fikricha hatti-harakatni boshqarishda ongsizlik hal qiluvchi rol‟ o‟ynaydi. Ongsizlik ikki xil shaklda mavjud: a) individual b) kollektiv (jamoa) - uning asosini oldingi avlodlar tajribasi tashkil qiladi. Bular asosan instinktlar,mayllar, arxetiplardan iboratdirlar.

Instinktlar va mayllar K.Yung tomonidan tug‟ma ehtiyojlar sifatida qaraladi. Arxetiplar (kishilikning birlamchi obrazlari) talant, tush ko‟rish, afsonalar, diniy qarashlar asosida yotadi. K.Yung kishilarning psixik yo‟nalganligiasosida ularni ikki guruhga bo‟ladi: introvertlar va ekstrovertlar.

Introvertlar - xulq-atvor sabablarini o‟zidan axtaradi. Ular ijtimoiy passiv, tortinchoq, o‟z harakatlarini chuqur tahlil qilishga moyil, boshqalarga ko‟p qo‟shilishga intilmaydilar. Ektrovertlar- tashqi olamga yo‟nalgan. Ular impul‟siv, tashabbuskor, dilkash, guruhga va jamoaga tez moslashuvchan.

K.Yung psixik funktsiyalarning ustunligiga ko‟ra shaxslarning quyidagi tipologiyasini ko‟rsatgan:

a) tafakkur qiluvchi (fikrlovchi)

b) hissiy

c) ta‟sirga beriluvchan (emotive)

d) intuitiv

K.Levinning "Maydon nazariya"si. K.Levin (1890-1947) Germaniyada tug‟ilgan va AQShda ko‟p yillar samarali ishlagan. U barcha tashqi olam omillarini "fizik maydon" va odamning ichki olamini "psixik maydon" deb ajratadi. Uning fikricha bu ikkala maydon orasida o‟zaro tortishish va itarish xususiyatlar mavjud. Bu xususiyatlar shaxsning ehtiyojlari va motivlariga bog‟liq ravishda yuzaga chiqadi. Uning fikricha tashqi muhit va shaxsning ichki dunyosi orasidagi muvozanat buzilsa shaxs harakatlarida, xulq atvorida zo‟riqish paydo bo‟ladi. K.Levin tomonidan shaxsning guruhdagi o‟rni, mavqei, liderlik hodisalari, nizolar o‟rganilgan.

Yangi nazariyalar. Yangi nazariyalar orasida Gumanistik psixologiya alohida o‟ringa ega. Bu yo‟nalishga juda ko‟plab olimlar o‟z hissalarini qo‟shganlar. Gordon L.Olport (1897-1967) shaxsning o‟zligini ko‟rsatishga, kamolatga intilishi nazariyasini taklif qildi. U shaxsni ochiq, doimo rivojlanishdagi, o‟sishdagi psixofiziologik tizim tariqasida qaraydi. Shaxsning asosiy xususiyati o‟zligini anglashga, kamolga yetishga, o‟zining barcha imkoniyatlarini hayotga tatbiq qilishga intilishidir deb qaraladi.

Gumanistik psixologiyaning ko‟zga ko‟ringan nomoyondalaridan biri Karl Rodjersdir (1902-1987). Uning fikricha shaxsning asosiy xususiyati, bu shaxsning hayot haqidagi o‟z kontseptsiyasidir. Bu kontseptsiya odamning tashqi muhit bilan munosabati jarayonida shakllanadi. Rodjersning nazariyasiga ko‟ra quyidagilar muhim ahamiyatga ega:

- shaxslararo munosabatlar tenglikka asoslanishi, bir kishi ikkinchisiga tazyiq o‟tkazmasligi, har bir kishining mavqei hurmat qilinishi lozim;
- shaxsning "o‟zagini" uning o‟zi haqidagi bahosi tashkil qiladi. Bu bahotashqi muhit bilan o‟zaro munosabatlar jarayonida shakllanadi;
- shaxsning "self" yoki "Men - kontseptsiya" ichki, organik va ijtimoiy sezgilar orasidagi o‟zaro mosligini aks ettiruvchi xususiyat sifatida shakllanadi.
- shaxsning asosiy motivi "o‟zligi"ni o‟stirish motividir.

Shaxsning o‟sishi esa ijtimoiy muhit, shaxslararo munosabatlar ta‟siri ostida yoki tezlashadi yoki sekinlashadi.

Shaxsni o‟sishga undovchi kuch, K.Rodjersning fikricha, "Men kontseptsiya" va "ideal Men" orasidagi tafovutdir.

Shaxs haqidagi eng yangi nazariyalar. Psixologiyada yangi nazariyalarning salmog‟i juda katta. Erik Bern (1902-1970) shaxsni rivojlantirishning amaliy va nazariy asosi sifatida xizmat qilishga yo‟naltirilgan "transakt tahlil" nazariyasini taklif qildi. Erik Fromm (1900-1980) gumanistik psixoanalizga asos soldi. Djordj Gerbert Mid (1863-1931) simvolik kommunikatsiyaning interaktsionistik nazariyasini ishlab chiqdi. Karl Leongard "Shaxs aktsentuatsiyalari" nazariyasiga asos soldi.

Keyingi yillarda Aleksandr Kellining (1905-1966) "Shaxs konstruktlari" nazariyasi juda keng tarqaldi va qo‟llanilmoqda. Bu nazariyaga asosan shaxsning bilish jarayonlarining kechishi uning kelajakdagi hodisalarni qanday "ko‟ra olishi" (oldindan modellashtirishi, tasavvur qilishi) bilan aniqlanadi. A. Kellining fikricha har bir odam tadqiqotchi. U doimo o‟zidagi "shaxs konstruktlari", o‟zining maxsus baholash shkalalari asosida reallikning obrazini tuzadi (hosil qiladi). Agar tuzilgan obraz haqiqatdan farq qilsa, to‟g‟ri kelmasa mavjud konstruktlar qayta quriladi. Barcha bilish jarayonlarining samaradorligi, muvaffaqiyatli konstruktlar qurish kishining psixologik bilim darajasiga bog‟liq. Ma‟naviy ehtiyojlar moddiy ehtiyojlar bilan uzviy bog‟liqdir. Ma‟naviy ehtiyojlarni qondirish uchun, moddiy ehtiyojlar predmeti hisoblanmish moddiy narsalar (kitoblar, gazetalar, yozuv va nota qog‟ozlar, bo‟yoqlar va shu kabilar) talab qilinishi shubhasiz. ehtiyojlarning qondirilishi bilan bog‟liq bo‟lgan faoliyatga undovchi va uning yo‟nalishini belgilovchi sabablar motivlar deb ataladi. Unda sub‟ektning faolligi namoyon bo‟ladi. ehtiyojlar kishi faolligi va barcha turlarining mohiyatini, asosiy harakatlantiruvchi kuchini tashkil etarkan, u holda motivlar ushbu mohiyatning konkret, rang - barang ko‟rinishlari sifatida namoyon bo‟ladi. Motivlar yoki motivlashtirish psixologiyada sub‟ektning xulq - atvori va faoliyati yo‟nalishini belgilab beradigan sabablar sifatida qaraladi.Motivlar biri-biridan ehtiyojlar turlariga qarab farqlanadi. ehtiyoj motivlarda namoyon bo‟ladi. Murakkab faoliyat asosida bir vaqtning o‟zida bir qancha motivlar yotadi. Inson hatti-harakatining asosida yotgan bunday motivlar guruhiga motivlar tizimi deyiladi.Motivlar anglanilgan va anglanilmagan bo‟lishi mumkin. Anglanilmagan motivlar odatda mayllar deb yuritiladi.

Faoliyatning asosiy turlari. O`yin. Hayotining birinchi yillaridayoq bolada faoliyatning oddiy shakllarini o‟zlashtirishi uchun dastlabki shart - sharoitlar tarkib topa boshlaydi. Ulardan birinchisi o‟yin faoliyati hisoblanadi. Ma‟lumki, o‟yin faoliyatini hayvonlarning bolalarida ham

kuzatiladi. Bu - ularningturli xildagi xarxashalaridan, urishishni taqlid qilishi, u yoqdan - buyoqqa chopishi va hokazolardan iboratdir. Hayvon bolalarining o‟yin jarayonidagi qilig‟ini, avvalo ularning organizmidagi faoliyatga, jamlangan kuch - quvvatni sarflashga bo‟lgan ehtiyojni qondirishi deb qarash mumkin. Agar hayvon bir muncha vaqt mobaynida o‟ynaydigan sherigidan mahrum etib qo‟yilsa, keyinchalik uning qo‟zg‟alishi va o‟yin faoliyati keskin kuchayadi, ya‟ni tegishli kuch quvvat to‟plangani kabi hodisa ro‟y beradi. Bu hodisa "o‟yinga to‟ymaslik" deb ataladi.

O`yin faoliyati bilan organizmda kuch - quvvat almashinuvi o‟rtasidagi bog‟lanish o‟yinga nisbatan mayilning tug‟ilishiga olib keladi. Lekin o‟yin faoliyati ro‟yobga chiqaradigan fe`l - atvor shakllari qanday va qaerdan paydo bo‟ladi? Kuzatishlar shuni ko‟rsatadiki ularning ba‟zi birlari, masalan, mushukchadagi "sichqon ovlash" ishtiyoqi hayvonning tug‟ma instinktiv harakatlari jumlasiga kiradi. Boshqa bir xillari esa, masalan, shimpanze bolasining katta yoshdagi maymunlar va odamlarning harakatlarini takrorlashi taqlid qilish orqali yuz beradi. Uchinchi bir xili tevarak - atrofdagi olam bilan o‟zaro birgalikda harakat qilish jarayonida hayvonlarning o`zlari tomonidan topiladi.

Tadqiqotlar shuni ko‟rsatadiki, o‟yin bolalarda ham o‟z faolligini ro‟yobgachiqarish shakli, hayot kechirish va faoliyat ko‟rsatish shakli bo‟lib xizmat qiladi. Bolaning o‟yin harakatlari avval boshdanoq buyumlardan foydalanishning insoniy usullari va amaliy xulq - atvorining katta yoshdagilar bilan muloqot jarayonida va katta yoshdagilar rahbarligida o‟zlashtirilib olinadigan insoniy shakllari zamirida rivojlanib boradi.

Bola o‟z tajribasida qurol buyumlar bilan bir vaqtning o‟zida boshqa turdagi buyumlar - o‟yinchoqlarga duch keladi. O‟yinchoqlarni ishlatishning insoniy usuli - o‟yin, yana ular yordamida allaqanday boshqa, haqiqiy buyumlar va harakatlarning ifoda etishdir. Katta yoshdagilar bolalarni o‟yinchoqlardan ana shu tarzda foydalanishga o‟rgatadi. Ular bolaga qo‟g‟irchoqqa qanday suv ichirilishini, uni qanday qilib tebratish kerakligni, sayr qildirishni, o‟yinchoq ayiq bolasini qanday ovqatlantirishni, mashinani qanday qilib haydash kerakligini ko‟rsatishadi va hokazo.

Lekin bolada o`yinchoqqa nisbatan "haqiqiy" buyumning tasviri sifatidagi munosabatning o`zi o`yin faoliyatiga faqat SO`Z aralashuvi munosabati bilan hosil bo`ladi. Bola so‟zning ahamiyatini amaliy harakatlar orqali yoki katta yoshdagilarning harakatlarini kuzatish natijasida o`zlashtirib olgan holda SO`Z bilan birgalikda bu harakatlarni o`ynaydigan buyumlariga ko‟chiradi. Bu o‟rinda o‟yin faoliyati buyumning ahamiyatini belgilaydigan harakatlarni o‟sha buyumning o`zidan ajratishdan va bu harakatlarni boshqa

buyumga – o`yinchoqqa ko`chirishdan iborat bo`ladi. O`yin faoliyati tufayli so‟zning ahamiyatini buyumning tashqi ko‟rinishidan amalda ajratiladi va bu mohiyat buyum ustidagi harakatlar bilan, uning kishi faoliyatidagi vazifasi bilan bog`lanadi. Buyumlarga bo`lgan munosabat odamlarning buyumlarga nisbatan funktsiyalari sifatida namoyon bo‟la boshlaydi. Rolli o‟yinlar paydo bo`ladi. Rolli o‟yinlarda bola kattayoshdagi kishilarda o‟zi kuzatgan ijtimoiy funktsiyalarini, ularning shaxs sifatidagi xulq - atvorini aynan takrorlaydi. Jumladan, ikki yashar qizcha qo‟g‟irchoqniovqatlantirar ekan, ovqat yedirish o`yini bilan ovora bo`lsa, to‟rt yoshar bola qo`g`irchoqni ovqatlantirayotganda qizini ovqatlantiradigan ona bo`lib o`ynaydi. Bunda o‟yin mazmuni konkret harakatlarni tasvirlashdan odamlar o‟rtasidagi munosabatlarni tasvirlashga tobora ko`proq ko`chiriladi. Bunda bola narsalarning hatti-harakatlari u foydalanayotgan narsalarning xususiyatlari bilan emas, balki ularning vazifalari haqidagi tasavvurlar bilan boshqariladi. Boshqacha qilib aytganda, bolada o‟z hatti-harakati o‟yinning sotsial roli va unga tegishli harakatlarhaqidagi tasavvurlar bilan boshqarish qobiliyati tarkib topadi. Bola rolli o‟yinlarning rivojlangan bosqichiga kelib, boshqa bolalar bilan o‟zaro munosabatga kirishadi. O‟yin paytida rollarni taqsimlab, qabul qilingan rollarga mos holda bir-birlariga murojaat etib, bolalar sotsial hatti-harakatlarni, o‟z harakatlarini jamoa talabiga bo‟ysundirishni bilib oladi.

O`yinlarning navbatdagi bosqichida - qoidali o`yinlarda - ish-harakatlarning mazkur xislatlari yanada rivojlanadi. Lekin endilikda ish-harakatlar abstrakt talablar yoki qoidalar asosida bajariladi. Aslini olganda bu o‟rinda o‟yindan xulosa boshlanadi. Ijtimoiy belgisiga ko‟ra u o‟yinga o‟xshab qolsa ham (faoliyat hali ham foydali mahsulot bermaydi), lekin psixologik strukturasiga ko‟ra, faoliyat mehnatga (maqsad faoliyatning o‟zi emas, balki uning natijasiga qaratilgan) va o‟qishga (maqsad o‟yinni o‟zlashtirishdan iborat) yaqinlashadi.

Ta`lim. Bolaning "odamga aylanguncha" egallagan hamma narsani o‟rganishdan, ya‟ni tajribani o‟zlashtirib olishdan iboratdir. Insonning hatti-harakatlari biologik tajriba bilan belgilanmaydi, balki sotsial tajriba bilan belgilanadi. Lekin sotsial tajribani biologik yo‟l bilan berib bo‟lmaydi. Sotsial tajriba organizmning xususiyatlariga bog‟liq bo‟lmay, balki inson yashab turgan jamiyatning xususiyatlariga bog‟liqdir. Biologik yo‟l bilan nasliy jihatdan sotsial tajribani va insoniy ish-harakat shakllari hamda faoliyatlarini organizmning amaliy o‟zlashtirishi uchun kerakli bo‟lgan faqat ma‟lum xususiyatlari berilishi mumkin.

Taraqqiyot davomida shunday vaqt keladiki, unda bolaning hayotiga alohida faoliyat turi kirib keladi. Bu faoliyatning shunday turiki, uning

bevosita maqsadi ma‟lum informatsiyalar, harakatlar va ish-harakatlar shakllarini o‟zlashtirishdan iboratdir. Sub‟ektning o‟z maqsadi o‟rganishdan iborat bo‟lgan mana shunday maxsus faoliyatni ta‟lim (o‟quv) deb ataladi. Ta‟lim faoliyati o‟z tarkibiga quyidagilarni oladi:

a) ma‟lum bir ideal va amaliy faoliyat turini muvaffaqiyat bilan tashkil qilish uchun narsa va hodisalarning zarur xususiyatlari haqidagi informatsiyalarni o‟zlashtirish (bu jarayonning mahsuloti bilimdir);

b) mana shu faoliyat turlarini yuzaga keltiradigan usul va operatsiyalarni o‟zlashtirish (bu jarayonlarning mahsuloti malakalardan iborat bo‟ladi);

c) ko‟zlangan maqsad va berilgan masala shartiga mos ravishda to‟g‟ri yo‟lva operatsiya tanlash hamda nazorat qilish uchun ko‟rsatilgan informatsiyalardan foydalanish usullarni egallash (bu jarayonning mahsuli - ko‟nikmadan iborat bo‟ladi).

Shunday qilib, insonning ma‟lum bilim, ko‟nikma va malakalarni o‟zlashtirishda ongli maqsad bilan boshqariladigan barcha harakatlari ta‟lim bilan bog‟liq bo‟ladi. Ta‟lim jarayoni insoniyatning ijtimoiy tajribasini o‟zlashtirishga yo‟naltirilgandir.

Shaxslararo munosabat to‟g‟risida. Guruhda shaxslararo munosabat: simpatiya (mehr-muhabbat), antipatiya, uyushganlilik. O‟zaro kelishuv, guruh a‟zolari orasida izzat-hurmat. Rasmiy va norasmiy liderlik. Liderlik nazariyalari. Guruhning va uning ichki tuzilishi ni o‟rganish metodlari: sotsiometriya, refrentometriya metodlari. Ta‟lim-tarbiya jarayonida shaxslararo mos kelishlikni, munosabatlarini hisobga olish.

Guruh haqida tushuncha. Guruh - bu muayyan belgiga, masalan, sinfiy mansublikka, birgalikda faoliyat ko‟rsatishning mumkinligiga va uning xarakteriga, tashkil topish xususiyatlari va shu kabilar asosida ajralib turadigan umumiylikdir. Guruhlarning klassifikatsiyasi ham shunga muvofiq tarzda bo‟lib, kichik va katta guruhlarga bo‟linadi - o‟z navbatida ular ham real (bog‟langanlik), shartli formal (rasmiy) hamda noformal (norasmiy) guruhlarga, rivojlanish darajasiturlicha bo‟lgan, ya‟ni rivojlangan (jamoalar) va yetarli darajada rivojlanmagan yoki kam rivojlangan guruhlarga (uyushmalarga, birlashmalarga, aralash guruhlarga) bo‟linadi.

Katta guruhlar umumiy makon va zamonda hayot kechirayotgan anchagina odamlarni o‟z tarkibiga olgan sotsial umumiylikni tashkil qiladigan real (bog‟langan) guruhlar shaklida bo‟lishi mumkin. Bu xildagi katta guruhlarga korxonaning mehnat jamoasi yoki ko‟pgina o‟qituvchilar bir - birlari bilan bevosita o‟zaro aloqada bo‟lmasalar ham, lekin ayni chog‟da

yagona bitta rahbarga (direktorga, ilmiy mudirga) buysinadigan, bitta partiya va kasaba birlashma tashkilotiga kiradigan, maktab hayotiga oid hamma uchun umumiy hisoblangan ichki tartibning barcha qoidalariga amal qilinadigan kattagina bir maktabning pedagoglar jamoasi kiritilgan bo‟lishi mumkin. Katta guruhlar ba‟zan bir belgilari (sinfiy, jinsiy, milliy, yosh va boshqa belgilari) ga binoan ajratiladigan va birlashtiradigan shartli guruhlar shaklida bo‟lishi ham mumkin. Katta shartli guruhga kiritilgan kishilar hech qachon bir - birlari bilan uyushmagan bo‟lmasa ham, lekin bu xildagi guruhga ajratilgani uchun asos bo‟lgan belgilariga ko‟ra umumiy sotsial va psixologik ta‟rifga ega bo‟lishlari mumkin.

Kichik guruhlar - hamisha bog‟langan umumiylik bo‟lib, unga kiruvchi shaxslarning o‟zaro birgalikdagi real harakati va ular o‟rtasidagi real harakati va ular o‟rtasidagi real o‟zaro munosabatlar bilan bog‟langandir. Bu guruhlar rasmiy (formal) bo‟lishi, ya‟ni yuridik jihatdan qayd etilgan huquq va burchlarga, normativ asosida o‟rnatilgan strukturaga, tayinlab yoki saylab qo‟yilgan rahbarlikka ega bo‟lishi mumkin.

Shuningdek, yuridik jihatdan qayd etilgan statusga ega bo‟lmagan, ammo tarkib topgan shaxslararo munosabatlar (do‟stlik, xayrihohlik, hamjihatlik, ishonchva shu kabilar) tizimi bilan ifodalanadigan NORASMIY (ko‟pincha ularni noformal deb ham atashadi) guruhlar ham alohida ajralib turadi. Ular alohida ajralib turadigan umumiylik (masalan, turli maktablar va hunar - texnika bilim yurtlarining mototsikl sportiga qiziqishi umumiyligi negizida birlashgan bir qancha o‟quvchisi) sifatida yuzaga chiqishi va rasmiy guruhlar ichida yetarli darajada barqaror tus kasb etishi (sinfdagi do‟stona ulfat tarzida kirishi) mumkin.

Rasmiy va norasmiy guruhlar o‟rtasidagi chegaralar shartli va nisbiydir. O‟quvchilarning bu xildagi norasmiy guruhlarini shakllantirish o‟qituvchi olib borishi lozim bo‟lgan tarbiyaviy ishning muhim vazifasi hisoblanadi.Guruhlar rivojlanishining darajasi yoki saviyasi ularning klassifikatsiyasining eng muhim negizi hisoblanadi. Guruhiy rivojlanish darajasi - shaxslararo munosabatlarning shakllanganligining belgisi, guruhlar shakllanishi jarayoninig natijasidir.Rivojlanish darajasiga ko‟ra farqlanadigan guruhlarning - diffuz guruhlar, sotsial yo‟nalishdagi uyushmalar, sotsial yo‟nalishga zid uyushmalar va birlashmalar, jamoalarning psixologik toifasi shu asnoda tarkib topadi.Guruhiy rivojlanishning tegishli ravishda ancha ifodalangan darajalarini ko‟rsatadigan (har bir konkret guruh boshidan kechirishi mumkin bo‟lgan son sanoqsiz oraliq holatlari bilan birga) qat‟iyan beshta pozitsiya alohida ajralib turadi:

1) bilvositalikning mumkin qadar yuksak darajasi va faoliyatning shaxslararo munosabatlari bilvosita ifoda etuvchi omillarning eng yuksak sotsial qimmati yuqori guruhlar. Bu jamoadir.

2) agar guruhda tegishli tarzda birgalikdagi faoliyat mavjud bo‟lsa, shaxslararo munosabatlarni bilvosita ifoda eta oladigan eng yuksak darajadagisotsial yo‟nalishga ega omillar mavjud bo‟lgan taqdirda bilvositalikning eng past darajasi. Bu sotsial yo‟nalishdagi uyushma (misol uchun talabalarning guruhi) dir.

3) birgalikdagi faoliyatning yo‟qligi bilan bog‟liq bilvositalikning mavjud emasligi. Bu diffuz guruh (misol uchun avtobusdagi yo‟lovchilar yoki umumiy palatadagi bemorlardir)

4) shaxslararo munosabatlarning eng yuksak darajada nosotsial yo‟nalishga ega bo‟lgan bilvosita omillar mavjud sharoitlardagi qandaydir birgalikdagi faoliyatining past darajada bil vositasi ifoda etilishi (misol uchun bezorilik qiluvchio‟spirinlar guruhi). Bu - antisotsial uyushmadir.

5) faoliyat vositasida ifoda etishning eng yuksak darajasi va bilvosita ifoda etuvchi omillarning eng yuksak darajada aksil ijtimoiy, reaktsion xarakterga egaligi. Bu – antisotsial birlashma (misol uchun mafiya) dir.

Jamoaning yuksak darajada rivojlangan guruh sifatida boshqa barcha guruhlarga nisbatan printsipial jihatdan farqlari tajriba yo‟li bilan qayd etildi. Jamoada faoliyatning samaradorligi bilan o‟zaro his - hayajonli psixologik munosibatlarning maqbul xarakteri o‟rtasidagi nisbat ijobiy, sust rivojlangan guruhlarda esa, salbiy bo‟ladi. Past darajada rivojlangan guruhlarda guruhning miqyosi bilan uning a‟zolaridan umumiy ishga eng ko‟p hissa qo‟shish istagi o‟rtasidagi teskari bog‟lanish mavjudligi aniqlandi, guruhning miqyosi yiriklasha borishi bilan jamoadan birgalikdagi faoliyat ishtirokchilarning motivlari susaymaydi. Tasodifiy guruhda yordamga muhtoj kishiga yordam ko‟rsatilishi ehtimoli guruhning miqyosi kengayishi bilan susaya boradi, jamoada esa bunday qonuniyat namoyon bo‟lmaydi va hokazo. Shunday qilib, birgalikdagi sotsial qimmatga ega va shaxs uchun ahamiyatga molik faoliyatning amalga oshirilishi o‟zaro jamoatchilik munosabatlari o‟rnatilishini, individual munosabat bilan jamoa munosabatlari o‟rtasidagi ziddiyatlar barham topishini ta‟minlaydi. Bunday faoliyat jarayonida shaxslararo munosabatlarda boshqa sharoitlarda qayd etilishi mumkin bo‟lmagan alohida hodisalar yuz beradiki, guruh rivojlanishining alohida belgisi sifatidagi jamoatchilik hosil bo‟ladi. Aynan jamoa shaxsning jamiyatga bog‟liqligini ifoda etadi. Shaxs ana shu bog‟liqlik orqali erkinlikka muvaffaq bo‟ladi.

O`quv faoliyati o‟quvchilarga, yoshlarga bilim berib qolmay, ularni o`z harakatlarini, operatsiyalari va malaka, tajribalarni, bilish jarayonlarini boshqarish o‟rgatishga yo‟naltirilgan. O‟quv faoliyati odamni mehnat faoliyatiga tayyorlaydi.

Mehnat. Mehnat ma‟lum ijtimoiy foydali moddiy yoki ma‟naviy mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratilgan faoliyatdan iboratdir. Mehnat faoliyati odamning asosiy, yetakchi faoliyatidir. Kishilarning mehnat faoliyati o‟z mohiyati

jihatidan ijtimoiydir. Jamiyat ehtiyojlari mehnat faoliyatini tarkib toptiradi, uni aniqlaydi, yo‟naltiradi, uni aniqlaydi va boshqaradi. Mehnat taqsimoti tufayli, bironta kishi ham o‟ziga kerakli narsalarni o‟zi to‟liq, oxirigacha ishlab chiqarmaydi. Odam jamiyat uchun kerakli, jamiyat talab qilgan (ehtiyojga ko‟ra) narsalarni ishlab chiqaradi. O‟zi uchun kerakli narsalarni esa o‟z mehnati evaziga jamiyatdan oladi. Shaxsning ehtiyojlarining qondirilish mexanizmi va shakllari jamiyatda hukmron bo‟lgan ishlab chiqarish munosabatlari bilan belgilanadi. Shunday ekan, odamning mehnatda bajaradigan ish-harakatlari biologik ehtiyojlar bilan belgilanmaydi, balki ko‟zlangan ishlab chiqarish maqsadi hamda bu maqsadni amalga oshirishda uning boshqa kishilarga munosabatlari bilan belgilanadi.

Mehnat jarayonining bunday xususiyatlari inson faoliyati va hayvonlar hatti-harakatlar orasida katta tafovut borligini ko‟rsatib turibdi.

Mehnat – inson ehtiyojini qondirish asosida tashqi olamni o‟zgartirishga qaratilgan maqsadli faoliyat bo‟lib, u inson faolligining anglangan bir turiga kiradi. Mehnat inson uchun shaxsiy va ijtimoiy hayotida o‟zini ro‟yobga chiqarish va ko‟rsata olish vosita hamda usulidir. Bu o‟z navbatida uning muomalasi, o‟zini va tashqi olamni anglashi, o‟zini shaxs sifatida rivojlantirishi, moddiy va ma‟naviy qadriyatlarni yaratishida aks etdi. Bu vazifalarni bajarilishi mehnatning maqsadini tashkil etadi.

Mehnat funktsiyalarining samarali amalga oshishi quyidagi omillargabog‟liqdir:

1) muayyan faoliyat uchun layoqatli kishilarni tanlash;



2) kasbiy tayyorgarlik;

3) mehnat jarayonini tashkil etish va rasional sharoitlar;

4) mehnat qurollarining qulayligi va samarali ekanligi;

5) ish ko"lamiga inson imkoniyatlarining mos kelishi;

6) mehnat xavfsizligi tizimi, kasbiy salomatlik va umrni saqlash, ishga layoqatlikni psixologik quvvatlash.

Mehnat (mazmuni, sharoitlari, maqsadlari) shaxs rivojlanishiga xizmat qilishi, unga quvonch, baxtni keltirishi va erishgan natijalaridan qoniqish hissini tuyishiga olib kelishi kerak. Mehnat – inson imkoniyatlarining psixologik, fiziologik, kasbiy va boshqa jihatdan namoyon eta olish xususiyati bo‟lib, u turli toifa odamlarda turlicha bo‟ladi. Asosan, yoshga ko‟rsatkichiga, kasbiy tayyorlik darajasiga, salomatlik holatiga bog‟liq ravishda kechadi. Mehnat faoliyatini takomillashtirish bo‟yicha ko‟pgina amaliy vazifalarni bajarish, shuningdek shaxs psixik faolligining asoslarini mehnat faoliyatiga bog‟liqlik tomonlarini o‟rganish masalasi muhimdir. Unga ko‟ra, mehnat faoliyati tashkil etuvchilarining tizimini ko‟rib chiqish mumkin. Mehnat faoliyati tashkil etuvchilarining tuzilmasi 2 -rasmda aks ettirilgan.

Mazkur rasmda keltirilgan chizma, ya‟ni mehnat faoliyati sub‟yektiningchizmasi ergotik tizim deb ataladi (grekcha **yesgpn** – ish).

Mutaxassislik – faoliyat shakllari birlashmasi bo‟lib, mazmun, vositalar,tashkilotlar, mehnat natijalari hamda mehnat sub‟yektini



tayyorlashga qo‟yiladigan talablar majmuini tashkil etadi. Bu tushunchada mehnat faoliyatining turli tomonlari va turli darajasi aks ettiriladi:

1) mehnat ob‟yekti va predmeti, uning mazmuni, shartlari hamda tashkiliy jihatlari;
2) maqsadli vazifa va mehnatning natijaviy xarakteri;
3) mehnat egasining xususiyatlari – uning bilimlari, malaka, ko‟nikma,qobiliyatlari;
4) iqtisodiy va ijtimoiy tomonlari – ishga joylashish, moddiy ehtiyojlarniqondirilishi, ijtimoiy mavqening tasdiqlanishi;
5) faoliyat turi.

Mutaxassislik – faoliyatning aniq shakli bo‟lib, mehnat egasining kasbiy tayyorligi, mehnat vositalari, mehnat jarayoni va maqsadining maxsus xususiyatlari bilan belgilandi. Mutaxassislik tushunchasi odatda konkret faoliyat turi (kasb o‟zida) va xususiy xarakteristikasini ifodalaydi. Mehnatning qay darajada bo‟linish imkoniyatini aks ettiradi (masalan, vrach – kasbi, mutaxassislik – terapevt, jarroh, ko‟z vrachi, kardiolog va boshqalar).

Mehnatning psixologik mazmuni. Mehnat faoliyatining har bir aniq turi ma‟lum darajada normativ tasdiqlangan bo‟ladi. Bunda albatta samaraliroq va ixchamroq variant muhim mezon etib olinadi. Inson kasbni o‟zlashtirish jarayonida bu yozilgan normalarni individuallashtiradi, ya‟ni o‟ziga, ungagina xos bo‟lgan shaxsiy fazilatlar va psixologik xususiyatlarni namoyon etadi. 3 -rasmda faoliyatning psixologik tizimi, undagi funksional tarkib berilgan.



Bu rasmdagi har bir tarkib o‟z mazmun va mohiyatiga ega:

1) faoliyat motivlari, uni harakatlantiruvchi kuchlari (moddiy, bilish, estetik va boshqalar);

2) faoliyat maqsadlari, uning mazmunini shakllantiradi va aniq kutiladigan natijalarda ifodalanadi;

3) faoliyat dasturi, mazmunning aniq tasavvurini va jarayonni aks ettiradi;

4) faoliyatning axborotga asoslanganligi, ma‟lumotlar bazasi, kasbiy bilimlarga oid predmetli va sub‟yektiv sharoitlar, ularni amalga oshirishga oid ma‟lumotlar;

5) qarorlarni qabul qilish jarayoni, muammoli vaziyatni ko‟rish, farazni, ilgari surish (muammoni yechimi usullarini), bajarish tamoyilini aniqlash, hal etish variantlarini baholashni amalga oshirish;

6) psixomotor jarayonlar;

7) muhim professional sifatlar, mehnat egasining psixologik xususiyatlari, aniq mehnat jarayonida namoyon bo‟ladigan individual-psixologik sifatlar, fazilatlar.

Mehnat faoliyatini o‟rganish metodlari. Shaxsni mehnat faoliyatida psixik holati, jarayonlari, mehnatdagi yutuqlarini aniqlash maqsadida turli metodlar qo‟llaniladi. Bunda qaysi mezonlarga ko‟ra shaxs muvaffaqiyatlarga erishishi amalga oshganligi masalasi muhim bo‟ladi. Shuning uchun ushbu toifadagi metodikalar qo‟llanishi kuzatiladi:

1) aniq faoliyatning o‟ziga xos tomonlari bilan tanishish uchun*ishhujjatlarini tahlil etish*;

2) faoliyat mazmuniga oid ma‟lumotni vizual to‟plash uchun *ish jarayoninikuzatish*;

3) *xronometraj*, mehnat jarayonining ayrim ko‟rsatkichlarini baholash;

4) mehnat kishisidan yozma yoki og‟zaki ravishda ma‟lumot olish uchun

so"rov (anketa, suhbat, ekspert baholash) metodi;

5) mehnat vazifalarini bajarishga oid shaxsiy tasavvur, fikr, kechinmalarni

o"zida kuzatish va *o"zida hisoboti;*

6) mehnat faoliyatiga qo‟yilgan eksperimentatordan faoliyatga oidma‟lumotlarni olish uchun *mehnat metodi;*

7) shaxsning hayotiy va faoliyatga oid ma‟lumotlarini tahlili uchun *biografikmetod;*

8) faoliyat sharoitlarini o‟rganish uchun *fiziologo-gigiyenik metodlar;*

9) mehnat sub‟yektining psixologik xususiyatlarini o‟rganish uchun *tajriba(tabiiy va laboratoriya)metodi.*

Guruhlardagi ijtimoiy psixologik hodisalar. Guruhda quyidagi ijtimoiy psixologik hodisalar mavjud: ijtimoiy fikr, taqlid, ta‟siriga berilish, konformizm. Ijtimoiy - psixologik muhit ko‟p jihatdan jamoa a‟zolarining sig‟ishuvchanligiga bog‟liqdir.

Guruhiy mos kelish (sig‟ishuvchanlik) fiziologik va psixologik bo‟lishi mumkin. Bir kishining mehnat unumdorligini keskin tushiruvchi va bu bilan ikkinchisida toliqishning oshuviga olib keluvchi fiziologik mos kelishning buzilishiga o‟tinni qo‟lda arralash uchun bir juft ishchi sifatida baquvvat kishi bilan dardchil yigitchani yuborishgani misol bo‟la oladi. Guruhiy psixologik mos kelish psixomotor, emotsional - irodaviy xususiyatlariga diqqat va tafakkurdagi farqlariga bog‟liqdir. Lekin hammadan ko‟ra ko‟proq guruh tarkibiga kiruvchi har bir kishining shaxsiy xarakteri xususiyatiga bog‟liq bo‟lmasligi, ammo, albatta, sig‟ishuvchan bo‟lishi kerak.

Psixologik muhit vujudga keltirishda aksari guruhga mos kelishga bog‟liq bo‟lgan ijtimoiy kayfiyat katta ahamiyatga ega. U guruhda bevosita ijobiy yoki salbiy psixologik muhit vujudga keltiradi.

Guruhning ichki tuzilishi. Har qanday guruh tuzilishiga ko‟ra guruh a‟zolari nufuzi va statusining o‟ziga xos darajasini aks ettiradi. Uning yuqorisida referentometrik va sotsiometrik tarzda tanlanadigan shaxslar o‟rin oladi, eng orqada esa noreferent va sotsiometrik jihatdan siqib chiqarilgan individlar turishadi. Mazkur ierarxiya zinapoyasining eng yuqori bosqichida guruhning lideri joylashadi.

Lider - bu shunday shaxsdirki, guruhning qolgan barcha a‟zolari uchun o‟zining manfaatlariga daxldor bo‟lgan hamda butun guruh faoliyatining yo‟llanishini va xarakterini belgilab beradigan eng mas‟uliyatli yechimlarni qabul qilishga haqli deb hisoblaydigan shahsdir. Lider rasman guruhning rahbari bo‟lishi ham va, aksincha, bo‟lmasligi ham mumkin. Lider bilan rahbarlikning yagona bitta shaxsga kelishi maqbul hodisa hisoblanadi. Bordi-yu, agar bunday muvofiqlik bo‟lmasa, u holda guruh faoliyatining samaradorligi rasmiy rahbar (masalan, sinf boshi) bilan norasmiy lider yoki liderlar o‟rtasidagi munosabatlar qay tarzda yuz berishiga bog‟liq bo‟ladi.

Lider tiplari. Guruh jamoasining rasmiy rahbarlik tizimi (guruhboshi, yoshlar tashkilotchisi va jamoatchilik ishlarning ayrim sohalari uchun mas‟ul kishilar) unda norasmiy nufuzning taqsimlanishi va norasmiy peshqadam sifatida tanilish bilan to‟g‟ri kelishi ham, to‟g‟ri kelmasligi ham mumkin. Agar pirovad natijada shaxslararo munosabatlarda umumiy maqsadlarning mavjudligi jamoaga xalaqit qilmaydigan emas, balki hatto yordam berishi ham mumkin. Chunonchi, 30-40 o‟quvchidan iborat guruh hisoblanadigan guruhda guruhboshi va yoshlar

tashkilotchisiga tashqari odatga bir necha peshqadamlar mavjud bo‟lib, ulartevaragida bir nechta norasmiy guruhlar uyushadi.

Liderlarning quyidagi tiplari farqlanadi:

1. Faoliyatining mazmuniga qarab:

a) ilhomlantiruvchi, harakat yoki axloq dasturini taklif qiluvchi lider;

b) bajaruvchi - berilgan dasturni bajarish tashkilotchisi;

c) bir vaqtda o‟zida ham ilhomlantiruvchi, ham bajaruvchi.

2. Boshqarish usuliga ko‟ra:

a) avtoritar

b) demokratik

c) yuqoridagi ikki uslubni o‟zida mujassamlashtirgan.

3. Faoliyat xarakteriga qarab:

a) (vaziyatga bog‟liq) - o‟zida liderlik xususiyatlarini ma‟lum o‟ziga xos vaziyatlarni ko‟rsatib turadigan.

Guruhning ichki tuzilishini o‟rganish. Psixologiyada guruhdagi tabaqalanishni (uning ichki tuzilishini) o‟rganish uchun ko‟plab metodlar qo‟llaniladi. Ulardan ikkita asosiylari - sotsiometriya (sotsiometrik so‟rov) va referentometriya metodidir.

Amerikalik psixolog, mikrosotsiolog J.Moreno guruhlarda shaxslararo munosabatlarni o‟rganish uchun shaxslarning bir birini saylashini (tanlashi, afzal ko‟rishlarni) aniqlash usulini va hissiy afzal ko‟rishlarni qayd qilish texnikasini taklif etdi. Buni u sotsiometriya deb ataldi. Sotsiometriya metodi kichik guruhlarga taalluqli bo‟lgan shaxslararo munosabatlarni o‟rganish va o‟lchashning metodi sifatida taklif qilingan. Sotsiometriya yordamida shaxslararo birgalikdagi harakat jarayonida guruh a‟zolarida namoyon bo‟ladigan afzal ko‟rinishni, befarqlik yoki xush ko‟rmaslikni miqdoriy

me‟yorini aniqlash mumkin. Sotsiometriya guruh a‟zolarining bir - birlarini xush ko‟rishi yoki xush ko‟rmasligini aniqlashda keng qo‟llanadi. Guruh a‟zolarining o‟zlari bunday munosabatlarni anglab ola olmasliklari va ularning mavjudligi yoki mavjud emasligi haqida o‟zlariga hisob bermasliklari mumkin. Sotsiometriya metodi juda ham tezkor bo‟lib, uning natijalari matematik usul bilanqayta ishlanishi va yozma shaklda ifoda etilishi mumkin. Sotsiometrik usulining negizida "Sen kim bilan birga bo‟lishni hohlarding?" degan to‟g‟ridan - to‟g‟ri savol turadi. U kishilar o‟rtasidagi o‟zaro munosabatlarni hohlagan jabhasida tatbiq qilinishi mumkin: sen kim bilan birga bitta partada o‟tirishni, dam olishni, vaqtichog‟lik qilishni, ishlashni hohlarding vahokazo. Qoida tariqasida tanlashning ikki yo‟nalishi - birgalikda mehnat qilish sohasidagi va vaqtichog‟lik qilish sohasidagi yo‟nalishlari tavsiya qilinadi. Bu o‟rinda tanlashning maqbulligi darajasida (benihoya istak borligi, bajonudilligi, befarqligi, unchalik istalmayotganligi, sira ham istak yo‟qligi) aniqlik kiritilishi va tanlash uchun tavsiya qilinadigan shaxslar soni cheklangan bo‟lishi ham mumkin. Tanlashlarni sotsiometriya matritsasiga tushirish chog‟ida bular hisobga olinadi. Natijalarni tahlil etish o‟zaro xush ko‟rish va xush ko‟rmasliklarning murakkab tarzda chatishib ketganligini, sotsiometrik "yulduzlar" (ularni ko‟pchilik tanlaydi), "autsayder" larning (ulardan hamma o‟zini chetga tortadi) mavjudligini va butun ierarxiyasi ko‟rsatib beradi. Sotsiometriya metodini juda ham tezkor ekanligiga shubha yo‟q va uning yordami bilan guruh ichidagi hissiy intilishlar manzarasi yetarli darajada aniq - ravshan ko‟rsatilgan bo‟lishi mumkin. Bu natijalarni kuzatishlar yo‟li bilan aniqlash uchun uzoq vaqt sarflashga to‟g‟ri kelgan bo‟lardi. Har qanday guruhni hosil bo‟ladigan kommunikativ shoxobcha sifatida talqin qilish mumkin.

Lekin, sotsiometrik tahlil guruhdagi shaxslararo kommunikativ shoxobchaga juda ham umumiy tarzda ta‟rif berishi mumkin. U nima uchun individ bir xil birliklarda guruhga qarama - qarshi qo‟yilganligi, boshqalarida esa kommunikativ shoxobchadagi bunday uzilish borligini payqamasligini tushunib yetishga olib bormaydi. Sotsiometrik texnika yordamida qayd etiladigan bog‟lanishlar tizimini muqarar deb hisoblab bo‟lmaydi. Bugungi "yulduz" ertaga yakkalanib qolishi mumkin. Sotsiometriya natijalari bizga bunday o‟zgarishlarning sabablari haqida ma‟lumot bera olmaydi. Shuningdek, guruh a‟zolari birovlarni rad etib, boshqalarni tanlaganlarida nimalarga asoslanganliklari, guruhning har xil a`zolariga xos xush ko‟rish va xush ko‟rmasliklar zamirida qanday ma‟no borligi mavhumligicha qoladi.

9.2.Idrok va kasbga yo`naltirish haqida tushuncha.

Inson ayrim yorug‘ yoki rangli, tovushlar yoki aloqalarning o‘rganilmagan dunyosida emas, jismlar va shakllar, murakkab vaziyatlar dunyosida yashaydi. Inson tomonidan idrok etiladigan narsalar uning ko‘z o‘ngida yaxlit tasvirlar ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.[2] «Sezgi» va «idrok» tushunchlari o‘zaro bir-biri bilan bog‘liqdir, lekin ular o‘rtasida tub negizli farqlar ham mavjud. Qo‘shilish natijasida ayrim sezgilar yaxlit idrokka aylanadi, alohida belgilarni aks ettirishdan yaxlit jismlar yoki vaziyatlarni aks ettirishga o‘tadilar. Shuning uchun idrokning sezgidan asosiy farqi, bizga ta’sir o‘tkazuvchi barcha narsalarni anglash, ya’ni, jismni barcha xossolari bilan birgalikda yaxlit aks ettirishning predmetliligidan iborat.[1] Shunday qilib, ***idrok*** – bu jism va hodisalarni, ularning his-tuyg‘u organlariga bevosita ta’sir ko‘rsatishida yaxlit aks ettirish psixik jarayoni.[1]

Idrok – bu sezgilarning oddiy yig‘indisi emas. Idrok qilish jarayonida sezgilardan tashqari, avvalgi tajriba, idrok etiladiganlarni anglash, shuningdek, xotira jarayonlari qatnashadi. SHuning ko‘p hollarda idrok insonning perseptiv tizimi deb ataladi. Hozirda tasavvurlarni bilish jarayoniga oid turli nazariyalar mavjud. Bu nazariyalarda asosiy e’tibor his-tuyg‘u organlariga ta’sir ko‘rsatuvchi tashqi daraklarning anglangan perseptiv tasvirlarga aylanishiga qaratilgan.

Psixofiziologlarning tadqiqotlariga ko‘ra, idrok tahliliy ishlarni olib borishni talab etuvchi juda murakkab jarayondir. Idrok qilish jarayoniga muntazam ravishda harakatli tarkibiy qismlar (aniq jismlarni idrok qilishda jismlarni ushlab ko‘rish va ko‘zlar harakati; nutqni idrok qilishda mos kelgan tovushlarni kuylash va talaffuz qilish) kiritilgan bo‘ladi. SHuning uchun idrokni sub’ektning perseptiv (idrok qilinuvchi) faoliyati sifatida belgilash maqsadga muvofiqdir. Bu faoliyatning natijasi bo‘lib, real hayotimizda to‘qnashishimiz mumkin bo‘lgan jism haqidagi yaxlit tasavvur etish hisoblanadi.[2] Jismni yaxlit aks ettirish ta’sir etuvchi belgilarning(rang, shakl, ta’m va h.k.) yaxlit to‘plamidan, bir vaqtning o‘zida mavjud bo‘lmaganlardan asosiy etakchi belgilarni ajratib olishni talab etadi. Idrok qilishning ushbu perseptiv tasvirning shakllanish bosqichida tafakkur ham qantashishi mumkin, deb taxmin qilinadi. Lekin idrokningkeyingi bosqichi asosiy mohiyatga ega bo‘lgan guruhlarni birlashtirishni va idrok etilgan belgilar to‘plami bilan jism haqidagi avvalgi bilimlarni taqqoslashni talab etadi, ya’ni, idrok qilish jarayonida xotira ishtirok etadi. Agar taqdim etilayotgan jism haqidagi farazni taqqoslashda, u etkazilgan axborot bilan mos kelsa jismni tanib olish sodir bo‘ladi

va u idrok etiladi, agarda mos kelmasa, sub'ekt uni topmagunicha, kerakli echimni izlash davom ettiriladi. Idrok qilishda u yoki bu jismni idrok qilish istagi, uni idrok qilish zaruriyati yoki majburiyati, yaxshiroq idrok qilishga erishishga yo'naltirilgan iroda kuchi, bunday vaziyatlarda namoyon bo'ladigan qat'iyatlilik katta ahamiyatga egadir. Real olam jismini idrok qilishda insonning diqqati va yo'nalganligi ham qatnashadi. Idrok qilishga bo'lgan munosabatimiz idrok jarayoni uchun katta ahamiyatga ega. Jism bizga qiziqarli yoki biz unga befarq bo'lganimiz uchun, u bizda turlicha his-tuyg'ularni uyg'otishi mumkin. bizga qiziqarli bo'lgan jism faol idrok etilishi, va, aksincha, bizga farqsiz bo'lgan jismni sezmasligimiz ham mumkin. Shunday qilib, idrok – bu ayni vaqtda bizga ta'sir ko'rsatayotgan narsani bilishga qaratilgan o'ta murakkab, shu bilan birga, umumiy jarayon.[35]

Early in the twentieth century, a group of German psychologists noticed that when given a cluster of sensations, people tend to organize them into a gestalt, a German word meaning a "form" or a "whole." For example, look at the Necker cube in FIGURE 6.28 on the next page. Note that the individual elements of the figure are really nothing but eight blue circles, each containing three converging white lines. When we view them all together, however, we see a whole, a cube. The Gestalt psy¬chologists, who had wide-ranging interests, were fond of saying that in perception

Idrokning fiziologik asosi bo'lib his-tuyg'u organlari, nerv tolalari va markaziy asab tizimida ro'y beradigan jarayonlar hisoblanadi. Nerv qo'zg'alishi seskantiruvchilardan his-tuyg'u organlaridagi nerv tugunlarining markaziy proeksiyasidan iborat bo'lgan po'stloqning sensor sohalariga o'tkaziladi. Proeksiya sohasi qaysi organ bilan bog'langanligiga ko'ra, ma'lum sensor axborot shakllanadi. Sezgilar taklif etilgan yo'nalish darajasida idrok qilish jarayonining tarkibiy qismi sifatida shakllanadi. Idrokning fiziologik mexanizmlarining o'zi, qo'zg'alish bosh miya po'stlog'ining proeksiyali sohalardan integrativ sohalariga o'tganida, real dunyo hodisalari obrazlari shakllanishining tugallanishi sodir bo'ladigan keyingi bosqichlarda yaxlit obrazning shakllanishi jarayonlarida

[35] Psychology David G. Myers Hope College Holland, Michigan 290 p

ishtirok etadi. Shuning uchun idrok jarayonini yakunlovchi bosh miya po‘stlog‘ining integrativ sohalari, ko‘pincha, perseptiv sohalar deb ataladi. Bu sohalarning vazifasi proeksiyali sohalarning vazifasidan tubdan farq qiladi. Bu farq u yoki bu soha faoliyatning izdan chiqishida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Masalan, ko‘rish proeksiyali sohasining faoliyati buzilganida markaziy ko‘zi ojizlik paydo bo‘ladi, ya’ni, periferiya – his-tuyg‘u organlarining to‘liq faoliyatida odam butunlay ko‘rish sezgilaridan mahrum bo‘ladi, u hech narsani ko‘ramaydi. Integrativ soha faoliyatining zarar ko‘rishi yoki izdan chiqishida jarayon boshqacha tus oladi. Odam alohida yorug‘ dog‘larni, qandaydir sharpalarni ko‘radi, lekin ko‘rganlarini tushunmaydi. Unga ta’sir etuvchilarni anglay olmaydi, unga yaxshi tanish jismlarni ham taniyolmay qoladi. SHunga o‘xshash manzara boshqa modalliklarning integrativ sohalari faoliyatining izdan chiqishida ham kuzatiladi. Masalan, eshitish integrativ sohalarining buzilishida odamlar inson nutqini tushunolmay qoladalar.

Idrokning fiziologik asosi, uning harakat faoliyati, emotsional kechinmalar, turli tafakkur jarayonlari bilan uzviy bog‘langanligi sababidan yanada murakkablashadi. Bundan kelib chiqadiki, his–tuyg‘u organlarida boshlangan tashqi seskantiruvchilar ta’sirida paydo bo‘lgan nerv qo‘zg‘alishlari asab markazlariga o‘tadi, bunda ular po‘stloq sohalarini qamrab oladi, boshqa nerv qo‘zg‘alishlari bilan o‘zaro ta’sirga kirishadi. O‘zaro ta’sirga kirishgan va po‘stloqning turli sohalarini qamrab olgan bunday qo‘zg‘alishlar to‘ri idrokning fiziologik asosini tashkil etadi. Idrokning reflektorlik asosini I.P. Pavlov ochib berdi. Uning ko‘rsatishicha, idrokning assida shartli reflekslar, ya’ni, bosh miya katta yarim sharlari po‘stlog‘ida atrof-olam hodisalari yoki jismlarining retseptorlarga ta’siri natijasida hosil bo‘ladigan vaqtinchalik nerv aloqalari yotadi. Bunda nerv aloqalari hosil qilgan qo‘zg‘alishlarni qayta ishlashda analizatorlarning po‘stloq bo‘limlari yadrolarida tahlil qilish va sintezning murakkab jarayonlari sodir bo‘lganligi sababli, nerv aloqalari seskantiruvchilar to‘plami sifatida namoyon bo‘ladi. Tahlil qilish va sintez jarayonlari idrok ob’ektining atrof-muhitdan ajratib olinishini ta’minlaydilar, va shu asosda uning barcha xossalari yaxlit obrazga birlashadi.[1]

Idrok jarayonini ta’minlovchi vaqtinchalik nerv aloqalari ikki xil: ***bir analizator chegarasida*** va ***analizatorlar o‘rtasida*** hosil bo‘ladigan turlarga ajratilishi mumkin. Birinchi turdagilari organizmga bir modallikka ega bo‘lgan

ko‘p tomonlama seskantiruvchining ta’sir etishida alohida o‘rin egallaydilar. Masalan, bunday seskantiruvchi sifatida eshitish analizatoriga ta’sir ko‘rsatuvchi alohida tovushlarning o‘ziga xos uyg‘unligidan iborat bo‘lgan kuy xizmat qilish mumkin. Bu to‘plam yagona murakkab seskantiruvchi sifatida faoliyat ko‘rsatadi. Bunda nerv aloqalari seskantiruvchining o‘ziga nisbatan javob o‘rnida emas, balki, ularning vaqtinchalik, fazoviy va shu kabi munosabatlariga nisbatan ham hosil bo‘ladi. Natijada katta yarim sharlar po‘stlog‘ida integratsiyalash yoki murakkab sintez jarayoni sodir bo‘ladi.[36]

The creators of three-dimensional (3-D) movies simulate or exaggerate retinal dis-parity by photographing a scene with two cameras placed a few inches apart (a fea¬ture we might want to build into our seeing computer). When we view the movie through spectacles that allow the left eye to see the image from the left camera and the right eye the image from the right camera, the 3-D effect mimics or exaggerates normal retinal disparity. Similarly, twin cameras in airplanes can take photos of ter¬rain for integration into 3-D maps.

Ko‘p tomonlama seskantiruvchi ta’sirida hosil bo‘ladigan nerv aloqalarining ikkinchi turi – bu turli analizatorlar chegarasidagi aloqalar, ularning yuzaga kelishini I.M. Sechenov assotsiatsiyalar (ko‘rish, kinestetik, sezish va h.k.) mavjudligi bilan tushuntirgan edi. Odamda bu assotsiatsiyalar so‘zning eshitiladigan obrazi bilan birgalikda kuzatiladi, bunda idrok yaxlitlik xususiyatiga ega bo‘ladi. Masalan, agar ko‘zlaringizni bog‘lab qo‘yib, qo‘lingizga aylanasimon jism tutqazilsa, oldindan uni iste’mol qilish mumkinligi uqtirilsa, bunda siz uning o‘ziga xos hidini sezishingiz, tatib ko‘rishingiz, va hech qiynalmasdan, nima haqida gap ketayotganini tushunib olishingiz mumkin. Bundan, analizatorlar o‘rtasidagi aloqalar hisobiga jismlar yoki hodisalarning idrok qilinishi uchun maxsus moslashtirilgan analizatorlari bo‘lmagan xossalarini idrokda aks ettirishimiz mumkinligi kelib chiqadi (masalan, jismning kattaligi, sof og‘irligi va boshqalar).

[36] Psychology David G. Myers Hope College Holland, Michigan 295 p

Shunday qilib, idrok obrazini tuzishning murakkab jarayoni asosida seskantiruvchilarni yaqqol ko‘rish sharoitlari bilan jism xossalarining o‘zaro ta’sirini murakkab yaxlitlik sifatida hisobga olgan holda ta’minlaydigan ichki Idrokning asosiy xossalariga predmetlilik, yaxlitlik, strukturaviylik, konstantlik, anglanganlik, appersepsiya, faollik kiradi.

Idrokning asosiy xossalari va turlari.

Idrokning ***predmetliligi*** – bu real olam jism va hodisalarini bir-biri bilan bog‘lanmagan sezgilar to‘plami ko‘rinishida emas, alohida jismlar shaklida aks ettirish qobiliyati. Predmetlilik idrokning tug‘ma xossasi emas. Bu xossaning paydo bo‘lishi va takomillashtirilishi bola hayotining birinchi yilidan boshlab, ontogenez jarayonida sodir bo‘ladi. I.M.Sechenov fikriga ko‘ra, predmetlilik bolaning jism bilan aloqasini ta’minlaydigan harakatlar asosida shakllanadi.

Idrok predmetliligini ta’minlashda harakatlarning o‘rni haqida gap ketganida, idrokning motorli tarkibiy qismi haqida so‘z yuritishimiz lozim, motorli tarkibiy qismga jismni paypaslayotgan qo‘l harakati; ko‘rinib turgan shaklni kuzatib chiqayotgan ko‘z harakatlari; tovush chiqarayotgan hiqildoq harakatlari va h.k.lar kiradi.

Ko‘zlar va qo‘llar harakatida umumiylik mavjudligini ta’kidlash lozim. Ko‘zlar, qo‘llar kabi surat va jism shakllarini «paypaslagandek» ketma-ket kuzatib chiqadi. Ko‘zlar harakati turli-tuman bo‘lib, ko‘pchilik vazifalarni bajaradi. Ko‘rish idrokida ko‘zlarning mikro- va makroharakatlari alohida o‘rin tutadi. Agar odam harakatsiz jismning qandaydir nuqtasiga tikilib tursa, u holda unda sub’ektiv ravishda bu nuqtani harakatsiz nigohi bilan qayd etayotganidek tasavvur paydo bo‘ladi. Haqiqatda esa ko‘rish idroki inson uchun ixtiyorsiz va sezilarsiz mikroharakatlar bilan birgalikda kechadi. SHunday qilib, jismni idrok qilish imkoniyati idrok jarayonida motorli tarkibiy qismning ishtiroki bilan belgilangan.

Idrokning boshqa xossasi uning ***yaxlitligi***dir. Jismning alohida xossalarini aks ettiruvchi sezgilardan farqli ravishda, idrok jismning yaxlit obrazini yaratadi. Sezgining tarkibiy qismlari o‘zaro shu darajada mahkam bog‘langanki, jismning yagona murakkab obrazi odamga ob’ektning alohida xossalari yoki alohida qismlari bevosita ta’sir ko‘rsatganida ham hosil bo‘ladi. Idrokning yaxlitligi, hatto, idrok etilayotgan ob’ektning alohida xossalari chala aks ettirilganida ham qabul

qilingan axborot xayolan aniq jismning yaxlit obrazi holatiga etkazilishi bilan ifodalanadi.

Idrokning yaxlitligi uning ***strukturaviyligi*** bilan bog‘liq. Ushbu xossa ko‘pchilik hollarda idrokning daqiqali sezgilarimizning proeksiyasi va ularning oddiy yig‘indisi emasligidan iborat bo‘ladi. Bizlar bu sezgilardan ajratib olingan, bir muncha vaqt davomida shakllanadigan umumiy tuzilishni idrok etamiz. Masalan, agar odam biror-bir kuyni tinglayotgan bo‘lsa, yangi nota jaranglashi haqida axborot etkazilguniga qadar uning ongida avval tinglangan kuyning notalari jaranglayveradi. Odatda, tinglovchi kuyni tushunib etadi, ya’ni, uning tuzilishini yaxlitligicha idrok etadi. SHunday qilib, idrok ongimizga biz real olamda duch kelgan jism yoki hodisaning tuzilishini etkazib beradi.

Idrokning navbatdagi xossasi uning ***konstantligi***dir. Konstantlik deb, idrok qilish sharoitlarining o‘zgarishida jismlar ba’zi bir xossalarining nisbiy doimiyligiga aytiladi. Perseptiv tizimning idrok sharoitlarining o‘zgarishini to‘ldirish qobiliyatida namoyon bo‘ladigan konstantlik tufayli, bizni o‘rab turgan jismlarni nisbatan doimiy jismlar sifatida idrok etamiz. Yuqori darajadagi konstantlik jismlar rangi, kattaligi va shaklini ko‘rish idrokida kuzatiladi.

Rangni idrok qilish konstantligi yoritilganlikning o‘zgarishida ko‘zga ko‘ringan rangning nisbiy o‘zgarmasligidan iborat. Masalan, ko‘mir bo‘lagi yozning quyoshli kunida, kech tushgan vaqtdagi bo‘rdan ko‘ra taxminan 8-9 marta yorqinroq ko‘rinadi. Lekin ko‘mirni qora rangda idrok etamiz, bo‘rning tusi esa, kechqurun bo‘lsa ham, biz uchun oq bo‘ladi. Rangning konstantlik hodisasi qator sabablar, shu jumladan, ko‘rish maydoni yorqinligi umumiy darajasining yorqin ranglarning keskin o‘zgarishiga moslashishi, shuningdek, yoritilganlik sharoitlarida jismlarning haqiqiy rangi haqidagi tasavvurlarning ta’siri bilan belgilanadi.

Jismlar kattaligi idroki konstantligi jismlarning turlicha uzoqlashganlik masofalaridagi jismlarning ko‘zga ko‘ringan kattaligining nisbiy doimiyligida ifodalanadi. Xuddi shunday, bir xil odamning bo‘y o‘lchami 3,5 va 10 metr masofadan, ko‘z to‘r pardasidagi tasvirining kattaligi uzoqlashish masofasiga ko‘ra turlicha bo‘lsada, o‘zgarmas holatda idrok etiladi. Bu holat jismlarning uncha katta bo‘lmagan uzoqlashish masofasida ularni idrok qilish kattaligi faqatgina ko‘z to‘r pardasidagi obrazning kattaligi bilan emas, balki, qator omillar ta’siri bilan ham

tushuntiriladi. Bunday ahamiyatga molik bo‘lgan omillardan jismni turli masofalarda qayd etishga moslashayotgan ko‘z mushaklarining zo‘riqishidir.[37][3]

Experience also influences our perception of faces. You and I perceive and recognize individual faces as a whole. Show us the same top half of a face paired with two different bottom halves

Jismlar shakli idroki konstantligi jismlar holatining kuzatuvchi nigohi chizig‘iga nisbatan o‘zgarishi sharoitida idrokning nisbiy o‘zgarmasligidan iborat. Ko‘zlarga nisbatan jism holatining har bir o‘zgarishida uning to‘r pardadagi tasvirining shakli o‘zgaradi (masalan, jismga to‘g‘ri, yon, orqa tomondan qarash mumkin va h.k.). Lekin ko‘zlarning, bizga avvalgi tajribadan ma’lum bo‘lgan jismlar shakli va chiziqlariga xos bo‘lgan uyg‘unliklarni ajratish bo‘yicha harakatlari tufayli idrok etilayotgan jism shakli biz uchun doimiy bo‘lib qoladi. Idrok konstantligi manbai bo‘lib perseptiv tizimning faol harakatlari xizmat qiladi. Aynan o‘sha jismlarning turli sharoitlarda ko‘p martalab idrok etilishi perseptiv obrazlarning o‘zgaruvchan sharoitlarga nisbatan doimiyligi (invariantlik, o‘zgarmas tuzilish)ni, shuningdek, retseptor apparatining harakatlarini ta’minlaydi.

Idrokning xususiyatlari insonning barcha orttirilgan amaliy va hayotiy tajribasi bilan belgilanadi, chunki idrok jarayoni faoliyatdan ajralmasdir. Idrok seskantiruvchining xususiyatining o‘zigagina emas, balki, sub’ektga ham bog‘liq bo‘ladi. Ko‘z va quloq emas, ma’lum bir jonli inson idrok etadi. Idrokning psixik hayotimizning umumiy mazmuniga bog‘liqligi ***appersepsiya*** deb ataladi.

Appersepsiyada insonning bilimlari, orttirilgan tajribasi, avvalgi amaliyoti katta o‘rin egallaydi. Bilim va tajriba idrokning aniqligi va yorqinligiga muhim ta’sirga ega. CHet tilini idrok qilishda tanish bo‘lmagan so‘zlarni bilmasdan turib, o‘z ona tilimizni, hatto, so‘zlar tushunarsiz talaffuz etilganda ham, bexato anglaymiz.

[37] Psychology David G. Myers Hope College Holland, Michigan 301 p

Idrok mazmuni inson oldiga qo‘yilgan vazifa, hamda uning faoliyati motivlari, uning qiziqishlari va yo‘nalganligi bilan belgilanadi. Appersepsiyada asosiy o‘rin idrok mazmunini o‘zgarishi mumkin bo‘lgan mayl va hissiyotlarga ajratiladi. Uxlayotgan bolaning onasi ko‘chadagi shovqinlarni eshitmasada, bola tomondan kelgan har bir tovushga darhol munosabat bildiradi.

Noto‘g‘ri (soxta) yoki izdan chiqqan idrok hodisasi ***idrok illyuziyasi*** deb ataladi. Illyuziyalar idrokning turli ko‘rinishlarida (ko‘rish, eshitish va b.) kuzatiladi. Illyuziyular tabiati faqat mayl. yo‘nalganlik, hissiy munosabatlar va h.k.lar kabi sub’ektiv sabablar bilan emas, balki, yoritilganlik, fazoviy holat va boshqalar kabi jismoniy omillar va hodisalar bilan belgilanadi.[1]

Idrokning ***anglanganligi***. Perseptiv obrazlar har doim ma’lum mazmun ahamiyatiga ega bo‘ladi. Inson idroki, avval ta’kidlaganimizdek, tafakkur bilan uzviy bog‘langan. Tafakkur va idrokning aloqasi, avvalambor, jismni ongli idrok qilish – unga tafakkurda nom berishda, ya’ni, uni ma’lum guruh, sinfga tayinlab, ma’lum so‘z bilan bog‘lashda ifodalanadi.[1]

Idrok etiladigan axborotni anglash jarayoni struktura-mantiqiy chizma yordamida taqdim etilishi mumkin. Idrok jarayonining birinchi bosqichida axborot oqimidan rag‘batlar to‘plamini ajratib olish va ularning aynan bir xil ob’ektga tegishli ekanliklari haqida qaror qabul qilish amalga oshiriladi. Ikkinchi bosqichda ob’ektni identifikatsiyalash mumkin bo‘lgan sezgilarning belgilar to‘plamining tarkibiga yaqin yoki o‘xshash bo‘lgan sezgilarni xotirada izlash jarayoni sodir bo‘ladi. Uchinchi bosqichda idrok etilgan ob’ektni, qabul qilingan qarorni e’tirof yoki inkor etuvchi qo‘shimcha belgilarni izlash bilan birga, ma’lum darajaga kiritish jarayoni sodir bo‘ladi. Va, nihoyat, to‘rtinchi bosqichda ob’ekt bilan bir sinfga tegishli ob’ektlarga xos bo‘lgan, lekin hali idrok etilmagan xossalari bilan birgalikda, ob’ekt haqida yakuniy xulosa shakllanadi. Shunday qilib, idrok – bu ahamiyatga molik darajadagi intellektual jarayon.

Idrok qilishni tashkil qilish. Sezgi ma’lumotlarini ahamiyatli idrokka aylantirish uchun biz uni tashkil qilishimiz kerak: narsalarni ularning atrof-muhitidan ajratib olishimiz, ularning ahamiyatli va doimiy shaklini farqlashimiz, shuningdek ular harakatlanishi yoki harakatlanmasligini va ular bizdan qanday masofada turganligini aniqlashimiz kerak. Miyaning idrok qilish va uning qoidalari shakllanishidagi roli ayrim illyuziyalar bilan izohlanadi. XX asr boshida bir guruh

nemis psixologlari bizning aql-idrokimiz qanday tarzda his-tuyg‘ularimiz, sezgilarimizni tashkil qilishi va ularni idrokka aylantirishiga qiziqib qoldilar. Sezgi signallarini qabul qiluvchi odam ularni “geshtalt” (nemischa – “shakl” yoki “yaxlit” ma’nosini anglatadi)ga aylantiradi. Geshtaltpsixologiya odam bunday qobiliyatining ko‘p sonli misollarini tavsiflab berdi. Rasmga e’tibor bering, shaklning alohida qismlari – bu bor-yo‘g‘i uchta oq chiziqdan iborat. Biroq biz ularning barchasini birgalikda idrok qilganimizda, yaxlit shakl – “Neker kubi”ni ko‘ramiz.[1]

Geshtaltpsixologiya tarafdorlari idrok qilishda yaxlit narsa uni tashkil qiluvchi miqdordan farqlanishi mumkin, deb hisoblaydilar. Natriy – korroziya metallini xlor – zaharli gaz bilan biriktiring, Siz umuman boshqa modda – osh tuzi hosil qilasiz. SHakl ham xuddi shunday tarzda idrok qilinadi – ob’ekt tarkibiy qismlari miqdori emas, balki nimadir yangi shakl (Koek & Ra1teg, 1990). Idrok qilish har doim sezishdan biror jihatdan ko‘proq bo‘ladi.

Shaklni idrok qilish. Tasavvur qiling, Siz videokompyuter tizimini o‘z “ko‘z+miya” tizimingiz kabi qo‘lyozmani o‘qish yoki odamlar yuzini tanish darajasida loyihalashtirishingiz kerak. (Pochta xodimlari bunday skaner yaratilishiga umid qiladilar). Bunday tizimga qanday xususiyatlar zarur bo‘lishi mumkin?

Binokulyar yo‘l-yo‘riqlar

Bizning ko‘zlarimiz bir-biridan 2,5 dyuym masofada joylashganligi sababli ularning to‘rpardalari atrof-muhit manzaralarini biroz turlicha qabul qiladi. Miya ushbu manzaralarni solishtirganda, aynan to‘rsimon nomutanosiblik (ikki manzara o‘rtasidagi farq) masofani aniqlashga yordam beradi. Agar Siz barmog‘ingizni burun uchiga deyarli tegizilgan holda ushlab tursangiz, to‘rpardalarda barmoqning 2 ta har xil aksi paydo bo‘ladi (Siz bunga rasmda ko‘rsatilgandek, navbatma-navbat bir ko‘z, so‘ngra esa ikkinchi ko‘z qisilganda va barmoqlaringiz ingichka kolbasa ko‘rinishida bukilganda bunga ishonch hosil qilishingiz mumkin). Katta masofada esa, aytaylik, uzatilgan qo‘l masofasida ushbu nomutanosiblik kamroq bo‘ladi.[2]

Stereoskopik filmlarni yaratuvchilar bir-biridan bir necha dyuym (1 dyuym – 25,5 mm) masofada joylashtirilgan ikkita kamera yordamida suratga olish orqali to‘rsimon nomutanosiblikdan kuchli taassurot hosil qiladilar (xuddi shunday

imkoniyatni, ehtimol, kuzatuv olib borishi mumkin bo‘lgan kompyuterda ham yaratishni istardik). So‘ngra ekranga ko‘zoynak yoki chap ko‘z bilan chap kameraning “ko‘rish maydoni”, o‘ng ko‘z bilan esa – o‘ng kameraning “ko‘rish maydoni”ni ko‘rish imkonini beradigan maxsus moslama orqali qaralganda, to‘rsimon nomutanosiblikning odatdagi samarasi hosil bo‘ladi. Kompyuter namunalari uchun ham ushbu samara xosdir.[38]

Idrokning yana bir muhim xossasi – bu uning ***faolligi,*** yoki ***tanlab o‘tkazishi***. Bu xossa bizning istalgan vaqtda faqat bir jism yoki ma’lum jismlar guruhini idrok qilishimizdan, real olamning boshqa ob’ektlari esa idrokimizning foni bo‘lib xizmat qilishidan iborat. Xuddi shunday, ma’ruza tinglab yoki kitob o‘qib o‘tirganingizda ortingizda nimalar sodir bo‘layotganiga e’tibor bermaysiz. SHunday qilib, idrok faolligi tabiati ongimiz tabiati tomonidan belgilangan.

Endi idrok turlarini ko‘rib chiqamiz. Hozirgi zamon psixologiyasiga oid adabiyotlarda idrokning tasniflanishiga doir bir qancha yondoshuvlarni keltirish mumkin. Tasniflanishlardan birining asosida idrokda ishtirok etuvchi analizatorlardagi tafovutlar yotadi. Idrokda qaysi analizator yoki modallikning ahamiyatliligiga muvofiq ravishda ko‘rish, eshitish, teri- tuyish, kinestetik, hid bilish va ta’m bilish idroklari mavjud.[1]

Odatda, idrok – qator analizatorlar o‘zaro ta’sirining natijasi bo‘lib hisoblanadi. Misol tariqasida taktil va kinestetik analizatorlar ishtirokidagi teri-tuyish idrokini aytib o‘tish joizdir. Idrok turlari sof holda juda kam uchraydi. Odatda, ularning o‘zaro uyg‘unlashib ketishi natijasida idrokning murakkab turlari hosil bo‘ladi. O‘quvchi tomonidan matn idroki ko‘rish, eshitish va kinestetik idrokni o‘z ichiga oladi.[39][3]

Some¬times new evidence does overturn our scientific preconceptions. Science, as we will see throughout this book, offers us various surprises—about the extent of the unconscious mind, about the effects of emotions on health, about

[38] Psychology David G. Myers Hope College Holland, Michigan 410p

[39] Psychology David G. Myers Hope College Holland, Michigan 313p

what heals and what doesn't, and much more. Before we evaluate claims of ESP, let's review them.

Idrokning boshqa tur tasnifining asosini materiyaning mavjud bo‘lish shakllari: fazo, vaqt va harakat tashkil etadi. Bunga muvofiq ravishda fazoviy idrok, vaqt idroki va harakat idroki ajratiladi.

10 XOTIRA VA KASBIY MASLAHAT. QOBILIYATLAR VA SHAXSNING KASBIY SHAKLLANISHI.

Reja:

10.1 Xotira haqida tushuncha. Xotira turlari va uning nerv fiziologik asoslari

10.2 Xotira jarayonlari va uning individual farqlari.

10.3 Qobiliyat haqida umumiy tushuncha, sifati va miqdori, qobiliyatning tuzilishi.

Tayanch iboralar. Qobiliyat, isteъdod, talant, layoqat, tug'ma va orttirilgan, qobiliyatning strukturasi, iqtidor, diagnostika

10.1 Xotira haqida tushuncha. Xotira turlari va uning nerv fiziologik asoslari

Xotira biz ilgari idrok qilgan, boshdan kechirgan va bajargan ishlarimizni yodda saqlash, keyinchalik ularni eslash yoki xotirlash jarayonidir. Biz har kuni yangi narsalarni bilamiz, kun sayin bilimlarimiz boyib boradi. Xotira faoliyatida shaxsning g’oyaviy yo’nalishi katta o’rin egallaydi. Bu yo’nalish uning faoliyatini hayot sharoiti ta’sirida shakllantiradi. Kishi o’zining shu faoliyati uchun muhim bo’lgan voqyea hodisalarni yaxshi eslab qoladi. Aksincha, kishi uchun ham ahamiyatga ega bo’lgan narsalar yomon esda qoldiriladi va tezda unutib yuboriladi. Shu o’rinda xotira borasidagi ta’riflarga qaytsak, ularni ko’pgina adabiyotlarda xotira tushunchasiga nisbatan «Indvidning o’z tajribasida esda olib qolishi esda saqlashi va keyinchalik uni yana esga tushirishi ***xotira*** deb ataladi». Lekin mazkur

ta'riflarni tahlil qilgan professor E.o'oziyev tomonidan quyidagicha ta'rif beriladi. «***Xotira*** atrof-muhitdagi voqyelik (narsa)ni bevosita va bilvosita, ixtiyoriy va ixtiyorsiz ravishda, passiv va faol holda, reproduktiv va produktiv tarzda, verbal va noverbal shaklda, mantiqiy va mexanik yo'l bilan aks ettiruvchi esda olib qolish, esda saqlash, qayta esga tushirish, unutish hamda tanish xissidan iborat psixik jarayon. Alohida va umumiylik namoyon qiluvchi ijtimoiy hodisa barcha taassurotlarni ijobiy qayta ishlashga yo'naltirilgan mnemik faoliyatdir».

Shuni ta'kidlash joizki, kelitirilgan mazkur ta'rif xotiraning murakkab keng qamrovli jihatlarini to'la ta'kidlash imkoniyatiga ega.

Shaxsning yo'nalishi uning qiziqishida ifodalanadi. Kishining qiziqishi xotiraga aniq va kuchli ta'sir ko'rsatadi, ya'ni yaxshi esda olib qolishni ta'minlaydi. Biz ko'pincha u yoki bu narsa va hodisalarni yomon esda qoldiramiz bu xotirani yomonligini emas balki ularga qiziqish yo'qligini ko'rsatadi. Masalan, o'quvchilar hamma fanlarni bir xil o'zlashtira olmaydilar. Bu ularning har xil xotiraga ega ekanliklarini emas, balki o'qitilayotgan fanga qiziqishning har xilligi bilan tushuntiriladi. Esda olib qolishga kishining emosional munosabati ham katta ta'sir ko'rsatadi. Kishi uchun yaqqol xayajonli reaksiya vujudga keltiruvchi narsalar ongda chuqur iz qoldirib puxta va uzoq yodda saqlanadi. Biz bir narsadan ta'sirlansak, o'sha uzoq vaqt esda saqlanadi. Samarali xotira kishining iroda sifatlariga ham bog'liqdir. Kuchsiz, irodasiz, ishyoqmas kishilar har doim yuzaki yomon xotirlaydilar. Aksincha, irodali, materialni o'zlashtirishga astoydil kirishadigan kishilar puxta va chuqur eslab qoladilar. Samarali xotira kishining umumiy madaniyatiga uning aqliy saviyasiga bilimiga o'quviga fikrlash qobiliyatiga, ko'nikmaa va odatlariga ham bog'liqdir. Shunday qilib, xotiraning tabiati va uning samaraliligi shaxsning xususiyatlari bilan bog'liqdir. Shaxs o'z oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalari asosida o'zining xotirlash jarayonini ongli ravishda tartibga soladi va boshqaradi.

Xotira sohasida quyidagi asosiy jarayonlar: esda olib qolish, esda saqlash, esga tushirish va unutish bir-biridan farq qilinadi. Bu jarayonlar faoliyatda tarkib topadi va belgilanadi. Ma'lum materialni esda olib qolish hayot faoliyati davomida individual, ya'ni shaxsiy tajribani turlash bilan bog'liqdir. To'plangan tajribadan keyingi faoliyatda foydalanish qayta esga tushirishni talab qiladi. Ma'lum materialning faoliyatda qatnashmay qolishi yoddan chiqarishga olib keladi

Xotiraning uning nerv fiziologik asoslari

Esda olib qolish nerv tizimining miya egiluvchan, ya'ni o'zgaruvchanlik qo'zg'atuvchilar ta'sirida o'zida go'yo bir iz tarzda qoldirish, saqlash imkoniyati tufayli yuzaga keladi. Har qanday insonning miyasi egiluvchanlik xususiyatiga ega bo'lib, uning darajasi har xil bo'ladi. Shaxs xotirasining sifati miyaning faolligi va turli faoliyatga to'Ъridan–to'Ъri bog'liq ravishda rivojlanadi. Atrofni o'rab olgan borliqni faol biluvchi kishi o'z miyasi faoliyatini to'xtovsiz kuchaytiradi. Shu bilan

birga uning egiluvchanlik darajasini oshiradi. Miya egiluvchanligi vaqtincha pasayishiga xotira samarasining susayishiga ba'zi paytda odamning toliqishi sabab bo'ladi. Dam oldgandan keyin yana tiklanadi. Odatda miya egiluvchanligi yosh o'tishi bilan susayadi. Masalan, keksa kishilar gaplaridan adashib ketadi, ilgari gapirganlari esdan chiqib o'sha gapni takrorlayveradilar. Miya egiluvchanligining ko'rsatkichi bosh miya po'stlog'ida muvaqqat nerv aloqalarini tezlikda vujudga kelishi davomli saqlanishi va ularning tez, oson jonlantirilishi hisoblanadi. Muvaqqat nerv aloqalari assosiasiyalarini hosil qiluvchi fiziologik mexanizmdir. Assosiasiya bizning xotiramizda mustahkamlangan va ongimizda qayd qilingan ayrim voqyea hodisalarning o'zaro bog'lanishidir. Biror buyumni esda olib qolish, boshqa buyumlar bilan bog'lash orqali amalga oshiriladi. Bu o'rinda akademik I.P.Pavlovning quyidagi so'zlari juda xarakterlidir. «Muvaqqat nerv bog'lanishlari – deb yozadi I.P. Pavlov hayvonot olamida va bizning o'zimizda ham bo'ladigan eng umumiy fiziologik hodisadir. Shu bilan birga u psixik hodisa hamdir, turli tuman harakat taassurotyo bo'lmasa harflar, so'zlar va fikrlar o'rtasida paydo bo'ladigan bog'lanishlardiki, bu bog'lanishlarni psixologlar abssosiasiya deb ataydilar».

Hozirgi paytda idrok qilinayotgan narsa bilan ilgari idrok qilingan narsa o'rtasida ma'lum o'xshashlik o'lsa, bu narsalar o'rtasida o'xshashlik assosiasiyasi hosil bo'ladi. Hozirgi idrok qilinayotgan narsalar bilan ilgari idrok qilinayotgan narsalar o'rtasida qarama qarshi belgilar va xususiyatlar bo'lsa, bunday narsalar o'rtasida qarama-qarshilik assosiasiyasi yuz beradi. masalan yosh-qish, issiq-sovuq kabi narsalar o'rtasida qarama-qarshilik assosiasiyalari hosil bo'ladi.

Shunday qilib xotiralarning nerv-fizologik asosida bosh miya po'stida hosil bo'ladigan shartli reflekslar, turli assosiativ bog'lanishlar yotadi. Lekin odam esda olib qolish paytida assosiasiyalarni hosil bo'lganligini mutaqo sezmaydi. Har xil assosiasiyalarning hosil bo'lganini odam keyinchalk biror narsani esga tushirish paytida bo'ladi.

Xotira insonning holati va faoliyatining barcha sohalarida qatnashishi tufayli uning namoyon bo'lish shakllari, holatlari, shart-sharoitlari, omillari ham xilma-xil ko'rinishga egadirlar. Odatda xotiraning turlariga va ularning muayyan turlarga ajratishda eng muhim asos qilib uning tavsifnomasini esda olib qolish, esda saqlash, esga tushirish, eslash singari jarayonlarning amalga oshiruvchi faoliyatining xususiyatlariga bog'liqligi olinadi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, ayrim darsliklarda xotira turlari turlicha klassifikasiya qilinadi. Jumladan, A.V.Petrovskiy tahriri ostida chiqqan «Umumiy psixologiya» darsligida quyidagi klassifikasiya uchraydi:

1.Faoliyatda ko'proq sezilib turadigan psixik faollikning xususiyatiga qarab: harakat, emosional, obrazli va so'z mantiq xotira.

2.Faoliyatning maqsadlariga ko'ra ixtiyorsiz va ixtiyoriy xotira.

3.Materialni qancha vaqt esda olib qolish va esda saqlash muddatiga ko'ra qisqa muddatli, uzoq muddatli va operativ xotira.

Harakat xotirasi – inson faoliyatining har bir turida ruhiy faollikning u yoki bu ko'rinishlari ustunlik qilishi kuzatiladi. Masalan, harakat hissiyot, idrok, aql-zakovat kabi ruhiy faoliyatning ko'rinishlari mavjuddir. Ana shu ruhiy faollik turlarining har biri tegishli harakatlarda va ularning mahsulotlarida o'z ifodasini topib harakatlarda, hissiy kechinmalarda, tuyg'ularda, obrazlarda, timsollarda, fikr va mulohazalarda aks etadi.

His – tuyg'u yoki hissiyot xotira. Bu xotira xis-tuyg'ular ruhiy kechinmalar, hissiyotlar, ehtiyojlarimiz va qiziqishlarimiz qanday qondirilayotganligidan, atrofimizdagi narsa va hodisalarning xususiyatiga nisbatan munosabatimiz qay tarzda amalga oshirilayotganligidan doimo xabar berib turishi imkoniyatiga ega. Shuning uchun har bir kishining hayoti va faoliyatida hissiy xotira turi juda katta ahamiyat kasb etadi.

Obrazli xotira. Obrazli xotira tasavvurlar va turmush manzaralari, shuning bilan birga, tovushlar, ta'mlar ranglar shakllar bilan bog'liq bo'lgan xotira nuridir. Obraz xotirasi deb yaqqol mazmunni binobarin narsa xodisalarning aniq obrazlarini ularning xususiyatlari, va bog'lanishlari esda qoldirish, ongda mustahkamlash hamda zaruriyat tuqilganida esga tushirishdan idorat xotira turiga aytiladi

So'z, mantiq xotirasi mazmunini fikr va mulohazalar, aniq hukm hamda xulosa chiqarishlar tashkil etadi. Insonda fikr va mulohaza turli xil shakllar yordamida ifodalanganligi tufayli ularni irodalash faqat o'zlashtirilayotgan materiallarning asosiy ma'nosini izohlash, talqin qilib berish yoki ularni so'zma-so'z ifodalanishini aynan aytib berishga qaratilgan bo'lishi mumkin. Agar ma'lumot, axborot xabar material ma'no jihatidan qayta ishlanmasa u holda materialni so'zma-so'z o'zlashtirish, mantiqiy o'rganish bo'lmasdan, balki aksincha mexanik esda olib qolishga aylanib qoladi.

Ixtiyotiy xotira deganda ma'lum maqsadni ro'yobg chiqarish uchun muayyan davrlarda, aqliy harakatlarga suyangan holda amalga oshirishdan iborat xotira jarayoni tushuniladi. Bu faoliyatni odam ongi bevosita boshqaradi. Ko'pincha psixologiya fanida ixtiyoriy xotiraga ixtiyorsiz esda olib qolish qarshi qo'yiladi. Bu jarayon ma'lum kerakli topshiriq yoki vazifa qo'ysa esda olib qolishga yetaklovchi faoliyat biron-bir maqsadni ro'yobga chiqarishga yo'naltirilgan taqdirda yuzaga keladi. Biz matematika topshiriqlarni yechayotganimizda masaladagi sonlarni esda olib qolishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganmiz. Mazkur so'z mantiq holatda asosiy maqsad faqat masala yechishga qaratiladi. Buning natijasida sonlarni esda saqlashga, hyech qanday o'rin ham qolmaydi. Shunga qaramay biz ularni qisqa

muddat bo'lsada esda saqlashga intilamiz. Bu holat faoliyat yakunlangunga qadar davom etadi.
Operativ xotira inson tomonidan bevosita amalga oshirilayotgan faol tezkor harakatlar, usullar uchun xizmat qiluvchi jarayonni anglatuvchi lenilek holat operativ xotira deb ataladi. Hozirgi zamon psixologiyasida ushbu holatni namoyon qilish uchun ushbu misol keltiriladi. Matematik amalni bajarishga kirishar ekanmiz biz uni muayyan bo'laklarga ajratib hal qilishni maqsad qilib qo'yamiz. Shu boisdan oraliq natijalarni yodda saqlashga intilamiz, nihoyasiga yaqinlashgan sari ayrim materiallar esdan chiqa boshlaydi.

10.2 Xotira jarayonlari va uning individual farqlari

Xotira faoliyati esda qoldirishdan boshlanadi. Esda qoldirish idrok qilingan narsa va hodisalarini miya po'stida iz hosil qilishdir. Uning fiziologik asosi miya po'stida muvaqqat nerv bog'lanishining vujudga kelishidir. Esda qoldirish o'zining o'zining faolligi jihatidan ikkiga bo'linadi:
a) ixtiyoriy esda qoldirish;
b) ixtiyorsiz esda qoldirish.
Ixtiyorsiz esda qoldirish oldindan maqsad quyilmaydi, mavzu tanlanmaydi va iroda kuchi sarflanmaydi. O'zining go'zalligi, hissiy ta'sirchanligi hajmini, harakatchanligi, tezligi, shakli va boshqa xossalari bilan farq qiladigan narsa va hodisalar ixtiyorsiz esda qoladi. Masalan, tasodifiy hodisalar, karnay-surnay ovozi ixtiyorsiz esda qoladi.
Ixtiyoriy esda qoldirishda esa oldindan maqsad qo'yib mavzu belgilanadi. Masalan, dars materiallarini esda olib qolish, imtihonga tayyorlanish ixtiyoriy esda qoldirishda quyidagi turli usullardan foydalaniladi:

2. maqsad qo'yish, masalan, institutga kirish oldidagi maqsad;
3. o'quv materiallarini tushunib esda qoldirish;
4. esda qoldirishning rasional usullaridan foydalanishi, masalan, esga tushirish yo'li bilan esda qoldirish.

Beixtiyor esda qoldirishda qiziqish katta rolb o'ynaydi. Bizning oldingi tajribamiz bilan bog'liq narsa va hodisalar beixtiyor oson qoladi. Biz ba'zi bir faktlarni bilsak, ular haqida tushuncha bo'lsa, shu faktlarga tegishli bo'lgan hamma narsalar oson esda qoladi. Ixtiyorsiz esda qoldirish inson hayotida katta ahamiyatga ega bo'lib, undan ortiqcha harakat talab qilmagan holda uning hayotiy tajribalarni kengaytiradi va boyitadi. Biroq ixtiyorsiz esda qoldirish tez bo'lsa ham ko'pincha noaniq bo'ladi, bunday esda olib qolingan narsa va hodisalar keyinchalik yanglish esga tushiriladi.
Ixtiyoriy esda qoldirish ko'zda tutilgan maqsadga muvofiq tanlangan materialni esda qoldirishdir. Kishi ixtiyoriy esda qoldirish uchun esda saqlashning maxsus usullarini saqlagan holda materialni puxta esda qoldirish uchun o'zining kerakli

kuchini sarf qiladi. Ammo mexanik esda saqlanishni ma'noli esda saqlash bilan qo'llanilishi foydalidir.

Esga tushirish va uning turlari.

O'tmishda idrok qilingan narsalarning his-tuyg'u, fikr va ish-harakatlarning ongimizda qaytadan tiklanishi esga tushirish deyiladi. Esga tushirishning ners fiziologik asoslari bosh miya po'stida ilgari hosil bo'lgan nerv bog'lanishlarning qo'zg'alishidir. Esga tushurishning tanish eslash bevosita eslash oradan ma'lum vaqt o'tkazib eslash ixtiyorsiz va ixtiyoriy turlari mavjud.

Tanish ilgari idrok qilingan narsa va hodisalarning takror idrok qilish natijasida u yoki bu hodisaning esga tushirishidir. Tanish aniq va noaniq bo'lishi mumkin. Noaniq tanishda biz bu narsani notanish emasligini his qilamiz xolos. Masalan, bir odam ko'zimizga issiq ko'rinadi, lekin uni qayerda kurganimizni eslay qolmaymiz. To'liq aniq tanishda esa idrok qilinayotgan narsaning nomi katta rol o'ynaydi. Masalan, biz bir kishining ko'rib uni taniy olmasak, uning familiyasini yoki ismini eshitsak, darrov kim ekanligini bilamiz.

Esda saqlash deyilganda ilgari tuqilgan taassurot fikr, his-tuyЂu va ish-harakatlarning takrorlanishiga moyillik paydo qilishi va mustahkamlanishi tushiniladi. Bunga sabab asab tizimining egiluvchanligidir. Shuning uchun asab tizimi ilgari bo'lib o'tgan taassurotlarni takrorlashga tayyor turadi. Faqat esga tushirish uchun qulay sharoit bo'lsagina esga tushadi. Bunday sharoit bo'lmagan zarur materialni ixtiyoriy eslash jarayoni qiyinlashadi.

Shunday qilib esga tushirishda ana shu tariqa qiynalib qoli zarur bo'lgan narsani shu onda esga tushira olmaymiz.

G.Ebbingauz unitishning vaqtga bog'liqligin tajriba orqali aniqlangan. To'plangan natijalarning ko'rsatishicha materialni yod olgandan so'ng unitish sur'ati tez keyinchalik u birmuncha sekinlashadi. Bu qonuniyat ma'nosiz ayrim bo'Ђinlarni unitish ustida olib borgan ishlarida tasdiqlangan. Tajribalarning ko'rsatishiga qaraganda o'rganilgan narsalar bir soatdan keyin unitiladi. Materialni o'zlashtirish jarayoni maboynida xotirlash natijasida unitish sekinlashib boradi. Muvaqqat asab boЂlanishlari susayishi natijasida qachonlardir sodir bo'lgan narsa va hodisalarning o'zaro aloqalari xotirada asta-sekin yo'qolib boradi. Vaqtning o'tishi bilan birmuncha unitilib ketilayotgan vaqtni, boЂlanishlarni ya'ni assosiasiyalarni qaytadan tiklash jarayoni kuch-quvvat, xatti-harakatlarni talab qiladi.

Unitishning tezligi esda olib qolingan materialning mustahkamligiga teskari proporsional xususiyat kasb etadi. Demak, esda olib qolishning mustahkamligi o'zlashtirilayotgan materialning ma'noga ega yoki ega emasligiga bog'liqlikdan tashqari yana bir nechta omillar o'z ta'sirini ko'rsatadi va uning faoliyat mazmuniga aylanishiga ham bog'liq. Shuningdek, ular kimning shaxsiy, yakkahol xususiyatlariga ham bevosita bog'liqdir.

Xotirada individual farqlar

Xotira jarayonlaridagi individual farqlar esda qoldirishning tezigida, aniqligida, mustahkamligida va qayta esga tushurishdagi tayerligida ifodalanadi. Bu farqlar malum darajada nerv faoliyati tiplarining xususiyatlari bilan qo'zg'alishi va tormozlanish jarayonlarining kuchi va harakatchanligi bilan bog'liqdir, individual farqlar yana shunday hollarda namoyon bo'ladiki, har xil odamlar obrazli mateiallarni, rang tasvir, narsa tovushlarni samarali va mustahkam esda olib qoladilar.

Boshqa bir odamlar o'z so'zlarni yaxshi eslab qoladilar. Uchinchi bir toifa odamlarda esa malum bir materialni esda olib qolishida yaqqol ustunlik sezilmaydi. Psixologiyada xotiraning quyidagi tiplari farqlanadi: ko'rgazmali obrazli xotira, so'z mantiqiy xotira va oraliq tipdagi xotira. Masalan ko'rgazmali obrazli xotira tipi ko'proq rassomlarda, so'z mantiqiy tipi nazariyachi olimlarda uchraydi. Bundan tashqari xotiralash va esda qoldirish jarayonlari analizatorlarning qatnashishiga qarab, xotira quyidagi tiplarga ajraladi:

a) ko'rish; b) eshitish; v) harakat; g) aralash xotira.

Bir xil kishilar ko'rish orqali, ikkinchi xillari eshitish orqali, uchinchi xillari harakat yordamida, to'rtinchi xillari esda qoldirishning birga qo'shilgan usulida yaxshi esda qoldiradilar. Xotiraning aralash tiplari eng ko'p tarqalgan.

Xotiraning individual farqlari kishi faoliyatining xususiyatiga bog'liqdir. Esda olib qolish va unutish tezligiga ko'ra xotiraning quyidagi tiplari mavjud:

1) tez esda qoldirib sekin unitish;
2) tez esda qoldirib tez unitish;
3) sekin esda qoldirib sekin unitish;
4)sekin esda qoldirib tushunitish.

xotira tasavvurlari.

Ilgari idrok qilingan narsa va hodisalar obrazlarning ongimizda qaytadan gavdalanishiga xotira tasavvurlari deyiladi.

Esda olib qolish va qayta esga tushirish tasavvur obrazlari orqali amalga oshiriladi. Xotira va xayol tasavvurlari bir-biridan farq qiladi. Xotira tasavvurlari ilgari idrok qilingan ammo hozir ko'z o'ngimizda bo'lmagan narsalarning obrazlarini ongimizda gavdalanishdan iborat. Masalan, yoshlik vaqtimizdagi hodisalarni eslashimiz, ongimizda qayta tiklashimiz xotira tasavvurlari bo'ladi. Xayoliy tasavvur xotira tasavvuriga qaraganda murakkab bo'lib ongimizdagi bilimlar tajribalarimiz asosida ilgari idrok qilinmagan, shu paytgacha uchramagan narsalarning obrazlarini yaratishdan iboratdir. Xayoliy tasavvur ijod qilish bilan bog'liq.

Masalan: Ertaklar, romanlar umuman biror asarni o'qiyotganimizda undagi qahramonlarning ko'z o'ngimizda gavdalanishi xayoliy tasavvurdir.

Tasavvurlar paydo qilishda so'zning ahamiyati katta. So'z bilan nomlashi tegishli obrazning yaratishiga yordam beradi. Masalan: «ildiz» «o't» so'zlarining to'rt kishiga berib qanday tasavvur qilishlarini so'rasak ularning tasavvurlari bir-biridan farq qilishini ko'ramiz chunki, har bir kishi tajribasiga ko'ra, kasbiga ko'ra tushunadi. Masalan: matematik ildizni algebra belgisi deb, botanik o'simlik qismini uning ildizini, tish doktori esa tish ildizini tushinadi.

Tasavvur qilishning fiziologik asosi shartli reflekslarning hosil bo'lishida bosh miya po'stida paydo bo'lgan izlarning jonlanishidir. Tasavvur birorta tutki tasirida jonlanadi, masalan, biror odam haqida tasavvurlarning tuqilishi uchun birorta so'z yoki hodisa turtki bo'ladi. Asosan maxsus qo'zg'ovchi so'zdir, shuning uchun so'z bilan tasvirlash orqali tasavvurlar tuqiladi.

10.3 Qobiliyat haqida umumiy tushuncha, sifati va miqdori, qobiliyatning tuzilishi

Qobiliyatlar odamning shunday psixologik xususiyatlaridirki, bilim, ko‟nikma va malakalarni orttirishning samaradorligi, tezligi shu xususiyatlarga bog‟liq bo‟ladi, lekin bu xususiyatlarning o‟zi bilim, ko‟nikma va malakalarga taalluqli bo‟lmaydi. Aks holda, imtihonda qo‟yilgan baho, doskada qaytarilgan javob, muvaffaqiyatli va muvaffaqiyatsiz bajarilgan yozma ishiga qarab odamning qobiliyatlari haqida qat‟iy xulosa chiqarish mumkin bo‟lar edi. Ammo psixologik tadqiqotlar va pedagogik tajribalarning ko‟rsatishicha, ba‟zan dastavval boshda nimalarnidir qila olmaydigan va buning natijasida atrofdagi boshqa odamlardan ajralib qolgan odam ta‟lim olish jarayonida tez orada boshqalarni quvlab o‟tib ketadi va ish ishining katta ustasi bo‟lib yetishadi. Unda boshqalarga qaraganda ko‟proq qobiliyatlar namoyon bo‟ladi. Qobiliyatlar bilim, ko‟nikma va malakalarni egallashda namoyon bo‟lsa ham, ular bilim, ko‟nikma va malakalarga taalluqli bo‟lmaydilar.

Qobiliyatlar va bilim, ko‟nikma va malakalar biri-biri bilan aynan bir narsalar emas. Bilim, ko‟nikma va malakalarga nisbatan odamning qobiliyatlari qandaydir imkoniyat tarzida namoyon bo‟ladi. Yerga tashlangan urug‟ ana shu urug‟dan o‟sib chiqishi mumkin bo‟lgan boshoqqa nisbatan faqat imkoniyat bo‟lgani kabi odamning qobiliyatlari bilim, ko‟nikma va malakalarni egallashuchun faqat imkoniyat hisoblanadi. Bu bilim, ko‟nikma va malakalar egallanadimi yoki egallanmaydimi, imkoniyat haqiqatga aylanadimi yoki yo‟qmi - bularning hammasi juda ko‟p sharoitlarga bog‟liqdir. Bolada namoyon bo‟lgan musiqa qobiliyati uning musiqachi bo‟lishiga hech bir kafolat bermaydi. Bola musiqachi bo‟lishi uchun unga maxsus ta‟lim berilishi, qat‟iylik, salomatligining yaxshi bo‟lishi, musiqa asbobi, notalar va boshqa ko‟p sharoitlar bo‟lishi kerak. Bularsiz qobiliyat taraqqiy etmayoq so‟nishi mumkin.

Qobiliyatlar faqat faoliyatda namoyon bo‟ladi, shunda ham faqat ana shu qobiliyatlarsiz amalga oshirilishi mumkin bo‟lmagan faoliyatlardagina namoyon bo‟ladi. Agar odamni hali rasm solishga o‟rgatmagan bo‟lsa, agar u tasviriy

faoliyat uchun zarur bo‟lgan hech qanday malakalarni egallamagan bo‟lsa, uning rasm solishga nisbatan qobiliyatlari haqida hech qanday gap bo‟lishi mumkin emas. Rasm chizishga, tasviriy san‟atga maxsus o‟rgatish jarayonida o‟quvchining qobiliyati bor yoki yo‟qligi namoyon bo‟lishi mumkin.

Qobiliyat, bilim, ko‟nikma va malakalarning birligi nimada ifodalanadi? Qobiliyat bilim, ko‟nikma va malakalarning o‟zida ko‟rinmaydi, balki ularni egallash dinamikasida namoyon bo‟ladi, ya‟ni, boshqacha qilib aytganda, mazkur faoliyat uchun zarur bo‟lgan bilim, ko‟nikma va malakalarni o‟zlashtirish jarayoni turli sharoitlarda qanchalik tez, chuqur, yengil va mustahkam amalga oshirilishida namoyon bo‟ladi. Xuddi mana shu yerda yuzaga chiqadigan farqlar qobiliyatlar bizga haqida gapirish imkonini beradi.

Shunday qilib, qobiliyatlar shaxsning faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti hisoblangan va bilim, ko‟nikma hamda malakalarni egallash dinamikasida yuzaga chiqadigan farqlarda namoyon bo‟ladigan individual-psixologik xususiyatidir. Qobiliyatlar faqat faoliyatda namoyon bo‟ladi. Idrok etish paytida, masalan, ranglarning tovlanishidagi nozik farqlar, predmetlarning aniq ko‟rinishi, proportsional nisbatlarni tushunish (rassomlar ishida), absolyut eshitish (musiqa bilan shug‟ullanishda) va hokazolarda ayon bo‟ladi. Yozuvchi ixtirochining mehnatida ayniqsa zarur bo‟ladigan ijodiy xayol ham qobiliyatlar uchun katta ahamiyatga ega.

Qobiliyatlar individual-psixologik xususiyatlar sifatida xarakterlanadi,ya‟ni bir odamning boshqa odamdan farq qiladigan sifatlarini ochib beradi. O‟z- o‟zida ma‟lumki kishilar teng emas. Mana shuning uchun qobiliyatlar haqida gapirganda, bu farqlarni xarakterlab o‟tish zarur. Ular sifat va miqdor jihatdan xarakterlanishi, farq qilishi mumkin.

Qobiliyat xususiyatlarining sifat tomonidan qaralishi maqsadga turli yo‟llar bilan borishga imkon beruvchi "o‟zgaruvchan miqdor" to‟plami sifatida, faoliyat muvaffaqiyatini ta‟minlovchi psixologik xususiyatlarning murakkab kompleksi sifatida ko‟rinadi. Qandaydir faoliyatni bajarishdagi bir xil yoki nimalar bilandir o‟xshash yutuqlar asosida juda xilma xil qobiliyatlar birikmasi yotishi mumkin. Bular bizning ko‟z o‟ngimizda shaxs qobiliyatlarining muhim tomonini ochib beradi: bir xususiyatning o‟rnini boshqa bir xususiyatlar bilan to‟ldirish (kompensatsiya qilish) ning keng imkoniyatlari bor bo‟lib, buni odam o‟zida chinakam va qat‟iyatlik bilan ishlash orqali rivojlantirish mumkin.

Qobiliyatlarning tabiiy shartlari. Har bir kishida tug‟ma layoqat nishonalari, ya‟ni miyaning oliy nerv faoliyatining analizatorlarining o‟ziga xos xususiyatlari bor bo‟ladi, binobarin, kelgusida biror qobiliyatni rivojlantirishga bo‟lgan muayyan moyillik ana shunga bog‟liqdir. Tabiiy anatomik-fiziologik layoqat nishonalari qobiliyatlarning fiziologik asosini tashkil etadi. Keyinchalik qobiliyatga aylanadigan layoqat nishonalarining majmui kishining iste‟dodi

deyiladi. Lekin bu tabiiy layoqat nishonalari muvaffaqiyatli faoliyatning to‟la-to‟kis shart-sharoiti bo‟la olmaydi. Layoqat nishonalarini rivojlantirish kerak, bu esa faoliyat jarayondagina ro‟y berishi mumkin. Layoqat nishonalari ko‟p qiymatlidir, yana tegishli sharoitlar mavjud bo‟lganda, faoliyatga qarab layoqat nishonalari asosida turli qobiliyatlar rivojlanishi mumkin. Masalan, yaxshi eshitish va ohangni sezish qobiliyati mavjud bo‟lganda bir kishi kompozitor, ikkinchisi yaxshi ijrochi, uchinchisi yaxshi dirijyor, to‟rtinchisi musiqa tanqidchisi va hokazolar bo‟lib yetishmog‟i mumkin. Qulay sharoitlar mavjud bo‟lganda ayrim kishilarda qobiliyatlar juda erta rivojlanadi. Odatda musiqa va tasviriy san‟atga bo‟lgan layoqat ancha ertaroq paydo bo‟ladi. Masalan, M.I. Glinka 3-4 yoshidayoq shunday o‟yinni juda yoqtirgan: u ovoz chiqaradigan turli buyumlarni (mis, tog‟oracha, kostryulka) yog‟och bilan chalgan. Bunda kattalarni hayron qoldiradigan darajada ohangdosh tovushlar paydo bo‟lganki, ularni eshitish maroqli edi. Keyinchalik bu bola buyuk kompozitor bo‟lib yetishdi. Biroq shunday ham bo‟ladiki, kishilar bolalikda favqulodda qobiliyatlarini namoyon qilganlar-u, biroq katta bo‟lgach, ulardan mahrum bo‟lganlar. Lekin bunday hollar nisbatan kam uchraydi.

Qobiliyatlar faoliyat davomida rivojlanadi. Qobiliyatlarni rivojlantirishning birinchi sharti - faoliyatga bo‟lgan ehtiyojni tarbiyalashdir. Mehnatga bo‟lgan ehtiyojni tarbiyalash uchun ishga qiziqish va unga odatlanish katta ahamiyatga egadir. Qobiliyatlar shaxsning boshqa sifatlari bilan chambarchas bog‟langan. Kishining talantli ekanligi ma‟lum darajada uning psixik jarayonlari, shuningdek, ko‟pgina psixik xususiyatlarining rivojlanish darajasiga bog‟liq bo‟ladi. Ayrim qobiliyatlarni rivojlantirishda tegishli bilish jarayonlarining yuqori darajada bo‟lishi hal qiluvchi rol o‟ynaydi. Masalan, musiqachi uchun eshitish, rassom uchun ko‟rish idroklari katta ahamiyatga ega. Kishi o‟z qobiliyatlarini rivojlantirish bilan shug‟ullanar ekan, bu rivojlanish quruq maqsaddan iborat bo‟lib qolishi kerak emas. Asosiy vazifa jamiyatning munosib, foydali a‟zosi bo‟lib yetishishdan iboratdir.

Shaxs kasbiy shakllanishining o„zmaxsulligi va anglay olishining muhim omili uning kasbiy mehnatda ma‟no topishidadir, o„z kasbiy xayotini loyihalashtirish, mas‟uliyat bilan kasb, mutaxassislik va ish-joyini tanlash borasida qaror qabul qilishdadir. Albatta, bu muhim kasbiy muammolar shaxs oldida butun xayoti davomida paydo bulaveradi. Shaxs esa, doimo o„zgarib, rivojlanib turadi. Demak, uning rivojlanishini turli bosqichlarida kasbiy anglash muammolari turlicha hal etiladi. Kasblar olamida o„z o„rnini to„g„ri tanlash, o„z ijtimoiy kasbiy rolini kasbiy mehnatga jamoaga va o„ziga bo„lgan munosabatini anglay olishi inson xayotining muhim komponentlari bo„lib qoladi. Gohida kishi kasbdan o„zoklashib, undan og„irlik seza boshlaydi unda o„z kasbiy xolatidan qoniqmaslik xissi paydo bo`ladi. Shuningdek, insonlarda majburiy xolatda kasb (mutaxassislik)ni va ish joyini almashtirish xollari gohida uchrab turadi.

Ta`kidlash mumkinki, shaxs oldida doimo undan kasbga bo„lgan munosabatni aniqlash, gohida o„z kasbiy yutuqlarini tahlil etish, kasb tanlovi yoki uni almashtirish qarorini qabul qilish, kar`erani aniqlash va korreksiyalash boshqa kasbga xos bo„lgan masalalarni hal etishni talab etadi. Kasbshunoslikda barcha bu muammolar kompleksi kasbiy aniqlanish deb tushuniladi. Tabiiyki, bunday murakkab psixologik xodisa psixologiya fanida yagona to„g„ri ta‟rifga ega bo„lishi mumkin emas. Shaxsda kasbiy shakllanish konsepsiyasini tadqiqotchi psixologlar tomonidan turlicha tushuntirib berilgan.

A.Maslou konsepsiyasi bo„yicha, inson takomillashib borishiga, o„zini namoyon etishiga bo„lgan intilishi aks etadi. Uning konsepsiyasida “Aniqlanish” tushunchasi “O„zini namoyon etish” tushunchasi yaqin atama sifatida e‟tirof etiladi.

P.G.Shedrovskiy “Aniqlanish” insonning o„zini o„zi o„z individual tarixini yaratish qobiliyati sifatida, o„zligini aniqlay olishida ko„radi.

Ye.A.Klimov kasbiy anglashni batafsil tahlil etib, uni “psixik rivojlanishining, nimadir foydali ishni qiluvchilar” professionallar hamjamiyatining to„laqonli ishtirokchisi sifatida o„zini shakllantirishning muhim ko„rinishidir. Kasbiy anglash bo„yicha Ye.A. Klimovning fikri qadrli hisoblanadi. Uning fikricha, oson va qisqa muddatli hisoblangan kasb tanlovi aslida “lahza qo`shuv butun kelgusi xayot” formulasi asosida amalga oshiriladi.

Shaxsda rivojlanish yo„llaridan avval turli mehnat sohalariga ma‟lum munosabat, ko`p kasblar xaqida tasavvur va o„z imkoniyatlarini baholash, ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatda to`g`ri yo`l tutishi kasb tanlovining “zaxira variantlari” va navbatdagi kasbiy anglash ichki tayyorgarlikka xos bo„lgan boshqa ko„p narsalar xaqida tasavvur shakllangan bo„ladi.

Ye.A. Klimovning fikrini mantiqiy jihatdan umumlashtirib quyidagicha ta‟kidlash mumkin. Kasbiy anglash kasbiy tanlovining bir lahzali akti bolib qolmaydi va tanlangan mutaxassislik bo„yicha kasbiy tayyorgarlik yakuni bilan tugatilmaydi, balki u butun kasbiy xayoti mobaynida davom etadi. Ushbu konsepsiyaning muhim jihati shundaki, bunda kasbiy anglash tahliliga tizimli yondoshuv qo„llaniladi, ammo tadqiqot muammosining faqatgina erta yoshlik yoshi bilan chegaralanishi konsepsiyasining evrestik imkoniyatlarini cheklaydi.

Kasbiy va shaxsiy anglash N.S. Pryajnikov tomonidan olib borilgan izlanishlarning predmeti hisoblanadi. Uning konseptual yondashuvi quyidagilardan iborat:

Adabiyotlar tahlili, amalga oshirilgan tajriba - eksperimentlar tadqiqot N.S. Pryajnikovga kasbiy shakllanishning nazariyasi va amaliyotini boyitish imkonini beradi. Kasbiy anglash shaxsning boshqa muhim sohalarida o„zini namoyon eta olishi bilan uzilmas aloqasini doimo ta‟kidlagan xolda, u shunday yozadi. “Kasbiy anglashning mohiyati aniq madaniy-tarixiy vaziyatda bajariladigan ish va butun xayot mazmunini mustaqil va anglangan xolda topishdadir”.

Shaxsning kasbiy anglashi bo„yicha o„tkazilgan tahlilini umumlashtirib, bu jarayonning asosiy nuqtalarini ajratishimiz mumkin:

1. Kasbiy anglash - individning kasblar olamiga va tanlangan aniq kasblar olamiga nisbatan bo„lgan tanlovi munosabati.
2. O„z xususiyatlar va imkoniyatlarini, kasbiy faoliyat talablarini va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan xolda kasbiy anglash yadrosi hisoblanadi.
3. Kasbiy anglash butun kasbiy xayoti davomida amalga oshiriladi, shaxs doim o„zgaradi, o„z kasbiy xayotini qayta anglaydi va kasbida o„zini namoyon etadi.
4. Shaxs kasbiy anglashning dolzarblashuvi, turli voqealar, yani umumta‟lim maktabini, o„quv yurtini tugatish malaka oshirish, yashash joyini almashtirish, attestatsiya, ishdan bo„shash va hokazalar bilan anglanadi.
5. Kasbiy anglash shaxs muhim ijtimoiy - psixologik yetukligini tavsifi hisoblanadi.

Shaxs kasbiy anglashini tadqiq etib, N.S.Pryajnikov uning quyidagi mazmunli - protsessual modelini asoslab berdi:

1. Ijtimoiy foydali mehnatning qadr-qimmatini va kasbiy tayyorgarligining zaruriyatini anglashning qadriyatli, ma‟naviy asosi.
2. Ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatda o„z yo„nalishini topish va tanlanadigan faoliyatni kelajakda rivojlantira olish.
3. Kasbiy mehnat olamida umumiy xolda o„z yo„nalishini aniqlay olish va kasbiy maqsadni ajrata olish.
4. Yaqin oradagi kasbiy maqsadlarni keyingi maqsadga eltuvchi yo„llar va vositalari sifatida aniqlash.
5. Kasbiy o„quv yurtlari va ish o„rinlariga muvofiq kasblar va mutaxassisliklar xaqida ma‟lumot berish.
6. Kasbiy maqsadlarga erishishni murakkablashtiruvchi to„siqlar xaqida tasavvurga ega bo„lish, shuningdek, mo„ljallangan rejalarni amalga oshirishga qo„l beruvchi o„z fazilatlarini bilish.
7. Anglashning asosiy varianti bo„yicha muvafaqqiyatsizlikka uchragan xolda, tanlov zaxira variantlarining mavjudligi.
8. Shaxs kasbiy istiqbollarining amaliy yuritilishini boshlanishi va mo„ljallangan rejalarni doimiy ravishda korrektirovka etish.

Shaxsning o„zini namoyon eta olish imkoniyatlarini tahlil etib, N.S.Pryajnikov kasbiy anglash bo„yicha yettita turini taklif etadi:

1. Ma‟lum bir mehnat vazifada o„zini anglash. Bu anglash turi bajarilayotgan faoliyat doirasida o„zini namoyon eta olishini nazarda tutadi. Ishchi o„z faoliyat mazmunini ayrim mehnat vazifalarini sifatli bajarishda ko„radi (masalan, konveyrda ishlash paytida). Tanlash erkinligi va inson xarakatlarining diapazoni minimal darajada aks etishi bilan belgilanadi. Ko„p ishchilarga bu bir xil va bir maromda ishlash yomon ta‟sir etadi. Shuning uchun ishlab chiqarish tashkilotlari bunday ishlarni bajariladigan ishlar turini almashtirish hisobiga

qo„shimcha vazifalar bilan boyitishga xarakat qiladilar. Ammo shuni ham ta‟kidlash lozimki, ayrim kishilar bunday mehnatdan rohatlanadilar.

2. Ish o„rnida o„zini anglash turli xil vazifalar bajarishni nazarda tutadi. Ish o„rni ma‟lum xuquqlar va topshiriqlar mehnat vositalarini o„z ichiga oluvchi cheklangan ishlab chiqish muhiti bilan belgilanadi. Bajarayotgan faoliyat doirasida o„zini namoyon eta olish imkoniyati birinchi xolatda yuqoriroq bo„lishi mumkin. Aniq ish joyini almashinuvi mehnat sifati va samaradorligiga yomon ta‟sir etadi vaishchining qoniqmasligini keltirib chiqaradi.

3. Mutaxassislik bosqichida o„zini anglash turli ish o„rinlarini sezilarsiz almashinuvini nazarda tutadi va shu ma‟noda shaxsning o„zini namoyon eta olish imkoniyatini kengaytiradi. Masalan, avtotransport xaydovchisi avtomashinalarning turli rusumini boshqara oladi.

4. Kasbda o„zini anglash turi bo„yicha ishchi mehnat faoliyatida bir - birigayaqin kasblarni o„zlashtira olishi nazarda tutiladi. Ma‟lumki, kasb bir qancha bir- biriga yaqin mutaxassislarni birlashtiradi. Shuning uchun avval anglash turiga nisbatan bunda ishchi nafaqat ish o„rnini, balki mutaxassisliklarni ham tanlaydi.

5. Xayotni o„zini o„zi anglash turi kasbiy faoliyatdan tashqari o„zini xordiq chiqarishi, majburiy ishsizlik va hokazolar. Mazmun jihatdan bunday fikr insonning xayot tarzini tanlashi xaqida bormokda. Ta‟kidlash kerakki, ko„p kishilar xayot mazmunini kasbdan tashqaridagi faoliyatda ko„rishadi.

Xayotni anglash nafaqat insonning u yoki bu ijtimoiy rollarini bajarishini balki xayot tarzini tanlashini ham nazarda tutadi. Bunday xolda kasb ma‟lum xayot tarzini yuritish vositasi bo„lishi mumkin.

6. Murakkabroq tur - shaxs o„zini anglashi. Bu tur xayotda o„zini anglashning oliy ko„rinishi bo„lib, bunda inson vaziyat va o„z xayotining egasi bo„ladi. Bunday xollarda shaxs kasb va ijtimoiy rollardan ajralib turadi. Inson ijtimoiy rolni egallabgina qolmay, balki yangi rollarni yaratadi va kaysidir ma‟noda xattoki ijtimoiy-psixologik mezon yaratish bilan shug„ullanadi va atrofdagi odamlar u xaqida yaxshi muxandis, shifokor, pedagog deb gapirib qolmasdan, balki takrorlanmas shaxs deb ta‟riflashadi. Aytish mumkinki, shaxs o„zini anglashi bu o„ziga xos “Men tarzini” topishidir doimo shuni rivojlantirib atrofdagi odamlar orasida tasdiqlashdan iboratdir.

7. Nixoyat eng murakkab tur - shaxsning madaniyatda o„zini anglashi (shaxs o„zini anglashning oliy ko„rinishi sifatida). Bunda kaysidir ma‟noda insonning ijtimoiy abadiyligi to„g„risida gapirishga imkon beruvchi “o„zini boshqa odamlarda davom etishi”ga yo„naltirilgan ichki faollik seziladi. O„zini anglashning oliy turi shaxsning keng ma‟noda tushuniladigan madaniyat rivojlanishiga qo„shgan hissasida namoyon bo„ladi. (ishlab chiqarish, san‟at, ilm, din).

Yukorida berilgan o„zini anglashning xar bir turida N.S.Pryajnikov shartli ravishda inson o„zini namoyon etishining besh bosqichini ajratadi. Bosqichlarni

ajratish mezoni sifatida inson tomonidan mazkur faoliyatni ichki qabul kilinishi va unga bo„lgan ijodiy munosabatining darajasi bilan belgilanadi.
Bajariladigan faoliyatni agressiv qabul qilmaslik (destruktiv bosqich). Tinch yo„l bilan mazkur faoliyatni chetlab o„tishga intilish.
Mazkur faoliyatni namuna, shablon ko„rsatma asosida bajarish (passiv daraja).
Faoliyat sub‟ektining malakasi kasbiy yetuklikningmuhim ko„rsatkichlaridan biri hisoblanib, u o„zining funksional imkoniyatlari va extiyojlarini kasbiy talablar bilan muvofiqlashtiradi. Bu ko„rsatkich kasbiy "Men-konsepsiyasi"ning o„ziga xosligini anglatadi. Yoshlik davrida, ayniqsa, kasbiy yetuklik bosqichida "Men-konsepsiyasi" xar tomonlama boyitiladi, bir tomondan-xayot va faoliyatning o„zgaruvchan talablari, ikkinchi tomondan esa, o„zini o„zi baholashning shakllanishi ro„y beradi. A.A.Reanning ta‟kidlashicha, yetuklik davrida "Men-konsepsiyasi" kasbiy faoliyat ta‟sirida, ko„pgina maxsus konsepsiyalarning namoyon bo„lishi hisobiga shakllanadi. Ular reallashib, professional mahoratning usishi bilan bog„liq ravishda rivojlanib boradi. Shaxs asta-sekinlik bilan o„z imkoniyatlarini namoyon qiluvchi maqsadlarni tanlashda o„ta sinchkov va ishning natijasiga mas‟uliyat bilan yondashadigan bo„lib boradi. "Shaxsning ahloqiy qoidalar va ayniqsa, muhim shaxsiy qadriyatlar doirasida o„zini o„zi faollashtirish" Men- konsepsiyasining tub mohiyatiga singib boradi.

Kasbiy yetuk shaxslarda ularning o„zlari xaqidagi ma‟lumotlarga asoslangan xolda o„zini o„zi baholashning kognitiv komponentlari kuchayib boradi. O„zini o„zi baholashning emotsional komponenti esa, biroz cheklanadi. Mutahassisning o„zini o„zi baholashini ko„p qismi uning ichki etalonlariga yo„naltirilgan bo„ladi. Shaxsda o„ziga nisbatan ongli, real munosabatlarning namoyon bo„lishi emotsiyalarni boshqarishga olib kelishidan dalolat beradi. O„zini o„zi baholash umumiy xarakterga egadir.

Kasbiy o„zini o„zi baholashni o„zini o„zi baholash professional mahorat va kompetentlik darajasida aks ettiriluvchi shaxsning o„zini mehnat sub‟ekti sifatida baholashi bilan bog„liq operatsional faoliyat aspektlariga va shaxsiy sifatlarni "Men-mutahassisman" konsepsiyasi bilan mutanosibligini baholashda aks ettiriluvchi shaxsiy aspektlarga ajratish mumkin.

O`zini o`zi kasbiy baholashda faoliyat natijalari va mutahassisning shaxsiy potensial baholari ko`rib chiqiladi, birinchisida mehnat yutuqlaridan qoniqqanlik darajasi aks ettirilsa, ikkinchisida shaxsning o`z imkoniyatlarini baholash va shaxsning o`z kuchiga ishonganlik darajasi ko`rib chiqiladi. O`zini o„zi baholashning past ekanligi mutahassisni yetuk yoki "yetuk emasligi"dan dalolat bermaydi. O`zini o`zi baholash negizida pozitiv motivatsion o„zini o„zi rivojlantirish yotadi va shaxsning ijtimoiy, kasbiy muvaffaqiyatlari bilan korreksiyalanadi.

Mehnat insonning mavjudligi va taraqqiyoti uchun xizmat qiluvchi muhim shartlardan biri hisoblanadi. Mehnat ijtimoiy muhitni, sub‟ektning faoliyatda shakllanishi va uning extiyoji, maqsadi, qadriyatlari tizimi hamda xayot mazmunini anglash vositasidir. Mehnat faoliyati jarayonida inson psixikasi namoyon bo„ladi va rivojlanadi, shu bilan bir qatorda inson shaxs sifatida shakllanib, uning yangi qirralari ochilib boradi.

Shaxs va faoliyatning murakkab hamda ko„p qirrali aloqalari shaxsning psixik boshqaruvi, shaxs xarakterini determinatsiyalovchi funksiyalar va to„zilishlarning o„ziga xos hususiyatlari, shuningdek, faoliyatning vaqt va makon kabi boshqa maxsus tavsiflari bilan shartlangan. Bu shaxs - faoliyat tizimi munosabatlar dinamikisini ta‟minlaydi, ya‟ni o„zaro ko„nikish, shaxs komponentlari va faoliyatga adaptatsiyasida namoyon bo„ladi. Bu jarayon nafaqat shaxsning psixik komponentlarining faollashishi, faoliyat maqsadi, vazifalari va mazmunini adekvat ta‟minlash tizimini shakllanishi bilan cheklanib qolmasdan, shu bilan bir qatorda shaxsning alohida sifat va o„ziga xos jihatlarining shakllanishi bilan muvofiq ravishda kechadi.

Shaxsning faoliyat xarakteri bilan bog„liq ravishda rivojlanish jarayoniqator shaxsiy va faoliyat omillarini o„ziga xosligidan kelib chiqadi. Bu taraqqiyot shaxsning aniq, tipik xayotiy va kasbiy sharoitlarda adekvat hamda ishonchli xarakatlarini ta‟minlashga, faoliyatni jadallashtirish uchun zarur bo„lgan shaxs tuzilishi va barqaror sifatlarning shakllanishiga yo„naltirilgan bo„ladi. Ma‟lumki, maqsadga yo„naltirilgan xulq-atvor birinchi navbatda, kasbiy faoliyat uchun shaxs taraqqiyotini stimullashtiruvchi tashqi faoliyat va ijtimoiy omillar hamda shaxs hususiyatlarining o„zaro ta‟sirida namoyon bo„luvchi mehnat sub‟ektining sifatlar tizimini yuzaga kelishi va shakllanishi, aniq xulq-atvor va faoliyat shakllari uchun xos bo„lgan shaxs hususiyatlarini shakllanish vaziyatlari bilan tavsiflanadi. Shu bilan bir vaqtda, shaxsni faoliyatga jalb qilinganligi, uning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga bo„lgan ustanovkalari, sub‟ektning mehnat jarayoniga shaxsning psixologik hususiyatlari orqali aniqlanuvchi yuqori imkoniyatlarni tadbiq qilish malakasi va mazmuniga moslashishi, ko„nikishiga intilishi bilan bogliqdir.

Shaxs va faoliyatning o„zaro aloqasi va o„zaro ta‟siri jarayoni dinamik xarakterga ega bo„lib, bu jarayon psixologiyada *mutaxassis shaxsini shakllanishi* muammosi doirasida o„rganilgan (A.E. Bodrov - 1991; E.F. Zeyer - 2003; Ye. A. Klimov - 1986, 1996; I.M. Kondakov, A.V. Suxarev - 1989; B.T. Kudryavsev - 1981, 1985; B.T. Kudryavtsev, B.E. Egorov - 1983; Yu.P. Povarenkov - 1989; A. Rean - 2003; M. Safin, N. Nikov - 1984 va boshqalar). Bu muammoni o„rganishning muhim nuqtasi *“professional (mutaxassis)", “professionalizatsiya (kasbiy shakllanish)”, “professionalizm", “kompetentlik”, "malaka”* va *“kasbiy yetuklik"* tushunchalari hisoblanadi. Ma‟lumki, oxirgi tushuncha (“kasbiy yetuklik”) mehnat sub‟ektining muhim hususiyatlaridan biri hisoblanib, u mutaxassisning shakllanish (professionalizatsiya) jarayoni va uning natijasi (“professionalizm”,

“kompetentlik”, “malaka”) sifatida namoyon bo„ladi. “Kasbiy yetuklik” tushunchasining mohiyati qator jaxon psixologlarining (A.A. Derkach- 2002; A.A. Derkach, V.G. Zazikin-1998; E.F. Zeyer-2003; O.G. Noskova-2000; Yu.P. Povarenkov-1999; A. Rean-2003; B.A. Tolochek-2005) tadqiqotlarida o„rganilgan, lekin mehnat sub‟ektining bu hususiyatlarini shakllanish jarayoni, uning kasbiy faoliyatda namoyon bo„lishini o„ziga xos jihatlari va mutaxassis shaxsini shakllanishining boshqa komponentlar bilan o„zaro aloqasining xarakterli tomonlari hali yetarlicha o„rganilmagan.

“Shaxs yetukligi” tushunchasi yuqori darajada shaxsiy, psixologik, ijtimoiy va kasbiy rivojlanganlik bilan tavsiflanib, uning tashqi vokelikka nisbatan adekvat munosabatida, ma‟naviy-axloqiy, etnik, madaniy, kasbiy va boshqa meyorlarni o„zlashtirishi hamda jamiyatdagi xulq-atvor me‟yorlari, muloqot va ong, pozitiv motivlarning namoyon bo„lishida, qadriyatlar tizimi, mazmuni hamda organizm va psixikaning funksional resurslarida aks etadi. Bu tushuncha shaxsning individ, shaxs, mehnat sub‟ekti sifatidagi taraqqiyotining o„ziga xos hususiyatlariga asoslangan aniq bir yosh davrini tavsifnomasi uchun keng qo„llaniladi.

Yetuklik - bu shaxs rivojlanishining shunday darajasiki, bunda shaxs o„zining fuqarolik, oilaviy, kasbiy va boshqa majburiyatlarini to„liq bajarishgaqodir bo„ladi, kolaversa, jamiyatning aniq sohalarida va mehnat faoliyatida samarali ishtirok etadi. “...taraqqiyotni tahlil qilish bu jarayonning o„ta murakkab va ziddiyatli ekanini ko„rsatmoqda, inson organizmining turli tizimlaridagi taraqqiyotning yuqori darajaga erishishi uchun turlicha vaqt sarflanganligi sababliuning psixikasi o„ta sodda va juda murakkabdir hamda uning evolyusiyasini boshlanishidagi geteroxronlik va kechishidagi tezlikning noadekvatligi kuzatiladi”.Muayyan bir shaxsning yetuklik darajasi uning individual hususiyatlari va ularning ijtimoiy muxit talablari, taraqqiyot sharoitlari bilan muvofiqlik darajasigabogliqdir. Yetuk shaxs quyidagi hususiyatlarga ega bo„ladi: axloqiy va ijtimoiy,mustaqillik,mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati, xarakterning katiyligi, bag„rikenglik, ishonchlilik, samimiylik, xaqqoniylik va boshqalar.

O.G. Noskovaning ta‟kidlashicha, amerikalik psixolog K. Arjiris yetuk shaxsni infantil, yetuk bo„lmagan shaxsdan farqlashning 7 ta mezonlarini ajratib ko„rsatgan. Shaxs yetukligini anglatuvchi bazaviy mezonlar quyidagilar:

-passivlik - faollik;

tobelik - mustaqillik;

-xulq-atvorni ixtiyoriy boshqarishning rivojlanganlik darajasi; qiziqishlarning keng va barqarorligi;

-xayotiy maqsadlarning qisqa fursatliligi yoki uzoqni ko„zlaganligi;

-shaxsning atrofdagilar bilan hamkorligi, tobelik yoki qarama-qarshi munosabatlarni o„rnatish qobiliyati;

-refleksiyaning rivojlanganlik darajasi va boshqalar.

Ularga yana qo„shimcha tarzda o„zini o„zi baholash, o„zini o„zi anglash va o„zini o„zi rivojlantirish, tanqidiylik, tashqi olamdagi voqeliklarni to„g„ri idrok qilish qobiliyati kabi hususiyatlarni kiritishimiz mumkin. Aytish mumkinki, yuqorida sanab o„tilgan yetuk shaxsning hususiyatlari yetuk mutaxassis shaxsiga ham to„la mos keladi, biroq mehnat sub"ektining kasbiy yetukligi mehnatga motivatsiyalashganlik, faoliyatning aniq bir turiga kasbiy yaroqlilik, uzoqni ko„zlagan kasbiy maqsad, qadriyat, dastur, harakat strategiyalarining anglanganligi kabi qator hususiyatlar bilan yanada boyitiladi.

Shaxs rivojlanishining o„ziga xos hususiyatlari qator tadqiqotlarning predmetiga aylangan (L.S.Vigotskiy, S.L.Rubinshteyn, B.G.Anan`ev, A.V. Ansiferova, E. Erikson, A. Maslou, K. Rodjers va boshqalar).

Qator tadqiqotlarda shaxs rivojlanishi fenomeni uning yosh davrlari bilan bog„lanadi. Mutaxassis shaxsining rivojlanishi nuqtai nazaridan yetuklik davrining psixologik hususiyatlari muhim ahamiyat kasb etadi (20-40 yosh, 40-60 yosh, 60-75 yosh). Qiziqarlisi shuki, mutaxassis shaxsining shakllanishi yetuklik davrining ilk bosqichidan boshlanadi, lekin 40-60 yoshlarga kelib, o`zining shaxs hususiyatlarini namoyon qila boshlaydi.

A.A. Rean bir qator olimlar va o„zining izlanishlari natijalari asosida 40-60 yoshlarga kelib shaxsda psixofiziologik funksiyalarning susayishi kuzatiladi, lekin bu kognitiv soxasida aks etmaydi va ish qobiliyatini susaytirmaydi degan xulosaga keladi. Ayrim qobiliyatlar, ayniqsa, faoliyatning turli shakllari bilan bog„liq qobiliyatlar taraqqiy etishda davom etadi va intellektning rivojlanganligi bilan ajralib turadi. Bu bosqichda shaxs donishmandga aylanadi - uning dunyoqarashi kengayadi, xar qanday xodisalarni chuqur va xar tomonlama o„ylab ko„radi, u yoki bu vaziyatning rivojlanishini bashorat qilishi, voqealarni kechishini nazorat qilishi va turli masalalarni ijodiy hal qilishi mumkin. Mualliflarning ta"kidlashicha, bu davrda shaxs intellektual taraqqiyotining hususiyatlari ko„p xollarda uning shaxsiy xarakteri, xayotiy ustanovkalari, rejalari va qadriyatlari tizimiga bog„liq bo„ladi.

Yetuklik davridagi shaxsning emotsional soxasi serqirraligi bilan ajralib turadi, ularda kayfiyatning tez o„zgarishi kuzatiladi. Yoshlik davriga kelib ijobiy emotsiya va xissiyotlarni yuzaga keltiruvchi oilaviy xayotning barqarorlashuvi, ruxiy va jismoniy potensialning to„liq namoyon bo„lishi, xayotiy va kasbiy rejalarning amalga oshirish xodisasi sodir bo„la boshlaydi. Shu bilan bir vaqtda, ularning o„z-o„ziga xaddan ortiq yuqori yoki past baho berishlari, depressiya, o„zining ijtimoiy va mehnat mavqeidan qoniqmaslik xissi, stressga barqarorlikni pasayib ketishi bilan kuzatiladi.

Olimlarning ta`kidlashlaricha, motivatsiya tuzilishida qisqa vaqt ichida va to„liq shaklda rejalashtirilgan natijalarga erishish istagining kuchi negizida qo„zg„atuvchi extiyojlarni qondirishga yo„nalganlik yotadi. Xarakatlarni faollashtiruvchi asosiy motivlar-ijodiy potensialni amalga oshirishga intilish, o„zining bilim, tajriba, faoliyat natijalarini kelgusi avlodlarga yetkazish, o„zining va

yaqinlarining xavfsizligini ta‟minlash, o„zining ijtimoiy va kasbiy mavqeini tartibga keltirish, xayotiy rejalarini amalga oshirishda yaqinlariga yordam berish, keksalik davrida tinch va farovon xayot kechirishga tayyorlanish va boshqalar hisoblanadi. Bu yosh davri uchun xayotga o„zgacha nazar bilan qarash va chuqur mushohada qilish, shaxsiy, oilaviy va kasbiy sohalarda avval qabul qilingan qadriyatlar tizimini kayta kurib chiqish kabi hususiyatlar xosdir. Majburiy xayotiy va kasbiy o„zgarishlar faqatgina stressni rivojlanishiga zamin xozirlabgina qolmasdan, balki avval qabul qilingan xayotiy rejalar va motivlarning o„zgarishi, kolaversa ulardan voz kechishga olib kelishi mumkin.

Yetuklik davrida “Men”-konsepsiyasi shaxsning o„zi va atrof-muhit xaqidagi yangi tasavvurlari bilan boyidi. “Men”-konsepsiyasi shaxsning konseptual negizini boyishi natijasida rivojlanadi. Uning asosida axloqiy normalar, xuquq va shaxsiy qadriyatlar negizida shaxsning o„zini o„zi faollashtirishi yotadi. Shaxsning o„ziga nisbatan realistik, ongli munosabati uning shaxsiy “Men”iga yo„naltirilgan emotsiyalarni boshqarish imkonini beradi. O„z-o„ziga baho berish umumiy xarakterga ega bo„lib, ularning “proeksiyasi” turli vaziyatlarda namoyon bo„ladi. “Men obrazi” ijtimoiy rollarni qabul qilish va shaxsiy mavkeni tiklash bilan bog„liq ravishda boshqa shaxslarning (bolalar, o„quvchilar va boshqalarning) taraqqiyotini ta‟minlashga yo„naltirilgan bo„ladi.

Yetuklik davrida yetakchi faoliyat mehnat hisoblanadi. Kasbiy faoliyatda orttirilgan tajriba muhim ahamiyatga ega. Muloqot va shaxslararo munosabatlarning ahamiyatini kuchaytiruvchi oralik va boshqaruvchi funksiyalar bilan bog„liq xolda kasbiy xulq-atvorning yangi shakllari rivojlanadi va namoyon bo„ladi. Faoliyat sohasining doirasi kengayadi, yangi xulq-atvor strategiyalari yuzaga keladi, shaxsiy mehnat jarayoni va uning natijalariga hamda boshqa mutaxassislarga nisbatan mas‟uliyatlilik hissi ortadi. Oilaviy xayotdagi barqarorlik, maqsadga muvofiqlik bilan tavsiflanib, bolalarga va qariyalarga yordam berishga bo„lgan extiyoj kuchayadi. Mehnat yuklamasining kattaligi, funksional zaxiralarning susayishi va unga nisbatan e‟tibor hamda vaqtning ishchanlik qobiliyatini qayta tiklashga sarflanishi natijasida shaxsda dam olishni tashkil kilinishi biroz cheklanadi.

Demak, yetuklik davrining o„ziga xos tomonlari mehnat faoliyatining muhim ta‟sir darajasi, xayotiy va mehnat motivlarining shakllanishi va amalga oshishi, adekvat “Men” - konsepsiyasining tarkib topishi, shaxsiy imkoniyatlarning shaxsiy maqsad va rejalar bilan muvofiqligi, ma‟naviy- mazmuniy ustanovkalarning amalga oshishi bilan shartlangan shaxs to„zilishining turli komponentlarini progressiv rivojlanishida aks etadi. Qolaversa, bu davrda me‟yoriy inqirozlar va shaxs deformatsiyasi kuzatiladi, bu esa, shaxs taraqqiyotining pozitiv tendensiyasi buzilganligidan, xattoki, shaxs tuzilishidagi ayrim komponentlarning namoyon bo„lishi va xolatiga hamda shaxs xulq-atvoriga salbiy ta‟sir kilayotganidan dalolat berishi mumkin.

Turli yosh davrlarida shaxs psixik taraqqiyoti shaxs tuzilishining u yoki bu komponentlarining o„ziga xos sifatlari va bu jarayonning namoyon bo„lishini ayrim qonuniyatlari bilan cheklanib qolmasdan, aynan:

- turli psixik funksiyalar va hususiyatlarning taraqqiyotini nomuvofiqligi (ular o„zlarining yuksalish cho„qqisi, barqarorlik va inkiroz bosqichlariga ega), shu bilan birga taraqqiy etganlik qanchalik past bo„lsa, ikkilanish shunchalik kuchli bo„ladi;
- shaxs xayot-faoliyati va psixik faoliyat funksiyalari hamda ta‟lim tizimining roli va tuzilishining o„ziga xosligi orqali aniqlanuvchi shaxsning aloxida komponentlarini shakllanishining turli vaqtlarda sodir bo„lishi-geteroxronlik fazasi;
- psixik faollik tizimining barqarorligini ta‟minlovchi, vaqtga bog„liq bo„lmagan xolda namoyon bo„luvchi rivojlanishning alohida bosqichlarining beqarorligi;
- senzitivlik, ma‟lum vaqt davomida tashqi ta‟sirlarga nisbatan psixik funksiyalarning ta‟sirchanligining ortib ketishi;

taraqqiyotning divergentligi-konvergentligi - bunda psixik taraqqiyot jarayonining serqirraligining ortishi va saralashning ortishi bilan tavsiflanadi

Qobiliyatlarning sifat va miqdor tavsifi

Qobiliyatlar individual-psixologik xususiyatlar sifatida xarakterlanadi, ya’ni bir odamning boshqa odamdan farq qiladigan sifatlarini ochib beradi. O`z-o`zida ma’lumki kishilar teng emas. Mana shuning uchun qobiliyatlar haqida gapirganda, bu farqlarni xarakterlab o`tish zarur. Ular sifat va miqdor jihatdan xarakterlanishi, farq qilishi mumkin.

Qobiliyat xususiyatlarining sifat tomonidan qaralishi maqsadga turli yo`llar bilan borishga imkon beruvchi "o`zgaruvchan miqdor" to`plami sifatida, faoliyat muvaffaqiyatini ta’minlovchi psixologik xususiyatlarning murakkab kompleksi sifatida ko`rinadi. Qandaydir faoliyatni bajarishdagi bir xil yoki nimalar bilandir o`xshash yutuqlar asosida juda xilma xil qobiliyatlar birikmasi yotishi mumkin. Bular bizning ko`z o`ngimizda shaxs qobiliyatlarining muhim tomonini ochib beradi: bir xususiyatning o`rnini boshqa bir xususiyatlar bilan to`ldirish (kompensatsiya qilish) ning keng imkoniyatlari bor bo`lib, buni odam o`zida chinakam va qat’iyatlik bilan ishlash orqali rivojlantirish mumkin. Odamning qobiliyatlarida bor bo`lgan kompensatorlik imkoniyatlari, masalan, ko`rish va eshitishdan mahrum bo`lgan odamlarni maxsus tarbiyalashda nomoyon bo`ladi.

Qobiliyatlarni *MIQDOR* jihatdan o`lchash muammosi psixologiyada katta tarixga egadir. XIX asrning oxiri va XX asrning boshlaridayoq bir qator psixologlar (Kettel, Termen, Spirman va boshqalar) ommaviy ixtisosliklar uchun kasb tanlashni amalga oshirish zarurati bilan uzviy bog’liq bo`lgan talablar ta’siri ostida ta’lim olayotganlarning qobiliyat darajasini aniqlashni talab qilib chiqdilar. O`sha paytlarda qobiliyatlarni o`lchash usuli sifatida ***AQLIY ISTE’DOD***

ESTLARI*dan* foydalanildi. Aqliy iste'dod testlarining yordami bilan bir qator mamlakatlarda (AQSh, Buyuk Britaniya va boshqalar) qobiliyatlarni aniqlash va maktablarda o`quvchilarni saralash, armiyada ofitserlik xizmatini bajarish, ishlab chiqarishda rahbarlik lavozimini tanlash va shu kabilar amalga oshiriladi. Aqliy iste'dod testlari o`zlarining mazmunlariga ko`ra muvaffaqiyatli yechilishi (ko`pincha sarflangan vaqtni hisobga olib) ball yoki ochkolar yig'indisi bilan hisoblanadigan bir qator savollardan yoki masalalardan iboratdir. Test natijalari maxsus ravishda standartlashtiriladi, maxsus koeffitsientlarga aylantiriladi. Bular "aqliy iste'dod koeffitsienti" (IQ) ni aniqlash imkonini beradi. O`sha davrdagi ko`pchilik psixologlarning ko`rsatishicha qandaydir o`zgarmas, har tomonlama iste'dodni yoki "umumiy intellektni" (general intellegence) nomoyon qiladi deb ta'kidlaganlar. Odamning qobiliyatlarida bor bo"lgan kompensatorlik imkoniyatlari, masalan, ko"rish va eshitishdan mahrum bo"lgan odamlarni maxsus tarbiyalashda namoyon bo"ladi.

Qobiliyatlarni miqdor jihatdan o"lchash muammosi psixologiyada katta tarixga egadir. XIX asrning oxiri va XX asrning boshlaridayoq bir qator psixologlar (Kettel, Termen, Spirman va boshqalar) ommaviy ixtisosliklar uchun kasb tanlashni amalga oshirish zarurati bilan uzviy bog"liq bo"lgan talablar ta"siri ostida ta"lim olayotganlarning qobiliyat darajasini aniqlashni talab qilib chiqdilar.

O"sha paytlarda qobiliyatlarni o"lchash usuli sifatida *aqliy iste"dod testlari*dan foydalanilgan. Aqliy iste"dod testlarining yordami bilan bir qator mamlakatlarda (AQSH, Buyuk Britaniya va boshqalar) qobiliyatlarni aniqlash va ktablarda o"quvchilarni saralash, armiyada ofitserlik xizmatini bajarish, ishlab chiqarishda rahbarlik lavozimini tanlash va shu kabilar amalga oshiriladi.Aqliy iste"dod testlari o"zlarining mazmunlariga ko"ra uvaffaqiyatli yechilishi (ko"pincha sarflangan vaqtni hisobga olib) ballar yig"indisi bilan hisoblanadigan bir qator savollardan yoki masalalardan iboratdir. Test natijalari maxsus ravishda standartlashtiriladi, maxsus koeffitsientlarga aylantiriladi. Bular "aqliy iste"dod koeffitsienti" (IK) ni aniqlash imkonini beradi.

O"sha davrdagi ko"pchilik psixologlarning ko"rsatishicha qandaydir o"zgarmas, har tomonlama iste"dodni yoki "umumiy intellektni" (general intellegence) namoyon qiladi deb ta"kidlaganlar.

Qobiliyatning turlari

Qobiliyatlar umumiy va maxsus bo`ladi. Umumiy qobiliyatlar mavjud bo`lganda kishi faoliyatning turli xillari bilan muvaffaqiyatli shug'ullana oladi. Maxsus qobiliyatlar kishiga qandaydir bir muayyan faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug'ullanish imkoniyatini beradi. Masalan, matematik, texnikaviy, adabiy, musiqiy, tasviriy va boshqa qobiliyatlar bo`ladi. Umumiy qobiliyatlarga ko`p hollarda intellekt, tafakkurning kreativligi va shaxsning psixomotor qobiliyatlari kiradi deb hisoblaydilar. ***KREATIVLIK*** (ijodiy qobiliyatlar). Ko`rsatib o`tganimizdek birgina IQ (intellekt koeffitsienti) asosida kishini ishga qabul qilish, uning imkoniyatlarini

baholash noto`g'ri bular edi. Shu sababli 50 yillardan boshlab aqliy rivojlanishni o`rganish bilan bir qatorda kishining ijodiy qobiliyatlarini ham o`rganish va o`lchashga katta e'tibor berib boshlandi. Bu borada maxsus testlar yaratildi. "Intellekt" tushunchasi ko`proq psixologiyadagi konvergent tafakkur tushunchasiga mos keladi - birdan-bir to`g'ri javobni izlash va unga keltirishga yo`nalgan. "Kreativlik" tushunchasi esa ko`proq divergent tafakkur tushunchasiga mos keladi. Divergent tafakkur, bu turli tomonlarga tarmoqlanuvchi, bir vaqtning o`zida turli yo`nalishlarga tarqaluvchi, ko`plab yechim variantlarni yaratishga yo`nalgan tafakkur. Shu sababli divergent tafakkur kutilmagan natija va yechimlarga olib keladi. Ijodiy qobiliyatlarni (kreativlik) baholashda berilgan vazifani yechishning "engilligi", "moslashuvchanligi va egiluvchanligi", "orginalligi"ga e'tibor beriladi. ***psixomotor qobiliyatlar*** - harakatlar va harakatlar tizimini amalga oshirish va boshqarishning psixologik va motor (harakat) asoslari. Ularga quyidagilar kiradi: statistik kuch; dinamik kuch; keskin harakatlardagi kuch; umumiy moslashuvchanlik qobiliyati; epchillik; umumiy chidamlilik; maxsus faoliyatga chidamlilik; muvozanatni tuta olish. Mustaqil va original tarzda bajarilishini taqozo qiladigan zo`r qobiliyatlar birikmasi talant deyiladi. Ijodiy faoliyatga qobiliyatli bo`lgan kishilarni talantli kishilar jumlasiga kiritish mumkin. Talantlilikning yuqori bosqichi geniallik deb ataladi. Ijtimoiy hayotda, fan, adabiyot, san'at va shu kabi sohalarda printsipial ravishda yangi bo`lgan biror narsani yaratgan kishilar geniylar deb hisoblanadilar. Genial kishilar insoniyat taraqqiyotida yo`l ko`rsatuvchi bosqichlar bo`lib xizmat qiladilar, tarixiy shaxslar bo`ladilar. Qobiliyatlar, masalan, olim, yozuvchi, konstruktor va hokozolar shug'ullanadigan aqliy mehnat bilan mashg'ul bo`lgandagina paydo bo`lib qolmaydi. Faoliyat turlari "oliy" va "quyi" xillarga bulinmaydigan va texnika taraqqiyoti oddiy ishchini yoki kishlok xo`jaligi sohasida ishlayotgan mehnatchini ijod bilan shug'ullanishga, ratsionalizator bo`lishga, ishlab chiqarishda yuqori ko`rsatgichlarga erishishga undayotgan, ayniqsa bizning mamlakatimizda jismoniy ishda ham qobiliyatlar nomoyon bo`laveradi.

qobiliyatning tabiiy shartlari

Har bir kishida tug'ma layoqat nishonalari, ya'ni miyaning oliy nerv faoliyatining analizatorlarining o`ziga xos xususiyatlari bor bo`ladi, binobarin, kelgusida biror qobiliyatni rivojlantirishga bo`lgan muayyan moyillik ana shunga bog'liqdir. Tabiiy anatomik-fiziologik layoqat nishonalari qobiliyatlarning fiziologik asosini tashkil etadi. Keyinchalik qobiliyatga aylanadigan layoqat nishonalarining majmui kishining iste'dodi deyiladi. Lekin bu tabiiy layoqat nishonalari muvaffaqiyatli faoliyatning to`la-to`kis shart-sharoiti bo`la olmaydi. Layoqat nishonalarini rivojlantirish kerak, bu esa faoliyat jarayondagina ruy berishi mumkin. Layoqat nishonalari ko`p qiymatlidir, yana tegishli sharoitlar mavjud bo`lganda, faoliyatga qarab layoqat nishonalari asosida turli qobiliyatlar rivojlanishi mumkin. Masalan, yaxshi eshitish va ohangni sezish qobiliyati mavjud bo`lganda bir kishi kompozitor, ikkinchisi yaxshi

ijrochi, uchinchisi yaxshi dirijyor, to`rtinchisi musiqa tanqidchisi va hokozolar bo`lib yetishmogi mumkin. Qulay sharoitlar mavjud bo`lganda ayrim kishilarda qobiliyatlar juda erta rivojlanadi. Odatda musiqa va tasviriy san'atga bo`lgan layoqat ancha ertaroq paydo bo`ladi. Masalan, M.I. Glinka 3-4 yoshidayoq shunday o`yinni juda yoqtirgan: u ovoz chiqaradigan turli buyumlarni (mis, tog'oracha, kostrilka) yog'och bilan chalgan. Bunda kattalarni hayron qoldiradigan darajada ohangdosh tovushlar paydo bo`lganki, ularni eshitish maroqli edi. Keyinchalik bu bola buyuk kompozitor bo`lib yetishdi. Biroq shunday ham bo`ladiki, kishilar bolalikda favqulodda qobiliyatlarini nomoyon qilganlar-u, biroq katta bo`lgach, ulardan mahrum bo`lganlar. Lekin bunday hollar nisbatan kam uchraydi.

Qobiliyatlar faoliyat davomida rivojlanadi. Qobiliyatlarni rivojlantirishning birinchi sharti - faoliyatga bo`lgan ehtiyojni tarbiyalashdir. Mehnatga bo`lgan ehtiyojni tarbiyalash uchun ishga qiziqish va unga odatlanish katta ahamiyatga egadir. Qobiliyatlar shaxsning boshqa sifatlari bilan chambarchas bog'langan. Kishining talantli ekanligi ma'lum darajada uning psixik jarayonlari, shuningdek, ko`pgina psixik xususiyatlarining rivojlanish darajasiga bog'liq bo`ladi. Ayrim qobiliyatlarni rivojlantirishda tegishli bilish jarayonlarining yuqori darajada bo`lishi hal qiluvchi rol o`ynaydi. Masalan, musiqachi uchun eshitish, rassom uchun ko`rish idroklari katta ahamiyatga ega. Kishi o`z qobiliyatlarini rivojlantirish bilan shug'ullanar ekan, bu rivojlanish quruq maqsaddan iborat bo`lib qolishi kerak emas. Asosiy vazifa jamiyatning munosib, foydali a'zosi bo`lib yetishishdan iboratdir.

11 TEMPERAMENT VA KASBNI EGALLASH MASALALARI. SHAXSNI KASBIY KAMOLOTI.

Reja:

11.1 Individual –tipologik xususiyatlar klassifikasiyasi.

11.2 Temperament turlari.

11.3 Kasbni egallashda temperamentning rollari. Shaxsning kasbiy kamoloti.

Tayanch iboralar. *temperament, tipologiya, nerv jarayonlari, individual qarashlar, temperament turlari, fiziologik asoslari, Kasbiy kamolot, etuklik, omillar, qadriyatlar, kasbiy shakllanish, professionalizm, kompetentlik,malaka va kasbiy yetuklik*

11.1 Individual - tipologik xususiyatlar klassifikasiyasi.

Individual –tipologik xususiyatlar klassifikatsiyasi. Shaxsning individual xususiyatlari haqida gap ketganda, ularning tug'ma, biologik xususiyatlariga alohida eътibor beriladi. Chunki aslida bir tomondan shaxs ijtimoiy mavjudot bo'lsa, ikkinchi tomondan - biologik yaxlitlik, tug'ma sifatlarni o'zichiga olgan substrat - individ hamdir. Temperament va laèqatlar individning dinamik - o'zgaruvchan psixik faoliyati jaraènini taъminlovchi sifatlarini o'zichiga oladi. Bu sifatlarning ahamiyati shundaki, ular shaxsda keyin ontogenetik taraqqièt jaraènida shakllanadigan boshqa xususiyatlarga asos bo'ladi. Temperament vafaoliyatningindividualxususiyatlari. Insonning ruhiy olami beto'xtov harakatlar majmuasidan iborat bo'lib, biri ikkinchisini bevosita taqozo etadi va ular uzluksiz zanjir tizimiga o'xshash tarzda hukm suradi. Xuddi shu bois shaxs ruhiyatida tashqi atrof-muhit to'g'risidagi taassurotlar, o'tmish xotiralari, kelajak yuzasidan ijodiy xaèllar, ezgu niyatlar, xohish istaklar, maqsad va tilaklar, mulohaza, fikr va muammo, hissiy kechinmalar, irodaviy sifatlar uzluksiz tarzda o'zaro o'rin almashtirib turishi evaziga ontogenetik dunèga mustahkam negiz hozirlanadi Ruhiy olam kechishi, uning surъati, mazmuni, shakli qo'lami, xususiyati, xislati, sifati, mexanizmi alohida, yakkahol insonda rang-barang tarzda namoèn bo'lishi kuzatiladi. Shuning uchun bo'lsa kerak, insonlar tabiat hodisalariga, omillariga,

таъsir kuchlariga tez èki sekin, engil èki mushkulot bilan javob qaytarishga moyillik ko'rsatadilar. Shuni alohida таъkidlab o'tish kerakki, psixik faoliyatning dinomikasi nafaqat temperamentga, balki motivlarga, psixik holatlarga, his-tuyg'ularga ham bevosita bog'liqdir. Misol uchun, inson o'zi temperamentning qaysi tiliga taalluqli bo'lishidan qatъi nazar, o'z faoliyatiga laèqatli, mayli kuchli, intilishi qatъiy, qiziquvchan bo'lsa, uni tashkillashtirishda va nazardan qolishda uyushqoqlik, harakat surъati esa tezkor amalga oshadi, unga loqayd munosabatni bildirsa, ish surъati sekin va sust kechadi. Psixologiyada temperamentga taalluqli individual dinomik xususiyatlar bilan motivlar va psixologik holatlar, hissiy kechinmalarning dinamik xususiyatlari o'rtasida muayyan darajada tafovut mavjudligi alohida таъkidlanadi. Ular orasidagi farqlarni ajratib ko'rsatish maqsadida qo'shimcha belgilar kiritiladi va o'ziga xos tarzda tavsiflab beriladi. Ularning ayrimlarini ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiq.

1.Favqulodda temperamentning bir xil xususiyatlari, motiv, psixik holat va hodisalardan farqli o'laroq, aynan shu shaxsning o'zida, uning turli faoliyatlarida, xatti-harakatlarida, muomalasida ifodalanadi.

2. Temperament xususiyatlari tabiiy shartlanganlik omiliga taalluqli bo'lganligi tufayli inson haèti va faoliyatining (umrining) butun davomida èki uning muayyan bir bo'lagida (таъsirga beriluvchanligi sababligidan qatъi nazar) barqaror, o'zgarmas va mustahkamdir.

3. Yakkahol shaxsga daxldor temperamentning turli xususiyatlari o'zaro birbiri bilan g'ayriqonuniy ravishda birlashgan bo'lmasdan, balki ular o'zaro birbiri muayyan qonuniyat asosida mujassamlashib, xuddi shu xususiyatlar uning tiplarini tavsiflovchi o'ziga xos tizilmani vujudga keltiradi.

4. Psixologiya fanida temperament xususiyatlari deganda, alohida bir shaxsning psixik faoliyati dinomikasini belgilovchi psixikaning barqaror, o'zgarmas individual-tipologik xususiyatlari majmuasi tushuniladi. Mazkur xususiyatlar turli shakl va mazmunga ega bo'lgan motivlarda, psixik holatlarda, maqsadlarda, faoliyatlarda nisbatan o'zgarmovchi, temperament tipini tasvirlovchi tuzilmani tashkil qiladi.

5. Psixologiya faning ijtimoiy tarixiy taraqqiyoti davrida temperamentga nisbatan bildirilgan mulohazalar, uning moddiy asosi to'g'risidagi talqinlar xilma-xil bo'lib, shaxsning psixologik xususiyatlarini o'ziga xos tarzda tushuntirish uchun xizmat qilib kelgan. Temperament latincha —temperamentum» degan so'zdan olingan bo'lib, buning maъnosi «aralashma» degan tushunchani anglatadi. Temperament to'g'risidagi dastlabki таъlimotni yunon olimi Gippokrat (eramizdan oldingi 460-

356 yillarda yashagan) yaratgan bo'lib, uning tipologiyasi to hozirgi davrgacha qo'llanilib kelinmoqda. Temperamentning fiziologik asoslari to'g'risida tushuncha Qadimgi yunon olimi Gippokrat ta`limotiga binoan, insonlarning temperament xususiyatlari jihatidan o'zaro bir-biridan tafovutlanishi, ularning tana a`zolaridagi suyuqliklarning (xiltlarning) turlicha nisbatda joylashuviga bog'liq ekanligi tasavvur qilinadi. Gippokrat ta`biricha, inson tanasida to'rt xil suyuqlik (xilt) mavjud bo'lib, ular o't yoki safro (yunoncha chole), qon (latincha sanguis yoki sanguinis), qora o't (yunoncha melas «qora», chole «o't»), balg'am (yunoncha «phlegma») kabilardan iboratdir. Uning mulohasicha; 1) o'tning xususiyatni-quruqlikdir, uning vazifasi-tana a`zolarida quruqlikni saqlab turish yoki badanni quriq tutishdir; 2) qonning xususiyati- issiqlikdir, uning vazifasi tanani isitib turishdir; 3) qora o'tning xususiyati-namlikdir, uning vazifasi-badan namligini saqlab turishdir; 4)balg'amning (shilimshik) moddaning xususiyati-sovuqlikdir, uning vazifasi-badanni sovutib turishdan iboratdir. Gippokrat таъlimotiga muvofiq, har bir insonda shu to'rt xil suyuqlik mavjud bo'lib, uning bittasi ustuvorlik kasb etadi. Mazkur aralashma (latincha temperamentum) lardan qaysi biri salmoqliroq bo'lsa, shunga qarab insonlar temperament jihatdan farqlanadilar, chunonchi, xolerikda sariq o't, sangvinikda qon, melanxolikda qora o't, flegmatikda balg'am (shilimshiq modda) ustun bo'lishi ta`kidlanadi. Gippokratning to'rt xil moddalar (suyuqliklar) aralashmasi, yaъni temperament tushunchasi va uning tipologiyasi (sangvinik, xolerik, flegmatik, melanxolik) ramziy maъnoda hozirgi zamon psixologiyasida ham qo'llanilib kelinmoqda. Temperamentning ilmiy psixologik asoslari va uning fiziologik mexanizmlari keyingi ijtimoiy tarixiy taraqqiètning bosqichlarida yaratiladi hamda bu borada ishlar davom ettirilmoqda. Temperamentning fiziologik asoslariga ulkan o'z hissini qo'shgan olimlardan biri rus fiziologi I. P. Pavlov (18-1936) hisoblanadi. Odam temperamentiga aloqador sifatlarning o'ziga xosligi shundaki, ular odam bir faoliyat turidan ikkinchisiga, bir emotsional holatdan boshqasiga, bir malakalarni boshqasi bilan almashtirgan paytlarda reaksiyalarning egiluvchan va dinamikligini таъminlaydi va shu nuqtai nazardan Temperament - shaxs faoliyati va xulqining dinamik (o'zgaruvchan) va emotsional - hissiy tomonlarini xarakterlovchi individual xususiyatlar majmuidir. Temperament xususiyatlari shaxsning ichki tuzilmasi bilan bevosita bog'liq bo'lib, ularning namoèn bo'lishi uning konkret vaziyatlarga munosabatini, ekstremal vaziyatlarda o'zini qanday tutishini belgilab beradi. Masalan, inson turli vaziyatlarda o'zini turlicha tutadi: oliy o'quv yurtida talabalar safiga qabul qilganligi to'g'risidagi axborotni eshitgan bolaning o'zini tutishi, èki haètning ogir sinovlari (yaqin kishining ulimi, ishdan haydalish, do'stning xoinligi kabi) paytida odam beixtièr namoèn qiladigan reaksiyalari uning temperamentidan kelib chiqadi. Shuning uchun ham ikkala vaziyatni ham kimdir og'ir-bosiqlik bilan, boshqasi esa o'zini yo'qotgudek darajada his-hayajon bilan boshidan kechiradi. Shuning uchun ham temperamentning shaxs shakllanishi va ijtimoiy muhitda o'ziga xos mavqeni

egallashidagi ahamiyati juda katta. O'zini bosib olgan, haèt qiyinchiliklarini sabr-bardosh bilan ko'taradigan insonning odamlar orasidagi obro'si ham baland bo'ladi. Bu uning o'z-o'ziga nisbatan hurmatini ham oshiradi, ishga, odamlarga va narsalarga munosabatini takomillashtirib borishiga imkon beradi. Temperamentning yana bir ahamiyatli jihati shundaki, u haètiy voqealar va vaziyatlarni, jamiyatdagi ijtimoiy guruhlarni «yaxshi - èmon», «ahamiyatli - ahamiyatsiz» mezonlari asosida ajratishga imkon beradi. Yaъni, temprament odamning ijtimoiy obъektlarga nisbatan «sezgirligini» tarbiyalaydi, professional mahorat va kasb malakasining oshib borishiga èrdam beradi. Temperamental xususiyatlar aslida tug'ma hisoblansada, shaxsga bevosita aloqador va anglanadigan bo'lgani uchun ham maъlum maъnoda o'zgarib boradi. Shuning uchun ham tug'ilgan chog'ida sangvinikka o'xshash harakatlar namoèn qilgan bolani umrining oxirigacha faqat shundayligicha qoladi, deb bo'lmaydi. Demak, har bir temperament xususiyatlarini va uning shaxs tizimga aloqasini bilish va shunga yarasha xulosalar chiqarish kerak. Akademik I. Pavlov temperament xususiyatlarini belgilab beruvchi uch oliy nerv tizimi xossalarini ajratgan edi: -k u ch, yaъni nerv tizimining kuchli ko'zgatuvchilar ta`siriga bardoshi, shunga ko'ra odamlardagi mehnatga yaroklilik, chidam kabi sifatlarning namoèn bo'lishi: -m u v o z a n a t l a sh g a n l i k, ya`ni asabdagi tormozlanish va ko'zgalish jaraènlarining o'zaro mutonosibligi, shunga ko'ra, o'zini tuta olish, bosiqlik kabi sifatlar va ularga teskari sifatlarning namoèn bo'lishi; -h a r a k a t ch a n l i k, ya`ni ko'zg'alish va tormozlanish jarayonlaridagi o'zaro almashinish jarayonining tezligi va harakatchanligi ma`nosida. Quyidagi rasmda nerv jarayonlari bilan temperament tiplari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik asosida temperament tiplari aks ettirilgan. Shunday qilib, asab tizimi bilan bog'liq individual sifatlarni bilish shart, chunki ular bevosita mehnat va o'qish jaraènlarini har bir inson tomonidan, uning manfaatlariga mos tarzda tashkil etishga xizmat qiladi. Asabga bog'liq bo'lgan tabiiy xususiyatlarmizni ham umuman o'zgarmas deb aytolmaymiz, chunki tabiatda o'zgarmaydigan narsaning o'zi yo'q. Shuning uchun ham oxirgi yillarda o'tkazilaètgan tadqiqotlarda shaxs tizimida shunday maъkul, «hayotiy ko'rsatgichli» xususiyatlar tizimini o'rganilmoqda va unda temperamentga aloqador sifatlar ham nazarda tutilmoqda. Masalan, V.S. Merlin temperamentning psixologik tasnifi va ularning hayotiy vaziyatlarda namoyon bo'lishini boshqarish masalasida ko'p ishlar qilgan. Uning fikricha, insonda mavjud bo'lgan faollik, bosiqlik, emotsional tetiklik, hissiyotlarning tezda namoyon bo'lishi va o'zgaruvchanligi, kayfiyatning turg'unligi, behalovatlilik, ishchanlik, yangi ishga kirishib ketish, malakalarning tez hosil bo'lishi kabi qator sifatlar asosida shaxsdagi o'sha ekstroversiya va introvertsiya xossalari yotadi va ularni ham o'zgartirish va shu orqali temperamentni boshqarish mumkin.

11.2.Temperament turlari

Tepmerament tipologiyasi mabodo insonlar temperamentlari bo'yicha qièslansa, u holda uning xususiyatlari jihatidan o'zaro o'xshash shaxslarning guruhi mavjudligi namoèn bo'ladi. Bu asnoda eramizdan oldingi davrda ham temperament tiplari to'g'risida materiallar to'plangan. Ularda temperament tipi deyilganda, insonlarning muayyan guruhlarini tavsiflovchi psixik xususiyatlarning yig'indisi (majmuasi) anglashinilgan. Hozirgi davrda temperament tipi deganda, maъlum insonlar guruhi uchun umumiy bo'lgan xususiyatlarning sodda majmuasi emas, balki mazkur xususiyatlarining qonuniy, zaruriy o'zaro bog'liqligi tushuniladi. Temperament tipin tavsiflovchi xususiyatlarning qonuniy tarzda o'zaro bog'liqligi turlicha aks etishi mumkin. Temperamentning ayrim xususiyatlarini u yoki bu tashqi ko'rinishiga qarab o'lchash mukin. Shaxsning shiddatlik (tezlik, impul`sivlik) darajasini ikkita xarakatdan bittasini tanlanmaydigan xarakatga nisbatan qancha vaqt mobaynida qaror chiqarishga qarab aniqlash mumkin. Agar ushbu yo'sinda temperamentning bir nechta xususiyatlari o'lchansa, u xolda uning bir xususiyati qancha ko'p miqdorda ifodalansa temperamentning boshqa xususiyatining shuncha ko'p yoki, aksincha oz aks yettishi kuzatiladi. Har qaysi tip uchun o'ziga xos xususiyatlarining o'zaro aloqasi, xar bir alohida xususiyatning sifat tavsifi temperament tipining boshqa xususiyatlari bilan bog'liqligi ham aks etadi. Masalan, o'zini tuta bilmaslik èki o'zini tuta bilish temperamentning bitta tipi uchun:a) extiroslik shiddat, b) jazava va darajadagi muvozanatsizlikdir; bir xil tip uchun o'zini tuta bilish-emotsional-irodaviy bir meèrda tutish bo'lsa, boshqa uchun u ulug'vorlik va vazminlik namunasidir. Temperament tiplarini psixik xususiyatlar o'rtasidagi qonuniy munosabatlar tarzida tushunish Gippokrat tomonidan talqin qilingan temperament tug'risida tushuncha maъnosiga mos tushadi. Lekin u ushbu tushunchani yunoncha krasis so'zi bilan belgilangan va u latincha temperament atamasiga mos bo'lib, nisbatan, munosabat degan maъnoni anglatadi. Nerv tizimsining umumiy tiplari bilan fiziologik jihatdan temperament tiplari I. P. Pavlovdan keyin gippokrat tiplari, yaъni sangvinik, xolerik, flegmatik, melanxolik deb atala boshlangan. Lekin bu tushunchalar hozirgi zamon psixologik maъlumotlar munosabati bilan yangicha mazmun va mohiyat kasb etgan. Shu boisdan nerv tizimsining to'rtta tipi temperamentning to'rtta tipiga bog'liq deb eъtirof etishimizga haqqimiz yo'q, chunki ular gippokratcha tiplarning ayrimlari, xolos. Shuning uchun yangi omillar mazkur tiplarning psixologik tavsifini qayta tahlil qilishni taqozo etadi. Tempirament tiplarining psixologik tavsifi quyidagi muhim xususiyatlar yordami bilan aniqlanishi mumkin:

1. Senzitivlik (lotincha sensus sezish, his qilish degan maъno anglatadi). Senzitivlik yuzasidaninsonda bironta psixik reaktsiyani hosil qilish uchun zarur bo'lgan o'ta kuchsiz tashqi taassurot kuchiga qarab mulohaza yuritiladi jumladan, sezgilarning paydo bo'lishi uchun kerak qo'zg'ovchining ozgina kuchi (ularning quyi chegarasi), ehtièjlar qondirilmasligining sezilar-sezilmas darajasi (shaxsga ruhiy azob beruvchi)

mujassamlashadi

2. Reaktivlik. Bu to'g'rida aynan bir xil kuch bilan taъsir etuvchi tashqi va ichki taassurotlarga shaxs qanday kuch bilan emoktsional reaktsis qilishiga qarab munosabat bildiriladi. Reaktivlikning èrqin ro'èbga chiqishi – emotsionallik, taъsirlanuvchanlik ifodalanishidir.

3. Faollik. Bu borada inson qanday faollik darajasi bilan tashqi olamga taъsir etishi va maqsadlarni amalga oshirishda obъektiv hamda subъektiv qarama-qarshiliklarni faollik bilan engishiga qarab fikr yuritiladi.

1. Reaktivlik bilan faollikning o'zaro munosabati. Odamning faoliyati ko'p jihatdan nimaga bog'liqligiga binoan, chunonchi tasodifiy tarzdagi tashqi va ichki sharoitlarda (kayfiyatga, favquloddagi hodisalarga) èki maqsadlarga, ezgu niyatlarga, xohish-intilishlarga ko'ra fikr bildirish nazarda tutiladi.

2. Reaktsiya tempi. Turli xususiyatli psixik reaktsiyalar va jaraènlarning kechishi tezligiga, binobarin, harakat tezligiga, nutq sur`atiga, farosatlilikka, aql tezligiga asoslanib xulosa chiqariladi.

3. Harakatlarning silliqligi va unga qarama-qarshi sifat rigidlik (qotib qolganlik). shaxsning o'zgaruvchan tashqi taassurotlarga qanchalik engillik va chaqqonlik bilan muvofiqlashishiga (silliqlik bilan moslashishga), shuningdek, uning xatti-harakatlari qanchalik sust va zaifligi (rigidligi-qotib qolganligi) nisbatan baho berishdan iboratdir.
4. Ekstraverovanlik va intravertirovanlik. Shaxsning faoliyati va reaktsiya ko'p jihatdan nimalarga bog'liqligiga, chunonchi favquloddagi tashqi taassurotlarga (ekstravertirovanlik) èki, aksincha, timsollarga, tasavvurlarga, o'tish hamda kelajak bilan uyg'unlashgan mulohazalarga (introvertirovanlik) taalluqligiga asoslangan holda munosabat ifodasidir.

Xolerik temperament – hissiyotning tez va kuchli qo’zg’aluvchanligi, barqaror bo’lishi bilan farq qiladi. Xolerik temperamentli kishilarning hissiyotlari ularning imo-ishoralarida, mimikalarida, harakatlari va nutqlarida yaqqol ko’rinib turadi. Xoleriklar qizg’inlik va tajanglikka moyil bo’ladilar. Bunday temperamentli kishilar chaqqon, umuman harakatchan, serg’ayrat va har doim urinuvchan bo’ladilar. Bu hil temperamentli bolalar serg’ayrat bo’ladilar. Ular bir ishga tez kirishadigan va boshlagan ishini oxiriga yetkazadigan bo’ladilar. Ular ko’pchilik bilan jamoa o’yinlar o’tkazishni sevadilar va bunday o’yinlarni ko’pincha o’zlari boshlab, oxirigacha aktiv qatnashadilar. Xolerik temperamentli bolalar arazchan, serjahl va tajang bo’ladilar. Bir narsadan xafa bo’lsalar, bu xafalik ularda uzoq saqlanadi. Ulardagi kayfiyat ancha barqaror va davomli bo’ladi.

Sangvinik temperament– hissiyotning tez, kuchli qo'zg'aluvchanligi, lekin beqaror bo'lishi bilan farq qiladi. Sangvinik temperamentli kishilarning kayfiyati tez-tez o'zgarib, bir kayfiyat o'ziga teskari bo'lgan ikkinchi bir kayfiyat bilan tez almashib turmog'i mumkin. Sangviniklardagi psixik jarayonlar, xoleriklardagi singari, tez o'tadi. Bu hil temperamentli kishilar ildam, chaqqon, serharakat va jo'shqin bo'ladilar. Sangvinik temperamentli kishilar tevarak-atrofdagi voqyealardan tez ta'sirlanadilar va muvaffaqiyatsizliklar hamda ko'ngilsiz hodisalar uncha qattiq xafa qilmaydi. Ular ko'p ishga tez va g'ayrat bilan kirishadigan bo'ladilar, lekin ishdan tez soviydilar. Bir zayldagi ishlarni uzoq davomli sur'atda bajarishga moyil bo'lmaydilar. Sangvinik temperamentli bolalar juda serharakat, ildam va chaqqon bo'ladilar. Ular har qanday ishga qatnashish uchun doim tayyor bo'ladilar. Ko'pincha, bir qancha vazifalarni birdaniga bo'yinlariga oladilar. Lekin, har bir ishga ishtiyoq bilan tez kirishganliklari singari, boshlagan ishdan tez qaytishlari ham mumkin. Sangviniklar chin ko'ngildan va'dalar berishlari, lekin, ko'pincha, va'dani unutib, uni bajarmasliklari ham mumkin. Bu hil temperamentli bolalar o'yinlarga tez va zavq bilan kirishadilar, lekin o'yin davomida, o'z rollarini tez-tez o'zgartirib turishga moyil bo'ladilar. Ularning darrov xafa bo'lishlari va yig'lashlari mumkin, lekin ular hafalikni tez unutadigan bo'ladilar. Ularning yig'isi kulgi bilan tez almashadi.

Melanxolik temperament – hissiyotning sekin, lekin kuchli qo'zg'aluvchanligi va barqaror bo'lishi bilan farq qiladi. Melanxoliklar barqaror, davomli bir kayfiyatga moyil bo'ladilar, lekin hissiyotlarining tashqi ifodasi juda zaif bo'ladi. Melanxolik temperamentli odamlar sustkash bo'ladilar. Melanxolik temperamentli odam ishga birdan kirishmasligi mumkin, lekin bir kirishsa, boshlagan ishni oxiriga yetkazmay qo'ymaydi. Bunday temperamentli bolalar mo'min-qobil, yuvosh bo'ladilar, ko'pincha, birov savol bilan murojaat qilsa, uyalib, tortinib javob beradilar. Ularni darrov xafa yoki xursand qilish yengil emas, lekin bir narsadan xafa bo'lsalar, bu xafalik uzoq davom etadi, barqaror bo'ladi. Ular bir ishga yoki o'yinga tez yopishib kirishmaydilar, lekin qandaydir ish yoki bir o'yin boshlasalar, bunda chidam va matonat ko'rsatadilar.

Flegmatik temperament – hissiyotning juda sekin, kuchsiz qo'zg'alishi va uzoq davom etmasligi bilan farq qiladi. Flegmatik temperamentli kishilar hissiyotlarining tashqi ifodasi kuchsiz bo'ladi. Bu hil temperamentli odamlarni

xursand qilish, xafa qilish yoki g'azablantirish ancha qiyin.Flegmatiklarning psixik jarayonlari sust bo'ladi. Bu hil temperamentli odamlar nihoyat og'ir, yuvosh, bosiq, harakatlari salmoqli bo'ladi. Agar bir faoliyatga kirishsalar, uni qat'iyat bilan davom ettiradilar. Flegmatik temperamentli bolalar yuvosh, mo'min qobil bo'ladi. Ular ko'pchilikka ham aralashadigan, tortinchoq va hyech kimga tegmaydigan, birovni ranjitmaydigan bo'ladilar. Agar birov ular bilan urish chiqarmoqchi bo'lsa, o'zlarini chetga olishga harakat qiladilar. Ular shovqin-suronli, harakatli o'yinlarga moyil bo'lmaydilar. Bu hil temperamentli bolalar jizzaki bo'lmaydilar va odatda ular o'yin-kulgilarga moyil emaslar. Flegmatik temperamentli kishilar (bolalar) tashabbus ko'rsatishga moyil bo'lmaydilar, lekin ular faoliyatini yo'lga qo'yilsa, ancha qunt bilan ish ko'radilar, yaxshi o'qib ketishlari mumkin. Har qaysi odam temperamentini batamom bir tip doirasigagina «sig'dirib» bo'lmaydi albatta. Tip tushunchasining o'zi faqat bir-birlariga o'xshash bir guruh odamlarnigina o'z ichiga olishligini nazarda tutadi. Har qaysi odam temperamentida o'ziga xos individual xususiyatlari bo'ladi, bu xususiyatlarni batamom muayyan bir temperament tipiga kiritib bo'lmaydi. Bu xususiyatlar ayni individual xususiyatlardir, ya'ni shu shaxsning o'zigagina xos xususiyatdir. Ko'pchilik odamlarda bir tip temperament alomatlari ikkinchi bir tip temperament alomatlari bilan qo'shilgan bo'lishini ko'ramiz; chunonchi, xolerik temperamentli kishida melanxolik yoki flegmatik temperament alomatlari bo'lishi, sangvinik temperamentli kishida xolerik va flegmatik temperament alomatlari bo'lishi mumkin va hokazo. Odamlarni faqat ularda qaysi temperament belgilari ustun bo'lsa, shunga qarab, ma'lum bir temperament tipiga kiritish mumkin.

11.3.Kasbni egallashda temperamentning rollari. Shaxsning kasbiy kamoloti.

Psixologik ma`lumotlar etirof etilishicha, irsiyat va turmush sharoitlari temperament tiplari o'rtasidagi tafovutlarining sababchisidir. Shuning uchun irsiy fiziologik xususiyatlari bir xil va bitta tuxumdan yaralgan (gomozigot) egizaklarning temperament xususiyatlarini ikkita tuximdan vujudga kelgan (geterozigot) egizaklarning temperament xususiyatlari bilan qiyoslansa, bu omil tasdiqlanishi mumkin. Ma`lumotlarga qaraganda, geterozigot egizaklardan farqli o'laroq, gomozigot egizaklar temperament xususiyatlari shunchalik o'xshashki, hatto ular irsiyat yo'li bilan berilgan omillarini 85% tasdiqlash imkoniyatiga ega. Tarbiyaviy muhit turlicha bo'lishiga qaramay, o'xshashlik saqlanib qolishi

tajribalarda ko'p marta tekshirilgan. Lekin temperamentning ayrim xususiyatlari o'zgarishi to'g'risidagi maъlumotlar inkor etilmaydi, unga favquloddagi tashqi hamda ichki sharoitlar keskin taъsir o'tkazadi (masalan, tog' sharoiti, xavf-xatar mavjudligi va hokazo). Shuni esda saqlash joizki, tempearment ayrim xususiyatlarning turmushi sharoiti bilan tarbiyaviy taъsirida o'zgarishi jaraèni temperament tiplarining takkomilashtiruvidan farqlay olish shart. Ma`lumki, temperament tipi unga mutanosib xususiyatlari birdaniga paydo bo'lgan narsa emas, chunki nerv tizimining takomillashuvi umumiy qonuniyatlari temperamentga ham taъsir o'tkazib, o'z o`zmini qoldiradi. Shaxsning kamolotigabinoan, temperament xususiyatlari nerv tizimining takomillashuvi bilan bog'liq razda ro'yobga chiqa boradi va mazkur jaraèn temperament rivojini uzil-kesil hal qiladi. Shuni ta`kidlash o'rinliki, temperamentni faoliyat talablariga moslashtirish (muvofiqlashtirish) imkoniyati mavjuddir. Chunki har qanday faoliyat psixik jarayonlari dinamikasiga muayyan talablar tizimini qo'yadi. Chunonchi: 1)kasb-hunarlarning insonlar temperamentiga mos turini tanlash kerak, chunki ularning psixik xususiyatlariga mutanosib kasbni tanlash professinal tanlash deyiladi; 2) shaxslarning individual xususiyatlarini hisobga olish joiz; 3) temperamentga xos kamchiliklarni (salbiy illatlarni) bartaraf etish lozim; 4) insonlarda individual uslubni shakllantirish zarur. Shaxsning faoliyatiga ongli, faol va ijodiy munosabatda bo'lishi muvaffaqiyatlar garovidir. Faoliyatning individual uslubi insonda o'zidan o'zi vujudga kelmaydi, u shaxs kamolotining barcha bosqichlarida (bog'cha èshidan eъtiboran to kasbiy mahorat egallangunga qadar) shakllanib boradi. Insonning temperamentini faoliyatning zarur talablariga moslashtirish orqali unda individual uslub tarkib toptiriladi. Xuddi shu boisdan, faoliyatning individual uslubiy deyilganida, shaxs uchun o'ziga xos va muvaffaqiyatga erishishning maqsadga muvofiq yo'llari individual tizimi tushuniladi. Shulardan kelib chiqqan xolda shaxsning mehnat qilish uslubini tanlash va professional mahoratni ustirishda ayni shularga e`tibor berish kerak. Masalan, ba`zilar xoleriklarga o'xshash qiziqqon, tezkor bo'lishadi. Uning mehnat jaraènidagi ishini kuzatadigan bo'lsak, faollik, ishni tez bajarishga layoqat ijobiy bo'lsa, uning sifati, chala tashlab ketish havfi, ba`zi tomonlariga yuzaki qarashi kishini uylantiradi. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, haètda sof temperament ham bo'lmaydi va u yoki bu temperament tipi juda yaxshi ham emas. har bir tipning o'ziga xos nozik, kuchsiz tomonlari va shu bilan birga kuchli, ijobiy tomonlari ham bo'ladi. Psixologiya fanida bu sohada muayyan ilmiy izlanishlar olib borilgan, o'ziga xos yondashishlar amalga oshirilgan. B.V.Kulaginning fikricha, kasbni egallash deganda odamning individual xususiyatlarini tadqiq etish va baholash maqsadida kasbga saralash, kasb tanlashga yo'naltirish, nomzodlarni (da`vogarlarni) ixtisoslikka oqilona taqsimlash, kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirish, kasbiy faoliyatni optimallashtirishning amaliy masalalari tizimini echish tushuniladi. Individuallikning mohiyatini tushunishga umumiy èndashish

kasbga saralash muammosini hal qilishda bevosita ahamiyatga ega. Ma`lumki, kasbga layoqatlilikni tashxis (diagnoz) qilish insonning kasbiy xislatlarini hisobga olishga asoslanadi. Mazkur jarayonda qiyosiy tahlil orqali shaxsning xususiyatlari ko'rsatkichlari bilan kasbiy faoliyat muvaffaqiyatining mustaqil mezoni darajalari aniqlanadi. Hozirgi zamon psixologiyasining maъlumotlariga qaraganda, tashxis (diagnoz) qilish modeli muayyan matematik algoritmga asoslanadi. Guruh uchun o'rtamièna shaxs imkoniyati tanlanganligi faqat statistik samaraga ega, xolos. Bunday model tashxis (diagnoz) qilishda cheklanganlikka ega bo'lib, tashxisning mutlaq aniqlik darajasidan quyiroqdir. Kasbiy faoliyatni tahlil qilmasdan turib, professional psixodiagnostika (kasbiy psixologik) muammolarini hal qilish mumkin emas, yaъni professiografiya mohiyatiga va uning tuzilishiga e`tibor qilish zarur. Faqat shundagina faoliyatli yondashuv amalga oshirilib, uning harakatlari va operatsiyalari testlar yordamida baqolanishi mumkin. Chunki harakatlar, operatsiyalar mazkur faoliyatning tarkibini tashkil qiladi, ularning qiyosiy tavsifini egallash jaraènini osonlashtiradi, unga laèqatli odamlarni tanlashga negiz yaratadi. kaoliyat samaradorligini tashxis qilish va baholash uchun testlarni saralash, asoslash uning muvaffaqiyati o'lchovi, mezonini aniqlashga imkon beradi. Professiografiya, (professiogramma) natijalarini umumlashtirish natijasida kasblarni tasniflash (klassifikatsiyalash) imkoni vujudga keladi. Kasbiy faoliyatning tahlili maqsadga yo'naltirilgan va tashkiliy jarayon hisoblanib, u uch bosqichdan tashkil topgan bo'ladi: a) kasbiy faoliyat yuzasidan ma`lumotlar to'plash; b) olingan maъlumot va axborotlarni qayta ishlab chiqish hamda umumlashtirish, ularning negizida professiogramma tuzish; v) amaliy va nazariy masalalarni echish uchun professiogrammadan foydalanish (kasbiy faoliyat muvaffaqiyatini ta`minlovchi mezonlar tanlash, uni baholash (tashxis qilish) uchun testlar saralash, kasblarni tasniflash va boshqalar). Kasbiy faoliyat yuzasidan ma`lumotlar (axborotlar) turli manbalardan olinishi mumkin:

1. Muayyan mutaxassislarning kasbiy faoliyatini kuzatish katta ahamiyat kasb etadi.
2. Kasbiy faoliyat to'g'risida ma`lumotlar to'plashning asosiy metodlaridan biri bo'lib suhbat – intervyu hisoblanadi. Mutaxassislar bilan standart yoki nostandart tarzda intervyu uyushtirish samarali natija beradi.
3. Ba`zan kasbiy faoliyatning u yoki bu qirralari (jabhalari)ni qayd qiluvchi kundaliklar yoki varaqlardan ham foydalaniladi.
4.Kasb – hunar to'g'risidagi maъlumotlar (axborotlar) umumlashtiriladi va har xil shakllarda mutaxassislar hukmiga havola qilinadi. Kasbiy faoliyat shaxsning munosabat va motivlaridan iborat bo'lib, harakatlar va operatsiyalarni nazorat qilish hamda boshqarishni qamrab oladi. Faoliyatning dinamik xususiyatlarini o'rganish uchun unga ko'pyoqlama yondashishni amalga oshirish zarur. Faqat motivatsion va regulyativ jabhalarini hisobga olish bilan kasbiy

faoliyat mohiyatini tavsiflab bo'lmaydi, modomiki shunday ekan, uning shaxsga oid, emotsional, kognitiv va operatsional, irodaviy jihatlar bilan bog'liq tomonlarini ham tadqiqot predmetiga kiritish lozim. Kasbiy faoliyat muvaffaqiyatini таъminlovchi mezonlar sifatida shaxsning maqsadga erishuvini tavsiflovchi har xil ko'rsatkichlardan foydalanish mumkin. Mezonlar tariqasida kasbiy bilimlarga va malakalarga nisbatan uquvchanlik, mutaxassis faoliyatining bevosita va bilvosita ko'rsatkichlari uning hamkorlik faoliyatiga qo'shgan hissasi qo'llaniladi. Kasbiy faoliyat muvaffaqiyati mezonlari qatoriga quyidagilar kiritiladi:

1)Samaradorlikning to'g'ridan to'g'ri ko'rsatkichlari: sifat, ishlab chiqarish salmog'i;

2)Kasbiy tayèrgarlikni aniqlovchi testlar;

3)Kasbiy laèqatini ifodalovchi маъmuriy tadbir va choralar: intizomga taalluqli choralar, mukofotlash, xizmat lavozimidan ko'tarilish, safarga yuborish, namuna tariqasida stendga joylashtirish;

4) Kadrlar qo'nimsizligi;

5) Noxush holatlar (kechinmalar) va shikastlar (halokatlar);

6)Faoliyat samaradorligini eksperimental tekshirish va o'zini o'zi baholash kabilar. Yuqorida baèn qilingan mezonlar маълum talablarga javob berishi shart. Mezonlarning relevantlikligi (adekvatligi, validligi) deganda samaradorlik ko'rsatkichi sifatida muhim ahamiyat kasb etishi tushuniladi. Tanlab olingan mezonlar kasbiy faoliyatning barcha nufuzli tomonlarini aks ettirish lozimligi, yaъni mezonlar to'laqonligi. Ular mutaxassislarning kasbiy laèqatining yuksakligi va quyidagi darajalarini farqlashga xizmat qilishi joiz (mezonlar diskriminativligi). Mezonlar xislatini ochishga èrdam beruvchi uning omilkorligi, yaъni amaliy jihatdan qulayligi muhim o'rin egallaydi va u o'zining soddaligi, kam mehnat talab qilishligi bilan boshqalardan ajralib turadi. Kasbiy laèqatni (yarog'lilikni) aniqlashda odatda nazorat, sinash natijalari qo'llaniladi (masalan, duradgorning ish sifati, tezkorligi, vaziyatni payqashligi va boshqalar). Ko'pincha mutaxassisning laèqati маъmuriy hujjatlarda o'z ifodasini topadi (muvaffaqiyati èki muvaffaqiyatsizligi qayd qilinadi). Ваъzan kasbiy laèqatni o'rganishda baxtsiz hodisalar (haydovchi, uchuvchi, mashinist, operator va boshqa kasb egalarida) hisobga olinadi va shaxsning individual xususiyatlari baqolanadi. Kasbiy laèqatni aniqlashda uquvchanlik kategoriyasidan (bilim olishga nisbatan zehnlilik) foydalaniladi va o'zlashtirish tezligi, kasbiy tayèrgarligi, erishgan natijasi mezon rolini o'ynaydi. Psixologiya fanida kasbiy muvaffaqiyat, mahoratning qirralari ekspert baholash metodi èrdami bilan o'lchanadi. Buning uchun balli shkala, juft (qo'sh) taqqoslash, tartibga keltirish (ranjirovka qilish) metodlari qo'llaniladi. Shkalaning sodda ko'rinishi ball bilan baholashga mo'ljallangan. Shkalani baholash o'ziga 5 tadan 7 tagacha gradatsiyani qamrab oladi. Miqdorning kamligi uning differensiatsiyasini yanada kuchaytiradi, farqlar aniqligini таъminlaydi. Ваъzi hollarda balli baholash grafik shkala tarzida ham uchraydi (kesma, shakl, parametrik ko'rinishi va hokazo). Lekin balli shkala kasbiy muvaffaqiyatni baholashda ayrim nuqsonlarga ham ega. Ayniqsa, chet el psixologiyasida qo'llanilib kelinaètgan «galo-

effekt» metodikasi bunga yaqqol misoldir. Baqolanuvchi bilan baholovchi munosabati bir nechta mustaqil shkalalar negizida umumiylikka bog'liq tarzda baqolanadi. Natijada shaxsning xilma-xil xususiyatlarini differensiyalash imkoni yo'qoladi, yuzaki baqolanish jaraèni yuzaga keladi. Buning oqibatida orttirilgan va pasaytirilgan baholash tiplari, ko'rinishlari namoèn bo'ladi. Ammo, balli shkala baholash tizimini takomillashtirish uchun uning barcha bosqichlardan, tarkiblardan tuzish maъqul. Faqat shundagina yaqqol misollar, namunalar negizida kasbiy faoliyatning turlicha samaradorligi namoèn bo'ladi. Jahon psixologiyasida keng qo'llanilib kelinaètgan metodlardan biri – bu kritik insidentdir. Muayyan o'lchamlarga asoslangan holda ajratilgan insidentlar tasniflanadi (klassifikatsiya qilinadi), yaъni tahlil qilish orqali insident xususiyati aniqlanadi. Ikkinchi bosqichda (u «pretranslyatsiya» deb ataladi) birinchi bosqichdagi mezonlarga asoslanib yangitdan tasnif qilinadi. Kasbiy laèqatni o'rganishning yana bir metodi tartibga keltirish (ranjirovka qilish) deyiladi. Har xil vaziyatlarda kuzatilgan shaxslar kasbiy laèqati darajasiga qarab muayyan tartibga solish, jihozlash mumkin. Birinchi rang darajasiga kiritish uchun kasb subъekti kasbiy mahoratning maksimal ko'rsatkichini namoyish qilishi lozim. Kamroq muvaffaqiyatga erishsa, u navbatdagi rangga o'tkaziladi.

1 SEMINAR MASHG‘ULOT MATERIALLARI

KASBIY PEDAGOGIKANING BOSHQA FANLAR BILAN ALOQASI. ShARQ MUTAFAKKIRLARINING KASB-HUNARGA OID QARAShLARI VA ILG‘OR TAJRIBALARI

Ishdan maqsad: Kasb ta’lim pedagogikasini fan sifatida o‘rganish zarurati, fanning maqsadi va vazifalarini o‘rgatish. Sharq mutafakkirlarining kasbiy ta’lim va tarbiyaga oid falsafiy-psixologik qarashlarini amaliy jihatdan o‘rgatish. Shuningdek fan yuzasidan amaliy tasavvurini shakllantirish.

Masalaning qo‘yilishi:

1. Bo‘lajak o‘qituvchini tayyorlashda kasbiy pedagogika fanining ahamiyatini tushuntirish
2. Kasb-hunarga oid nazariy bilimlar berish.
3. Sharq mutafakkirlarining kasb tanlash va yoshlarni kasbga yo‘llash, kasbiy tayyorgarlik va mahorat haqidagi qarashlarini mazmun mohiyatini tushuntirish.
4. Insoniyat rivojlanishining turli tarixiy bosqichlarida kasbiy ta’lim

Mashg‘ulot vaqti-2 soat	Talabalar soni: 50 - 100 gacha
Mashg‘ulot shakli	Amaliy mashg‘ulot
Amaliy mashg‘ulot rejasi	1. Kasbiy pedagogika fanining predmeti, maqsadi va vazifalari 2. Kasbiy pedagogik bilimlarning inson uchun ahamiyati Kasbiy pedagogika fan sifatida o‘rganadigan hodisalar va qonuniyatlar.
O‘quv mashg‘ulotining maqsadi: Kasbiy pedagogika orqali shakllanayotgan mutaxassislarda kasbga oid bo‘lgan nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikma va malakalar shakllantirilib borilishi nazarda tutilgan. Kasbiy pedagogika fanida talabalarga kasb-hunar egallashning ijtimoiy-tarixiy va metodologik muammolari, buyuk ajdodlarimizning kasb haqidagi fikrlari, uning tadqiqot metodlari, kasb tanlashga yo‘llashning pedagogik mohiyati, professiografiya, ilk o‘spirinlik davri, kasb va	

shaxs masalalari pedagogik muammo sifatida va boshqa ma’lumotlar haqida tushunchalarni shakllantirish.		
Pedagogik vazifalar: "o‘quv kursining predmeti, maqsadi va vazifalari haqida tushuncha berish; " Kasbiy pedagogika fanining uzluksiz ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyatini tushuntirish; "oliy ta’limda ta’lim-tarbiya jarayoni; " Kasbiy pedagogika fanining asosiy kategoriyalari bilan tanishtirish " Kasbiy pedagogika fanining tarmoqlarini keng yoritib berish standartlari haqida ma’lumot berish. yosh mutaxassislarning kasbiy madaniyati, ularga qo‘yilgan zamonaviy talablar va professiografiya haqida ma’lumot berish.	O‘quv faoliyati natijalari: "o‘quv kursining predmeti, maqsadi va vazifalarini sharhlab beradi. "fanning oliy ta’limdagi o‘rni, malakali mutaxassislar tayyorlashdagi ahamiyatini yoritadi. "oliy maktabda ta’lim-tarbiya jarayonining o‘ziga xosligi haqida ma’lumot beradi. "Asosiy va qo‘shimcha kategoriyalar yoritiladi. " Kasbiy pedagogika fanining ilmiy-tadqiqot usullarini sharhlab beradi. yosh mutaxassislarga qo‘yilgan zamonaviy talablar va ularni tayyorlashning ilmiy-nazariy asoslari haqida ma’lumot beradi.	
O‘qitish usullari: Ko‘rgazmali amaliy, juftlikda ishlash	O‘qitish shakllari: Frontal, jamoaviy, juftlikda ishlash	
O‘qitish vositalari: O‘quv qo‘llanma, dastur va tarqatma materiallar, slaydlar, elektron doska va proektor	O‘qitish sharoiti: o‘quv faoliyatiga moslashtirilgan auditoriya	
Monitoring va baholash: Og‘zaki nazorat: savol-javob shakli	Yozma nazorat: esse	
O‘qitish usullari: Ko‘rgazmali amaliy, juftlikda ishlash	O‘qitish shakllari: Frontal, jamoaviy, juftlikda ishlash	
O‘qitish vositalari: O‘quv qo‘llanma, dastur va tarqatma materiallar, slaydlar, elektron doska va proektor	O‘qitish sharoiti: O‘quv faoliyatiga moslashtirilgan auditoriya	
Tinglashadi		
Asosiy	(55 daqiqa) 2.1. Kasbiy pedagogika fanining predmeti, maqsadi va vazifalarini ilmiy-nazariy va amaliy izohlaydi, uning ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyatini	2.2. Kasbiy pedagogika fanini o‘qitish ta’lim-tarbiya jarayonining o‘ziga xosligi, uning tizimi, tuzilishi, boshqarish muammolari haqida ma’lumot beradi

	asoslab beradi.	va hamkorlikda ilmiy-nazariy xulosa chiqarishga undaydi.
2-bosqich.	2.3. Yosh mutaxassislarga qoyilgan talablar, uning ilmiy-nazariy asoslarini izohlaydi.	yozishadi.
3-bosqich.	(10 daqiqa) 3.1. Mavzu bo‘yicha yakunlovchi xulosa qiladi, ish natijalarini izchillikda izohlab beradi.	Amaliyot jarayonida testlar ishlaydi,nazorat savollar beradi; mavzuning rejasini har bir bandi bo‘yicha xulosalar chiqaradi; tegishli ma’lumotlarni muntazam qayd qilishi ta’kidlanadi. Tinglashadi yakuniy xulosa chiqarishadi.

Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari**:** *dialogik yondoshuv, muammoli ta’lim. Bingo, blis, ajurali arra, nilufar guli, menyu, munozara, o‘z-o‘zini nazorat.*

Assesment – inglizcha so‘z bo‘lib, “baho”, “baholash” ma’nosini bildiradi.

Bugun bu usul ta’lim tizimiga ham joriy etilgan bo‘lib, talabalarning bilim darajasi, malaka va ko‘nikmasini baholashga xizmat qiladi. Shuning uchun ushbu metoddan foydalanib keysni samarali hal etish mumkin.

TEST	MUAMMOLI VAZIYAT
Mutafakkirlarimizning kasb-hunar haqidagi fikrlarini eng muhimini keltiring.	Hunarni asrabon netgumdir oxir, Olib tuproqqamu, ketgumdir oxir. Misralari kimning qalamiga mansub? Bu bilan nima demoqchi?
BELGILAR	**AMALIY HARAKATLAR**
Fikr, mushohada, g‘oya, maslahat, kasb egallashda sabr toqat, zehn, tirishqoqlik va aqliy salohiyat.	Sharq mutafakkirlarining qarashlari bilan zamonaviy qarashlar uyg‘unligi.

Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari**:** *dialogik yondoshuv, muammoli ta’lim. Integrativ, munozara, o‘z-o‘zini nazorat.*

O‘z-o‘zini tekshirish uchun savollar:

1. Fanning maqsadi va vazifalari?
2. Oliy maktabda ta`lim-tarbiya jarayonining o'ziga xosligi nimada?
3. Kasbiy pedagogik bilimlarning inson uchun ahamiyatini aytib bering
4. Fanni o'rganish zarurati nimada?
5. Buyuk mutafakkirlarimizning kasb-hunarga oid qarashlari, asarlaridan namuna keltiring.
6. Kasbiy ta`limning rivojlanishi xususida fikr yuriting.

2

O‘RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA’LIMI MAZMUNIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR. O‘ZBEKISTONDA TA’LIM JARAYONI MOHIYATI VA MAZMUNI

Ishdan maqsad: O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi mazmuniga qo‘yiladigan talablar va O‘rta Osiyoda shakllangan kasbiy ta’lim tizimi va uning mohiyati haqida tushunchalarini shakllantirish. O‘zbekistonda mustaqillik yillarida ta’lim tizimidagi isloxotlar, ularning mazmuni va mohiyati haqida tushuntirish. Kasbga oid olib boriladigan maslahat ishlari haqida ma’lumot berish. Shuningdek, maslahat turlari: mutaxassis maslahatining o‘ziga xosligini amalda sinab ko‘rish va talabalarda amaliy malakalarni shakllantirishdan iborat.

Masalaning qo‘yilishi: Zamonaviy ta’lim va avtoritar ta’lim tizimining mazmuni va mohiyatini tushuntirish hamda muhim xususiyatlarini farqlay olish, talabalarda tanqidiy tafakkurni rivojlantirish. Shuningdek, VIII-XIV asarlarda O‘rta Osiyoda shakllangan zamonaviy kasbiy ta’lim tizimi haqidatushuntirish. Respublikamizda uzluksiz ta’lim sohasi va rivojlanishi haqida ma’lumotga ega bo‘lishi; uzluksiz ta’lim turlari O‘quvchilarning kasbiy bilim, kasbiy ko‘nikma va kasbiy malakalarini hisobga olgan holda maslahat ishlarini tashkil etish yo‘llari, usul va vositalari haqida ma’lumotga ega bo‘lishi; O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimi isloxotlarining mazmuni va mohiyatini tushuntirish.

Kasb tanlashda ikkilanayotgan o‘quvchilar uchun maslahatlar

Mehnat bozoridagi holatni tahlil qiling. Yildan-yil yangi kasblar paydo bo‘layotganligiga e’tiboringizni qaratin. Doimiy malakani oshirish, qo‘shma kasblarni egallashga to‘g‘ri kelishiga tayyor bo‘ling.

Hozirgi kunda, Siz maktabni tugatayotgan paytda kasb tanlashingiz, Sizning taqdiringizni butunlay hal qiladi deb qo‘rqmang. Keyinroqdagi tanlovdagi o‘zgarishlar, yangi mutaxassislikni o‘zlashtirish, Sizni fanlararo faoliyat bo‘yicha qimmatli mutaxassis qiladi.

Birinchi kasb, garchand Siz keyinroq undan voz kechishingiz va o‘zingiz uchun qiziqrog‘ini topsangiz ham hayotning turli kutilmagan holatlarida Sizga asqotadi. Bundan tashqari, e’tibor qiling-ki, har bir erkak uchun uyda chilangar ham, sartarosh ham, elektrchi ham, haydovchi ham bo‘lishga to‘g‘ri keladi. Ayollar uchun esa, tikuvchi, oshpaz, kir yuvish va boshqa maishiy mashinalar “operatori” bo‘lishga to‘g‘ri keladi.

Albatta, kasbning nufuzliligi u yoki bu holda Siz tomoningizdan inobatga olinadi, lekin buni o‘zingizning qiziqishlaringiz va qobiliyatlaringiz,

sog‘lig‘ingizning holatini hisobga olgandan so‘ng amalga oshiring. Mehnat birjasidagi bo‘sh o‘rinlar to‘g‘risidagi gazetalarni tahlil qilish juda foydali (u yerda odatda har bir bo‘sh o‘rin uchun qaysi ta’lim lozimligi ko‘rsatiladi). Shunday kasblar borki, ular Sizga mos kelmaydi, chunki ular sizning sog‘lig‘ingizni yomonlashtirishi mumkin. Bunday kasblar ko‘p emas va ular asosan u yoki bu jismoniy tizimlarning uzoq muddatli zo‘riqishini talab etadi. O‘zingiz tanlamoqchi bo‘lgan kasbning mohiyat va mazmunini o‘rganib chiqing. Shu kasb bilan kunma-kun uzoq yillar davomida shug‘ullanishingiz lozimligini ko‘z oldingizga keltiring.

Kasb tanlashda va hayot tarziga aniqlovchi ta’sir ko‘rsatishda, ya’ni lavozimga erishishda har bir inson o‘zining kelajakdagi kasbiy mehnatini fuqarolik majburiyati sifatida anglashi, o‘z mamlakatining va o‘z oilasining manfaatlari yo‘lidagi hissasi, davlatning va ota-onalarning bizning o‘sib ulg‘ayishimizga va o‘qishimizga sarflagan xarajatlarini qaytarish sifatida anglashimiz lozim

Venn Diagrammasi metodi

Metodning maqsadi: Bu metod grafik tasvir orqali o‘qitishni tashkil etish shakli bo‘lib, u ikkita o‘zaro kesishgan aylana tasviri orhali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavvurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orhali ko‘rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladilar va ularga ko‘rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o‘ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralar ichiga yozib chiqish taklif etiladi;
- navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to‘rt kishidan iborat kichik guruhlarga birlashtiriladi va har bir juftlik o‘z tahlili bilan guruh a’zolarini tanishtiradilar;
- juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko‘rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiy jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.

Zamonaviy ta'lim va avtoritar ta'lim tizimining mazmuni, mohiyati va xususiyatini tushuntirish bo'yicha
Venn Diagrammasi



Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari**:** *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. Integrativ, munozara, o'z-o'zini nazorat.*

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar:

1. O'rta maxsus kasb-hunar ta`limining xususiyatlarini aytib bering.
2. O'rta maxsus kasb-hunar ta`limi mazmuniga qanday talablar qo'yiladi?
3. Zamonaviy ta`limni tashkil qilishda nimalarga e`tibor qaratish lozim?
4. Ta`lim jarayonining mohiyati va xususiyatini aytib bering.
5. Siz kasb tanlashda nimaga e`tibor berasiz?
6. Kelajakdagi maqsadingiz?

3 KASBIY TA'LIM RIVOJLANISHINING ASOSIY OMILLARI. UZLUKSIZ TA'LIM TURLARI

Ishdan maqsad: O'zbekistonda kasbiy ta'limning rivojlanish bosqichlari va uzluksiz ta'lim turlari haqida tushunchalarini shakllantirish.

Masalaning qo'yilishi:

Oliy ta'lim muassasalarida kasbiy ta'lim yo'nalishlarini tashkil etilishi, bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilariga qo'yilgan pedagogik va kasbiy talablar haqida bilimga ega bo'lish hamda zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yilgan talablar haqida tushunchalar va tasavvurlarni shakllantirish. Kasbiy bilimlar, kasbiy ko'nikmalar va kasbiy malakalar haqida tasavvur hosil qilish va zamonaviy ta'lim-tarbiya uning mohiyati haqida bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'ladilar.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari**:** *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. Bingo, blis, ajurali arra, nilufar guli, menyu, munozara, o'z-o'zini nazorat.*

«Kasbiy xarakter» o'yini

O'yinning maqsadi: barcha kasblar uchun zarur bo'lgan sifatlar haqidagi bilimlarni shakllantirish.

Material: qatorlarda kasblarning nomlari berilgan, ustunlarda shaxsning sifatlari ko'rsatilgan jadval beriladi, doskada katta jadval.

	Shaxs sifatlari														
	Dikkat	Mulokotchanlik	Sabr-tokat	Ta'sirchanlik	Mardlik	Extiyotkorlik	Xushchakchaklik	Mas'uliyat	Kuch	Fahm-idrok	Fantaziya	Ayyorlik	Mustakillik	Xabardorlik	O'ziga
Buxgalter															
Veterinar															
Gaz payvandlovchi															
Haydovchi															
Quruvchi															
Menedjer															
EVM operatori															
Sartarosh															
Oshpaz															
Sotuvchi															

O‘yinning borishi: Ishtirokchilar uchtadan guruhga bo‘linadilar. Har bir guruh jadvaldagi kasblarga qanday sifatlar zarur bo‘lishini mustaqil muhokama qiladi va ularni jadvalda belgilaydi. Har bir guruhdan vakil taklif qilinadi, ular tanlagan kasblarni va ularga xos bo‘lgan sifatlarni himoya qiladilar. Bu yerda boshqa guruhlarning takliflari ham qabul qilinadi va ular jadvalga kiritiladi. O‘yin so‘nggida boshlovchi tomonidan har bir kasb uchun zarur bo‘lgan shaxsning umumiy sifatlari ajratiladi

3-bosqich. Olingan natijalar «Qiyosiy taxlil» o‘yining tayanchi bo‘lib xizmat qiladi.

Maqsad: Kasblar tasnifi bo‘yicha ma’lumotlarni sistemalashtirish.

Material: kasblarning uchta tasodifiy nomlari tanlangan jadval ruyxati beriladi

№	**Kasblar**										**Belgilar**	
	Buxgalter	Veterinar	Gaz payvandlovchi	Haydovchi	Quruvchi	Menedjer	EVM operatori	Sartarosh	Oshpaz	Sotuvchi	O‘xshashlik (+)	Farq (-)
1.												
2.												
3.												
4.												
5.												
6.												
7.												
8.												
9.												
10												

O‘yinning borishi: Ishtirokchilar uchtadan guruhga bo‘linadilar. Har bir guruh bu ro‘yxatni oladi va qatorlar bo‘yicha tahlil qiladi. Xar bir qatorda quyidagilarga e’tibor berish kerak:

1. O‘zaro bir-biriga o‘xshash ikkita kasbni «+» belgisi bilan, o‘xshamaydigan kasbni «–» belgisi bilan belgilang. Masalan,: «ko‘chmas mulk agenti, kosmetolog, kotiba» kasblar uchligida kosmetolog kasbini farq qilishini aytishimiz mumkin.

2. Har bir qatorda farq qilish va o‘xshashlik ustunini to‘ldirish lozim.

Masalan, «ko‘chmas mulk agenti, kosmetolog, kotiba» kasblar uchligida kosmetolog kasbining farq qiladigan belgilari- san’atga oid qobiliyatlarni ko‘rsatish

mumkin, ko‘chmas mulk agenti va kotibaning o‘xshash belgilari -san’atga oid qobiliyatlar zarur emas.

3. Qatordagi boshqa qolgan kasblarni, agar ular o‘xshashlik belgilari bilan xarakterlansa, «+», agar ular farqlansa. «-» bilan belgilang.

Bundan kelib chiqadiki, barcha belgilar bir-biridan farq kilishi va takrorlanmasligi kerak.

Natijalarning muxokamasi. Har bir guruhdan bir vakil taklif qilinadi va ularning yordami bilan quyidagi jadval to‘ldiriladi.

Kasblarning tasnifi				
Texnologik (mexnat predmeti, maksadi, vositasi, sharoiti)	Iktisodiy (soxa, talab va taklif, mehnat xaki)	Pedagogik (bilim,malaka, ta’lim talablari)	Tibbiy (sanitar-gigienik faktorlar, salomatlik talablari)	Psixologik (layokat)
1. 2.				

Boshlovchi ishtirokchilarni kasbni tanlashda kasbning barcha tasniflarini inobatga olish kerak degan xulosaga olib keladi. (Jadvalga qarang.)

O‘yinnnig davomiyligi: sharoitga qarab.

Zamonaviy ta’limni tashkil etish bo‘yicha quyidagi jadvalni to‘ldiring SWOT-tahlil jadvali

S	**W**
O	**T**

S	Zamonaviy ta’limning tashkil etilishi	
W	Zamonaviy ta’limning	

	mohiyati va xussiyati (kasbiy ta'limni tashkil etilishidagi omillar)	
O	Imkoniyatlari (zamonaviy ta'limning mavjud imkoniyatlari)	
T	Muammolar (zamonaviy ta'lim jarayonidagi muammolar)	

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari**:** *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. Integrativ, munozara, o'z-o'zini nazorat.*

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar:

1. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining mazmuni va mohiyatini aytib bering.
2. Kadrlar tayyorlash milliy modelini aytib bering.
3. Dasturning asosiy maqsadi va ushbu maqsad asosida amalga oshirilayotgan ta'limiy isloxotlar mazmuni qanday?
4. Zamonaviy ta'lim qanday tashkil etilishi kerak?

4 TA`LIM MUASSASALARI, MUSIQA VA SAN`ATGA IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTAB VA MAKTAB INTERNATLAR TUSHUNCHALARI, TA`LIM UZLUKSIZLIGI, O`RTA MAXSUS TA`LIMINI TASHKIL ETISHDAGI ASOSIY NORMATIV HUJJATLAR

Ishdan maqsad: Ta'limi jarayonida musiqa va san'atga ixtisoslashtirilgan maktabida o'quvchilarga ta'lim berish *yakka tartibda* yoki *bir xil yoshdagi* va *turli yoshdagi bolalar guruhlarida* ularning qiziqishlariga ko'ra bir yoxud bir necha ta'lim yo'nalishlari bo'yicha. qiyosiy tahlili haqida ma'lumot berish.

Masalaning qo`yilishi

1) President qaroriga binoan 2022\2023 –o`quv yilidan boshlab umumiy o`rta ta`lim muassasalarida o`quvchilarga milliy musiqa cholg`ularidan kamida bittasini chala olish mahorati o`rganish ma`lumotiga ega bo`ladilar.

2) ta'limi jarayonini pedagogik boshqarish metodikasi.

3) O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tizimidagi ixtisoslashtirilgan san'at va madaniyat maktablari hamda maktab-internatlar to'g'risidagi nozom bilan tanishish.

4) Vazirlar Mahkamasining umumiy o`rta va o`rta maxsus ta`limning davlat ta`lim standartlarini tasdiqlash to`g`risidagi 2017-yil 6-aprel,187-son qarori bo`yicha ma`lumotga ega bo`ladilar.

5 TA'LIMI JARAYONIDA KICHIK MUTAXASSISLARNI TAYYORLASHGA QO'YILADIGAN TALABLAR. KASB TA'LIMI BO'YICHA XORIJIY TAJRIBALAR

Ishdan maqsad: Ta'limi jarayonida kichik mutaxassislarni tayyorlashga qo'yiladigan talablar va kasbiy ta'lim tizimlarining qiyosiy tahlili haqida ma'lumot berish.

Masalaning qo'yilishi:

1) Kichik mutaxassis tuzilmasi tavsifi;

2) ta'limi jarayonini pedagogik boshqarish metodikasi.

3)Chet ellarda kasb-hunarga yo'naltirish ishlari bo'yicha ma'lumotga ega bo'ladi;

4) Xorijda kasb-hunarga yo'naltirish ishlari bo'yicha bilimlar, kasbiy ko'nikmalar va kasbiy malakalarga ega bo'ladilar;

«Aqliy hujum» metodi

Mazkur metod muayyan mavzu yuzasidan berilgan muammolarni hal etishda keng qo‘llaniladigan metod sanalib, u mashg‘ulot ishtirokchilarini muammo xususida keng va har tomonlama fikr yuritish hamda o‘z tasavvurlari va g‘oyalaridan ijobiy foydalanish borasida ma’lum ko‘nikma hamda malakalarni hosil qilishga rag‘batlantiradi. Bu metod yordamida tashkil etilgan mashg‘ulotlar jarayonida ixtiyoriy muammolar yuzasidan bir necha orginal yechimlarni topish imkoniyati tug‘iladi. «Aqliy hujum» metodi tanlab olingan mavzular doirasida ma’lum qadriyatlarni aniqlash va ularga muqobil bo‘lgan g‘oyalarni tanlash uchun sharoit yaratadi.

Metoddan samarali foydalanish maqsadida quyidagi qoidalarga amal qilish lozim (47-shakl):



47-shakl. «Aqliy hujum» metodining asosiy qoidalari

Dars jarayonida «Aqliy hujum» metodidan foydalanishda quyidagi qoidalarga amal qilish talab etiladi:

1. O‘quvchilarni muammo doirasida keng fikr yuritishga undash, ularning mantiqiy fikrlarni bildirishlariga erishish.

2. Har bir o‘quvchi tomonidan bildirilayotgan fikrlar rag‘batlantirilib boriladi. Bildirilgan fikrlar orasidan eng maqbullari tanlab olinadi. Fikrlarning rag‘batlantirilishi navbatdagi-yangi fikrlarning tug‘ilishiga olib keladi.

3. Har bir o‘quvchi o‘zining shaxsiy fikrlariga asoslanishi va ularni o‘zgartirishi mumkin. Avval bildirilgan fikrlarni umumlashtirish, turkumlashtirish yoki ularni o‘zgartirish ilmiy asoslangan fikrlarning shakllanishiga zamin hozirlaydi.

4. Mashg‘ulot jarayonida o‘quvchilar faoliyatini standart talablar asosida nazorat qilish, ular tomonidan bildirilayotgan fikrlarni baholashga yo‘l qo‘yilmaydi. Ularning fikrlari baholanib borilsa, o‘quvchilar diqqatlarini shaxsiy fikrlarini himoya qilishga qaratadilar, oqibatda yangi fikrlar ilgari surilmaydi. Metodni qo‘llashdan ko‘zlangan asosiy maqsad o‘quvchilarni muammo bo‘yicha keng fikr yuritishga undash ekanligini yodda tutgan holda ularning faoliyatini baholab borishdan voz kechish maqsadga muvofiqdir.

Toifali sharhni tuzish qoidalari

1. Toifalar bo‘yicha ma’lumotlarni taqsimlashning yagona usuli mavjud emas.
2. Bitta mini-guruhda toifalarga ajratish boshqa guruhda ajratilgan toifalardan farq qilishi mumkin.
3. O‘rganuvchilarga oldindan tayyorlab qo‘yilgan toifalarni berish mumkin emas: bu ularning mustaqil tanlovi bo‘la qolsin.
4. Toifali sharhni yaratish yakuniy mahsul sifatida emas, balki jarayon sifatida muhim.

TOIFALI JAVDAL

TOIFALAR				
AQSh da kasb-hunarga yo‘naltirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar haqida.	Angliya maktablarida kasb-hunarga yo‘naltirish ishlari.	Germaniyada ta’lim tizi	Isroil	Fransiya

KONSEPTUAL JADVAL

- O`rganilayotgan hodisa, tushuncha, qarash, mavzu va shu kabilarni ikki va undan ortiq jihat bo`yicha taqqoslash imkonini beradi. Tizimli mushohada qilish, ma`lumotlarni tarkiblashtirish va tizimlashtirish ko`nikmasini rivojlantiradi.

Konseptual jadval tuzish qoidalari bilan tanishiladi. Taqqoslanadigan narsa aniqlanadi, taqqoslash amalga oshiriladigan tavsiflar ajratiladi.

Yakka tartibda yoki mini guruhlarda konseptual jadval quriladi va u to`ldiriladi;

- vertical bo`yicha –taqqoslash talab etiladigan narsalar (qarashlar, nazariyalar)joylashtiriladi.

- gorizontal bo`yicha –taqqoslashni amalga oshiradigagi har xil tavsiflar joylashtiriladi.

Ish natijasi taqdimoti

KONSEPTUAL JADVAL

... ga yondashuvlar, ... tushunchalari	**Tavsiflar, toifalar, ajralib turadigan belgilar va shu kabilar**			
	AQSh	**Angliya**	**Germaniya**	**Isroil**
Kasbiy saralash				
Kasbiy maslahat				
Kasbga yo'naltirish				
Kasbiy diagnostika				
Reorientatsiya				

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar:

1. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limini tashkil etishda o'qituvchilarning asosiy vazifalari.
1. Xorijiy mamlakatlarda ta'lim tizimi isloxotlari.
2. Amerikada kasbga yo'naltirish masalalari.
3. Angliyada kasbiy ta'lim. Xorijiy tajribalar, ulardan ta'lim jarayonida foydalanish metodikasi

6

ISHLAB CHIQARISH JARAYONLARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. KICHIK MUTAXASSISLARNING ISHLAB CHIQARISHGA MOSLASHUVI

Ishdan maqsad: Ta’lim va ishlab chiqarish o‘rtasidagi aloqalarni amalga oshirish jarayonlari haqida tushunchalirini shakllantirish.

Masalaning qo‘yilishi:

1. Nazariya bilan amaliyotni bog‘liqligi xususiyatlarini o‘rganadi;
2. Ishlab chiqarish korxonalaridagi ta’limiy va tarbiyaviy ishlar haqida tasavvurga ega bo‘ladilar.
3. Ishlab chiqarish haqida ma’lumotga ega bo‘lish.
4. Talabalar olgan nazariy bilimlaridan ishlab chiqarish jarayonida foydalanish malakasiga ega bo‘ladi.

«6x6x6» metodi

Ushbu metod yordamida bir vaqtning o‘zida 36 nafar o‘quvchini muayyan faoliyatga jalb etish orqali ma’lum topshiriq yoki masalani hal etish, shuningdek, guruhlarning har bir a’zosi imkoniyatlarini aniqlash, ularning qarashlarini bilib olish mumkin. «6x6x6» metodi asosida tashkil etilayotgan mashg‘ulotda har birida 6 nafardan ishtirokchi bo‘lgan 6 ta guruh o‘qituvchi tomonidan o‘rtaga tashlangan muammo (masala)ni muhokama qiladi. Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach o‘qituvchi 6 ta guruhni qayta tuzadi. Qaytadan shakllangan guruhlarning har birida avvalgi 6 ta guruhdan bittadan vakil bo‘ladi. Yangi shakllangan guruh a’zolari o‘z jamoadoshlariga avvalgi guruhi tomonidan muammo (masala) yechimi sifatida taqdim etilgan xulosani bayon etib beradilar va mazkur yechimlarni birgalikda muhokama qiladilar. «6x6x6» metodining afzallik jihatlari quyidagilardir:

Eng muhimi mashg‘ulot ishtirokchilarining har biri qisqa vaqt (20 daqiqa) mobaynida ham munozara qatnashchisi, ham tinglovchi, ham ma’ruzachi sifatida faoliyat olib boradi.

гуруҳларнинг ҳар бир аъзосини фаол бўлишга ундайди;
улар томонидан шахсий қарашларнинг ифода этилишини таъминлайди;
гуруҳнинг бошқа аъзоларининг фикрларини тинглай олиш кўникмаларини ҳосил қилади;
илгари сурилаётган бир неча фикрни умумлаштира олиш, шунингдек, ўз фикрини ҳимоя қилишга ўргатади

Ushbu metodni 5, 6, 7 va hatto 8 nafar o‘quvchidan iborat bo‘lgan bir necha guruhlarda ham qo‘llash mumkin. Biroq yirik guruhlar o‘rtasida «6x6x6» metodi qo‘llanilganda vaqtni ko‘paytirishga to‘g‘ri keladi. Chunki bunday mashg‘ulotlarda munozara uchun ham, axborot berish uchun ham bir muncha ko‘p vaqt talab etiladi. So‘z yuritilayotgan metod qo‘llanilayotgan mashg‘ulotlarda guruhlar tomonidan bir yoki bir necha mavzu (muammo)ni muhokama qilish imkoniyati mavjud.

«6x6x6» metodidan ta’lim jarayonida foydalanish o‘qituvchidan faollik, pedagogik mahorat, shuningdek, guruhlarni maqsadga muvofiq shakllantira olish layoqatiga ega bo‘lishni talab etadi. Guruhlarning to‘g‘ri shakllantirilmasligi topshiriq yoki vazifalarning to‘g‘ri hal etilmasligiga sabab bo‘lishi mumkin. «6x6x6» metodi yordamida mashg‘ulotlar quyidagi tartibda tashkil etiladi:

1. O‘qituvchi mashg‘ulot boshlanishidan oldin 6 ta stol atrofiga 6 tadan stul qo‘yib chiqadi.

2. O‘quvchilar o‘qituvchi tomonidan 6 ta guruhga bo‘linadilar. O‘quvchilarni guruhlarga bo‘lishda o‘qituvchi quyidagicha yo‘l tutishi mumkin: 6 ta stolning har biriga muayyan ob’ektlar surati chizilgan lavhani qo‘yib chiqadi. Mashg‘ulot tasvirlangan (jami 36 ta) varaqchalardan birini olish taklif etiladi. Har bir o‘quvchi o‘zi tanlagan varaqchada tasvirlangan surat bilan nomlanuvchi stol atrofiga qo‘yilgan stuldan joy egallaydi.

3. O‘quvchilar joylashib olganlaridan so‘ng o‘qituvchi mashg‘ulot mavzusini e’lon qiladi hamda guruhlarga muayyan topshiriqlarni beradi. Ma’lum vaqt belgilanib, munozara jarayoni tashkil etiladi.

4. O‘qituvchi guruhlarning faoliyatini kuzatib boradi, kerakli o‘rinlarda guruh a’zolariga maslahatlar beradi, yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatadi hamda guruhlar tomonidan berilgan topshiriqlarning to‘g‘ri hal etilganligiga ishonch hosil qilganidan so‘ng guruhlardan munozaralarni yakunlashlarini so‘raydi.

5. Munozara uchun belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach, o‘qituvchi guruhlarni qaytadan shakllantiradi. Yangidan shakllangan har bir guruhda avvalgi 6 ta guruhning har biridan bir nafar vakil bo‘lishiga alohida e’tibor qaratiladi. O‘quvchilar o‘z o‘rinlarini almashtirib olganlaridan so‘ng belgilangan vaqt ichida guruh a’zolari avvalgi guruhlariga topshirilgan vazifa va uning yechimi xususida guruhdoshlariga so‘zlab beradilar va yakuniy xulosaga keladilar.

«Fikriy hujum» («Mozgovaya ataka») metodi

Mazkur metod o‘quvchilarning mashg‘ulotlar jarayonidagi faolliklarini ta’minlash, ularni erkin fikr yuritishga rag‘batlantirish hamda bir xil fikrlash inersiyasidan ozod etish, muayyan mavzu yuzasidan rang-barang g‘oyalarni to‘plash, shuningdek, ijodiy vazifalarni hal etish yechish jarayonining dastlabki bosqichida paydo bo‘lgan fikrlarni yengishga o‘rgatish uchun xizmat qiladi.

«Fikriy hujum» metodi A.F.Osborn tomonidan tavsiya etilgan bo‘lib, uning asosiy tamoyili va sharti mashg‘ulot (bahs)ning har bir ishtirokchisi tomonidan

o‘rtaga tashlanayotgan fikrga nisbatan tanqidni mutlaqo ta’qiqlash, har qanday luqma va hazil-mutoyibalarni rag‘batlantirishdan iboratdir. Bundan ko‘zlangan maqsad o‘quvchilarning mashg‘ulot (bahs) jarayonidagi erkin ishtirokini ta’minlashdir. Ta’lim jarayonida ushbu metoddan samarali va muvaffaqiyatli foydalanish o‘qituvchining pedagogik mahorati va tafakkur ko‘lamining kengligiga bog‘liq bo‘ladi.

«Fikriy hujum» metodidan foydalanish chog‘ida o‘quvchilarning soni 15 nafardan oshmasligi maqsadga muvofiqdir. Ushbu metodga asoslangan mashg‘ulot bir soatga qadar tashkil etilishi mumkin.

«Yalpi fikriy hujum» metodi

Ushbu metod J.Donald Filips tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, uni bir necha o‘n (20-60) nafar o‘quvchilardan iborat sinflarda qo‘llash mumkin.

Metod o‘quvchilar tomonidan yangi g‘oyalarning o‘rtaga tashlanishi uchun sharoit yaratib berishga xizmat qiladi. Har biri 5 yoki 6 nafar o‘quvchilarni o‘z ichiga olgan guruhlarga 15 daqiqa ichida ijobiy hal etilishi lozim bo‘lgan turli xil topshiriq yoki ijodiy vazifalar beriladi. Topshiriq va ijodiy vazifalar belgilangan vaqt ichida ijobiy hal etilgach, bu haqida guruh a’zolaridan biri axborot beradi.

Guruh tomonidan berilgan axborot (topshiriq yoki ijodiy vazifaning yechimi) o‘qituvchi va boshqa guruhlar a’zolari tomonidan muhokama qilinadi va unga baho beriladi. Mashg‘ulot yakunida o‘qituvchi berilgan topshiriq yoki ijodiy vazifalarning yechimlari orasida eng yaxshi va o‘ziga xos deb topilgan javoblarni e’lon qiladi. Mashg‘ulot jarayonida guruh a’zolarining faoliyatlari ularning ishtiroklari darajasiga ko‘ra baholab boriladi.

O‘z-o‘zini tekshirish uchun savollar:

1. Ta`lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi aloqalarni aytib bering.
2. Pedagogik amaliyotning maqsadi va xususiyati.
3. Ishlab chiqarish jarayonlari va ularda o'quvchilarning faoliyati.
4. Kichik mutaxassislarning ishlab chiqarishga moslashuvi jarayonlarini aytib bering.

7

TA'LIMNING ASOSIY TAMOYILLARI VA ULARNI KASB-HUNAR TA'LIMIDA QO'LLASH, TA'LIM METODLARI VA VOSITALARI

Ishdan maqsad: Ta'limning asosiy didaktik prinsiplari va ulardan kasb-hunar ta'limida foydalanish ta'lim metodlari, ilmiy tadqiqot metodlari va ta'lim vositalari haqida tushuncha beriladi, hamda o'qituvchining ta'lim jarayonini tashkil etishda amal qilishi zarur bo'lgan qoidalar bilan tanishtiriladi. tushunchalarini shakllantirish

Masalaning qo'yilishi:

1. Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchining birgalikdagi hamkorligi faoliyatini tashkil qilish metodikasi.
2. Kasbiy ta'lim prinsiplaridan amaliyotda foydalanish yuzasidan bilim, ko'nikma va malakalari shakllantiriladi.
3. Ta'limdagi ilmiy tadqiqot, interfaol metodlar va ularning farqli jihatlari tushuntiriladi
4. Dars jarayonida foydalaniladigan vositalar, ularni klassifikatsiyasi jihatidan foydalanish usullari tushuntiriladi.

«Fikriy hujum» («Mozgovaya ataka») metodi

Mazkur metod o'quvchilarning mashg'ulotlar jarayonidagi faolliklarini ta'minlash, ularni erkin fikr yuritishga rag'batlantirish hamda bir xil fikrlash inersiyasidan ozod etish, muayyan mavzu yuzasidan rang-barang g'oyalarni to'plash, shuningdek, ijodiy vazifalarni hal etish yechish jarayonining dastlabki bosqichida paydo bo'lgan fikrlarni yengishga o'rgatish uchun xizmat qiladi.

«Fikriy hujum» metodi A.F.Osborn tomonidan tavsiya etilgan bo'lib, uning asosiy tamoyili va sharti mashg'ulot (bahs)ning har bir ishtirokchisi tomonidan o'rtaga tashlanayotgan fikrga nisbatan tanqidni mutlaqo ta'qiqlash, har qanday luqma va hazil-mutoyibalarni rag'batlantirishdan iboratdir. Bundan ko'zlangan maqsad o'quvchilarning mashg'ulot (bahs) jarayonidagi erkin ishtirokini ta'minlashdir. Ta'lim jarayonida ushbu metoddan samarali va muvaffaqiyatli foydalanish o'qituvchining pedagogik mahorati va tafakkur ko'lamining kengligiga bog'liq bo'ladi.

«Fikriy hujum» metodidan foydalanish chog'ida o'quvchilarning soni 15 nafardan oshmasligi maqsadga muvofiqdir. Ushbu metodga asoslangan mashg'ulot bir soatga qadar tashkil etilishi mumkin.

«Yalpi fikriy hujum» metodi

Ushbu metod J.Donald Filips tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, uni bir necha o‘n (20-60) nafar o‘quvchilardan iborat sinflarda qo‘llash mumkin.

Metod o‘quvchilar tomonidan yangi g‘oyalarning o‘rtaga tashlanishi uchun sharoit yaratib berishga xizmat qiladi. Har biri 5 yoki 6 nafar o‘quvchilarni o‘z ichiga olgan guruhlarga 15 daqiqa ichida ijobiy hal etilishi lozim bo‘lgan turli xil topshiriq yoki ijodiy vazifalar beriladi. Topshiriq va ijodiy vazifalar belgilangan vaqt ichida ijobiy hal etilgach, bu haqida guruh a’zolaridan biri axborot beradi.

Guruh tomonidan berilgan axborot (topshiriq yoki ijodiy vazifaning yechimi) o‘qituvchi va boshqa guruhlar a’zolari tomonidan muhokama qilinadi va unga baho beriladi. Mashg‘ulot yakunida o‘qituvchi berilgan topshiriq yoki ijodiy vazifalarning yechimlari orasida eng yaxshi va o‘ziga xos deb topilgan javoblarni e’lon qiladi. Mashg‘ulot jarayonida guruh a’zolarining faoliyatlari ularning ishtiroklari darajasiga ko‘ra baholab boriladi.

«Bilaman. Bilishni xohlayman. Bilib oldim» metodi

Ushbu metod o‘quvchilarga muayyan mavzular bo‘yicha bilimlari darajasini baholay olish imkonini beradi. Metodni qo‘llash jarayonida o‘quvchilar bilan guruhli yoki ommaviy ishlash mumkin. Guruh shaklida ishlashda mashg‘ulot yakunida har bir guruh tomonidan bajarilgan faoliyat tahlil etiladi. Guruhlarning faoliyatlari quyidagi ko‘rinishda tashkil etilishi mumkin:

1) har bir guruh umumiy sxema asosida o‘qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajaradi va mashg‘ulot yakunida guruhlarning munosabatlari loyiha bandlari bo‘yicha umumlashtiriladi;

2) guruhlar umumiy sxemaning alohida bandlari bo‘yicha o‘qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajaradi.

O‘quv faoliyati bevosita yozuv taxtasi yoki ish qog‘ozida o‘z aksini topgan quyidagi sxema asosida tashkil etiladi:

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim
Kasb- hunar ta'limida qo'llaniladigan vositalarni	Tajriba-sinov ishlari, matematik tahlil, ta'limning tashkiliy shakllari, kasbiy ta'lim prinsiplari	Ilmiy tadqiqot metodlari, ta'lim shakllari va vositalarini

Metoddan foydalanish uch bosqich asosida amalga oshiriladi, ya'ni:

1. O'quvchilarning o'rganilishi rejalashtirilayotgan mavzu bo'yicha tushunchalarga egalik darajalari aniqlanadi.
2. O'quvchilarning mavzu bo'yicha mavjud bilimlarini boyitishga bo'lgan ehtiyojlari o'rganiladi.
3. O'quvchilar mavzuga oid ma'lumotlar bilan batafsil tanishtiriladilar.

Bosqichlar bo'yicha amalga oshirilgan harakatlarning to'liq tafsiloti qo'yidagicha:

sinf o'quvchilari guruhlarga biriktiriladilar;
o'quvchilarning yangi mavzu bo'yicha tushunchalarga egalik darajasi o'rganiladi;
o'quvchilar tomonidan qayd etilgan tushunchalar loyihaning 1-bandiga yozib boriladi;
o'quvchilarning yangi mavzu bo'yicha mavjud bilimlarini boyitishga bo'lgan ehtiyojlari o'rganiladi;
o'quvchilarning ehtiyojlari sifatida bayon etilgan tushunchalar loyihaning 2-bandiga yozib qo'yiladi;
o'qituvchi yangi mavzuga oid umumiy ma'lumotlar bilan o'quvchilarni xabardor qiladi;
o'quvchilar o'zlashtirgan yangi tushunchalar aniqlanadi;
bayon etilgan yangi tushunchalar loyihaning 3-bandiga yozib qo'yiladi;
mashg'ulot yakunida yagona loyiha yaratiladi

O‘z-o‘zini tekshirish uchun savollar:

1. Ta’lim prinsiplarining mohiyati. Ta’lim metodi tushunchasiga ta’rif bering
2. Ta’lim tamoyillaridan foydalanishning ahamiyati nimada?
3. Interfaol metodlardan misollar keltiring?
4. Bizni foydalangan metodimiz qanaqa metod?
5. Ta'lim vositalari turlarini aytib bering.

8 O‘QITUVCHINING PEDAGOGIK MULOQOT USLUBI. KASBIY FAOLIYAT. FAOLIYAT TURLARI

Ishdan maqsad: O‘qituvchining muloqot uslubi hamda pedagogik muloqot hamda kasbiy faoliyat. Faoliyat turlari haqida tushunchalarini shakllantirish.

Masalaning qo‘yilishi:

1. Pedagogik muloqot – o‘qituvchining asosiy quroli sifatida undan foydalanish mahorati yoritib beriladi.

2. Pedagogik muloqot funksiyalari tushuntiriladi.

3. O‘qituvchi va o‘quvchilarning axborot almashish jarayonini amalga oshirish bo‘yicha amaliy tajribalar o‘rganiladi.

4.Bo‘lajak o‘qituvchilarga qo‘yilgan kasbiy va shaxsiy sifatlar va pedagogik talablarni o‘rganadilar

5. Kasb-hunar ta’limini tashkil qilishda o‘qituvchining asosiy vazifalari va amalga oshirish metodlari haqida bilimga ega bo‘ladilar.

6. Pedagogik faoliyat, uning turlari tushuntiriladi.

«Bilaman. Bilishni xohlayman. Bilib oldim» metodi

Ushbu metod o‘quvchilarga muayyan mavzular bo‘yicha bilimlari darajasini baholay olish imkonini beradi. Metodni qo‘llash jarayonida o‘quvchilar bilan guruhli yoki ommaviy ishlash mumkin. Guruh shaklida ishlashda mashg‘ulot yakunida har bir guruh tomonidan bajarilgan faoliyat tahlil etiladi. Guruhlarning faoliyatlari quyidagi ko‘rinishda tashkil etilishi mumkin:

3) har bir guruh umumiy sxema asosida o‘qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajaradi va mashg‘ulot yakunida guruhlarning munosabatlari loyiha bandlari bo‘yicha umumlashtiriladi;

4) guruhlar umumiy sxemaning alohida bandlari bo‘yicha o‘qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajaradi.

O‘quv faoliyati bevosita yozuv taxtasi yoki ish qog‘ozida o‘z aksini topgan quyidagi sxema asosida tashkil etiladi:

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim
Muloqot madaniyati	Muloqot usullarini	Nutq madaniyati, texnikasi, muloqot vazifalari va turlari

Metoddan foydalanish uch bosqich asosida amalga oshiriladi, ya’ni:

4. O‘quvchilarning o‘rganilishi rejalashtirilayotgan mavzu bo‘yicha tushunchalarga egalik darajalari aniqlanadi.

5. O‘quvchilarning mavzu bo‘yicha mavjud bilimlarini boyitishga bo‘lgan ehtiyojlari o‘rganiladi.

6. O‘quvchilar mavzuga oid ma’lumotlar bilan batafsil tanishtiriladilar.

Bosqichlar bo‘yicha amalga oshirilgan harakatlarning to‘liq tafsiloti qo‘yidagicha:

sinf o'quvchilari guruhlarga biriktiriladilar;
o'quvchilarning yangi mavzu bo'yicha tushunchalarga egalik darajasi o'rganiladi;
o'quvchilar tomonidan qayd etilgan tushunchalar loyihaning 1-bandiga yozib boriladi;
o'quvchilarning yangi mavzu bo'yicha mavjud bilimlarini boyitishga bo'lgan ehtiyojlari o'rganiladi;
o'quvchilarning ehtiyojlari sifatida bayon etilgan tushunchalar loyihaning 2-bandiga yozib qo'yiladi;
o'qituvchi yangi mavzuga oid umumiy ma'lumotlar bilan o'quvchilarni xabardor qiladi;
o'quvchilar o'zlashtirgan yangi tushunchalar aniqlanadi;
bayon etilgan yangi tushunchalar loyihaning 3-bandiga yozib qo'yiladi;
mashg'ulot yakunida yagona loyiha yaratiladi

Pedagogik faoliyat maqsadining o‘ziga xosligi o‘qituvchidan quyidagilarni talab qiladi:

- *jamiyatning ijtimoiy vazifalarini to‘la anglashi, jamiyat maqsadlari uning pedagogik nuqtai nazariga aylanishi;*
- *- muayyan harakat va vazifalarga ijodiy yondoshishi;*
- *- o‘quvchilar qiziqishlarini e’tiborga olish, ularni pedagogik faoliyatning belgilangan maqsadlariga aylantirish;*

Pedagogik faoliyat *- kishi mehnatining eng murakkab sohalaridan biridir. Jamiyat tomonidan qo‘yiladigan talablaridan eng muhimi o‘qituvchining shaxsi va uning kasbi bilan bog‘liq xislatlarga qaratilgan.*

Jamiyatning o‘qituvchilik kasbiga qo‘yadigan asosiy talablari:

- *shaxsni ma’naviy va ma’rifiy tomondan tarbiyalashning, milliy istiqlol mafkurasining hamda umuminsoniy boyliklarning mohiyatini bilishi, bolalarni mustaqillik g‘oyalariga sodiqlik ruhida tarbiyalashni bilishi, o‘z Vatani, tabiatga va oilasiga bo‘lgan muhabbati;*
- *keng bilim saviyasiga ega bo‘lishi, turli bilimlardan xabardor bo‘lishi;*
- *yosh pedagogik psixologiya, ijtimoiy psixologiya va pedagogika, yosh fiziologiyasi hamda maktab gigienasidan chuqur bilimlarga ega bo‘lishi;*

- *o‘zi dars beradigan fan bo‘yicha mustahkam bilimga ega bo‘lib, o‘z kasbi, sohasida jahon fanida erishilgan yangi yutuq va kamchiliklardan xabardor bo‘lishi;*
- *ta’lim va tarbiya metodikasini egallashi;*
- *o‘z ishiga ijodiy yondashishi;*
- *bolalarni bilishi, uning ichki dunyosini tushuna olishi;*
- *pedagogik texnikani (mantiq, nutq, ta’limning ifodali vositalari) va pedagogik taktga ega bo‘lishi;*
- *o‘qituvchining o‘z bilim va pedagogik mahoratini doimiy ravishda oshirib borishi.*

«KLASTER» METODI

Klaster (g‘uncha, bog‘lam) metodi pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo‘lib, u o‘quvchilarga ixtiyoriy muammo (mavzu)lar xususida erkin, ochiq o‘ylash va shaxsiy fikrlarni bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turli xil g‘oyalar o‘rtasidagi aloqalar to‘g‘risida fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. «Klaster» metodi aniq ob’ektga yo‘naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog‘liq ravishda amalga oshadi.

Stil va Stil g‘oyasiga muvofiq ishlab chiqilgan «Klaster» metodi puxta o‘ylangan strategiya bo‘lib, undan o‘quvchilar bilan yakka tartibda yoki guruh asosida tashkil etiladigan mashg‘ulotlar jarayonida foydalanish mumkin. Metod guruh asosida tashkil etilayotgan mashg‘ulotlarda o‘quvchilar tomonidan bildirilayotgan g‘oyalarning majmui tarzida namoyon bo‘ladi. Bu esa ilgari surilgan g‘oyalarni umumlashtirish va ular o‘rtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi. «Klaster» metodidan foydalanishda quyidagi shartlarga rioya qilish talab etiladi (1-shakl):

KLASTER METODI

Nimaiki o`ylagan bo`lsangiz, shuni qog`ozga yozing. Fikringizning sifati to`g`risida o`ylab o`tirmay, o`tirmay ularni shunchaki yozib boring

Yozuvingizning orfografiyasi yoki boshqa juhatlariga e`tibor bermang

Belgilangan vaqt nihoyasiga yetmaguncha, yozishdan to`xtamang. Agar ma`lum muddat biror bir g`oyani o`ylay olmasangiz, u holda qog`ozga biror narsaning rasmini chiza boshlang. Bu harakatni yangi g`oya tug`ilguniga qadar davom ettiring

Muayan tushuncha doirasida imkon qadar ko`proq yangi g`oyalarni ilgari surish hamda maskur g`oyalar o`rtasidagi o`zaro aloqadorlik va bog`liqlikni ko`rsatishga harakat qiling. G`oyalar yig`indisining sifati va ular o`rtasidagi aloqalarni ko`rsatishni cheklamang

BILIMINGIZNI SINAB KO`RING

Klaster texnikasining qoidasi.

- **Klaster parchalanish, maydalanish ma`nosini anglatadi.**
- **Mavzudan chiqqan va chiqmagan so`z o`zagini ma`no – mazmunini davom ettiramiz. So`zlar tarmoqlanadi.**
- **Klaster uslubi darsning bir qismida (boshida, o`rtasida, oxirida)qo`llaniladi.**
- **Guruhlarga bir xil savollar berilsa, tarmoqbajarilgandan so`ng bir xil terminlar o`chiriladi. Kimda o`chirilmagan terminlar ko`p qolsa o`sha gruppa g`olib hisoblanadi.**
- **O`qituvchi o`z variantiga ega bo`lishi kerak.**
- **So`zlarning klassifikasiyasi ro`y bermasligi kerak**.



1. Pedagogik muloqot va Pedagogik faoliyat deganda nima tushunasiz?
2. O'qituvchi muloqotida uchraydigan kamchiliklar.
3. Muloqotning axborot almashish funktsiyasi mohiyati nimada?
4. O'qituvchi faoliyatida uchraydigan kamchiliklar.
5. Faoliyat turlari haqida gapirib bering.

9 O‘QITUVCHINING TA’LIM JARAYONIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLAY OLISH MAHORATI. KASB-HUNAR TA’LIMINI REJALASHTIRISH

Ishdan maqsad: O‘qituvchining ta’lim jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo‘llay olish mahorati bo‘yicha ma’lumot berish, va kasb-hunar ta’limi mutaxassislik va kasblar yo‘nalishlari bo‘yicha umumdavlat klassifikatori haqida tushuncha berish.

talabalarda mavzu yuzasidan tasavvur hosil qilish.

Masalaning qo‘yilishi:

1. Pedagogik texnologiya haqidagi g‘oyalar, uning rivojlanish bosqichlari tushuntiriladi.

2. Pedagogik texnologiya turlari va ularning mazmuni yoritib beriladi.

3. Ta’lim va tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha ko‘nikma va malakaga ega bo‘ladilar.

TA'LIM JARAYONINING TUZILMASI



"Insert" metodi

Metodning maqsadi: Mazkur metod talabalarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni o'zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida qo'llaniladi, shuningdek, bu metod talabalar uchun xotira mashqi vazifasini ham o'taydi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- o'qituvchi mashg'ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan input-matnni tarqatma yoki taqdimot ko'rinishida tayyorlaydi;
- yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta'lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko'rinishida namoyish etiladi;
- ta'lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o'z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orhali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda talabalarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

➢

Belgilar	Kasb	Kasblar tasnifi	Professiogramma
“V” – tanish ma’lumot.			
“?” – mazkur ma’lumotni tushunmadim, izoh kerak.			
“+” bu ma’lumot men uchun yangilik.			
“– ” bu fikr yoki mazkur ma’lumotga qarshiman?			

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta’lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo‘lgan ma’lumotlar o‘qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi va ularning mohiyati to‘liq yoritiladi. Savollarga javob berilib mashg‘ulot yakunlanadi.

“SWOT-tahlil” metodi

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orhali muammoni hal etish yo‘llarini topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.



Kasblar yo‘nalishlari bo‘yicha SWOT tahlili

	Kasbiy shakllanishning kuchli tomonlari	To‘g‘ri kasb tanlash. O‘zi xohlagan holda ish faoliyatini to‘g‘ri tashkillashtirishi. Jamiyat uchun kompetentli kadrga aylanishi.
	Kasbiy shakllanishning kuchsiz tomonlari	Noto‘g‘ri kasb tanlaganligi uchun ish unumining pastligi. Kasbga

		qiziqishning yo‘qligi sabab o‘z kasb-korini chuqur egallash uchun intilishning yo‘qligi
	Kasbiy shakllanishning imkoniyatlari (ichki)	O‘z kasbiy shakllanishi yuzasidan chuqur bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi va faoliyatda yuqori samaradorlikka erishish. O‘z kasbining yetuk mutaxassisiga aylanishi. Ishlab chiqarish sifati ortadi.
	To‘siqlar (tashqi)	Zamonaviy kasb - korlikni egallashda chet tillarini o‘rganish va axborot texnologiyalarini mukammal egallash uchun sharoitlarning yo‘qligi va vaqt yetishmasligi

O‘z-o‘zini tekshirish uchun savollar:

1. Pedagogik texnologiyaning muhim xususiyatlarini aytib bering.
2. Ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati nimada?
3. Ta'limni axborotlashtirish to‘g‘risidagi qaror yoki farmoyishlarni bilasizmi?
4. Ta'limni rejalashtirishda nimalarga ahamiyat berish kerak?
5. Pedagogic texnologiyaning o`yin turi qanday ahamiyatga ega?

10

TA'LIM MAZMUNI. O'QUV REJALARI, DASTURLARI

Ishdan maqsad: Ta'lim mazmuni. O'quv rejalari, dasturlari haqida tushuncha berish hamda ta'lim mazmunini integratsiyalash haqida nazariy va amaliy bilimlar bilan qurollantirish.

Masalaning qo'yilishi:

1. Ta'lim mazmuni haqida tushuncha beriladi.
2. O'quv reja va o'quv dasturlarining farqli jihatlari yoritib beriladi
3. Integratsiya haqida tushunchaga ega bo'ladi.
4. Kasb ta'limini umumiy o'rta ta'lim, oliy ta'lim va fan bilan integratsiyalash yuzasidan amaliy ma'lumotlarga ega bo'ladilar.

Integratsiya masalalari

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning "O'quv dasturi va programmalarini zamonaviy talablarga moslashtirib, istiqbol va kelajagimizni ko'zlagan holda tuzib olishimiz va joriy etishimiz zarur. Bugun ishlatilayotgan o'quv programmalarining oqsoq va zaif tomonlarini, albatta, inobatga olishimiz darkor" degan firklari, aynan, mazkur yo'nalishni izchil tarzda takomillashtirib borish zarurligini talab etadi.

Kasb-hunar ta'limi mazmunini integratsiyalash bugungi kunning muhim talablaridan biri bo'lib, uni amalga oshirish orqali ta'lim tizimi yangicha mazmun, tamoyillar, didaktik birliklar, qarashlar, yondashuvlarga ega bo'ladi.

Ta'limda integratsiya jarayonlari kichik mutaxassisning kasbiy tayyorgarligida o'ta muhim va ob'ektiv zaruriyat bo'lib, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni va «Kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dasturi»da ko'rsatib o'tilganidek, o'quvchilarni ijodiy kamolot sari yo'naltiruvchi mexanizmdir.

Integrativ jarayonlarning alohida turlari va ular bilan bog'langan xususiyatlar

- Birinchisi – bitta o'quv predmeti mazmunidagi integratsiya – u yoki bu o'quv predmetining mazmunini mantiqiy ravishda izchillashtirishga yo'naltirilgan blokli yoki tarmoqli muvofiqlashtirilgan didaktik tizimdir. Bu xoldagi integratsiyada tushunchalar tizimi ilmiy tadqiqotlar xulosalari asosida tartibga keltiriladi.
- Ikkinchisi – ta'lim mazmunini integratsiyalash – o'quv predmetlaridagi ilmiy tushunchalarning turdoshlik xususiyatlaridan kelib chiqib, ikki-uchta fanlardan qo'shma o'quv predmetlarini yaratishni bildiradi.
- Uchinchisi – ta'lim tizimidagi integratsiya – oliy o'quv yurtlari bakalavriat bo'g'inlari qoshida yoki uning tashqarisida tutash o'quv rejalari asosida tashkil etiladigan o'rta maxsus, kasb-hunar kollejlari yoki akademik litseylaridan iborat

bo‘lajak qo‘shma o‘quv yurtlaridir. Integratsiyaning bu turida har ikkala bo‘g‘indagi o‘quv yurtlari o‘quv rejalarining muvofiqlashtirish va unifikatsiyalash natijasida bakalavriat ta’limi muddatini yarim yoki bir yilga qisqartirish imkoniyati tug‘iladi.

- To‘rtinchisi – xalqaro ta’lim integratsiyasi – xorijiy mamlakatlar ta’lim tizimi yoki mazmunini vatanimiz ta’limi nazariyasi va amaliyoti bilan uyg‘unlashtirishdir. O‘zbekiston bilan Germaniya Federativ Respublikasi bilan ta’lim sohasidagi o‘zaro hamkorlik ushbu izimga yaqqol misol bo‘la oladi**.**

Vertikal integratsiya

Ta’lim bosqichlari aro uzviylik va uzluksizliknita’minlashdan iborat.

Gorizontal integratsiya

Bir ta’lim bosqichida fanlararo bog‘liqlik, uzviylik va uzluksizlikni ta’minlashdan iborat.

“Blis-o‘yin” metodi

Metodning maqsadi: tinglovchilarda tezlik, olgan bilimlar tizimini tahlil qilish, rejalashtirish, prognozlash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maqsadida qo‘llash samarali natijalarni beradi.

Metodni amalga oshirish bosqichlari:

1. Dastlab ishtirokchilarga belgilangan mavzu yuzasidan tayyorlangan topshiriq, ya’ni tarqatma materiallarni alohida-alohida beriladi va ulardan materialni sinchiklab o‘rganish talab etiladi. Shundan so‘ng, ishtirokchilarga to‘g‘ri javoblar tarqatmadagi «yakka baho» kolonkasiga belgilash kerakligi tushuntiriladi. Bu bosqichda vazifa yakka tartibda bajariladi.

2. Navbatdagi bosqichda trener-o‘qituvchi ishtirokchilarga uch kishidan iborat kichik guruhlarga birlashtiradi va guruh a’zolarini o‘z fikrlari bilan guruhdoshlarini tanishtirib, bahslashib, bir-biriga ta’sir o‘tkazib, o‘z fikrlariga ishontirish, kelishgan holda bir to‘xtamga kelib, javoblarini «guruh bahosi» bo‘limiga raqamlar bilan belgilab chiqishni topshiradi. Bu vazifa uchun 15 daqiqa vaqt beriladi.

3. Barcha kichik guruhlar o‘z ishlarini tugatgach, to‘g‘ri harakatlar ketma-ketligi trener-o‘qituvchi tomonidan o‘qib eshittiriladi va o‘quvchilardan bu javoblarni «to‘g‘ri javob» bo‘limiga yozish so‘raladi.

4. «To‘g‘ri javob» bo‘limida berilgan raqamlardan «yakka baho» bo‘limida berilgan raqamlar taqqoslanib, farq bulsa «0», mos kelsa «1» ball qo‘yish so‘raladi.

Shundan so‘ng «yakka xato» bo‘limidagi farqlar yuqoridan pastga qarab qo‘shib chiqilib, umumiy yig‘indi hisoblanadi.

5. Xuddi shu tartibda «to‘g‘ri javob» va «guruh bahosi» o‘rtasidagi farq chiqariladi va ballar «guruh xatosi» bo‘limiga yozib, yuqoridan pastga qarab qo‘shiladi va umumiy yig‘indi keltirib chiqariladi.

6. Trener-o‘qituvchi yakka va guruh xatolarini to‘plangan umumiy yig‘indi bo‘yicha alohida-alohida sharhlab beradi.

7. Ishtirokchilarga olgan baholariga qarab, ularning mavzu bo‘yicha o‘zlashtirish darajalari aniqlanadi.

«*Integrativ jarayonlarning alohida turlari*»ni ketma-ketligini joylashtiring. O‘zingizni tekshirib ko‘ring!

Harakatlar mazmuni	**Yakka baho**	**Yakka xato**	**To‘g‘ri javob**	**Guruh bahosi**	**Guruh xatosi**
Bitta o‘quv predmeti mazmunidagi integratsiya					
Ta’lim mazmunini integratsiyalash					
Ta’lim tizimidagi integratsiya					
Xalqaro ta’lim integratsiyasi					
Vertikal va gorizontal integratsiya					

“ Baxs -munozara” strategiyasi

Baxs –munozara strategiyasi ikki yoki undan ortiq shaxslar tomonidan muayan vaqt oralig`i va qat`iy qoidalarga muvofiq tashkil etiladigan og`zaki baxsbo`lib talabalarda o`rganayotgan mavzu bo`yicha erkin asosli fikrlarni bildirish qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. O`quv mashg`ulotlarida baxs munozaradan foydalanishda mavzuga doir ma`lum masalalar hal qilinadi. Uni qo`llashda quyidagi tartibda ish ko`riladi.



Izoh: 1) bir talabaga ikki marta so`zga chiqishga ruxsat etilmaydi.

2) O`qituvchi talabaning mavzudan chetga chiqmasliklarini qat`iy nazorat qilib boradi, bordi-yu shunday xolatlar sodir etilsa, so`zlovchilar bu haqida ogohlantiriladi.

«FSMU» mantiqiy fikrlashga o‘rgatuvchi texnologiya

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni xal etishda, baxs-munozaralar o‘tkazishda yoki o‘quv-seminari yakunida (tinglovchilarning o‘quv seminari haqidagi fikrlarini bilish maqsadida), yoki o‘quvrejasi asosida Biron bo‘lim o‘rganib bo‘lingach qo‘llanilishi mumikn, chunki bu texnologiya tinglovchilarni o‘z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o‘z fikrini boshqalarga o‘tkazishga, ochiq holda baxslashishga, shu bilan bir qatorda o‘quvchi talabalarni, o‘quv jarayonid aegallagan bilimlarini tahlil etishga, qay darajada egalliklarini baholashga hamda tinglovchilarni bahslashish madaniyatiga o‘rgatishga xizmat qiladi.

FIKR . MULOHAZA. ISBOT

FSMU

- **F-Fikringizni bayon eting**
- **S- Fikringizni bayoniga sabab ko`rsating**
- **M-Fikringizga misol keltiring**
- **U-Fikrlaringizni umumlashtiring, xulosalang**

«FSMU» Mantiqiy fikrlashga o‘rgatuvchi texnologiyadan foydalanish jarayonining bosqichlari

1-bosqich Talabalarga «FSMU» texnologiyasining mohiyati va ishlash tartibi tushuntiriladi hamda muhokama etiluvchi masala (ma`lumot) o`rtaga tashlanadi.

2-bosqich. Talabalar yakka yoki juftlikda o`rtaga tashlangan masalani muhokama qiladilar va «FSMU» jadvalini to`ldiradi.

3-bosqich. Kichik guruhlarga birlashadilar va o`z fikrlarini bayon etadilar, qarorning sabablarini aniqlaydi va misollarga tayangan holda xulosa yasaydilar. Barcha guruh a`zolarining fikrlari inobatga olinadi.

4-bosqich. Guruh ichida muhokama qilib yagona xulosaga keladilar. Katta qog`ozga «FSMU» jadvalini to`ldirib taqdimotga tayyorlanadilar

«FSMU» texnologiyasini qo‘llashga oid namuna

«Talabalarning bilimini qanday nazorat qilish maqsadga muvofiq? Sizga baholashning reyting tizimi yoqadimi» degan savol muhokamaga qo‘yilgan.

	Fikringizni bayon eting	
	Qarorning sababi	
	Misol	
	Xulosa	

O‘z-o‘zini tekshirish uchun savollar:

1. DTSning asosiy mohiyati nimada?
2. Ta'lim mazmuni va ta'lim sifati qanday nazorat qilinadi?
3. Ta'lim mazmunin integratsiyalash muammomi?
4. O‘quvchilar bilimini nazorat qilish va baholashda o‘qituvchining asosiy vazifalari.
5. Mustaqil ta'limning ahamiyati nimada?

11 KASB-HUNAR TA'LIMIDA O'QUVCHILARNI TARBIYALASH TIZIMI VA TA'LIMDA INTERFAOL METODLAR, ULARNI TA'LIM JARAYONIDA QO'LLASH

Ishdan maqsad: Kasb-hunar ta'limida o'quvchilarni tarbiyalash tizimi hamda kasbga yo'naltirish, kasbiy motivatsiya va ta'limda interfaol metodlar, ularni ta'lim jarayonida qo'llash haqida tushuncha berish.

Masalaning qo'yilishi:

1) Tarbiya jarayoni Interfaol metodlar, ularning qo'llanilish xususiyatlari haqida tushuncha;
2) Tarbiya metodlari, qoidalarini o'rganadilar;
3) Kasb-hunarga yo'naltirishda tashkiliy va tarbiyaviy tadbirlar haqida ma'lumotga ega bo'lish;
4. Kasbiy fanlarni o'qitishda ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llashning ahamiyati, Innovatsion jarayonning mohiyati bo'yicha tasavvurga ega bo'ladi

Tarbiyada o'quvchilarning qobiliyatini aniqlash

Psixologik adabiyotlarda mavjud bo'lgan ***Ayzenk testi*** orqali o'quvchi qobiliyatini aniqlash mumkin.

Testni to'g'ri qo'llash uchun quyidagi shartlarga qat'iy amal qilinadi:

1. Ajratilgan vaqt birligiga (80 ta savol uchun 40 daqiqa) qat'iy rioya qilish.
2. O'quvchining savol mazmunini to'g'ri idrok etishiga va tushunishiga erishish.
3. Javoblar o'quvchining mustaqil fikriga asoslanganligiga erishish.
4. Savollarga berilgan javoblarni ishlab chiqish (100 ballik tizim asosida).

O'quvchi savollarni diqqat bilan o'qib chiqadi. U qaysi savollar o'zi haqida ketayotganiga ishonch hosil qilsa, shu savolni belgilab chiqadi, qolgan savollarga hech qanday belgi qo'ymaydi. O'quvchi savollarga shoshilmasdan, ochiq-oydin va to'g'ri javob berishi lozim. Belgilangan savollarning kam yoki ko'pligi muhim emas. O'quvchida "qancha ko'p savollarni belgilasam o'qituvchining men haqimdagi fikri shunchalik yaxshi bo'ladi", degan fikr tug'ilmasligi kerak.

Savollar

1. O'ylayotganlaringizni yaxshi bayon etib bera olasizmi?
2. Tajriba-sinovlar o'tkazishni yaxshi ko'rasizmi?
3. Karta yoki sxema yordamida istalgan manzilgohni qiynalmasdan topa olasizmi?
4. O'zingizga tanish musiqa kuyi ostida qo'shiq kuylay olasizmi?
5. Arg'imchoqda uchishni yoqtirasizmi?
6. Uyda yolg'iz o'tirishdan ko'ra do'stlaringiz bilan suhbatlashish afzalmi?

7. Hayvonlarga ozor bermay, yaxshi munosabatda bo‘lasizmi?
8. Yolg‘izlikni, hayol surib yurishni yoqtirasizmi?
9. Siz adabiyotga qiziqasizmi?
10. Suratga tushirishni yoqtirasizmi?
11.Qiladigan ishlaringizni oldindan yon daftaringizga yozib qo‘yasizmi?
12. O‘zingiz yoqtirgan qo‘shiqlarni tez-tez hirgoyi qilib turasizmi?
13. O‘zingizning kuchli va kuchsiz tomonlaringizni yaxshi bilasizmi?
14. Boshhalarning maslahatiga quloq tutmay, mustaqil karor qabul qila olasizmi?
15. Ko‘pgina masalalarda boshhalarga maslahat bera olasizmi?
16. Psixologiya bilan qiziqasizmi?
17. Hazil-mutoyibani yoqtirasizmi?
18. Rang-barang bezatilgan kitoblarni yaxshi ko‘rasizmi?
19. Odamlarning xatti-harakatlarini kuzatib yurasizmi?
20. Har xil imo-ishoralar va harakatlarni yaxshi eslab qolasizmi?
21. Sportga qiziqasizmi?
22. Qiynalmasdan bir guruh odamlarni boshqara olasizmi?
23. Dunyoviy muammolarga, masalan, ekologiyaga qiziqasizmi?
24. Sayohatga, baliq oviga borishni yoqtirasizmi?
25. Har xil so‘z o‘yinlarini va topishmoqlarni topishni yaxshi ko‘rasizmi?
26. Narsalar bilan raqamlar orasidagi bog‘lanishni aniqlay olasizmi?
27. Yosh bolalar bilan o‘yin o‘ynashni yoqtirasizmi?
28. Yugurishdan ko‘ra futbol, voleybol, basketbol o‘ynash ma’qulmi?
29. Gullarning nomini yoddan bilasizmi?
30. Toqqa chiqishni yoqtirasizmi?
31. Tez-tez musiqa eshitib turasizmi?
32. Narsalarni buzib, boshqatdan terishni yaxshi ko‘rasizmi?
33. Radio, televizordan eshitgan ma’lumotlarni yaxshi eslab qolasizmi?
34. O‘z fikringizni bayon qilganda rasm va sxemalardan foydalanasizmi?
35. Hisob-kitob daftarini yaxshi olib borasizmi?
36. O‘yinga tushishni yaxshi ko‘rasizmi?
37. Tez-tez barmoqlaringiz yordamida musiqa “chalib” turasizmi?
38. Eng yaqin do‘stlaringiz bormi?
39. Hayotingiz haqida o‘ylab turasizmi?
40. O‘zingizni fermer sifatida tasavvur qila olasizmi?
41. Shaxsiy tashvishlar sizni ko‘proq qiziqtiradimi?
42. Biror narsani hal etishda do‘stlaringiz bilan maslahatlashasizmi?
43. Shaxmat o‘ynashni yoqtirasizmi?
44. Narsalarning kelajakda qanday bo‘lishini tasavvur qila olasizmi?
45. Musiqa asbobida ko‘p ijro eta olasizmi?

46.Narsa haqida to‘la tasavvurga ega bo‘lishingiz uchun uni ushlab ko‘rishingiz kerakmi?
47. Bahslashganda o‘z fikringizni qat’iyat bilan himoya qilasizmi?
48. Yo‘lda biror kuyni hushtak orhali chalib yurasizmi?
49. Ekologiya hozirgi davrning eng asosiy muammosimi?
50. Biror jamoa, guruh yoki qo‘mita tarkibida bo‘lishni xohlaysizmi?
51. Boshhalar bilmaydigan qiziqish, ermagingiz bormi?
52. Narsalarning mohiyatini baholash uchun ularni turli guruhlarga ajratasizmi?
53. Siz rasmlar tomosha qilishni yoqtirasizmi?
54. So‘zlashayotganda imo-ishoralarni ko‘p ishlatasizmi?
55. Ko‘zingiz tushgan hamma yozuvlarni, hatto buyumlarning etiketlarini ham o‘qiysizmi?
56. Mantiqiy o‘yinlarni yaxshi ko‘rasizmi?
57. Tushuntirganda misollar kelgirasizmi?
58. Odamning hamma a’zolari qaerda joylashganini yaxshi bilasizmi?
59. Kelishmovchilik va janjallarni hal qila olasizmi?
60. Doim biror narsani o‘rganishni o‘ylab yurasizmi?
61. Bir marta eshitgan kuyingizni eslab qolasizmi?
62. Bilimlarni tajriba va sinov orhali o‘zlashtirasizmi?
63. So‘zlashganda kitoblarda o‘qigan obrazlardan foydalansizmi?
64. Matematikadan ko‘ra fizika ko‘proq yoqadimi?
65. Kompyuter bilan ishlashni yoqtirasizmi?
66. Mashhur aktyorlarning gaplarini o‘zlariga o‘xshatib aytishni, ya’ni taqlid qilishni yaxshi ko‘rasizmi?
67. Hayotingizni qo‘shiqsiz tasavvur qila olasizmi?
68. To‘ylarda qatnashishni yoqtirasizmi?
69. Planetalarning nomlarini bilasizmi?
70. Kundalik yuritasizmi?
71. Uy hayvonlariga ovqat berishni yoqtirasizmi?
72. Hayotingizda biror narsaga erishish uchun hamma narsaga tayyormisiz?
73. O‘simliklarga suv qo‘yishni yoqtirasizmi?
74. Tez-tez konsertlarga borib turasizmi?
75. Yo‘lda o‘z shaxsiy muammolaringiz haqida o‘ylab yurasizmi?
76. Matematikani yaxshi ko‘rasizmi?
77. Dars paytida daftaringizga ba’zi narsalarning rasmini chizib o‘tirasizmi?
78. Juda ko‘p so‘zlarning ma’nosini bilasizmi?
79. Ovoz chiqarib fikrlashni yoqtirasizmi?
80. Odamlar qiynalganda sizdan maslahat so‘rab turishadimi?

Endi bu savollarga javoblarni baholash ustida to‘xtalamiz. O‘quvchi o‘zi belgilagan savol nomerlarini jadvalda “doira” ichiga olib chiqadi. Qaysi ustunda 8 tadan 10 tagacha “doiracha”lar bo‘lsa, o‘quvchida o‘sha qobiliyat ustun bo‘ladi.

A	B	C	D	E	F	G	H
1	2	3	4	5	6	7	8
9	10	11	12	13	14	15	16
17	18	19	20	21	22	23	24
25	26	32	27	31	30	28	29
33	35	34	36	37	39	38	40
47	43	44	46	45	41	42	49
55	52	53	54	48	51	50	58
63	57	56	61	62	60	59	69
78	65	64	66	67	70	68	71
79	76	77	75	74	72	80	73

Qaysi qobiliyatning ustunligiga qarab, o‘quvchining nimaga qiziqishi haqida so‘z yuritish mumkin.

A – lingvistik qobiliyat. Bunday qobiliyatli o‘quvchilarda o‘qishga, she’riyatga, bahs-munozalarga, hazil-xajv va hikoyalarga qiziqish kuchli bo‘ladi.

V – matematik qobiliyat. Bu qobiliyati ustun bo‘lgan o‘quvchilar abstrakt belgilar, formulalar, misol-masalalar, raqamlar bilan ishlashni yaxshi ko‘radi.

S – ko‘rish qobiliyati. Bu qobiliyatga ega o‘quvchilarda ranglarga, tasviriy san’atga, haykaltaroshlik va chizmachilikka qiziqish katta bo‘ladi.

D – kinetik qobiliyat. Bu qobiliyat egalari raqs, rol ijro etish, jismoniy mashqlar, sport o‘yinlari va dramaga qiziqadi.

Ye – tabiatsevarlik qobiliyati. Bu qobiliyat egalari sayru sayohatga, ekskursiyalarga ko‘proq qiziqadi.

F – musiqiy qobiliyat. Bu qobiliyat egalari qo‘shiq aytishni, musiqa chalishni, jo‘r bo‘lishni yaxshi ko‘radilar.

G – suhbatdoshlik qobiliyati. Bu qobiliyat egalari hamdard, hamkor, xushmuomala bo‘lishni, birgalikda turli yangi loyiha (proekt)lar yaratishni yaxshi ko‘radi.

N – fikrlash qobiliyati. Bu qobiliyat egalari doim fikrini bir joyga yig‘ib to‘play oladi, yaxshi, chuqur fikrlaydi, hayol surib yurishni yaxshi ko‘radi.

Xo‘sh, keltirilgan javoblardan qachon, qaerda va qanday maqsadlarda foydalanish mumkin?

Birinchidan, ular akademik litsey yoki kasb-hunar kolleji o‘quvchilariga o‘z shaxsiy yo‘nalishini to‘g‘ri belgilashlariga yordam berishda qo‘l keladi.

Ikkinchidan, har bir o‘quvchining xulq atvori, yosh va shaxsiy xususiyatlarini bilmay turib tarbiyalash mushkul. Bu jarayonda tarbiya metodlari va qoidalaridan to‘g‘ri va yoshiga mos holda tanlab foydalanish maqsadga muvofiq.

KEYS TEXNOLOGIYaSI

KEYS- lotincha-casus –aniq vaziyat yoki hodisa.
Keys –bu yaxlit axborotli majmua

KEYS METODI-ishbilarmonlik o`yinlarining o`ziga xos ko`rinishi bo`lib, aniq vaziyatlarni tahlil qilish, ijodiy fikrlash va to`g`ri qaror qabul qilish ko`nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

KEYS METODI –interfaol o`qitish tamoyillariga asoslanadi.

Keys

2 bosqich talabasi Akbar otasi vafot etgani sababli darsdan so‘ng onasiga yordamlashib, ukalariga qarar edi. Shu sababli u hamma darslari to‘liq bajara olmas edi. Tarix fanidan yangi kelgan o‘qituvchi Akbarni doskaga chiqardi. U dars tayyorlay olmaganini aytdi. O‘qituvchi: “Shu oddiy vazifani bajara olmadingmi? Bunchalar ham ma’sulyatsiz bo‘lasanmi? Bu ketishingda sendan farrosh ham chiqmaydi” – dedi. Bu voqeadan so‘ng Akbar bu darsga qatnamay qo‘ydi. Baho esa uni umuman qiziqtirmas edi. Akbarni bu vaziyatga tushib qolishiga kim sababchi?

1. Vaziyatning kelib chiqishiga ta’sir etgan omillar?

1. Bu vaziyatda Sizning harakatingiz?

2. Nima uchun bunday fikrga keldingiz?

Keysni bajarish varaqasi

Muammoli vaziyat turi	Muammoli vaziyatni kelib chiqish sabablari	Vaziyatdan chiqish yo`llari yoki sizning yechimingiz...

KEYS texnologiyasi

Bilimlarni tayyor holda yetkazish yoki yechimlarini berish emas, balki uni qidirib toppish va mustaqil izlashga o`rgatadi .

O`quv jarayonida qo`llanishi mumkin bo`lgan keyslar

- matnli keys;
- Video keys;
- Media keys ko`rinishida bo`lishi mumkin.

Keys texnologiyasida:

- “Aqliy hujum”
- “Basketmetod”
- “Vaziyatli rolli o`yini”
- “Baxs -munozara”
- “Klaster”
- “Idrok xaritasi”
- “Modellashtirish” kabi interfaol metodlardan keng foydalanishi mumkin.

O‘z-o‘zini tekshirish uchun savollar:

1. Tarbiyada tizimli ta`sir ko`rsatish jarayoni haqida fikringiz.
2. Tarbiya metodlarini aytib bering.
3. Tarbiya jarayonida qanday qoidalarga amal qilish lozim?
4. O`quvchilarni kasbga yo`naltirishda o`qituvchi nimalarga e`tibor berish kerak?.
5. Interfaol metodlardan foydalanish foydalanish xususiyati nimada?
6. Interfaol me/todlardan misollar keltiring.
7. Keys metodining asosiy maqsadi nima Keys texnologiyasini qandav tushunasiz?

MUSTAQIL TA’LIMNI TASHKIL ETISH UCHUN KO‘RSATMALAR

Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o‘quv qo‘llanmalar bo‘yicha fan boblari va mavzularini o‘rganish;
- tarqatma materiallar bo‘yicha ma’ruza qismini o‘zlashtirish;
- o‘qitish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimlari bilan ishlash;
- fanning boblari va mavzulari ustida ishlash;
- talabalarni ijodiy jarayonga yo‘naltirish, ularni tahlil qilish, mustaqil ishlashga o‘rgatish, mashqlar bajarish;
- yangi texnika, jihozlar, keng ko‘lamli ilmiy ish olib borishga qulay jarayonlar va texnologiyalarni o‘rganish;
- ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog‘liq holda fanning muayyan boblari va mavzularini chuqur o‘rganish.

Talabalar mustaqil ishning mazmuni va hajmi

Mustaqil ish mavzulari	Berilgan topshiriqlar	Bajarish muddati	Hajmi (soatda)
1. Pedagogik jarayonning mohiyati va tuzilishi.	Mavjud risoladan foydalanish	1 hafta	4
2. Kasb ta'limi muassasalarida axloqiy tarbiya muammosi	Maxsus adabiyotdan foydalanish	2 hafta	5
3. Kasb ta'limining tarbiyaviy xususiyati	Maxsus adabiyotdan foydalanish	3 hafta	6
4. Uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilishning tashkiliy, ilmiy va metodik asosidir	Maxsus adabiyotdan foydalanish	4 hafta	4
5. Yoshlarni kasbga yo'naltirishning nazariy shart-sharoitlari	Maxsus adabiyotdan foydalanish	5 hafta	6
6. Ta'lim jarayonidagi muammoli vaziyatlar	Maxsus adabiyotdan foydalanish	6 hafta	4
7. Ta'limni rivojlantirishning yangi bosqichida pedagogik texnologiya muammolari	Maxsus adabiyotdan foydalanish	7 hafta	6
8. Kasbga yo'naltirishning tarbiyaviy ahamiyati	Maxsus adabiyotdan foydalanish	8 hafta	4
9. Talaba yoshlarda ma'naviy-axloqiy odatlarni tarbiyalashning vazifalari	Maxsus adabiyotdan foydalanish	9 hafta	6
10. Ta'lim tizimini boshqarish va unga rahbarlik qilishning asosiy qoidalari	Maxsus adabiyotdan foydalanish	10 hafta	4
11. Mehnat va kasb ta'limiga oid metodik ishlarni tashkil etish va ularning vazifalari	Maxsus adabiyotdan foydalanish	11 hafta	6
12. O'quvchi-yoshlarda mehnat va kasb ehtiyojini shakllantirish omillari	Maxsus adabiyotdan foydalanish	12 hafta	6
13. O'quvchilarda mehnat madaniyatini shakllantirish.	Maxsus adabiyotdan foydalanish	13 hafta	4
Jami:			**20**

GLOSSARIY

(ma'ruza matnida uchraydigan asosiy tushunchalarning o'zbek , rus va ingliz tillaridagi sharhi)

Termin	O'zbek tilidagi sharhi	Ingliz tilidagi sharhi
Ta'lim Obrazovanie Education	Maxsus tayyorlangan mutaxassislar yordamida bilim berish va ulardagi ko'nikma hamda malakalarni shakllantirish jarayoni	Specially prepared with use of knowledge of experts and to give them skills and qualification in the course of education
Ta'lim dasturi Programma obrazovaniya Yeducation program	O'quv fanlarining bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklariga qo'yiladigan malaka talablariga muvofiq kadrlarning zaruriy va yetarli darajadagi tayyorgarligini ta'minlovchi ro'yxati	The fields of educational sciences, the bachelor and the master of qualification according to requirements of the list of proper and adequate training of personnel
Ta'lim maqsadi Sel obrazovaniya Education purpose	Ta'lim va tarbiya muammolarini yuqori samaradorlik bilan hal qilishga qaratilgan asos hisoblanadi	Education and the training ground for the problem resolution with outstanding performance
Ta'lim mazmuni Soderjanie obrazovaniya Content of education	Insonni o'qitish jarayonida egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar hajmi va harakteri	The person has to accept in the course of training of knowledge, skills and mentality
Ta'lim metodi Metodы obrazovaniya Education methods	Ta'lim jarayonida o'qituvchi va talabalarning aniq maqsadga erishishga qaratilgan birgalikdagi faoliyatidir	Teachers and students in educational process of the joint activity directed to achievement of a specific goal
Ta'lim monitoringi Monitoring obrazovaniya Education monitoring	Ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasini nazorat qilish uchun ma'lumotlar yig'ish texnologiyasi	Development of technology for management of the level of development of data collection
Ta'lim sifati Kachestvo obrazovaniya Quality of education	T'lim jarayonining turli qatnashchilarini o'quv massasasi tomonidan ko'rsatilgan ta'lim xizmatlaridan qoniqish darajasi yoki ta'limda qo'yilgan maqsad va vazifalarga erishganlik darajasi	Participants of educational process, education level of satisfaction with services of formation of masses or education level of achievement of effective objectives and tasks.
Ta'lim standarti Standartы obrazovaniya	ta'lim oluvchilarni o'qitish va tarbiyalashga qo'yiladigan talablar ko'rsatkichlarining	Development of requirements of content for educational and

Standards of education	mazmuni	educational indicators.
Ta'lim tamoyili Prinsipы obrazovaniya Principles of education	O'qituvchi faoliyati va ta'lim oluvchining bilish faoliyati xususiyatini belgilovchi asosdir	Teachers study to know transactions and activities of property in the house.
Didaktik tamoyillar Didekticheskie prinsipы Didektichesky principles	Ta'lim jarayoni qonuniyatlari, mazmuni va metodlarini belgilab beruvchi o'qitish tamoyillaridir	Training process is determined by contents of laws and training methods to the principles.
Ta'lim vositalari Sredstva obrazovaniya Means of education	O'quv jarayonining tashkil etilishi va o'tib borishini ta'minlaydigan xilma-xil o'quv jixozlari	After creation of educational process and to provide a wide range of the educational equipment.
Bilim Znanie Knowledge	O'quvchilar ongida muayyan tartibda mustahkamlangan ma'lumotlar, ilmiy nazariyalar, qonunlar, tushunchalardir	Some information to protect minds of students of scientific theories, laws and concepts.
Nazariy bilim Teoreticheskoe znanie Theoretical knowledge	Narsa va hodisalar mohiyatini bilish, qonuniyatlarni ochishni nazarda tutadi	To know an essence of things and events, provides opening of laws
Ilmiy bilim Nauchnoe znanie Scientific knowledge	O'bektiv olamni ancha to'g'ri (batafsil) ifodalaydi.	The purpose represents the world more precisely.
Ko'nikma Snorovka Skill	Insonning ilgarigi tajribalari asosida muayyan faoliyat yoki harakatni amalga oshirish qobiliyati	On the basis of the person of the previous experience ability to perform a certain activity or operation.
Malaka Navik Skill	Avtomatlashgan, o'rganib qolingan harakatdir	Got used to automated the movements.
Tashkil etish Organizovat Organize	qo'yilgan maqsadni yaxshi amalga oshirish jarayoni	process of realization is more whole.
Shakl Forma form	O'quv jarayonining mavjudlik usuli, uning ichki mohiyati, mantiqi, mazmuni uchun qobiq.	The essence of educational process is a method of his internal logic, the maintenance of a cover.

Usul **Metod** **Method**	O‘qitishning maqsad va vazifalariga erishish yo‘li	Way to achievement of effective objectives and tasks of training
Uslubiyot **Metodika** **Technique**	qat’iy ketma – ketlikka va tizimga rioya qilish	it is strict to observe the sequence and system
Metodologiya **Metodologiya** **Methodology**	Kishining maqsadga erishishidagi qoidalar majmui	One set of rules for achievement of goals
Natija **Rezultat** **Result**	Dars mashg‘ulotlari jarayonida rejalashtirilgan xulosaga kelish	It is planned to finish in the course of training
Qobiliyat **Sposobnost** **Ability**	Kishining biror-bir faoliyatga yaroqliligi	Any activity, suitability
Pedagogik qobiliyat **Pedagogicheskaya sposobnost** **Pedagogical ability**	Kishining pedagogik faoliyatga yaroqliligi	His pedagogical activity of suitability
Texnologiya **Texnologiya** **Technology**	San’at va mahorat	Art and skill
Pedagogik texnologiya **Pedagogicheskaya texnologiya** **Pedagogical technology**	Ta’lim va tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash	Use of modern pedagogical technologies in educational process and process of training
Innovatsiya **Innovatsiya** **Innovation**	Yangilik, yangilik kiritish	Innovation
Mahorat **Masterstvo** **skill**	Bir necha yillar davomida shaklllangan va rivojlangan tajribalar	In several years, formation and development of experience
Ma’ruza **Leksiya** **lecture**	Yirik hajmdagi o‘quv materialini og‘zaki bayon qilish shakli	To explain a large number of a training material in an oral form
Pedagogik texnika **Pedagogicheskaya**	O‘qituvchining o‘z xatti-harakatlarini boshqarishga aytiladi	The teacher has told to control the actions

Texnika Pedagogical equipment		
Pedagogik odob Pedagogicheskoe prilichie Pedagogical decency	O‘qituvchining muloqotni ijobiy hissiyotlar asosida qurishi	Dialogue with the teacher, on the basis of positive emotions
Pedagogik nazokat Pedagogicheskaya delikatnost Pedagogical sensitivity	Psixologik his-tuyg‘ulari, milliy xarakter xususiyati, xulq, faoliyat, muomala qoidalari, qonuniyatlari va ko‘nikmalaridan me’yoriy ravishda foydalanish	Psychological feelings, feature of national nature, behavior, transaction, handling of rules, laws and standard skills
Kasb Professiya Profession	Muayyan bilim va mahorat talab etadigan mehnat faoliyatining bir turi	Kind of activity which demands special knowledge and skills in the field of work
Kasbiy tayyorgarlik Professionalnaya pogotovka Professional pogotovka	Muayyan sohada kasbiy faoliyat ko‘rsatishga imkon beradigan maxsus bilim, ko‘nikma va malaka	To allow some operations in the field of professional knowledge, skills and qualification
Kichik mutaxassis Mladshiy spesialist Younger	O‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi muassasalari bitiruvchilariga beriladigan malaka darajasi	Taking into account graduates of secondary professional education of qualification
Ixtisoslik Spesialnost Speciality	Birorta kasb doirasidagi maxsus tayyorgarlik	Any special skills of a profession in limits
Kasbiy mahorat Professionalnoe masterstvo Professional skill	Ishlarni bajarish sifati	Quality of performance of work
Kompetentlilik Kompetentnost Competence	Kasbiy tayyorgarlik, kasbiy va shaxsiy sifatlar jamlanmasi	The vocational training, professional and personal qualities established
Tizim Sistema System	Yaxlitlik, bir butunlik	Honesty, integrity
Pedagogika Pedagogika Pedagogika	Bola tarbiyalovchi	education of the child
Pedagogik talab Pedagogicheskoe trebovanie	Muayyan faoliyat jarayonida ishtirok etishda o‘quvchi amal qilishi zarur bo‘lgan	Some students have to address to be a part of process of social norms

Pedagogical requirement	ijtimoiy xulq-atvor me'yorlari	of behavior
Tarbiya Vospitanie education	Ma'lum maqsadga qaratilgan amaliy jarayon	Purposeful process
Tarbiya mazmuni Soderjanie vospitaniya Content of education	Shaxsning shakllanishiga qo'yiluvchi ijtimoiy talablar mohiyati	Formation of the person on the nature of social requirements
Loyihalashtirish Proektirovanie Design	Rejalashtirish	Planning
Kreativ Kreativ Creative	Ijodkorlik	Creative
Refleksiya Refleksiya Reflektion	Ortga qaytish	Back
Individuallik Individualnost	Insondagi o'ziga xoslik	Identity of the person
Tahlil qilish Analiz Analysis	Materiallarni qismlarga ajratish	Materials components
Sintezlash Sintezirovanie Synthesizing	Aloxida-aloxida materiallarni umumlashtirish, yaxlitlash	Finish separately materials
Baholash Otsenivanie Ottsenivaniye	Natijalar bilan maqsadni qiyoslash	To compare results
Aqliy tarbiya Umstvennoe vospitanie Intellectual education	Insonning atrof-olamni bilishga bo'lgan qarashlar tizimidir	To learn about the world of system of ecological vision
Jismoniy tarbiya Fizicheskoe vospitanie Physical training	Sihat-salomatlikni mustahkamlash	Good health
Rivojlanish Razvitie Development	Shaxsning fiziologik va intellektual o'sishidagi miqdor va sifat o'zgarishlar	Changes of quantity and quality of physical and intellectual human height
Insonparvarlashtirish Gumannost Humanity	Inson omilini xurmat qilish	Respect for a human factor

Uzluksizlik Neprerivnost Continuity	Ish harakat usullarini belgilangan qaqt davomida berish	Methods to try to work during the certain period of time
Tashkilotchilik Organizatorstvo Organizatorstvo	O‘quvchilarni jipslashtirish	students to combine
Tadqiqotchilik Issledovateltsvo researcher	Pedagogik vaziyat va jarayonlarni bilish	Pedagogical conditions and information processes.
Kasbiy potensial Professionanыy potensial Professionany potential	Kasbiy imkoniyat	professional opportunities
Nazorat Kontrol Monitoring	Tekshirish	Survey
Reyting Reyting Rating	Baholash, tartibga keltirish, klassifikatsiyalash	Assessment of an arrangement, classification.
Integratsiya Integratsiya Integration	Gibritlashgan, qo‘shma mazmunli, muvofiqlashtirish	Hybrid, considerable joint coordination
Ta’limda integratsiya Integratsiya v obrazovanii Integration in education	Kichik mutaxassisning kasbiy tayyorgarligida o‘ta muhim va o‘quvchilarni ijodiy kamolot sari yo‘naltiruvchi mexanizmdir	Vocational training is very important also art perfection, the handbook for students.
G‘oyaviy yo‘nalganlik Ideologicheskaya napravlennost Ideological orientation	Zamon talablariga hamnafas, chuqur g‘oyaviylikka ega bo‘lish	Present, deep ideas
Boshqaruv Upravlenie Management	Jamiyatga xos bo‘lgan ichki xususiyat	Society has the built-in function
Kommunikatsiya Kommunikatsiya Communication	lotincha, communicatio-umumlashtiraman, bog‘layman	Latin compromise of communicatio-tie
Muloqot Obщenie Dialogue	Axborot almashish jarayoni	Process of exchange of information
Pedagogik takt Pedagogicheskiy takt	O‘qituvchining o‘quvchiga maqsadga muvofiq pedagogik ta’sir o‘lchovi	The measure influences the purpose of student teaching of the teacher

Pedagogical step		
Tovush parvozi Polet zvuka Flight of a sound	Tovushning uzoq masofaga uzatilishi	Sound transmission on long distances
Diapazon Diapazon Range	Tovush xajmi	Sound volume
Tembr Tembr timbre	Tovush rangdorligi	timbre
Generator Generator Generator	Ovoz paylari shovqin va tonlarni farqlaydi	Distinguishes them from noise and tones up muscles
Rezonator tizimi Sistema rezonatora System of the resonator	Ovozning kuchini (statikasini) va dinamikasini ta'minlaydi	Level of sound power (static) and dynamic.
Energetika tizimi Sistema energetiki System of power	O'pkadan kelayotgan kuchli nafasning miqdori va tezligini ta'minlaydi	Quantity strong breath frequency lungs
Diksiya Diksiya Diction	Aniq talaffuz qilish	You speak accurately
Suhbat Beseda Conversation	Savol va javob shaklidagi dialogik ta'lim metodi	Way of education in the form of questions and answers of dialogue.
Ishlab chiqarish Proizvodstvo Production	Kadrlarga bo'lgan ehtiyojni, shuningdek, ularning tayyorgalik sifati va saviyasiga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilaydigan asosiy buyurtmachi	The need for personnel, and also the level and quality prepared their main requirements of the customer.
Ma'naviyat Duxovnost Spirituality	Insonning ruhiy va aqliy olamini ifodalovchi tushuncha	Representing the world of spiritual and intellectual understanding of the person.
Ma'rifat Enlightenment	Kishilarning ongini, bilimini, madaniyatini oshirishga qaratilgan ta'lim-tarbiya	National consciousness, knowledge, culture of education and vocational training.
Madaniyat Kultura	Jamiyat , inson ijodiy kuch va qobiliyatlari tarixiy taraqqiyotining muayyan	Society, historical development of creative strength of the person and

Culture	darajasidir	ability to some extent.
Axloq **Nravstvennost** **Morality**	Shaxst xatti-harakatini tartibga soluvchi xulḱ-atvor mezonlari yig‘indisi	Personal actions of the sum of criteria of efficiency of regulation of behavior.
Kategoriya **Kategoriya** **Category**	fanning mohiyatini ochib beruvchi eng muhim, asosiy tushuncha	basic understanding of the most important essence of science.
Ilmiy dunyoqarash **Nauchnoe mirovozzrenie** **Scientific outlook**	Uzluksiz, izchil ravishda mavjud fanlar asoslarini puxta o‘zlashtirib borish	Continuous, and gradually mastered fundamentals of sciences.
Ijtimoiylashuv **Sotsializirovatsya** **Socialize**	Ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishi asosida shaxsning hayot va ishlab chiqarish jarayoniga moslashuvi	The social relations on the basis of active participation in process of human life and adaptation to production.
O‘quv dastur **Uchebnaya programma** **Training program**	Muayyan o‘quv fani bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalar mazmuni, umumiy vaqtning mavzularni o‘rganilishi bo‘yicha taqsimlanishi, mavzularning ketma-ketligini belgilash hamda ularning o‘rganilish darajasini yorituvchi me’yoriy hujjat	Special preparation in a subject of knowledge, skills of content, the general time for studying of a subject of distribution to define the sequence of questions and their level of the researches showing the legal document.
O‘quv rejasi **Uchebniy plan** **Curriculum**	Ta’lim muassasida o‘qitiladigan o‘quv fanlarining tartibi, ularning o‘quv yili bo‘yicha taqsimlanishi, har bir o‘quv faniga ajratiladigan haftalik va yillik o‘quv soatlari, shuningdek, o‘quv yili tuzilishini belgilovchi me’yoriy hujjat	Order of establishment of educational sciences, distribution of academic year, each of which is devoted to teaching science week and annual hours of training, and also the values specified in structure of academic year.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

"TASDIQLAYMAN:"
GulDU o'quv ishlari
bo'yicha prorektor
_____ J.X.Karshiboyev
«30» 08 2022-y.
№ 2-12.-2019
B-5150600

KASBIY PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA

fani bo'yicha
ISHCHI O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	**100 000 – Gumanitar soha**
Ta'lim sohasi:	**150 000 – San'at**
Ta'lim yo'nalishi:	5150600 – Vokal san`ati
	5150700 – Cholg'u ijrochiligi

Umumiy o`quv soati	– 64 soat
Shu jumladan:	
Ma`ruza	– 22 soat (7-semestr - 18 soat, 8-semestr 4-soat)
Seminar mashg`uloti	– 22 soat (7-semestr - 18 соат, 8-semestr 4-soat)
Mustaqil ta`lim	– 20 soat (7-semestr - 16 soat, 8-semesrt 4 soat)

Guliston – 2022

Fanning ishchi o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi 2020-yil “29” avgustdagi ___buyrug‘i bilan (BD-5111000-2.19) tasdiqlandi “Kasbiy pedagogika va psixologiya” fan dasturi asosida tayyorlangan.

Fan ishchi o`quv dasturi « Pedagogika» kafedrasining 2022 yil 26 –avgustdagi yig`ilishida muhokama qilinib, tasdiqlash uchun tavsiya etilgan. (1-sonli bayonnoma).

Fan ishchi o`quv dasturi « Pedagogika» kafedrasi Kengashining 2022-yil “27” avgustdagi yig`ilishida muhokama qilinib, tasdiqlash uchun tavsiya etilgan (1-sonli bayonnoma).

Fan dasturi Guliston davlat universiteti Kengashining 2022-yil “30” avgust dagi 1-sonli bayoni bilan tasdiqlangan.

Tuzuvchi: Sh.Ibragimova GulDU pedagogika kafedrasi o`qituvchisi.

Taqrizchilar: D.Toshtemirov GulDU “Pedagogika ” kafedrasi mudiri. Pedagogika fanlari nomzodi, dosent.

Pedagogika fakulteti dekani: J.Komilov

Pedagogika”kafedrasi mudiri:_____D.Toshtemirov

GulDU O’quv-uslubiy bo’lim boshlig’i: _____I.Xudoyberdiyev

Fan/modul' kodi UMPED2029	O'quv yili 2022-2023	Semestr 5	EST8 - Kredizlar 4
Fanning nomi	**Auditoriya mashg'ulotlari (soat)**		**Mustaqil ta'lim (soat)**

	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
1.	**KASBIY PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA**	**44**	**20**	**64**

2.

I. Fanning mazmuni

Fanni o'qitishdan maqsad – tayyorlangan mutaxassislarimizda pedagogic bilimlar, uslubiy ko`rsatmalar berish bilan birgalikda jamiyatda mavjud bo`lgan turli kasblar haqida ham keng qamrovli bilimlar berish.

Fanning vazifasi–kasbiy pedagogika orqali shakllanayotgan mutaxassislarda kasbga oid nazariy bilimlar, amaliy ko`nikmalar va malakalar shakllantirib borilishi nazarda tutilgan. Kasbiy pedagogika fanida talabalarga kasb-hunar egalashning ijtimoiy-tarixiy va metodologik muammolari, buyuk ajdodlarimizning kasb haqidagi fikrlari, uning tadqiqot metodlari, kasb tanlashga yo`llashning psixologik mohiyati, professiografiya, kasb va shaxs masalalari, reorientatsiya-psixologik muammo sifatida va boshqa ma`lumotlar beriladi.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

1- **mavzu. "Kasbiy pedagogika" fan sifatida, kasbiy ta'lim pedagogikasining shakllanishi va rivojlanishi.** Kasbiy pedagogika fanining maqsad va vazifalar. Kasbiy pedagogikaning asosiy tushunchlari: kasbiy ta`lim, kasbiy tayyorgarlik, kasbiy tarbiya, kasbiy mahorat, kasbiy ta`lim pedagogikasi fanining boshqa fanlar bilan aloqalarini o`rganish. O`rta Osiyo mutafakkirlari kasbiy ta`lim haqida. X-XII va XIV-XVI-asrlarda kasbiy ta`lim. Kasbiy ta`lim tizimida milliy

	islohatlar yo`nalishlarining mohiyati, ta`limiy O`zbekiston xalqlari madaniyati bilan boyitilgan milliy tarix, milliy an`an ava odatlar bilan uzviy bog`liqligi, boshqa xalqlar madaniyati va tarixiga hurmat uyg`otishning muhim vositasi sifatida tan olinishi. 2- **mavzu. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimini islohatlari, kasbiy ta'limning dolzarb pedagogik muammolari.** Ta`lim tizimi islohotlarini muvoffaqiyatli amalga oshirish shart-sharoitlari: milliy pedagogik me`rosga tayanish, yangi maqsad va vazifalarini aniq belgilab olish, bosqichma-bosqich amalga oshirish. Ta`lim tizimi islohotlarining mohiyati, ochiqlik, jamiyatining talablarga javob berish jahon kasb va ta`lim bozorida samarali faoliyat yuritish va raqobat qila olish. Uzluksiz ta`lim tushunchasi, tizimi. Kasbiy ta`lim turi va tizimi. Kasbiy ta`lim rivojlantirishning asosiy omillari. Uzluksiz , kasb-hunar ta`limi tizimida o`rta maxsus ta`limning o`rni va ahamiyati. **3- mavzu. O'zbekiston Respublikasi kadrlar tayyorlash milliy modelining o'ziga xosligi, ta'limni standartlashtirish. O'rta maxsus ta'limi mazmuni maqsad va vazifalari.** O`zbekiston respublikasi yangi Davlat ta`lim siyosatining tamoyillari. O`zbekiston respublikasining "ta`lim to`g`risida" gi qonuni va unda har tomonlama barkamol va malakali mutaxassislarni tarbiyalab voyaga etkazish jarayoni mohiyatining to`loaqonli ochib berganligi haqida. Iste`dodi va qobiliyati, iqtidorli o`quvchilarning xarakteri va individual xususiyatlariga ko`ra toifalarga bo`linishi. DTS maqsadi funksiyalari, vazifalari va tamoyillari unga qo`yilgan talablar.bozor munosabatlariga o`tish sharoitlarid kasbiy ta`lim sifatiga talablar. Ta`lim sifatini nazorat qilish. Ta`lim sifatini baholash tushunchalari, talabalarda maktabdan tashqari va o`rta maxsus ta`limini tashkil etishva boshqarish, ushbu jarayonlarda ta`lim sifatini ta`minlash borasidagi bilim, ko`nikma va malakalarini shakllantirish. **4- mavzu. O'zbekistonda kasbiy ta'lim tizimlarining qiyosiy tahlili (chet el tajribasi sifatida)** O`zbekistonda kasb ta`limi tizimi va uning chet el kasb ta`lim tizimlari bilan qiyosiy o`rganilganligi. Germaniyada kasb ta`lim tizimi. Germaniyada kasbiy ta`limning tuzilmasi. Daniyada oliy ta`lim tizimi gretsiyadagi oliy ta`lim tizimi. Xususiy oliy o`quv yurtlarini tashkil qilish. Davlat tasarrufidagi oliy o`quv yurtlari mazmuni va mohiyati. Chet elga kasbga yo`naltirish ishlari haqida umumiy ma`lumot. Fransiyada ta`lim tizimi.fransuz bakalavriyati va magistraturasi haqida tushuncha.

5- mavzu. O'rta maxsus ta'lim bitiruvchilarini ishlab chiqarishiga moslashuvi. Kasb pedagogikasining didaktik printsiplari. Kichik mutaxassis va yuqori malakali xodimlarni tayyorlashning nazariy asoslarining mohiyati va vazifalari. Kichik mutaxassislar va yuqori malakali xodimlarni tayyorlashda tarbiya, ta`lim usullari va turlarining o`ziga xos xususiyatlari. Buyuk allomalarning mehnat ta`lim tarbiyasi haqida bildirgan fikrlari tajribalari. Texnologik bilimlarning mazmun mohiyati. Texnologik bilimlarning uzluksizligi, va uning ahamiyati. Kasb –hunar ta`lim jarayonlari tahlili va asosiy didaktik tushunchalar. Didaktika haqida ma`lumot. Didaktikaning predmeti va asosiy vazifalari. Didaktik kategoriyala. Ta`lim-bilish faoliyatida voqelikni bilishning maxsus shakli ekanligi, ta`lim qonuniyatlari,, kasb-hunar ta`limida umumdidaktik tamoyillar, onglilik va faollik, ta`lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari va ularni kasb-hunar ta`limiga qo`llash.

6- mavzu. Kasbiy pedagogikada qo'llaniladigan ilmiy tadqiqot metodlari shakllari va vositalari. Kasb ta`limining asosiy tushunchalari, kasb ta`limining metodologik asoslari. Kasb-hunar ta`limining o`quv me`yoriy hujjatlari. Kasbiy pedagogikada qo`llaniladigan ilmiy tadqiqot metodlari, o`qitish jarayonida tarbiyalanuvchiga shaxs sifatida qaralishi ilmiy tadqiqot ishlarini olib boorish o`qishga, fanga o`zi tanlaga kasbiga bo`lgan qiziqishlarini kuchaytirish.

7-mavzu. O'qituvchining pedagogik faoliyati va kasbiy mahorati, ta'lim jarayonini tashkil etishda innovatsion texnologiyalar. O`quvchinig o`quvchilarni bilish (anglash) faoliyatini boshqarishdagi mahorati. Dars mazmunini o`quvchilar tomonidan o`zlashtirib olinishiga yordam beruvchi jihatlar ularning qiziqlarini oshirish. O`qituvchi faoliyatida ko`tarinki ruh, yaxshi kayfiyat hosil qilish. O`quvchilarning mustaqil ishlashlarini tashkil etishda o`qituvchining mahorati. O`quvchilarning yakka, guruhli va jamoaviy faoliyatlarini boshqarish. Texnik vositalarni tanlash va ishlatish. Musiqa va san`atga ixtisoslashtirilgan maktab va maktab internatlarida o`qitishni tashkil etishning zamonaviy usullari. Pedagogic texnologiya haqida ma`lumot, uning turlarikasbiy fanlarni o`qitishda ilg`or pedagogic texnologiyalarni qo`llashning ahamiyati.

8- mavzu. Kasbiy psixologiya fanining predmeti, kasblar va ularning klassifikatsiyasi. Kasbiy psixologiya fanining predmeti maqsadi va vazifalari, kasb psixologiyasi shakllanish tarixi, kasb psixologiyasining boshqa fanlar bilan

bog`liqligi. Kasb psixologiyasining amaliy asoslari, kasb psixologiyasi mutaxassislik fani sifatida. Kasb tushunchasi. Shaxs qiziqishlari va kasb. Kasblarni psixologik tizimlash professiografiyaning mohiyati va uning asosiy tamoyillari professografik tadqiqotlarni o`tkazish. Professografiyaning mohiyati, uning yuzaga kelish tarixi va takomillashtirish uning tuzilishi. Psixogramma tushunchasi. Professogramma haqida tushuncha.

9-mavzu. Shaxs psixologiyasi va kasbiy shakllanish, idrok va kasbga yo'naltirish. Shaxsning biogenetic va sotsiogenetik nazariyalari. Shaxs faolligi. Kasbiy shakllanish tarixi, determinatsiyasi. Shaxsning kasbiy rivojlanishining bosqichlari. Idrok xususiyatlari. Appertseptsiya. Vaqt, harakat va fazoni idrok qilish. Idrokning konstantligi. Kasbga yo`llashda idrok qonuniyatlarini hisobga olish.

10-mavzu. Xotira va kasbiy maslahat. Qobiliyatlar va shaxsning kasbiy shakllanishi. Xotira turlari. Xotira jarayonlari. Xotira tiplari kasbiy maslahatda xotira qonuniyatlarini hisobga olish. Qobiliyat va ularning tabiiy asoslari. Qobiliyatlarning rivojlanishi. Shaxs faolligi va qobiliyatlar. Shaxsning kasbiy shakllanishi va qobiliyatlar.

11-mavzu. Temperament va kasbni egallash masalalari, shaxsni kasbiy kamoloti. Temperament hususiyatloari. Temperament tiplari. Faoliyatning individual uslubi temperament va kasbiy malakalarni egalash. Xarakter va kasbiy sifatlarxarakter tipologiyasi, xarakter aktsentsituatsiyasi. Xarakterni shakllanishi. Xarakterni kasbiy sifatlari, uning bosqichlari. Shaxsning kasbiy o`zligini anglashi. Shaxsni o`z –o`ziga baho berishi va kasbiy o`zlikni anglash. Kasbiy kamolotdagi shaxsning kasbiy motivlari. Kasbiy o`zlikni anglashdagi ziddiyatlar.

Ma`ruza mashg`ulotlarini soatlarda taqsimlanishi

№	Ma'ruza mavzusi	Darsga ajratilgan soatlar
1.	"Kasbiy pedagogika" fan sifatida, kasbiy ta'lim pedagogikasining shakllanishi va rivojlanishi.	2
2.	O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimini islohatlari, kasbiy	2

		ta'limning dolzarb pedagogik muammolari.	
	3.	O'zbekiston Respublikasi kadrlar tayyorlash milliy modelining o'ziga xosligi, ta'limni standartlashtirish. O'rta maxsus ta'limi mazmuni maqsad va vazifalari.	**2**
	4.	O'zbekistonda kasbiy ta'lim tizimlarining qiyosiy tahlili (chet el tajribasi sifatida)	**2**
	5.	O'rta maxsus ta'lim bitiruvchilarini ishlab chiqarishiga moslashuvi. Kasb pedagogikasining didaktik printsiplari.	**2**
	6.	Kasbiy pedagogikada qo'llaniladigan ilmiy tadqiqot metodlari shakllari va vositalari.	**2**
	7.	O'qituvchining pedagogik faoliyati va kasbiy mahorati, ta'lim jarayonini tashkil etishda innovatsion texnologiyalar.	**2**
	8.	Kasbiy psixologiya fanining predmeti, kasblar va ularning klassifikatsiyasi.	**2**
	9.	Shaxs psixologiyasi va kasbiy shakllanish, idrok va kasbga yo'naltirish.	**2**
	10.	Xotira va kasbiy maslahat. Qobiliyatlar va shaxsning kasbiy shakllanishi.	**2**
	11.	Temperament va kasbni egallash masalalari, shaxsni kasbiy kamoloti.	**2**
		Jami	**22**

3.

III.Seminar mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Kasbiy pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi. Sharq mutafakkirlarining kasb –hunarga oid qarashlari va ilg`or tajribalar.
2. O`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi mazmuniga qo`yiladigan talablar, O`zbekistonda ta`lim jarayoni mohiyati va mazmuni.
3. Kasbiy ta`lim rivojlanishining asosiy omillari. Uzluksiz ta`lim turlari.

Zamonaviy ta`limni tashkil etishga qo`yilgan talablar.

4. Ta`lim muassasalari, musiqa va san`atga ixtisoslashtirilgan maktab va maktab internatlar tushunchalari, ta`lim uzluksizligi, o`rta maxsus ta`limini tashkil etishdagi asosiy normativ hujjatlar.
5. Ta`lim jarayonida kichik mutaxassislarni tayyorlashga qo`yilgan talablar. Kasbiy ta`limi bo`yicha xorijiy tajribalar.
6. Ishlab chiqarish jarayonlarining o`ziga xos xususiyatlari. Kichik mutaxassislarning ishlab chiqarishga moslashuvi.
7. Ta`limning asosiy tamoyillari va ularni kasb-hunar ta`limida qo`llash. Ta`lim metodlari va vositalari.
8. O`qituvchining pedagogik muloqot uslubi. Kasbiy faoliyat. Faoliyat turlari.
9. O`qituvchining ta`lim jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo`llay olish mahorati. Kasb-hunar ta`limini rejalashtirish.
10. Ta`lim mazmuni. O`quv rejalari, dasturlari. Kasb-hunar kollejlarida o`quvchilar bilim, ko`nikma va malakalarini nazorat qilish va baholash.
11. Kasb-hunar ta`limida o`quvchilarni tarbiyalash tizimi. Ta`limda interfaol metodlar, ularni ta`lim jarayonida qo`llash.

Seminar mashg`ulot mavzularining soatlarda taqsimlanishi

№	Seminar mavzusi	Darsga ajratilgan soatlar
1.	Kasbiy pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi. Sharq mutafakkirlarining kasb –hunarga oid qarashlari va ilg`or tajribalar	**2**
2.	O`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi mazmuniga qo`yiladigan talablar, O`zbekistonda ta`lim jarayoni mohiyati va mazmuni	**2**
3.	Kasbiy ta`lim rivojlanishining asosiy omillari. Uzluksiz ta`lim turlari. Zamonaviy ta`limni tashkil etishga qo`yilgan talablar.	**2**

	4.	Ta`lim muassasalari, musiqa va san`atga ixtisoslashtirilgan maktab va maktab internatlar tushunchalari, ta`lim uzluksizligi, o`rta maxsus ta`limini tashkil etishdagi asosiy normativ hujjatlar.	**2**
	5.	Ta`lim jarayonida kichik mutaxassislarni tayyorlashga qo`yilgan talablar. Kasbiy ta`limi bo`yicha xorijiy tajribalar.	**2**
	6.	Ishlab chiqarish jarayonlarining o`ziga xos xususiyatlari. Kichik mutaxassislarning ishlab chiqarishga moslashuvi.	**2**
	7.	Ta`limning asosiy tamoyillari va ularni kasb-hunar ta`limida qo`llash. Ta`lim metodlari va vositalari.	**2**
	8.	O`qituvchining pedagogik muloqot uslubi. Kasbiy faoliyat. Faoliyat turlari.	**2**
	9.	O`qituvchining ta`lim jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo`llay olish mahorati. Kasb-hunar ta`limini rejalashtirish.	**2**
	10.	Ta`lim mazmuni. O`quv rejalari, dasturlari. Kasb-hunar kollejlarida o`quvchilar bilim, ko`nikma va malakalarini nazorat qilish va baholash.	**2**
	11.	Kasb-hunar ta`limida o`quvchilarni tarbiyalash tizimi. Ta`limda interfaol metodlar, ularni ta`lim jarayonida qo`llash.	**2**
		Jami	**22**

4.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Pedagogic jarayonning mohiyati va tuzilishi.
2. Kasb ta`limi muassasalarida axloqiy tarbiya muammosi

3. Kasb ta`limining tarbiyaviy xususiyati. Kasbga yo`naltirishning tarbiyaviy ahamiyati.
4. Uzluksiz ta`lim tizimini isloh qilishning tashkiliy, ilmiy va metodik asosidir.
5. Yoshlarni kasbga yo`naltirishning nazariy shart-sharoitlari.
6. Ta`limni rivojlantirishning yangi bosqichida pedagogic texnologiya muammolari. Ta`lim jarayonidagi muammoli vaziyatlar.Ta`limni rivojlantirishning yangi bosqichida pedagogic texnologiya muammolari.
7. Talaba yoshlarda ma`naviy –axloqiy odatlarni tarbiyalashning vazifalari.
8. Ta`lim tizimini boshqarish va unga rahbarlik qilishning asosiy qoidalari.
9. Mehnat va kasb ta`limiga oid metodik ishlarni tashkil etish va ularning vazifalari.
10. O`quvchi-yoshlarda mehnat va kasb ehtiyojini shakllantirish omillari. O`quvchilarda mehnat madaniyatini shakllantirish.O`quvchilarda mehnat madaniyatini shakllantirish.

Tavsiya etilayotgan Mustaqil ish mavzulari bevosita talabalar tomonida bajarilib, uning nazorati tanlangan mavzu bo`yicha ma`ruza qilish, barcha talabalar ishtirokida o`zaro savol javoblar hamda talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

№	Mustaqil ta’lim mavzusi	Darsga ajratilgan soatlar
1.	Pedagogik jarayonning mohiyati va tuzilishi.	2
2.	Kasb ta`limi muassasalarida axloqiy tarbiya muammosi	2
3.	Kasb ta`limining tarbiyaviy xususiyati. Kasbga yo`naltirishning tarbiyaviy ahamiyati.	2
4.	Uzluksiz ta`lim tizimini isloh qilishning tashkiliy, ilmiy va metodik asosidir.	2

5.	Yoshlarni kasbga yo`naltirishning nazariy shart-sharoitlari.	**2**
6.	Ta`limni rivojlantirishning yangi bosqichida pedagogic texnologiya muammolari. Ta`lim jarayonidagi muammoli vaziyatlar.	**2**
7.	Talaba yoshlarda ma`naviy –axloqiy odatlarni tarbiyalashning vazifalari.	**2**
8.	Ta`lim tizimini boshqarish va unga rahbarlik qilishning asosiy qoidalari.	**2**
9.	Mehnat va kasb ta`limiga oid metodik ishlarni tashkil etish va ularning vazifalari.	**2**
10.	O`quvchi-yoshlarda mehnat va kasb ehtiyojini shakllantirish omillari. O`quvchilarda mehnat madaniyatini shakllantirish.	**2**
	Jami	**20**

Fan bo‘yicha kurs ishi. Fan bo‘yicha kurs ishi rejalashtirilmagan

Asosiy va qo‘shimcha o‘quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari

1. Azizxo‘jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. (O‘quv qo‘llanma),Toshkent., 2003.
2. Abduqudusov O.A. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish muammolari. (Uslubiy qo‘llanma) – T.: O‘MKHTRI, 2002. – 62 b.
3. Abduqudusov O.A. Kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlashga integrativ yondashuv. (Uslubiy qo‘lanma) T.: Fan, 2005. – 160 b.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. «Ta’lim to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni. – T.: Sharq, 2001. Oliy ta’lim me’yoriy hujjatlari, 3-18 b.
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. – T.: Sharq, 2001. Oliy ta’lim me’yoriy hujjatlari, 18-52 b.
3. V.A.Slastenin, I.F.Isayev, A.I.Mishenko, E.N.Shiyanov. «Pedagogika» Moskva. «Shkolnaya pressa». 2004.
4. Shodmonova Sh, Xoshimova M, Fayzullaeva N. “Tarbiyaviy ishlar uslubiyoti”. (O‘quv qo‘llanma) - T.: TDIU,2007, 178 b.
5. Shodmonova Sh, Tilabova N. “Tarbiyaviy ishlar uslubiyoti” kursi bo‘yicha ta’lim texnologiyasi. (Uslubiy qo‘llanma) ”Iqtisodiy tarbiyadagi o‘qitish texnologiyasi seriyasidan”.-T.:TDIU, 2006-220

Internet saytlar:

1. www. ziyonet.uz
2. www.tdpu.uz
3. www.pedagog.uz
4. www.psixologi.uz
5. www.nutq.intal.uz
6. www.psixologi.net.ru

TARQATMA MATERIALLAR

Siz tinglashni bilasizmi?

Quyidagi savollarga tegishli variant bilan javob qaytaring.
Deyarli doim - 2 ball
Ko’pincha - 4 ball
Ba’zan – 6 ball
Kamdan kam – 8 ball
Deyarli hech qachon – 10 ball

Savollar.

1. Suhbat mavzusi sizga sira qiziq bo’lmasa, uni tugatishga harakat qilasizmi?
2. Suhbatdoshingizning bachkana qiliqlari g’ashingizni keltiradimi?
3. Suhbatdoshingizning qandaydir gapi yoki harakati sizni qo’pollikka majbur qilishi mumkinmi?
4. Notanish yoki yaxshi tanish bo’lmagan odam bilan suhbatlashishdan qochasizmi?
5. Suhbatdoshingizning gapini bo’lish odatingiz bormi?
6. Suhbat davomida boshqa narsalar bilan mashg’ul bo’lsangiz ham o’zingizni tinglayotganday ko’rsatishga harakat qilasizmi?

7. Suhbatdoshingiz kimligiga qarab yuz ifodangizni, ovozingiz ohangini o'zgartirasizmi?
8. Suhbat siz uchun yoqimsiz mavzu haqida bo'lsa, mavzuni almashtirishga harakat qilasizmi?
9. Suhbatdoshingiz birorta so'zni noto'g'ri, xato talaffuz etsa, uni tuzatishga harakat qilasizmi?
10. Suhbatdoshingizga nisbatan pastroq nazar bilan qarash holatlaringiz bo'lib turadimi?

Natijalarni qayta ishlash:

Ballar yig'indisi 62 dan ortsa, tinglash ko'nikmalarining rivojlanish darajasi o'rtachadan yuqori bo'ladi. O'rtacha daraja – 55 ball.

Metodika manbasi: Rogov Ye.I. Nastolьnaya kniga prakticheskogo psixologa: Uchebnoe posobie: V 2kn – 3 – ye izd. – M.: Gumanitar izd. Sentr VLADOS. 2000 . – Kn. 2. Rabota psixologa. Korrektsionnыe priyomы i uprajneniya . 60 - 61 betlar.

O'quv motivatsiyasining yo'nalganligini tashxis qilish metodikasi.

Metodika haqida ma'lumot. Test – so'rovnoma shaklidagi mazkur metodika muayyan fanlarni o'rganishga qaratilgan o'quv faoliyati motivatsiyasining yo'nalganligini va ta'lim oluvchi shaxs ichki motivatsiyasining darajasini o'lchash uchun xizmat qiladi. Ushbu metodika ta'lim oluvchilarning barcha guruhlari bilan (12 yoshdan boshlab) – o'z – o'zini tahlil qilishga va o'zi haqida xulosa chiqarishga qodir bo'lgan har qaysi ta'lim oluvchi inson bilan o'tkazilishi mumkin.

Metodika T.D. Dubovitskaya tmonidan tuzilgan bo'lib, uning stimul materiali 20 ta ta'kiddan iborat. Mazkur ta'kidlar bo'yicha tekshiriluvchilar ma'lum fanlarga nisbatan o'z munosabatini bildirib, maxsus javob varaqasi (1 - jadval) ning muayyan ustun va startlarida tegishli belgilarni qo'yadilar: «to'g'ri» - (+ +); «to'g'ri, shekilli» - (+); «noto'g'ri, shekilli» - (+); «noto'ri, shekilli» - (-); «noto'g'ri» - (- -).

Javob raqasi

Fakultet (maktab)_____

kurs (sinf) _____jinsi_____

	O`rganilayotgan fani			
	Pedagogia	Psixologiya	…	…
1				

2				
…				
19				
20				
Qanday fanlarning tanlashi eksperimentator ixtiyorida				

Ta'kidlar.

1. Ushbu fanni o'rganish orqali o'zim uchun ko'p kerakli narsalarni o'rganib olayapma, o'z qobiliyatlarimni namoyish etish imkoniyatiga ega bo'lib turibman.
2. Bu fan menga qiziq va men shu fan yuzasidan imkon qadar kuproq narsa bo'lishni xohlayman.
3. mazkur fanni o'rganishimizda menga menga darsda beriladigan bilimlarning o'zi kifoyadir.
4. Ushbu fan bo'yicha beriladigan topshiriqlar menga qiziq emas, men ularni o'qituvchi talab qilgani uchungina bajaraman.
5. Bu fanni o'rganishda oldimda paydo bo'luvchi qiyinchiliklar fanga bo'lgan qiziqishimni yanada orttirib yuboradi.
6. Mazkur fanni o'rganishda darslik va tavsiya etilgan adabiyotlardan tashqari mustaqil ravishda qo'shimcha adabiyotlar bilan tanishib boraman.
7. Ushbu fanga tegishli murakkab nazariy masalalarni o'rganmasa ham bo'ladi, deb hisoblayman.
8. Bu fanni o'rganishda biror ishning uddasidan chiqolmasa, men muammoning tagiga yetishga harakat qilaman.
9. Mazkur fandan dars o'tilganda negadir umuman o'qishni istamay qolaman.
10. Ushbu fan yuzasidan beriladigan topshiriqlar ustida faqat o'qituvchi nazorat qilib turgandagina ishlayman.
11. Bu fanga taaluqli ma'lumotlarni bo'sh vaqtda (tanaffuzda, uyda) sinfdoshlarim (do'stlarim) bilan muhokama qilish menga qiziq tuyuladi.
12. Mazkur fandan topshirilgan vazifalarni mustaqil bajarishga harakat qilaman, kimdirning maslahat va yordam berib turishini yoqtirmayman.
13. Ushbu fanga tegishli topshiriqlarni boshqalardan kuchirib olishga harakat qilaman yoki kimdandir vazifani o'rnimga qilib berishni iltimos qilaman.
14. Bu fan bo'yicha beriladigan barcha bilimlar kerak deb hisoblayman, shuning uchun bu fandan imkoni boricha ko'proq narsa bilish kerak degan fikrdaman.
15. Mazkur fan bo'yicha qo'yiladigan baho menga bu fandan beriladigan bilimdan muhimroq.
16. Ushbu fandan o'tkaziladigan darsga yaxshi tayyorgarlik ko'rmagan bo'lsam, bundan unchalik qattiq xafa bo'lmayman.

17. Bu fan bilan shug'ullanish uchun men bo'sh vaqtimning ham katta qismini unga sarflayman.
18. Mazkur fanni qiyinchilik bilan o'zlashtiraman, shu fan bo'yicha beriladigan topshiriqlarni o'z – o'zimni majburlab bajaraman.
19. Ushbu fan bo'yicha o'tkaziladigan darsda kasallik yoki boshqa sabab bilan qatnasha olmasam, xafa bo'lishim mumkin.
20. Agar imkoniyatim bo'lganda, men bu fanni dars jadvali (o'quv rejasi) dan olib tashlagan bo'lardim.

Natijalarni qayta ishlash va baholash.

Natijalar quyidagi kalit yordamida qayta ishlanadi:
«to'g'ri», «to'g'ri, shekilli» - 1, 2, 5, 6, 8, 11, 12, 14, 17, 19.
«noto'g'ri», noto'g'ri shekilli» - 3, 4, 7, 9, 10, 13, 15, 16, 18, 20.

Kalitga mos kelgan har bir holat uchun 1 balldan qo'yiladi. Barcha ballar yig'indisi qanchalik katta bo'lsa, tegishli fanni o'rganishda ichki motivatsiya shunchalik baland bo'ladi. Ballar yig'indisi qanchalik kichik bo'lsa, ichki motivatsiya darajasi shunchalik sust bo'ladi. Umumiy natijalarni baholashda quyida keltirilgan me'yoriy ko'rsatkichlardan foydalanish mumkin:

0 – 10 ball – tashqi motivatsiya ustun;
11 – 20 ball – ichki motivatsiya ustun.

Ichki motivatsiya darajasini baholash uchun quyidagi me'yoriy ko'rsatkichlarga tayanish mumkin:
0 – 5 ball – ichki motivatsiya past darajada;
6 – 14 ball – ichki motivatsiya o'rta darajada;
15 – 20 ball – ichki motivatsiya yuqori darajada.

Eslatma: ilmiy tadqiqot o'tkazish maqsadida birlamchi («xomaki») natijalardan foydalanish tavsiya etiladi

Metodika manbasi: Dubovitskaya T.D. K probleme diagnostiki uchebnoy motivatsii. Voprosi psixologii. – 2005. – S 73 – 78



1-rasm.

MAYERS-BRIGGS TESTI TASNIFI:

Qisqa so'rovnomamizni topshirish natijasida sizda 4 ta harfli kombinatsiya vujudga keladi. Aynan u sizning shaxsingiz turini sizga aytib beradi. Xarflar rasshifrovkasini quyida keltiramiz. Agar o'qiganingizdan so'ng, ko'rsatilgan shaxsiyat sizga umuman mos kelmasligini his qilsangiz, ehtimol savollardan biriga javob berayotib, qanday javibni tanlashni bilmay qoldingizmi? O'sha savolga qaytib, to'g'riroq javobni tanlang — va siz yangi kombinatsiyani olasiz. Bu safar natija yaxshi bo'lishiga aminmiz.

MAYERS-BRIGGS TESTI JAVOBLARI:

ISTJ — INSPEKTOR

Ushbu turdagi shaxslar har narsada tartibni yaxshi ko'radilar va har qanday, hatto ahamiyatsiz masalalarni chuqur o'rganishga harakat qilishadi. Shu bilan birga, ular hech narsani ishonch bilan qabul qilmaydilar — har qanday ma'lumotni tahlil qiladilar, qo'shimcha ma'lumot to'playdilar. Ular har bir narsalarga real qaraydilar, shuning uchun ular boshlagan ishlarini oxiriga yetkazishlariga amin bo'lsalargina biron bir ishni boshlashadi. Siz bunday odamlarga ishonishingiz mumkin, ammo ular ish davomida qisqa aloqalarni afzal ko'rishadi.

ISFJ — HIMOYACHI

Ushbu turdagi odamlar yolg'onni va o'zlarini ko'rsatishni tezda anglab, atrofdagilarni «o'zimiznikilar» va «begonalar» ga aniq ajratib oladilar. «O'zlarini» odamlari uchun ular ko'p narsaga tayyor — va buning o'rniga hech qachon hech narsa so'ramaydilar. Ular har doim bu odamlar uchun turishlari mumkin, ammo o'zlarini ham himoya qila oladilar. Umuman olganda, bu odamlar kamdan-kam hollarda tajovuzkor bo'ladigan xushmuomalali «himoyachilar». Ular tahlil qilishni yaxshi ko'rishadi, tartibni yaxshi ko'rishadi (lekin fanatik emas) va atrofdagi odamlardan ilhom olishadi.

INFJ — MASLAHATCHI

Bunday odam — odamlar o'rtasidagi munosabatlarning haqiqiy sensori. U nafaqat boshqalarning kayfiyatini mukammal his qiladi, balki ularning yashirin iste'dodlarini osongina aniqlaydi. Shuning uchun u yaxshi o'qituvchi bo'lishi mumkin. Uni qo'llab-quvvatlashi hislatini ko'rgan boshqa insonlar, ko'pincha maslahat uchun ularga murojaat qilishadi. Biroq, tashqi xotirjamlik va donolikka qaramay, maslahatchilar himoyasiz bo'lib, tajovuzkorlik va (ayniqsa) muhabbat yetishmasligiga dosh berishlari qiyin.

INTJ — ILHOMLANTIRUVCHI

Ilhomlantiruvchi odamlar vaqtni behuda sarflashga odatlanmagan. Ular qo'llaridan kelgan barcha narsani — loyihalardan tortib to odamlarga qadar yaxshilashga intilishadi. Ushbu turdagi odamlar g'ayritabiiy g'oyalardan foydalanadilar, shuning uchun ko'pincha ularning urinishlari muvaffaqiyat bilan tugaydi. Shu bilan birga, ular har narsada mustaqillikni namoyish etishadi. Shu bilan ular iliq munosabatda bo'lgan atrofdagi odamlarni begonalashtiradilar.

ISTP — HUNARMAND

Bunday odamlar dunyoni tuyg'ulari orqali qabul qilishga odatlangan. Ular o'zlarining texnik tafakkurlari tufayli qo'llari bilan ishlashda juda yaxshi, shu bilan birga barcha belgilangan muddatlarga qat'iy rioya qilishadi. Ular har bir ishga bosh bilan sho'ng'ishga odatlanmaganlar — qaror qabul qilishdan oldin, ular uzoq vaqt kutib, hamma narsani tahlil qiladilar. Ushbu maxfiylik tufayli ularning so'nggi

harakatlari ko'pincha atrofdagilar uchun oldindan aytib bo'lmaydigan va g'alati tuyuladi.

ISFP — BASTAKOR

Ushbu turdagi odamlar dunyoni va boshqa odamlarni o'zgartirishga va qayta tiklashga urinmaydilar — ular o'zlaridan oldin yaratilgan narsalar bilan mukammal ravishda mavjud bo'la oladilar. Ular har qanday yo'l bilan nizoli vaziyatlardan qochishadi, boshqalarning ko'nglini ochishini yaxshi ko'radilar, agar ular kimgadir foydali bo'lib qolsalar, yordam berishlari va bundan zavqlanishlari mumkin. Bastakorlar bilan yashash zavq bag'ishlaydi: ular birovning makonini hurmat qilishadi, hech narsa talab qilmaydilar va sizni ijobiy to'lqinga soladilar.

INFP — TABIB

Tabiblar boshqa odamlarning psixologiyasini yaxshi bilishadi, ularni qanday his qilishni bilishadi. Atrofdagilar ongsiz ravishda ularga qo'llarini cho'zishadi, ammo ular bilan aloqa qulayligiga qaramay, bu turdagi odamlarning barcha fikrlari ichki tomonga yo'naltirilgan — chunki ular ichki totuvlikka intiladilar. Tabiblar ko'p vaqtni tashqi ko'rinishga bag'ishlashadi, ba'zida ular sodir bo'layotgan voqealar tuyg'usini yo'qotadilar va haddan tashqari uzoq vaqt davomida dam olishlari mumkin.

INTP — ME'MOR

Ushbu turdagi odamlar doimiy ravishda stress holatida bo'lishadi — hamma gap shundaki, ular keladigan ma'lumotlarning butun oqimini qayta ishlashga harakat qilishadi, uning doimiy ravishda ko'payib borishi sababli esa buni amalga oshirishning iloji yo'q. Shunday qilib, bu odamlar doimo banddirlar, hissiyotlarga vaqt sarflashni zarur deb hisoblamaydilar, lekin ular qulaylik va shinamlikni juda qadrlashadi (ular o'zlari yaxshi ko'rgan narsani — analitikani qila oladigan muhitni xush ko'radilar).

ESTP — TINIB — TINCHIMAS

Bu odamlar tug'ma jangchilar; maqsadlariga erishish uchun ular hatto jismoniy kuchga murojaat qilishlari mumkin. Bunday tipdagi odamlar shunchaki

bo'ysunishga dosh berolmaydilar, lekin ular qat'iy amal qiladigan aniq harakatlar rejasini tuzish qobiliyati tufayli yetakchi o'rin egallaydilar.

ESFP — BAJARUVCHI

Ushbu turdagi odamlar boshqalarning qobiliyatini ko'rishni yaxshi bilishadi, lekin ular ko'pincha ushbu ma'lumotni shaxsiy maqsadlari uchun ishlatishadi, xususan, zaif tomonlarga bosim o'tkazish va ularni boshqarish imkoniyatiga ega bo'lish uchun. Ular uchun boshqa odamlarning ko'z o'ngida ajoyib ko'rinish juda muhimdir; umuman olganda, ular uyg'un munosabatlarni o'rnatishga harakat qilishadi. Ular uzoq muddatli loyihalarni yoqtirmaydilar — ular shu yerda va hozir yashaydilar, shuning uchun darhol natijaga erishishni xohlaydilar.

ENFP — CHEMPION

Bunday odamlar muntazam faqat bir holatda turolmaydilar, ijodiy ishlar ular uchun juda yaxshi. Ham ekstrovert ham chuqur sezgir odamlar ekanligi tufayli ular yashiringan narsani boshqalarda ko'rishlari mumkin. Ular hayotdan chin dildan zavqlanishadi, hamma bilan hamjihatlikda yashashadi. O'zlarining qiziquvchanliklari tufayli intellektual rivojlangan bo'ladilar va boshqa odamlarni jalb qilishadi.

ENTP — IXTIROCHI

Ushbu shaxs turi to'liq o'z nomiga mos keladi — bu odamlar ixtirochi va qobiliyatli. Fikrlarni sintez qilish qobiliyati bilan ular noan'anaviy ish uslublaridan qo'rqmaydi va natijada hayotning ko'plab sohalarida va bilim sohalarida kashfiyotchi bo'lishadi. Ular oddiylikdan qo'rqadilar va doimo harakatda bo'ladilar, chunki ular doimo yangi yechimlarni izlaydilar.

ESTJ — ADMINISTRATOR

Bu odamlar biron bir joyda tartib o'rnatishni yoki o'z hukmini o'tkazishni juda hush ko'radilar. Biroq, ular diktator emaslar — ularni oddiy tartiblilik istagi boshqaradi. Ular o'yin-kulgi va hazil tuyg'usini ham hush ko'radilar va shovqinli kompaniyada ajoyib vaqt o'tkazadilar. Yaqinlarini unutmaydilar va qanday qilib muhabbat ko'rsatishni bilishadi. Shunga qaramay, ba'zida ular qattiq, qaysar va g'azabli

bo'lishlari mumkin — ayniqsa, ularning belgilangan tartibiga bo'ysunmaslik haqida gap ketganda.

ESFJ — O'QITUVCHI

Ushbu turdagi shaxslar har doim kompaniyaning ruhidir. Atrofdagilarning ko'nglini ko'tarish ularga hech qanday qiyinchilik tug'dirmaydi. Ular barcha bilan osonlikcha umumiy til topishadi va boshqalar uchun o'zlarini qanday qurbon qilishni bilishadi. Biroq, o'z ishlarida ular hech qachon yordam so'ramaydilar. Ular hamma narsaga o'zlari erishishga odatlangan, ularga kerak bo'lgan yagona narsa — yaqinlar vaqti-vaqti bilan ularning qadr-qimmatiga e'tibor berishlari.

ENFJ — MURABBIY

Juda hissiyotga berilgan, bunday odamlar atrofdagi haqiqatni hamdardlik darajasida tushunishga odatlangan — buni ular juda yaxshi bajaradilar. Ular faol yuz ifodalariga ega. Ularning muloqot uslubi tinglovchilarni o'ziga jalb qiladi. Ular turli voqealarni oldindan sezishadi, shu tufayli deyarli har qanday kutilmagan holatlarga tayyor bo'lishadi. Ular boshqa odamlarning insofsizligini yaxshi his qilishadi va doimo adolat uchun kurashadilar. Shu bilan birga, shaxsiy munosabatlarda ular ko'pincha ishonchsizlikni namoyon etishadi. Ular sherikning his-tuyg'ulariga shubha qilishadi va rashkchi bo'ladilar.

ENTJ — QO'MONDON

Ijobiy va ochiq fikr yuritadigan ixtirochilar, bu odamlar yangi tendentsiyalarga juda sezgir va xavf qilishdan qo'rqmaydi. Ular uchun hayot bu kurash, manfaatlarning to'qnashuvi va ekstrim — bu hissiyotlar spektri orqali boshqalarni va o'zlarini yaxshiroq bilish uchun. Ular o'z-ozini ortiqcha sevishdan aziyat chekishmaydi — ular o'zlarining kuchli va kuchsiz tomonlarini yetarlicha baholashni bilishadi, ular o'z jasorati tufayli boshqa odamlarni o'zlari bilan birga osongina olib yurishadi.

TEST

“Kasbiy pedagogika va psixologiya” fanidan test savollari (1-variant)

1. «Kasb pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi quyidagilarda namoyon bo‘ladi?

a) o‘z tadqiqot doirasiga mos ravishda kasbiy pedagogika boshqa fanlardan g‘oyalar, dalillar oladi va ularni qayta ishlaydi;

b) boshqa fanlarni kerakli pedagogik muammolar bilan ta’minlaydi;

d) tarbiyaning mohiyati boshqa fanlar yutuqlari hisobiga atroflicha yoritiladi;

s) olamning yaxlit manzarasini ifodalashda ko‘rinadi;

e) pedagogik voqelik to‘laroq aks ettiriladi.

2. Kasbiy ta’lim vazifalariga nimalar kiradi?

a) inson shaxsining rivojlanishi va tarbiya orasidagi qonuniy aloqalarni tadqiq qilish va uning negizida tarbiyaviy faoliyatning nazariy-metodik masalalarini ishlab chiqish;

b) kasbiy-texnik ta’limning yangi konsepsiyalarini amalga oshirish vosita va yo‘llarini yaratishga e’tiborni qaratish, faol, ijodkor shaxsni tarbiyalash;

d) o‘quvchilar bilimlarini chuqur egallashga yangicha yondoshuvlarni ishlab chiqish;

s) tarbiya qonuniyatlari va prinsiplarini o‘rganish;

e) ta’lim-tarbiyaning samarali metodlarini ishlab chiqish.

3. Kasb pedagogikaning falsafiy-metodologik asoslariga nimalar kiradi?

a) psixologik qonuniyatlar va prinsiplar;

b) pedagogik qonuniyatlar va prinsiplar;

d) falsafa qonunlari, bilish nazariyasi, shaxs nazariyasi, faoliyat nazariyasi, malakaviy pedagogika;

s) malakaviy o‘qitishda erishilgan yutuq va tajriba;

e) psixologik qonuniyatlar va prinsiplar.

4. Kasb pedagogika fanining predmetini aniqlang?

a) inson shaxsining rivojlanishi va tarbiya orasidagi qonuniy aloqalarni tadqiq qilish va uning negizida tarbiyaviy faoliyatining nazariy-metodik masalalarini ishlab chiqish;

b) o‘qituvchining kundalik, o‘quv va tarbiyaviy ishlariga, o‘qituvchi va o‘quvchi orasidagi o‘zaro munosabatga, ta’lim-tarbiya ishlarida o‘quvchining bilim, ko‘nikma va malakalariga bog‘liq;

d) o‘qitish qoununiyatlarini tadqiq qilish;

s) tarbiya qonuniyatlari va prinsiplarini o‘rganish;

e) konkret metodlardan va tashkiliy shakllardan samarali foydalanish.

5. Qaysi yosh davri insonni yetakchi kasbiy faoliyati uchun xizmat qiladi?

a) tug‘ilgandan 3 yoshgacha;

b) tug‘ilgandan 6 yoshgacha;

d) 6 yoshdan 10 yoshgacha;

s) 11 yoshdan 15 yoshgacha;

e) 15 yoshdan 17(18) yoshgacha.

6. Bo‘lajak pedagog egallaydigan bilimlar tarkibiga qaysilar kiradi?

a) pedagogning egallaydigan ish o‘rni;

b) pedagogning dunyoqarash sifati;

d) bo‘lajak mutaxassisning standart talablariga javob berishi;

s) ish o‘rnida qo‘llaydigan bilim, ko‘nikma va malakasi;

e) bo‘lajak pedagogning mutaxassis sifatida shakllanishi va ijodiy ish olib borishi;

7. Kasbiy pedagogikaning asosiy izlanish metodlarini toping?

a) nazariy, empirik, umumiy;

b) suhbat, kuzatish, test;

d) analiz, sintez, tajriba;

s) reyting va o‘z-o‘zini nazorat qilish;

e) hammasi to‘g‘ri.

8. Pedagogik jarayon modelini tashkil qiluvchi elementlarga nimalar kiradi?

a) pedagoglar, ota-onalar, o‘quvchilar, maqsad va vazifalar, mazmun, vositalar, shakllar, uslublar va usullar, topshiriqlar;

b) pedagoglar, ota-onalar;

d) ehtiyojlar, yo‘l-yo‘riqlar, motivlar, maqsad va vazifalar;

s) o‘quv-tarbiya jarayoni, o‘qituvchi, o‘quvchilar, maktab jamoasi, oila;

e) o‘qitish, tarbiya, maktab jamoasi, pedagog-o‘quvchi.

9. Ishchi mutaxassisni keng miqyosidagi ish modelini ko‘rsating?

a) ilg‘or ishchilarning mehnat faoliyati;
b) ishchi mutaxassisning ish qobiliyati;
d) prognostik va malakaviy;
s) ish jarayonida qo‘llaniladigan usul va metodlar;
e) texnik ijodkorligi.

10. Kasbiy ta’limda ishlab chiqarish davrlarini aniqlang?

a) boshlang‘ich, tayyorgarlik, kasbni o‘zlashtirish, nazorat qilish, yakunlash;
b) ta’lim oluvchilarning shaxsiy xususiyatlarini aniqlashi;
d) mehnat xavfsizligi qoidalarini o‘rganishi;
s) zamonaviy moslama va qurilmalardan foydalana bilishi;
e) ishlab chiqarishda ilg‘or metodlarni qo‘llashi.

11. Kasbiy ta’limning tamoyillari qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?

a) texnika va ilmni o‘qitish, zamonaviy ishlab chiqarish;
b) politexnik, amaliyot va nazariya, modellashtirish, mobillik, tartibli ketma-ketlik, atrof-muhitni tashkil etish;
d) o‘qitilayotgan fanni kelajakda amaliyotda qo‘llash;
s) kasbiy bilim berish;
e) nazariy bilimlarni amaliyotda sinash.

12. Kasb pedagogikada tarbiyaning bosh maqsadi nima?

a) o‘quvchi yoshlarda insoniy fazilatlarni tarkib toptirish;
b) har tomonlama yetuk, garmonik rivojlangan shaxsni shakllantirish;
d) shaxsda biron-bir kasbga doir ko‘nikmalarni shakllantirish;
s) shaxsni mustaqil hayotga, kasb-hunar egallashga tayyorlash;
e) shaxsning hayotiy intilishlari va ehtiyojlarini ro‘yobga chiqarish.

13. Berilgan javoblarning qaysisi tarbiyaviy jarayon bosqichlari qatoriga kirmaydi?

a) ma’lum bilimlar asosida shaxsning qandaydir sifatlariga ijobiy munosabatni shakllantirish;
b) ilmiy dunyoqarashni shakllantirish;
d) ma’lum shaxsiy sifatlar va ongli munosabatni shakllantirish;
s) shaxsiy sifatlar namoyon qilishga barqaror qarashlar va e’tiqodlarni shakllantirish;
e) barqaror xulq-atvor malakalarini shakllantirish.

14. Pedagogik texnologiyaning muhim belgisi ?

a) ta’lim jarayonini oldindan loyihalash;
b) o‘quv faoliyatini tasvirlaydigan loyihali tizim;
d) oydinlashtirilgan maqsadli, qaytarila oladigan samarali jarayon;
s) o‘zlashtirish jarayonini uzluksiz kuzatib, to‘g‘rilab borish.
e) ta’lim jarayonini qat’iy nazorat qilish.

15. Mehnat tarbiyasining mazmun va mohiyatini aniqlang?

a) mehnat tarbiyasi shaxsning har tomonlama rivojlantirishning ajralmas qismidir;

b) mehnat tarbiyasi shaxsning har tomonlama shakllanish vositasi, uning shaxs sifatida ulg‘ayish omilidir;

d) mehnat inson hayotining zaruriy shartidir;

s) mehnat ta’limi mehnat ma’lumoti berishning tarkibiy qismidir;

e) mehnat butun moddiy va ma’naviy boyliklarning ijtimoiy taraqqiyotning negizidir;

16. O‘qitish vositalari tizimini shakllantirish texnologiyasini ko‘rsating?

a) ko‘rgazmali va texnik vositalarni surunkali ko‘rinishini ta’minlash va ta’lim oluvchilarda ular bilan ishlash ko‘nikma va malakalarini oshirish;

b) o‘quv jarayonida asosiy zvenolarni qamrab olish;

d) ta’lim oluvchilarda o‘qitish vositalari bilan ishlash ko‘nikma va malakalarni oshirish;

s) ta’lim vositalari tizimini o‘quv majmuasida qo‘llash;

e) o‘quv jarayonida o‘qitish vositalarini belgilangan didaktik funksiyalarga qarab moslashtirish.

17. Texnologik xarita nima?

a) pedagogik bilimlarni amaliyotda qo‘llash

b) o‘tiladigan mavzularning rejalari

d) noan’anaviy darslarning rejalari

s) jarayonni bosqichma-bosqich usulda ifodalash, bunda maqbul vositalar ko‘rsatiladi;

e) o‘qituvchi va talabaning hamkorligi.

18. «Fikrlar hujumi» - bu qanday usul?

a) katta miqdordagi g‘oyalarni yig‘ish, talabalarni bir xil fikrlash enersiyasidan holi qilish,

b) ijodiy vazifalarini yechish jarayonida dastlab paydo bo‘lgan fikrlarni yechish, o‘tiladigan mavzularning rejalari;

d) yangi pedagogik texnologiyalarni o‘qitish jarayonida fikrlar majmuasida yetkazib berish noan’anaviy darslarning rejalari;

s) barcha javoblar to‘g‘ri.

19. Masofaviy o‘qitish an’anaviy o‘qitish shakllaridan qanday xususiyatlari bilan farqlanadi?

a) egiluv chanlik, modullik, qurshov, tejamkorlik, texnologiklik, baynalminallik, ijtimoiy teng huquqlik;

b) dastur bo‘yicha barcha mavzularni qamrab olish;

d) sun’iy intellekt tizimlari, axborot texnologiyalari;

s) texnik vositalardan foydalanish.

e) mablag‘ni tejash

20. Yangi axborot texnologiyalarining joriy etilishi bilan yuzaga keladigan muammolar?

a) texnik, dasturiy, tayyorgarlik;
b) sun'iy intellekt tizimlari;
d) telekonferensiyalar;
s) dasturlashgan ta'lim.
e) kompyuterlarni yetishmasligi

"Kasbiy pedagogika va psixologiya" fanidan test savollari (2-variant)

1. Pedagogik nazariyaning o'qituvchi kasbiy faoliyatidagi ahamiyati xususan shundaki?

a) o'qituvchi pedagogik tafakkurini shakllantiradi;
b) o'qituvchini kasbiy-metodologik bilimlar va ko'nikmalar bilan qurollantiradi;
d) o'qituvchini o'z fani bo'yicha maxsus bilimlar bilan qurollantiradi;
s) o'qituvchida tashkilotchilik qobiliyatlarini shakllantiradi;
e) o'qituvchida pedagogik qobiliyatlarini shakllantiradi.

2. Kasb pedagogikaning tarkibiy qismlarini belgilang?

a) o'quv-tarbiya jarayonining maqsadi, vazifalari, motivlari, mazmuni, vositalari, topshiriqlar;
b) alohida o'qitish jarayoni va tarbiyalash jarayonlari;
d) tarbiya va o'z-o'zini tarbiyalash jarayonlari;
s) o'qitish va o'quv-bilish jarayonlari;
e) tarbiya, o'z-o'zini tarbiyalash va qayta tarbiyalash jarayonlari.

3. Kasbiy ta'lim vazifalariga nimalar kiradi?

a) inson shaxsining rivojlanishi va tarbiya orasidagi qonuniy aloqalarni tadqiq qilish va uning negizida tarbiyaviy faoliyatning nazariy-metodik masalalarini ishlab chiqish;
b) kasbiy-texnik ta'limning yangi konsepsiyalarini amalga oshirish vosita va yo'llarini yaratishga e'tiborni qaratish, faol, ijodkor shaxsni tarbiyalash;
d) o'quvchilar bilimlarini chuqur egallashga yangicha yondoshuvlarni ishlab chiqish;
s) tarbiya qonuniyatlari va prinsiplarini o'rganish;
e) ta'lim-tarbiyaning samarali metodlarini ishlab chiqish.

4. Kasbiy ta'limning tamoyillari qaysi javobda to'g'ri berilgan?

a) texnika va ilmni o'qitish, zamonaviy ishlab chiqarish;
b) politexnik, amaliyot va nazariya, modellashtirish, mobillik, tartibli ketma-ketlik, atrof-muhitni tashkil etish;
d) o'qitilayotgan fanni kelajakda amaliyotda qo'llash;

s) kasbiy bilim berish;
e) nazariy bilimlarni amaliyotda sinash.

5. Kasb pedagogikada tarbiyaning bosh maqsadi nima?

a) o‘quvchi yoshlarda insoniy fazilatlarni tarkib toptirish;
b) har tomonlama yetuk, garmonik rivojlangan shaxsni shakllantirish;
d) shaxsda biron-bir kasbga doir ko‘nikmalarni shakllantirish;
s) shaxsni mustaqil hayotga, kasb-hunar egallashga tayyorlash;
e) shaxsning hayotiy intilishlari va ehtiyojlarini ro‘yobga chiqarish.

6. Kasb ta’limi o‘qituvchisi shaxsiga qo‘yiladigan talablarni aniqlang?

a) bilimlarni o‘quvchiga yetkaza bilishi, o‘z fanini yaxshi bilishi;
b) tashkilotchilik malakalarining mavjudligi, katta obro‘ga egalik, yuksak g‘oyaviylik va onglilik darajasining mavjudligi;
d) o‘qitish metodikasini mukammal egallashi, pedagogik tayyorgarligi;
s) o‘qitishga ijodiyyondoshuvi, bolalarga muhabbati;
e) o‘quvchilarni kasb-hunarga qiziqtira bilishi, mehnat ta’limini ilmiy asosda tashkil etishi, pedagogik mahorati va o‘z fanini yaxshi bilishi.

7. Pedagogik texnologiyaga berilgan to‘g‘ri ta’rifni toping?

a) pedagogik texnologiya – bu o‘qituvchi amaliyotga joriy etishi mumkin bo‘lgan pedagogik tizim loyihasidir;
b) pedagogik texnologiya – bu o‘qituvchining ta’lim-tarbiya vositalari yordamida o‘quvchilarga muayyan sharoitda va ma’lum ketma-ketlikda ta’sir ko‘rsatishidir;
d) pedagogik texnologiya – bu ta’lim shakllarini optimallashtirish maqsadida texnik vositalar, inson salohiyati hamda ularning o‘zaro ta’sirini inobatga olib o‘qitishdir;
s) pedagogik texnologiya – o‘quv jarayonini harakatlantiruvchi kuch yoki oldindan belgilab qo‘yilgan aniq maqsad yo‘lidan o‘qituvchining kasbiy faoliyatini yangilovchi va ta’limda yakuniy natijani kafolatlaydigan tadbirlar majmuasi;
e) hammasi to‘g‘ri.

8. Hozirgi zamon o‘quv vositalarini aniqlang?

a) moddiy o‘qitish vositalari;
b) tabiiy obektlar;
d) EHM vositalari;
s) natural obektlar, o‘quv modellari, mulyajlar, maketlar, grafiklar, chizmalar, diagramma, tovushli o‘qitish vositalari;
e) universal texnik vositalar.

9. Kasbiy tarbiya jarayonining asosiy qonuniyatlariga taalluqli emas?

a) kasbiy tarbiyaning ijtimoiy ehtiyojlar va sharoitlar bilan aniqlanishi;
b) kasbiy tarbiyada tarbiyalanuvchilarning ijobiy sifatlariga tayanish;
d) kasbiy tarbiyada ta’lim, kasb-hunar egallash va shaxsning rivojlanish jarayonlarining birligi va o‘zaro bog‘liqligi;
s) kasbiy tarbiya jarayonida jamoa va shaxsning o‘zaro aloqadorligi;

e) kasbiy tarbiyada o‘zaro tarbiyaviy ta’sir va tarbiyalanuvchilar shaxsiy faolligining qonuniy bog‘liqligi.

10. Virtual stend nima?

a) virtual stend – maktablar, kollejlar, litseylarda joriy etilgan ko‘rgazma qurollari;

b) virtual stend – o‘quv amaliy stendi yoki o‘quv malaka ustaxonasi bo‘lib, talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlashga kompyuter dastur va texnologiyalari orqali ma’lum yo‘nalishda ko‘nikmalarni hosil qilishga yordam beradi;

d) virtual stend – talabaning shaxsiy o‘quv anjomi;

s) barcha javoblar to‘g‘ri.

e) o‘quv malaka ustaxonalarida talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlashga qaratilgan ko‘rgazmalar

11. O‘quvchilarda mehnat madaniyatini shakllantirishdagi asosiy omillarni ko‘rsating?

a) bilim, ko‘nikmalarni takomillashtirish, yangiliklar ixtiro qilish;

b) o‘qish va ish burchiga vijdonan qarash;

d) o‘rtoqlari orasida obro‘ va e’tibor qozonish;

s) o‘quv yurti, korxona ehtiyojlarini shaxsiy ish deb hisoblash;

e) shaxsiy qiziqishga e’tibor berish.

12. Noan’anaviy darslarning ahamiyati?

a) o‘qituvchining bilish faoliyatini o‘stiradi;

b) darslarni qiziqarli, samarali bo‘lishini ta’minlaydi;

d) talabalarni shu fanga bo‘lgan qiziqishini orttiradi;

s) barcha javoblar to‘g‘ri.

e) talabalarning ijodkorligini oshiradi

13. “Ta’lim texnologiyasi” tushunchasi nimalarni ifodalaydi?

a) ta’lim-tarbiyaning maqsadi va mazmuni;

b) o‘quv jarayoni, loyiha, ta’lim texnologiyalari, vosita va shakllar;

d) ta’lim – tarbiyaning usul va shakllari;

s) a va b javoblar to‘g‘ri.

e) to‘g‘ri javob yo‘q.

14. Ta’lim vazifalariga nimalar kiradi?

a) inson shaxsining rivojlanishi va tarbiya orasidagi qonuniy aloqalarni tadqiq qilish va uning negizida tarbiyaviy faoliyatning nazariy-metodik masalalarini ishlab chiqish;

b) kasbiy-texnik ta’limning yangi konsepsiyalarini amalga oshirish vosita va yo‘llarini yaratishga e’tiborni qaratish, faol, ijodkor shaxsni tarbiyalash;

d) talabalar bilimlarini chuqur egallashga yangicha yondoshuvlarni ishlab chiqish;

s) tarbiya qonuniyatlari va prinsiplarini o‘rganish;

e) ta’lim-tarbiyaning samarali metodlarini ishlab chiqish.

15. Pedagogikaning tarkibiy qismlarini belgilang?

a) o‘quv-tarbiya jarayonining maqsadi, vazifalari, motivlari, mazmuni, vositalari, topshiriqlar;
b) alohida o‘qitish jarayoni va tarbiyalash jarayonlari;
d) tarbiya va o‘z-o‘zini tarbiyalash jarayonlari;
s) o‘qitish va o‘quv-bilish jarayonlari;
e) tarbiya, o‘z-o‘zini tarbiyalash va qayta tarbiyalash jarayonlari.

16. Masofaviy o‘qitish an’anaviy o‘qitish shakllaridan qanday xususiyatlari bilan farqlanadi?

a) egiluv chanlik, modullik, qurshov, tejamkorlik, texnologiklik, baynalminallik, ijtimoiy teng huquqlik;
b) dastur bo‘yicha barcha mavzularni qamrab olish;
d) sun’iy intellekt tizimlari, axborot texnologiyalari;
s) texnik vositalardan foydalanish.
e) mablag‘ni tejash

17. Yangi axborot texnologiyalarining joriy etilishi bilan yuzaga keladigan muammolar?

a) texnik, dasturiy, tayyorgarlik;
b) sun’iy intellekt tizimlari;
d) telekonferensiyalar;
s) dasturlashgan ta’lim.
e) kompyuterlarni yetishmasligi

18. Talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning asosiy tamoyillari?

a) barcha talabalarni jalb etish;
b) dastur bo‘yicha barcha mavzularni qamrab olish;
d) talabalarga adolatli yondashish;
s) talabalarga tabaqali yondoshish;
e) hammasi to‘g‘ri.

19. Interfaol dars o‘tish uslublariga quyidagilardan qaysi birlarini kiritish mumkin?

a) savol-javob, darsni suhbat tarzida olib borish, to‘g‘ridan-to‘g‘ri bayon qilish;
b) aqliy hujum, klaster, bumerang, sinkveyn;
d) referat, ma’ruza, masala, test;
s) esse yozish, test yechish;
e) b va g to‘g‘ri.

20. Pedagogik texnologiyaning qanday darajalari bor?

a) universal;
b) yalpi;
d) umumiy, maxsus, lokal;
s) modullik.
e) xech qanday darajalari yo‘q

Talaba bilimini baholash

Nazorat turi	1-OB	2-OB	YaB
O'tkazilish vaqti	8- hafta	16-hafta	17-18 hafta
Nazorat shakli	Yozma*	Yozma*	Yozma*

Oraliq baholash: fanning ma'ruza qismiga tegishli teng yarmi o'tib bo'lingandan so'ng so'ng OB olinadi. Bunda o'tilgan mavzularga doir 3 ta nazariy yozma savollari varianti tarqatiladi. Oldindan tuzilgan 3 ta yozma variantlarini to'la echgan talabaga xar bir to'g'ri javob uchun maksimal 5 baho beriladi.

Yakuniy baholash o'tilgan barcha mavzular bo'yicha tuzilgan variantlari asosida o'tkaziladi. Bunda xar bir talabaga semestr davomida o'tilgan mavzular bo'yicha 3 ta nazariy va 1 tadan laboratoriya ishi bo'yicha og'zaki savol variantlari tarqatiladi. Talaba og'zaki javobning xar biridan maksimal 5 baho to'plash imkoniyatiga ega. Umumiy baxo o'rtacha arifmetika asosida chiqariladi.

**1.1.1..1.1 ***Izoh. Nazoratlardagi har bir savol va topshiriqlar quyidagi baholash mezonlari bo'yicha baholanadi.

Talabalar bilimini baholash mezonlari

a) **"5" (a'lo)** baho uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- Hulosa va qaror qabul qilish;
- Ijodiy fikrlay olish;
- Mustaqil mushohada yurita olish;
- Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish;
- Mohiyatini tushunish;
- Bilish, aytib berish;
- Tasavvurga ega bo'lish;

b)**"4" (yaxshi)** baho uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim: • Mustaqil mushohada yurita olish;

- Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish;
- Mohiyatini tushunish;
- Bilish, aytib berish;
- Tasavvurga ega bo'lish;

v) **"3" (qoniqarli)** baho uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- Mohiyatini tushunish;
- Bilish, aytib berish;
- Tasavvurga ega bo'lish;

g) talabaning bilim darajasi **"2" (qoniqarsi**z) deb quyidagi hollarda baholanadi:

- Aniq tasavvurga ega bo'lmaslik;
- Javoblarda xatoliklarga yo'l qo'yilganlik;
- Bilmaslik